




E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 4, may

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvoohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'ZR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES ***
ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ

Rahmonova Ch.F., Niyozova Sh.A., Zokirov B.U., Ashirov O.N., Hasanov Sh.Sh., Abduraxmanov J.M.	Mahalliy sharoitlarda an'anaviy usullarda tayyorlangan sut-qatiq mahsulotlarini mikrobiologik tadqiq qilish	4
Imomova Sh.M., Rahmonqulova Z.B.	Funksiyalarni Mathcad muhitida sonli integrallash	9
Jumaev J.J., Atoev D.D.	Investigation of the integro-differential equation of parabolic type with nonlocal condition	15
Muxtarov Y., Xudoyberdiyev S.S.	Chiziqli bir jinsli tenglamalarni yechishda darajali qatorlarni qo'llash	20
Nuriddinov J.Z., Xasanova M.A., Qarshiboyeva Sh.Q.	O'zgaruvchan koeffitsiyentli parabolik tipdagi integro-differensial tenglama yadrosining yagonaligi to'g'risida	24
Muxtarov Y., O'roqov N.O'., Primov T.I.	Chiziqli differensial tenglamalarni yechishda operator usulini qo'llash	33
Quldoshova M.J., Rahmonov E.S.	Iqtisodiy jarayonlarning eng sodda matematik modellarini axborot texnologiyalarini qo'llash orqali tuzish	37
Rahmatov S.E., Quronboyev D.D.	Issiqlik almashish jarayonini boshqarish masalasi	40
Rahmonov E.S., Jamolov Sh.J.	The cross section of recoil emission process of Ag(110) crystal	44
Tolipov N.I.	Birinchi skalyar ko'paytmaga ko'ra ortogonal aks ettirishlar $O(1,Y)$ gruppasi	50
Мухаммадиева Д.К., Муродиллоева З.Х.	Doira tashqarisida to'rtinchi tartibli elliptik tipdagi differensial tenglama uchun qo'yilgan ichki - chegaraviy masala	54
Tursunov A.R., Axmedov A.A., Toshboboyev Sh.M.	Применение свёрточных нейронных сетей для диагностирования рака лёгких на ранних стадиях	61
Turapova A.U.	Yurqa plyonkalar strukturasi tahlil qilish	67
Дурдиев Д.К., Турдиев Х.Х., Тошев Д.А.	Ikki o'lchamli panjarada lokal bo'lmagan Shredinger operatorining xos qiymati uchun asimptotik yoyilmalar	72
Raximova S.M., Suvonova S.A.	Решение задачи типа Коши-Гурса для уравнения гиперболического типа	89
	Maydon tranzistoriga optik signallar ta'sirini o'rganish	96

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Абузалова М.К., Юсупова А.Ш.	О некоторых моделях семантико-синтаксических групп лексем в тюркских языках	101
Юсупова А.Ш., Юлдашева Д.Н., Чуллиева Г.Т.	О невербальных средствах речи	108
Ахмедов А.Р.	Pretsedent birliklar	115
G'aybullayeva N.I.	Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida	119
Hayotova D.Z.	"Vatan" konseptining lingvokulturologik talqini (nemis va o'zbek tillari misolida)	124
Hojiyeva N.H.	O'zbek tilida meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining o'ziga xos xususiyatlari	129
Hojiyeva S.H.	Zulfiya Mo'minova she'riyatida milliy-madaniy xususiyatlarning leksik-poetik ifodasi	134
Husainova X.K.	Nemis va o'zbek tilshunosligida inkor kategoriyasining tasnifi	144
Khusenova M.U.	Lexicographic analysis of orphoepic terms	149
Maksudova M.U.	Types of multiculturalism. Cliches and stereotypes of a society and culture of diversity	153
Yokubova Sh.Y.	[Belgi-harakat] ma'noli fe'lli birikmalarning nutqiy imkoniyatlari xususida	158
Mehmonova Y.Ch.	Semasiologik lug'atlarda etnomadaniy so'z birikmalarining tavsifi	163
Norova M.F.	Literary and stylistic norms in speech	169
Rustamov I.T.	The role of folklore genres in language learning	173
Markova Y.S., Ruziyeva N.X.	Politeness as a subject of linguistic research	180
Murtazayev A.O.	Normativ-huquqiy hujjatlarda imlo qoidalari: muammo, sabab va yechim	185
Sobirova Z.R.	Euphemisms in English, Russian and Uzbek languages in the vocabulary of the limited sphere of consumption	191
Sobirova Z.R., Raxmonova M.Q.	Grammatical competences in the process of studying of language teaching applications in Uzbekistan	196
Saidova M.U., To'xtayeva M.O.	O'zbek va ingliz tilida ko'chirma nutq talqini	201
Yunusova M.Sh.	Shifokor kasbiy muloqotida tibbiy so'z va uning o'rni	207
Yunusova A.A.	Lisoniy shaxs nazariyasi va diskurs mohiyatiga zamonaviy yondashuvlar	214
Саидова М.Р., Авезова Д.С., Петрова Н.Е.	О конструкциях чужой речи	219
Гафуров Б.З.	Текст медицинской рекламы как акт вербальной и невербальной коммуникации	224
Джураева З.Р.	Отражение стереотипов русского этноса в паремиологических дискурсах	229

ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Muxidova G.S.	Pragmatic analysis of textual styles	234
Kilicheva M.R.	Interpretation of dreams in “Jane Eyre” and “Wide Sargasso Sea”	239
Qudratova S.O.	The depiction of women’s role in the story “The revolt of mother” by Mary Eleanor Wilkins Freeman	243
Tilakova Z.T.	XX asr Amerika adabiyotida roman janri tadriji	248
Xaitov X.A.	Zamonaviy o‘zbek nasrida xalq maydon kulgisi ifodalari	253
Бегматова Р.Ф.	Нутқда кооперацияни таъминлашда самимийлик ва ишонч стратегиясининг қўлланилиши	259
Бозорова В.М.	Обзор литературы в жанре иронии в риторике и теории литературы	264
Гудзина В.А.	Ретрансляция гендерных установок в поэтическом дискурсе Анны Ахматовой	270
Муртазаева Ф.Р.	Своеобразие приёмов и форм раскрытия психологизма в женской прозе Л. Петрушевской и Л. Улицкой	275
Норқўчқоров Ш.Ш.	Таъсири мутақобилаи арӯзи арабу ачам дар “Меъёр-ул-ашъор”-и Насируддини Тўсӣ	280
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Ражабова М.Б., Нематуллаева М.Х.	Нодира “Девон”и нашрларига доир мулоҳазалар	285
Oripov J.R.	“Yusuf va Zulayho” dostoni Hazora nusxasi haqidagi dastlabki kuzatishlar	290
“NAVOIY GULSHANI”		
Bekova N.J.	Navoiyning tatabbunavislik mahoratiga doir (Jomiy g‘azaliga tatabbusi misolida)	296
TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY		
Rahmatulloev M.X.	Buxoro viloyatida ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish	298
“QUTLOV”		
Rashidova Sayyoraga bag‘ishlanadi	Taniqli fan va davlat arbobi, O‘zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti direktori, akademik Sayyora Rashidova 80 yoshda	302

MAHALLIY SHAROITLARDI AN'ANAVIY USULLARDA TAYYORLANGAN SUT-QATIQ MAHSULOTLARINI MIKROBIOLOGIK TADQIQ QILISH

Rahmonova Charos Fazliddin qizi
Toshkent kimyo-texnologiya institutining
Shahrisabz filiali assistenti
Niyozova Shahlo Abdusaitovna,
Toshkent kimyo-texnologiya institutining
Shahrisabz filiali assistenti
Zokirov Bekzod Ulashevich,
Toshkent kimyo-texnologiya institutining
Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi
Ashirov Oybek Norboy o'g'li,
S.Yu.Yunusov nomidagi O'simlik moddalari
kimyosi instituti, biologiya fanlari nomzodi
(PhD) katta ilmiy xodimi
Hasanov Shuhrat Shavkatovich,
S.Yu.Yunusov nomidagi O'simlik moddalari
kimyosi instituti, biologiya fanlari nomzodi
(PhD) katta ilmiy xodimi
Abduraxmanov Jaloliddin Mirdjamilevich
S.Yu.Yunusov nomidagi O'simlik moddalari
kimyosi instituti, kimyo fanlari nomzodi
(PhD) katta ilmiy xodimi
sh.sh.hasaonov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Kitob tumanlarining tog'li hududlarida hamda Qamashi tumaning tekislik hududlarida mahalliy aholi tomonidan tayyorlangan sut va qatiq mahsulotlari tarkibini mikrobiologik tadqiq qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotlar davomida bir qancha biokimyoviy (nukleotidlarni sekvenirlash, PZR) hamda seleksiya usullaridan foydalangan holda mahalliy sharoitlarda tayyorlangan qatiq va sut tarkibida asosan *Lactobacillus delbrueckii* (*L. bulgaricus*) va oz miqdorlarda *L. acidophilus* va *S. lactis* (*Streptococcus lactis*) kabi mikroorganizmlar borligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *Lactobacillus delbrueckii* (*Lactobacillus bulgaricus*), *L. bulgaricus*, *L. acidophilus*, *Sac. Lactis*, MRS-medium, Rogosamedium,

МИКРОБИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КИСЛОМОЛОЧНЫХ ПРОДУКТОВ, ПРИГОТОВЛЕННЫХ ТРАДИЦИОННЫМИ СПОСОБАМИ В МЕСТНЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация: Данная статья посвящена микробиологическому изучению состава кисломолочных продуктов, приготовленных местными жителями в горных районах Шахрисабзского и Китабского районов и в равнинных регионах Камашинского района Кашкадарьинской области. В ходе исследования было установлено, что с применением ряда биохимических (нуклеотидное секвенирование, ПЦР) и селекционных методов кефир и молоко, приготовленные в местных условиях, содержали такие микроорганизмы, как *Lactobacillus delbrueckii* (*L. bulgaricus*) и небольшое количество *L. acidophilus* и *S. Lactis* (*Streptococcus lactis*).

Ключевые слова: *Lactobacillus delbrueckii* (*Lactobacillus bulgaricus*), *L. bulgaricus*, *L. acidophilus*, *Sac. Лактис*, MRS-медиум, Рогосамедиум,

MICROBIOLOGICAL STUDY OF MILK YOGURT PRODUCTS PREPARED BY TRADITIONAL METHODS IN LOCAL CONDITIONS

Abstract: This article is dedicated to the microbiological study of the composition of dairy and kefir products prepared by local residents in the mountainous regions of the Shahrisabz and Kitab districts and in the flat regions of Qamashi district of Kashkadarya region. During the study, it was found that using a

number of biochemical (nucleotide sequencing, PCR) and selection methods, locally prepared kefir and milk contained microorganisms such as *Lactobacillus delbrueckii* (*L. bulgaricus*) and a small amount of *L. acidophilus* and *S. lactis* (*Streptococcus lactis*).

Key words: *Lactobacillus delbrueckii* (*Lactobacillus bulgaricus*), *L. bulgaricus*, *L. acidophilus*, *Sac. Lactis*, MRS-medium, Rogosamedium,

Kirish. Sut va sut mahsulotlari mikroorganizmlar uchun juda yaxshi oziq-ovqat substrati hisoblanadi, unda 88% suv, oqsil 2-5%, kazeinning o'rtacha miqdori 2,7% ni tashkil qiladi [1]. Sut mahsulotlari inson hayot faoliyati uchun qimmatbaho asosiy manbadir, ular bilan sog'lom inson organizmiga kerakli hamma komponentlar kiradi. Hozirgi kunda ko'plab oziq-ovqat mahsulotlariga andozalar ishlab chiqarilgan, ular u yoki bu oziq-ovqat mahsulotlarida mikroorganizmlarning hujayralari qancha miqdorda bo'lishi mumkinligini belgilaydi. Xom sut tarkibidagi saprofit mikroorganizmlarning miqdori sut ishlab chiqarishdagi gigiyena darajasini belgilaydi, ya'ni sog'ish uskunalarining tozalik darajasi, uni saqlash va tashish shart-sharoitlari va boshqalarda sutni ifloslantiruvchi omillar quyidagilardir: sigir sutining 1 litrida 1000 yoki 10000 dona hujayra), sog'ish uskunalarini iflosligiga, sisternalar, sut o'tkazuvchi naylarga va h.k.larga bog'liqdir. Zardobli oqsil uncha ko'p bo'lmagan miqdorda uchraydi; albumin – 0,4%, globulin – 0,2 %. Sutning tarkibida aminokislotalar, aminlar, amidlar va boshqa birikmalar uchraydi, ular mikroorganizmlar uchun N (azot) ushlovchi manba bo'lib xizmat qiladilar. Sutda sharchalar ko'rinishidagi sut yog'lari bo'ladi. Uning miqdori 2,8-6% gacha yetadi. Sutda shuningdek, laktoza ham uchraydi (4,7% gacha) [2-3].

Mashina usulida olingan sutda mikrokokklar ko'p bo'lib, kam miqdorda sut kislotasi bakteriyalari, achitqilar, mog'or zamburug'larining sporalari uchraydi. Shuningdek, sut tarkibida dizenteriya qo'zg'atuvchisi, terlama, brusellez, sil va boshqa yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar ham uchraydi. Oziq-ovqatdan zaharlanishni qo'zg'atuvchilari-oltinrang stafilokokk, salmonellalar bo'lishi ham mumkin. Sutni saqlash davrida mikroflora tarkibi (oltinrang stafilokokki, salmonellalar) o'zgaradi va u sutni saqlanish davomiyligi hamda, saqlanish haroratiga bog'liqdir [4-5].

Mikroflora tarkibining o'zgarishi bir necha bosqichda amalga oshadi.

Birinchi bosqich sutning bakteriyasid fazasi deb nomlanadi. Sutning bakteriyasid bosqichi – bu sutga tushgan mikroorganizmlarning ko'payishiga ulgurmagandir. Bakteriyasid bosqichi tugashi bilan sutda mikroorganizmlar rivojlanib uning tarkibini buzadi. Bakteriyasid bosqich davomiyligiga sutni saqlash harorati qattiq ta'sir qiladi.

1-jadval

Sutdagi bakteriyasid bosqichining davomiyligi						
Saqlash harorati (°C)	37	30	25	10	5	0
Bakteriyasid bosqich (soat)	2	3	6	24	36	48

Sutdagi bakteriyalarning dastlabki miqdorini ko'payishi, ya'ni mikroorganizmlar sonini bir necha minglab marta ortishi, bir xil haroratda bakteriyasidlik bosqichining davomiyligini 2 barobarga kamaytiradi. Demak, yaxshi sifatli sut olishning 2 xil yo'li bor: toza bakteriyasid sut olish va uni tezda sovutish.

Ikkinchi bosqich – aralash mikroflora bosqichi bo'lib sutda mikroorganizmlarning faol ko'payishi bilan xarakterlanadi. 1-2 sutka davomida 1 ml sutda bakteriyalar bir necha mingdan, 10^7 gacha o'sadi. Aralash mikroflora bosqichida hammasidan ham ko'prok ichak tayoqchalari bakteriyalari uchraydi. Bosqich oxirida sut kislotasi streptokokklarining soni ortadi, ular qolgan mikroorganizmlar guruhlarini ustidan hukmronlik qiladi, sut kislotaliligini o'sishi kuzatiladi va bu sut kislotasi bakteriyalari bosqichining boshlanish davri bilan xarakterlanadi.

Uchinchi bosqich. Sut kislotasi bakteriyalari bosqichi. Bu faza sutni saqlashda, 10^0 C dan yuqori bo'lmagan haroratda kuzatiladi. Bosqichning boshlanishi sutning kislotaliligi oshishi va undagi streptokokklar umumiy bakteriyalar miqdorining 50% ni tashkil etilishi bilan xarakterlanadi.

To'rtinchi bosqich – achitqilar va mog'or zamburug'larining rivojlanish bosqichi oxirgi bosqich hisoblanadi va bunda sutning to'liq minerallanishi kuzatiladi. Bu bosqich asta-sekin, bir necha hafta davomida davom etadi. Qatiqning yuzasida avval *Qidium lactis*, mikoderma rivojlanadi. Mog'orlar sut oqsilini parchalaydi, parchalangan mahsulotlar ishqoriy muhitni hosil qiladi. Mog'or va achitqilar ta'siri ostida sut nordonlashadi, peptonizatsiya va sutda achitqilar va mog'or xidlarini hosil qiladi [6-7].

Yuqoridagi ma'lumotlar barchasi bugungi kundagi sut va sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonida mikrobiologik buzilishlarga yo'l qo'ymaslik uchun qat'iy nazorat ostida bajariladi. Lekin bizga ma'lumki mahalliy sharoitlarda ayniqsa qishloq joylarida aholini o'zi mustaqil ravishda sut va sut mahsulotlarini tayyorlashadi. Aynan biz tadqiqotimizda mahalliy sharoitlarda ananaviy usullarda

EXACT AND NATURAL SCIENCES

tayyorlangan sut qatiq mahsulotlarini mikrobiologik tadqiq qilishni maqsad qildik. Buning uchun Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Kitob tumanlarining tog'li hududlaridan hamda Qamashi tumanining tekislik hududlarida mahalliy aholi tomonidan tayyorlangan sut va qatiq mahsulotlaridan foydalandik.

Tadqiqot usullari: Biotexnologik va mikrobiologik jarayonlarga asoslangan tadqiqotlarda ozuqa muhitlari muhim rol o'ynaydi. Ozuqa muhitlarining tog'ri tanlanishi tadqiqotlarning samarali natijalarini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Mahalliy sharoitda tayyorlangan sut va qatiq mahsulotlaridan mikroorganizmlarni ajratib olish va o'stirishda quyidagi ozuqa muhitidan foydalanildi:

Saburo ozuqa muhiti: glukoza - 40; pepton – 10; agar – 20; distillangan suv – 1000 ml

Glikoza-ammoniyli ozuqa muhiti: glukoza – 20; (NH₄)₂SO₄ – 5; KH₂PO₄ – 0,85; K₂HPO₄ – 0,85; MgSO₄*7H₂O – 0,5; NaCl – 0,1; CaCl₂ * 4H₂O – 0,4; distillangan suv – 1000 ml.

Tanlangan namunalarning pepton bo'yicha turli konsentratsiyali *Rogosamedium* ozuqa muhitida o'sish tezligi

2-jadval

Variantlar	Takrorlanish	Kunlar				
		1	2	3	4	5
<i>Rogosamedium</i> 1%	I	+	*	***	****	****
	II	+	*	***	****	****
	III	-	*	***	****	****
<i>Rogosamedium</i> 5%	I	-	+	+*	+*+	+*+
	II	-	+	++	++*	++*
	III	-	+	++	+++	+++
<i>Rogosamedium</i> 10%	I	-	+	+*	+*+	+*+
	II	-	+	++	+++	+++
	III	+	+	+*	+*+	+*+
Peptonsiz (nazorat)	I	-	-	+	+	+
	II	-	-	-	-	+
	III	-	-	-	-	-

+ - mayda koloniyalar; * -yirik koloniyalar

2 - jadvaldan ko'rinib turibdiki, *Rogosamedium* ozuqa muhitining pepton bo'yicha turli konsentratsiyali variantlarida mikroorganizmlar o'sib koloniya hosil qiladi. Lekin boshqa variantlarga nisbatan 1 % li ozuqa muhitlarda kulturalarining hosil bo'lish tezligi va koloniyalarning yirik bo'lishi kuzatildi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqqan holda turli hududlardan olib kelingan namunalarni o'stirishda 1 % li *Rogosamedium* ozuqa muhitidan foydalanib, ularning o'sish tezligini aniqladik. Tajribalar har bir hudud bo'yicha 3 ta takrorlash asosida olib borildi (tajriba natijalari 3.2-jadvalda keltirilgan).

Turli hududlardan olingan achitqi namunalarning ozuqa muhitida o'sish tezligi (1% li *Rogosamedium* ozuqa muhiti)

3-jadval

Variantlar	Izolyatlar	Kunlar				
		1	2	3	4	5
Kitob tumani	K1	-	+	+*	**	***
	K2	-	+	+*	**	***
	K3	-	+	**	***	***
Shahrisabz tumani	Sh1	+	++	**	****	****


EXACT AND NATURAL SCIENCES

	Sh2	+	++	**	***	****
	Sh3	-	++	**	****	****
Qamashi tumani	Q1	+	+	+*	**	****
	Q2	-	+	+*	**	****
	Q3	-	+	+*	***	****

+ - mayda koloniyalar; * -yirik koloniyalar


3-jadvaldan ko`rinib turibdiki, sut va qatiq tarkibidagi mikroorganizmlar hududlar bo`yicha 1 % li *Rogosamedium* ozuqa muhitida o`sib, koloniyalar hosil qildi. Lekin bu namunalar ichida K3, Sh3 va Q3 izolyatlarida mikroorganizmlar nisbatan tez (2-kun) va ko`p koloniyalar berish imkoniyatiga ega ekanligini ko`rishimiz mumkin.

Undan tashqari keyingi bosqichlarda selektiv muhit sifatida MRS-medium (Ph-5,7) hamda Saburo (pH-6,2) dan foydalanildi. Inkubatsiya vaqti 48 soat davom etdi. Keyingi bosqichlarda ozuqa muhitlari M 17 medium (streptokokklar uchun), BRIGGS or RCM medium hamda TPPY medium qo`llanildi.



1 – rasm. Mahalliy sharoitda sut tarkibidagi mikroorganizmlarni sellaksiyasi

Biz birinchi bosqichda keltirilgan sut namunasidan 50 mkl dan olib ikki xil suyuq ozuqa muhitiga ekdik va 12 soat 35⁰ C inkubatsiya qilindi. Keyingi bosqichlarda har xil selleksiyali qatiq ozuqa muhitlarga ekilib bosqichli tajribalar olib borildi. Oxirida faqat bir turdagi bakteriya o`sib chiqdi. Biz o`sib chiqqan bakteriya shtamini aniqlash usullarini olib bordik.



2 – rasm. Mahalliy sharoitda tayyorlangan qatiq tarkibidagi mikroorganizmlarning sellaksiyasi

Bu yerda ham sutni selleksiya qilganimizdek bir xil tadqiqotlarni olib bordik. Biz o`sib chiqqan mikroorganizm shtamini aniqlashni keyingi tadqiqotlarimiz uchun maqsad qildik.

Natijalar va uning muhokamasi. Avvalambor, sutni toza holda saqlash uchun u dastlab 3-5⁰C gacha sovutiladi. Sutni saqlash muddatini o`zgartirish uchun u pasterizasiya va sterilizasiya qilinadi.

Qatiq-sut mahsulotlari ishlab chiqarish uchun mikroorganizmlarning har xil shtammlaridan tuzilgan, ba`zan esa bir necha turdan tomizg`ilardan foydalaniladi. Bunday tomizg`ilar har xil muhitga chidamlidir va yaxshi sifatli mahsulot olish imkoniyatini beradi. Mahalliy sharoit tayyorlanayotgan qatiq va boshqa turdagi sut mahsulotlari uchun sof mikroorganizmlar kulturasidan, foydalaniladi. Ishlab chiqarish sharoitlariga ko`ra tomizg`i mikroflorasi odatda mikroflora mavjud bo`lgan sutning qoldiq mikrofloralari turli salbiy

jarayonlarni chiqarishi mumkin va tayyor mahsulotni buzadi. Qo'llaniladigan tomizg'i (1-5%) miqdori va uning sifati, mikroorganizmlar hujayralari soni, 1 ml sutda 50 dan 500 mln gacha bo'lishi mumkin.

Biz keyingi tadqiqotlarimizda selleksiya natijasida olingan ikkala mikroorganizmlarni (K3, SH3, Q3) ham shtammini aniqladik. Buning uchun ribosomal DNA ni aniqlashga yordam beradigan universal praymerlardan foydalandik. Praymerlarni GenScript' kompaniyasidan buyurtma orqali olindi.

1) **Forward** 5'-AGAGTTTGATCCTGGCTCAG-3'

2) **Reverse** 5'-TACGGYTACCTTGTTACGACTT-3'

Olingan praymerlar yordamida mikroorganizmlarni genom DNK si ajratildi va ribosomal DNKni sikvinerlash (**SeqStudio™ Genetic Analyzer**) orqali 360 bp nukleotid ketma-ketlik aniqlandi.

**tgaagaagta aagacgatcg aactcgatgt tgaaggtcca gctacggtaa ctgctgaaga
ttgaaggct gatgctgatg tgaagtctt gaactctgac caatacattt gtaccategc
tcaaggtggc cacctgcaca tgtggattga tgtctgcaac ggccggggct acgtaccage
cagcgaaaac aagactgctg aaatgtccat cgcgacatt ccagttgact cactttctc
accaatcgaa aaggtcaact accaagtga atcaaccgg gttgtaaga gagaagactt
tgacaagctt acctggaaa tttggacaaa tggttcaate gctccgaatg acgcctcaa**

Olingan natijalarni biz NCBI xalqaro ma'lumotlar ba'zasidan qidirganimizda *Lactobacillus delbrueckii* shtammiga to'g'ri keldi. (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/AM087785.1>) Bundan tashqari selleksiya natijasida *Qatiq va sut tarkibida L. bulgaricus, L. asidophilus, Sac. Lactis.* borligi aniqlandi.

Xulosa. Biz tadqiqotlarimizni Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Kitob tumanlarining tog'li hududlaridan hamda Qamashi tumanining tekislik hudularida mahalliy aholi tomonidan tayyorlangan sut va qatiq mahsulotlari tarkibini mikrobiologik tadqiq qilish orqali olib bordik. Tadqiqotlar natijasida bir qancha selleksiya usullaridan foydalangan holda qatiq va sut tarkibida eng ko'p miqdorda *Lactobacillus delbrueckii (Lactobacillus bulgaricus)* borligi aniqlandi. Undan tashqari selleksiya natijasida, *L. asidophilus, Sac. Lactis.* kabi mikroorganizmlar borligi ham aniqlandi. Shunday qilib, tadqiqot natijasiga ko'ra mahalliy sharoitlardagi sut va qatiq tarkibida asosan bir turdagi *Lactobacillus bulgaricus* mikroorganizm turi ko'p miqdorda uchrashi kuzatildi.

ADABIYOTLAR:

1. Zakirova M.R., Egamova M.U. *Oziq-ovqat mikrobiologiyasi (laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun). O'quv qo'llanma.* – Toshkent: “IJOD-PRINT” MCHJ nashriyoti, 2019. – 144 b.
2. Umurqulova F. S., Ismoilova M. R., Zokirov B. U., Hasanov Sh. Sh., Abduraxmanov J. M. *Chimqo'rg'on va pachkamar suv omborlarining mikroflorasini tadqiq qilish.* FarDU. *ILMIY XABARLAR* 1/2022 57-59 betlar
3. Thomas J., Montville, Karl R. Matthews, Kalmia E., Kneil. *Second edition. Food microbiology: an Introduction.* -2nd ed. Copyright 2008. – 484 p.
4. Thomas J., Montville, Karl R. Matthews, Kalmia E., Kneil. *Second edition. Food microbiology: an Introduction.* -2nd ed. Copyright 2008. – 484 p.
5. . Ганина, В. И. *Производство заквасок в России / В. И. Ганина, С. А. Фильчакова // Переработка молока.* – 2018. – №3. – С. 38–41.
6. . Бояринева, И. В. *Криоконсервирование бактериального концентрата симбиотической закваски для хлебопекарного производства / И. В. Бояринева, И. С. Хамагаева, А. С. Столярова, Ю. Г. Калужских // Ползуновский вестник.* – 2016. – №3. – С. 13–17.
7. Орлова, Т. Н. *Выделение молочнокислых бактерий из объектов природного происхождения и отбор среди них штаммов, наиболее перспективных для создания бактериальных заквасок и концентратов / Т. Н. Орлова, А. Н. Иркитова // Сб. ст. конф.: «Биотехнология и общество в XXI веке».* – Барнаул: Изд-во АлтГУ. – 2015. – С. 232–235

FUNKSIYALARNI MATHCAD MUHITIDA SONLI INTEGRALLASH

Imomova Shafoat Mahmudovna,

*Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va
dasturlash texnologiyalari kafedrası dotsenti
shafoati@mail.ru*

Rahmonqulova Zarnigor Bahodirovna,

*Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika
(sohalar bo'yicha) mutaxassisligi magistri
Rahmonqulovazarnigor000@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada aniq integralning geometrik ma'nosi va integralni to'g'ri to'rtburchaklar formulasi yordamida hisoblash metodikasi ko'rsatilgan. Aniq integralni Mathcad muhitida trapetsiyalar va Simpson formulasi bilan hisoblash metodikasi taklif etilgan. Berilgan misolni hisoblash uchun adabiyotlarda ma'lum bo'lgan sonli usullardan foydalanilgan. Berilgan oraliqda integral qiymatini hisoblash uchun oraliqni qancha kichik bo'laklarga bo'lsak, yechim shu darajada aniq bo'ladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich funksiya, elementar funksiya, integral, aniq integral, aniqmas integral, kvadratur, kvadratur formula, to'g'ri to'rtburchak formulasi, trapetsiya formulasi, Simpson formulasi, egri chiziqli trapetsiya, egri chiziqli trapetsiya yuzi, aniq yechim, bo'linish nuqtalari.

ЧИСЛЕННАЯ ИНТЕГРАЦИЯ ФУНКЦИЙ В СРЕДЕ MATHCAD

Аннотация: В статье представлен метод расчёта точного значения геометрического значения интеграла и формулы прямоугольников для расчёта интеграла. Метод расчёта интеграла с помощью формул трапеции и Симпсона предложен в среде Mathcad. Для расчёта примера использовались численные методы, известные из литературных источников. Для определения значения интеграла в заданном интервале интеграл был разбит на маленькие отрезки, чтобы получить точный результат.

Ключевые слова: начальная функция, элементарная функция, интеграл, определённый интеграл, неопределённый интеграл, квадратура, квадратурная формула, формула прямоугольника, формула трапеции, формула Симпсона, кривая трапеция, криволинейная поверхность трапеции, точное решение, точки деления.

NUMERICAL INTEGRATION OF FUNCTIONS IN THE MATHCAD ENVIRONMENT

Annotation: The article presents a method for calculating the exact value of the geometric value of the integral and the formula of rectangles for calculating the integral. The method for calculating the integral using the trapezoid and Simpson formulas is proposed in the Mathcad environment. Numerical methods known from the literature were used to calculate the example. To determine the value of the integral in a given interval, it was divided into small segments in order to obtain an accurate result.

Keywords: initial function, elementary function, integral, definite integral, indefinite integral, quadrature, quadrature formula, rectangle formula, trapezoid formula, Simpson's formula, curved trapezoid, curvilinear surface of a trapezoid, exact solution, dividing points.

Kirish.

Kundalik hayotimizda uchraydigan ko'p muhandislik masalalarini yechishda aniq integrallarni hisoblashga to'g'ri keladi. Faraz qilaylik, $\int_a^b f(x) dx$ hisoblash talab etilsin. Bu yerda $f(x) - [a; b]$ kesmada berilgan uzluksiz funksiya. Bu integralni hisoblashda quyidagi formula (Nyuton—Leybnits formulasi) qo'llaniladi:

$$\int_a^b f(x) dx = F(b) - F(a) \quad (1)$$


bu yerda $F(x)$ — boshlang'ich funksiya. Agar boshlang'ich funksiya $F(x)$ ni elementar funksiyalar orqali ifodalab bo'lmasa yoki integral ostidagi funksiya $f(x)$ jadval ko'rinishida berilsa, u holda (1)

formuladan foydalanish mumkin emas. Bu holda aniq integralni taqribiy formulalar orqali hisoblashga to'g'ri keladi. Bunday formulalarga kvadratur formulalar deyiladi.


Asosiy qism.

Aniq integralning geometrik ma'nosi

Kvadratur formulalarni keltirib chiqarish uchun aniq integralning geometrik ma'nosini bilmoqlik lozim. Agar $[a; b]$ kesmada $f(x) \geq 0$ bo'lsa, u holda $\int_a^b f(x) dx$ ning qiymati son jihatidan $y = f(x)$ funksiyani grafigi hamda $x = a, x = b$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan shakl (figura) ning yuziga teng (1-rasm). Agar $[a; b]$ kesmada $f(x) < 0$ bo'lsa, integralning qiymati yuqorida keltirilgan shaklning teskari ishora bilan olingan yuziga teng (2-rasm).



1- rasm



2-rasm

Shunday qilib aniq integralni hisoblash deganda biror shaklning yuzini hisoblash tushuniladi.[1] Quyida aniq integralni hisoblash uchun ba'zi taqribiy formulalar bilan tanishib chiqamiz.

To'g'ri to'rtburchaklar va trapetsiyalar formulasi

Faraz qilaylik, bizdan $\int_a^b f(x) dx$ aniq integralning taqribiy qiymatini topish talab etilsin. $x_0, x_1, x_2, \dots, x_n$ nuqtalar yordamida $[a; b]$ kesmani p ta teng bo'lakchalarga bo'lamiz. Har bir bo'lakchanning uzunligi $h = \frac{b-a}{n}$. Bo'linish nuqtalari esa:


$$x_0 = a; \quad x_1 = a + h; \quad x_2 = a + 2h; \quad x_3 = a + 3h \quad \dots \quad x_{n-1} = a + (n-1)h; \quad x_n = b$$

Bu nuqtalarni tugun nuqtalar deb ataymiz. $f(x)$ funksiyaning tugun nuqtalaridagi qiymatlari $y_0, y_1, y_2, \dots, y_n$ bo'lsin. Bular $y_0 = f(a); \quad y_1 = f(x_1) \dots y_n = f(b)$ larga teng bo'ladi.

Egri chiziqli trapetsiyaning yuzini topish uchun $[a; b]$ kesmani bo'lish natijasida hosil bo'lgan barcha to'rtburchaklarning yuzini hisoblab, ularni jamlash kerak bo'ladi. Albatta, bu yuzachalarni hisoblashlarda ma'lum darajada xatoliklarga yo'l qo'yiladi (shtrixlangan yuzachalar). Bularni va aniq integralning geometrik ma'nosini hisobga olsak, quyidagini yozishimiz mumkin bo'ladi:

$$\int_a^b f(x) dx \approx h \cdot y_0 + h y_1 + h y_2 + \dots + h y_{n-1} = h(y_0 + y_1 + y_2 + \dots + y_{n-1}) = h \sum_{k=0}^{n-1} y_k$$

$$\int_a^b f(x) dx \approx h \sum_{k=0}^{n-1} y_k \quad (2)$$



3-rasm

Bu yerda to'g'ri to'rtburchak yuzini hisoblashda uning chap tomon ordinatasi olindi. Agar o'ng tomon ordinatani olsak ham shunday formulaga ega bo'lamiz:

$$\int_a^b f(x) dx \approx h(y_1 + y_2 + y_3 + \dots + y_n) = h \sum_{k=1}^n y_k$$

$$\int_a^b f(x) dx \approx h \sum_{k=1}^n y_k \quad (3)$$

(2) va (3) lar mos ravishda chap va o'ng formulalar deyiladi. Agar 3- rasmga e'tibor bersak, (2) formula bilan integralning qiymati hisoblanganda integralning taqribiy qiymati aniq qiymatidan ma'lum darajada kamroq chiqadi, (3) yordamida hisoblanganda esa taqribiy qiymat aniq qiymatdan ma'lum darajada kattaroq chiqadi.

Ya'ni (2) va (3) formulalar yordamida aniq integralning taqribiy qiymati hisoblanganda bu formulalardan biri integralning aniq qiymatini kami bilan ifodalasa, ikkinchisi esa ko'pi bilan ifodalaydi. 3-rasmdan ko'rinadiki, (2) va (3) formulalarni qo'llaganda yo'l qo'yiladigan xatolikni kamaytirish uchun bo'linish nuqtalarini iloji boricha ko'proq olish, ya'ni qadam h ni tobora kichraytirish lozim bo'ladi. Albatta, h ni kichraytirish hisoblash jarayonining keskin o'sishiga olib keladi. Bunday holatda butun hisoblash jarayoni EHM ga yuklanadi. [2,10]

Misol. To'g'ri to'rtburchaklar formulalari (2) va (3) yordamida $\int_0^1 \frac{0,5 dx}{1+2x}$ integralning taqribiy qiymatlari topilsin.

Yechish: Bu yerda $a=0$; $b=1$; $n=10$; $h=(b-a)/n=0,1$.

$$f(x) = \frac{0,5}{1+2x}$$

$$x_0 = a = 0; \quad x_1 = a + h = 0,1; \quad x_2 = a + 2h = 0,2; \quad x_3 = a + 3h = 0,3;$$

$$x_4 = a + 4h = 0,4 \dots x_9 = a + 9h = 0,9; \quad x_{10} = b = 1$$

$$y_0 = f(x_0) = \frac{0,5}{1+2x_0} = \frac{0,5}{1} = 0,5; \quad y_1 = f(x_1) = \frac{0,5}{1+0,2} = 0,416;$$

$$y_2 = f(x_2) = 0,357; \quad y_3 = f(x_3) = 0,3125; \quad y_4 = f(x_4) = 0,278; \quad y_5 = f(x_5) = 0,25; \quad y_6 = f(x_6) = 0,2273; \quad y_7 = f(x_7) = 0,208; \quad y_8 = f(x_8) = 0,192 \quad y_9 = f(x_9) = 0,179; \quad y_{10} = f(x_{10}) = 0,167.$$

(2) formulaga ko'ra

$$\int_0^1 \frac{0,5 dx}{1+2x} \approx 0,1(0,5 + 0,416 + 0,357 + 0,3125 + 0,278 + 0,25 + 0,2273 + 0,208 + 0,192 + 0,179) = 0,29198$$

(3) formulaga ko'ra

$$\int_0^1 \frac{0,5 dx}{1+2x} \approx 0,1(0,416 + 0,357 + 0,3125 + 0,278 + 0,25 + 0,2273 + 0,208 + 0,192 + 0,179 + 0,167) = 0,259$$

Ma'lumki $\int_0^1 \frac{0,5 dx}{1+2x} = \frac{1}{4} \ln 3, \quad \frac{1}{4} \ln 3 \approx 0,275.$

Bulardan ko'rinadiki, aniq yechim chap va o'ng formulalar orqali topilgan yechimlar orasida yotadi. Topilgan yechimlar **0,29198** va **0,259** ning o'rta arifmetigini olsak, bu **0,275** ga teng bo'ladi, bu esa aniq

yechim bilan ustma-ust tushadi. Bu xulosalarni nazarga olgan holda (2) va (3) formulalar hadlarini mos ravishda qo'shib o'rta arifmetigini olsak, quyidagi ifoda hosil bo'ladi :

$$\int_a^b f(x) dx \approx h \left(\frac{1}{2} y_0 + y_1 + y_2 + \dots + y_{n-1} + \frac{1}{2} y_n \right) = h \left(\frac{y_0}{2} + \sum_{k=1}^{n-1} y_k + \frac{y_n}{2} \right) \quad (4)$$

(4) formula *trapetsiyalar formulasi* deb ataladi. Bu formula yordamida topilgan integralning taqribiy qiymatining aniqligini oshirish uchun bo'linish nuqtalari soni n ni ikki, uch va h.k. marta oshirish kerak bo'ladi. Albatta, bunda ham hisoblash hajmi bir necha marotaba oshadi.

Simpson (parabola) usul

Simpson formulasi yuqorida keltirib chiqarilgan formulalarga qaraganda aniqligi yuqori bo'lgan formula hisoblanadi. Bu formulada integralning qiymatini yuqori aniqlikda olish uchun bo'linish qadamlarini tobora oshirish talab etilmaydi. $[a, b]$ kesmani $a = x_0 < x_1 < x_2 < \dots < x_{n-1} < x_n = b$ nuqtalar bilan $n=2$ ta juft teng bo'lakchalarga ajratamiz. $u = f(x)$ egri chiziqqa tegishli bo'lgan (x_0, y_0) , (x_1, y_1) , (x_2, y_2) nuqtalar orqali parabola o'tkazamiz Bizga ma'lumki, bu parabolaning tenglamasi

$$y = Ax^2 + Bx + C \quad (5)$$

bo'ladi, bu yerda A, B, C — hozircha noma'lum bo'lgan koeffitsiyentlar. $[x_0, x_2]$ kesmadagi egri chizikli trapetsiyaning yuzini shu kesmadagi parabola bilan chegaralangan egri chizikli trapetsiyaning yuzi bilan almashtirsak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\int_{x_0}^{x_2} f(x) dx \approx \int_{x_0}^{x_2} (Ax^2 + Bx + C) dx = \left[A \frac{x^3}{3} + Cx + B \frac{x^2}{2} \right] = A \frac{x_2^3 - x_0^3}{3} + B \frac{x_2^2 - x_0^2}{2} + C(x_2 - x_0)$$

$(x_2 - x_0)$ ni qavsdan tashqariga chiqarib, umumiy maxrajga keltirsak

$$\int_{x_0}^{x_2} f(x) dx \approx \frac{x_2 - x_0}{6} [2A(x_0^2 + x_0x_2 + x_2^2) + 3B(x_0 + x_2) + 6C] \quad (6)$$

(5) dagi noma'lum A, B, C koeffitsiyentlar quyidagicha topiladi: x ning x_0, x_1, x_2 qiymatlarda $f(x)$ ning qiymatlari y_0, y_1, y_2 ekanini $x_1 = \frac{x_0 + x_2}{2}$ jamini hisobga olsak, (5) dan :

$$y_0 = Ax_0^2 + Bx_0 + C,$$

$$y_1 = A \left(\frac{x_0 + x_2}{3} \right)^2 + B \frac{x_0 + x_2}{2} + C \quad (7)$$

$$y_2 = Ax_2^2 + Bx_2 + C$$

(7) ning ikkinchi ifodasini to'rtga ko'paytirib, uchala tenglikni bir-biriga qo'shsak:

$$y_0 + 4y_1 + y_2 = A[x_0^2 + (x_0 + x_2)^2 + x_2^2] + B[x_0 + 2(x_0 + x_2) + x_2] + 6C = 2A[x_0^2 + x_0x_2 + x_2^2] + 3B(x_0 + x_2) + 6C$$

(8)

Bu ifodani (6) bilan solishtirsak, bularning o'ng taraflari bir xil ekanligini ko'ramiz. (8) ni (6) ning o'ng tarafiga quysak va $x_2 - x_0 = 2h$ [$h = \frac{b-a}{n}$] ekanligini e'tiborga olsak, quyidagi taqribiy tenglikni topamiz:

$$\int_{x_0}^{x_2} f(x) dx \approx \frac{h}{3} (y_0 + 4y_1 + y_2) \quad (9)$$

Xuddi shunday formulani $[x_2, x_4]$ kesma uchun ham keltirib chiqarish mumkin:

$$\int_{x_2}^{x_4} f(x) dx \approx \frac{h}{3} (y_2 + 4y_3 + y_4) \quad (10)$$

Bu formulalarni butun kesma $[a, b]$ uchun keltirib chiqarib, bir-biriga qo'shsak, quyidagini hosil qilamiz:

$$\int_a^b f(x) dx \approx \frac{h}{3} (y_0 + 4y_1 + 2y_2 + 4y_3 + \dots + 2y_{2m-2} + 4y_{2m-1} + y_{2m}) \quad (11)$$

Bu topilgan formula Simpson formulasidir. Ba'zi hollarda uni parabolalar formulasi deb ham ataydilar.

(11) ni eslab qolish unchalik qiyin emas; toq raqamli ordinatalar to'rtga, juft raqamli ordinatalar (ikki chekkadagi ordinatadan tashqari) ikkiga ko'paytiriladi. Chekkadagi ordinatalar y_0, y_{2m} esa birga ko'paytiriladi.

Natijalar.

Misol $I = \int_0^1 \frac{0.5dx}{1+2x^2}$ integralning qiymatini trapetsiyalar formulasi hamda Simpson formulasi yordamida toping.

Yechish: Bu yerda $0 \leq x \leq 1; n = 10, a = 0, b = 1, h = \frac{b-a}{n} = 0,1 f(x) = y = \frac{0,5}{1+2x^2}$

Quyidagi jadvalni to'ldiramiz

1-jadval

x	x^2	$1 + 2x^2$	$y = f(x) = \frac{0,5}{1 + 2x^2}$	x	x^2	$1 + 2x^2$	$y = f(x) = \frac{0,5}{1 + 2x^2}$
0,0	0,0	1,0	0,5	0,6	0,36	1,72	0,2906977
0,1	0,01	1,02	0,4901961	0,7	0,49	1,98	0,2525253
0,2	0,04	1,08	0,46296296	0,8	0,64	2,28	0,2192982
0,3	0,09	1,18	0,42372881	0,9	0,81	2,62	0,19083969
0,4	0,16	1,32	0,3787878	1,0	1,0	3,0	0,16666667
0,5	0,25	1,5	0,33333333				

Trapetsiya formulasiga asosan

$$I = \int_0^1 \frac{0,5}{1 + 2x^2} dx \approx h \left(\frac{y_0 + y_{10}}{2} + y_1 + y_2 + y_3 + y_4 + y_5 + y_6 + y_7 + y_8 + y_9 \right)$$

$$= 0,1 \left(\frac{0,5 + 0,6666667}{2} + 0,4901961 + 0,46296296 + 0,42372881 + 0,3787878 + 0,33333333 + 0,2906977 + 0,2525253 + 0,19083969 \right) = 0,313550711$$

Mathcad muhitida integralning qiymatini trapetsiyalar formulasi yordamida topish dasturi.

a:=0 b:=1
n:=10

$$f(x) := \int_0^1 \frac{0,5}{1 + 2 \cdot x} dx$$

$$S := \frac{b - a}{n} \cdot \left[\sum_{i=1}^{n-1} f \left(a + \frac{b - a}{n} i \right) + \frac{f(a) + f(b)}{2} \right]$$

S = 0.275

Simpson formulasiga asosan

$$I = \int_0^1 \frac{0,5}{1+2x^2} \approx \frac{h}{3} (y_0 + 4y_1 + 2y_2 + 4y_3 + 2y_4 + 4y_5 + 2y_6 + 4y_7 + 2y_8 + 4y_9 + y_{10}) = \frac{0,1}{3} [0,5 + 0,16666667 + 4(0,42372881 + 0,33333333 + 0,2525253 + 0,19083969) + 2(0,46296296 + 0,3787878 + 0,2906977 + 0,2192982)] = 0,272395613$$

Mathcad muhitida integralning qiymatini Simpson formulasi yordamida topish dasturi.

a:=0 b:=1 n:=10

$$f(x) := \int_0^1 \frac{0,5}{1 + 2 \cdot x} dx$$

$$S_{\text{нн}} := \frac{b-a}{6 \cdot n} \cdot \left[\sum_{i=1}^n \left[f \left[a + (i-1) \cdot \frac{b-a}{n} \right] + \left(4f \left(a + i \cdot \frac{b-a}{2 \cdot n} \right) + f \left(a + i \cdot \frac{b-a}{n} \right) \right) \right] \right]$$

$$S = 0.275$$

Mathcadning ichki dasturi yordamida hisoblangan qiymat

$$\int_0^1 \frac{0.5}{1+2 \cdot x} dx = 0.275$$

Xulosa.

Ushbu ishda funksiyalarni Mathcad muhitida sonli integrallash masalasi o'rganildi. Dastlab aniq integralning geometrik ma'nosi ko'rsatildi. Shunga bog'liq ravishda integralni hisoblashni to'g'ri to'rtburchak, trapetsiya va Simpson formulalari yoritildi. Aniq integralni hisoblash misollar orqali Matchad muhitida ham bajarildi. Ushbu metodikaga asoslangan holda integralni hisoblashda olingan natijalar Mathcadning ichki dasturi bilan hisoblangan integral qiymati bilan solishtirganda yaxshi natija ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Бахвалов Н.С., Жидков Н.П., Кобельков Г.Н. Численные методы. М: Наука, 1987.
2. Самарский А.А, Введение в численные методы. М: Наука, 1987.
3. Imotova Shafoat Mahmudovna. Matematikani o'qitishda matematik tizimlardan foydalanish // Pedagogik mahorat. Maxsus son (2022 yil, derkabr), 2022, С.77-80.
4. Imotova Shafoat. Blockchain va uning axborot xavfsizligiga ta'siri // Pedagogik mahorat. Maxsus son (2021 yil, derkabr), 2021, С.88-90.
5. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Работа с криптовалютой // Universum: технические науки. №10(91), 2021. С. 18-21.
6. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Роль социальных сетей в образовании // universum: технические науки. №10(103), 2022. С. 30-32.
7. Imotova Shafoat Mahmudovna, Norova Fazilat Fayzulloyevna. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish // Miasto Przyszłości, Vol. 32 (2023), С.47-49.
8. Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Вычисление наибольшего собственного значения матрицы и соответствующего ей собственного вектора в среде Mathcad // ACADEMY. № 6(57), 2020. С9.
9. Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Численное решение смешанной задачи, поставленное на векторном волновом уравнении в области с углом // Universum: технические науки. №10(79), 2020. С. 22-25.
10. Формалев В.Ф., Ревизников Д.Л. Численные методы. – М.: Физматлит, 2004. - 400 с.

**INVESTIGATION OF THE INTEGRO-DIFFERENTIAL EQUATION OF PARABOLIC
TYPE WITH NONLOCAL CONDITION**

Jumaev Jonibek Jamolovich,

*PhD, Institute of Mathematics named after Romanovskiy
at the Academy of sciences of the Republic of Uzbekistan,*

jonibekji@mail.ru

Atoev Dilshod Dilmurodovich,

PhD student, Bukhara State University, Uzbekistan

dilshod_atoyev@mail.ru

Abstract: This paper studied the existence and uniqueness of a solution of the second order integro-differential parabolic equation with nonlocal initial-boundary conditions. Firstly, the problem is replaced with the equivalent integral equation with respect to unknown function $u(x,t)$ using the Fourier method. Then, using Schauder principle and Gronwall inequalities, the local existence and uniqueness are proven for equivalent integral equation.

Keywords: integro-differential equation, nonlocal initial-boundary problem, inverse problem, integral equation, Schauder principle.

**ИССЛЕДОВАНИЕ ИНТЕГРОДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО УРАВНЕНИЯ
ПАРАБОЛИЧЕСКОГО ТИПА С НЕЛОКАЛЬНЫМ УСЛОВИЕМ**

Аннотация: В работе исследовано существование и единственность решения интегро-дифференциального параболического уравнения второго порядка с нелокальными начально-краевыми условиями. Во-первых, задача заменяется эквивалентным интегральным уравнением относительно неизвестной функции $u(x, t)$ методом Фурье. Затем с помощью принципа Шаудера и неравенств Гронуолла доказывается локальное существование и единственность решения эквивалентного интегрального уравнения.

Ключевые слова: интегро-дифференциальное уравнение, нелокальная начально-краевая задача, обратная задача, интегральное уравнение, принцип Шаудера.

**NOLOKAL SHARTLI PARABOLIK TURLI INTEGRO-DIFFERENSIAL TENGLAMANI
TEKSHIRISH**

Annotatsiya: Ushbu maqolada nolokal boshlang'ich-chegaraviy shartli ikkinchi tartibli integro-differensial parabolik tenglama yechimining mavjudligi va yagonaligi o'rganilgan. Dastlab, masala Furye usuli yordamida noma'lum $u(x, t)$ funksiyaga nisbatan ekvivalent integral tenglama bilan almashtiriladi. Keyin Shauder prinsipi va Gronwall tengsizliklari yordamida ekvivalent integral tenglama uchun mavjudlik va yagonalik isbotlanadi.

Kalit so'zlar: integro-differensial tenglama, nolokal boshlang'ich-chegaraviy masala, teskari masala, integral tenglama, Shaulder prinsipi.

1. Introduction and setting up the problem

Today in theory of mathematical physics equations, investigations devoted to the direct and inverse problems took an important place. This problems arise in situations, when the structure of the mathematical model of the studying process is known and it is necessary to set the problems of determining the parameters of the mathematical model itself. Such problems include the problems of determining the various kernel, leading and lower coefficients of the equations, nonlocal initial and boundary conditions, and so on (see [1]).

Problems with nonlocal conditions for partial differential equations have been studied by many authors. In the articles [2]-[5] were considered with the study of the unique solvability of a nonlocal inverse boundary value problems for second-order hyperbolic equation with overdetermination conditions. These problems the existence and uniqueness theorem for the classical solution of the inverse coefficient problem is proved.

The inverse problem of determining the time-dependent thermal diffusivity and the temperature distribution in a parabolic equation in the case of nonlocal initial-boundary conditions containing a real parameter and integral overdetermination conditions are investigated in the works [6]-[12].

The problem of determining the kernel $k(t)$ of the integral term in an integro-differential heat equation were studied in many publications [13]–[17], in which both one- and multidimensional inverse problems with classical initial, initial-boundary conditions were investigated. There is proven existence and uniqueness of inverse problem solutions.

In this article we study an inverse problem in integro-differential equation for second-order parabolic equation with nonlocal initial-boundary condition. The inverse problem of determination of the kernel $k(t)$ function in the one - dimensional integro – differential parabolic equation existence and uniqueness of this problem solution is studied.

Let $T > 0$ is fixed number and $D_T = \{(x, t): 0 < x < l, 0 < t \leq T\}$. Consider the inverse problem of determining of functions $u(x, t), k(t)$ such that it satisfies the equation

$$u_t - u_{xx} = \int_0^t k(t - \tau)u(x, \tau)d\tau, \quad (x, t) \in D_T, \quad (1.1)$$

with the nonlocal initial condition

$$u(x, 0) + \lambda u(x, T) + \int_0^x p(\tau)u(x, \tau)d\tau = \varphi(x), \quad x \in [0, l], \quad (1.2)$$

the boundary conditions

$$u|_{x=0} = u|_{x=l} = 0, \quad t \in [0, T], \quad (1.3)$$

here $\lambda \geq 0$ is a given number greater than zero, $\varphi(x), p(t)$ are given functions of $x \in [0, l]$ and $t \in [0, T]$.

In the direct problem, for given numbers l, T, λ and sufficiently smooth functions $k(t), \varphi(x)$, it required to find a function $u(x, t) \in C^{2,1}(D_T)$ satisfying nonlocal initial-boundary problem (1.1)-(1.3) for $(x, t) \in D_T$.

Let $C^m(0; l)$ be the class of m times continuously differentiable with all derivatives up to the m –th order (inclusive) in $(0; l)$ functions. In the case $m = 0$ this space coincides with the class of continuous functions. $C^{m,k}(D_T)$ is the class of m times continuously differentiable with respect to x and k times continuously differentiable with respect to t all derivatives in the domain D_T functions.

2. Solvability of the problem

The solution of equation (1.1) with the nonlocal initial condition (1.2) and the boundary conditions (1.3) satisfies the relation

$$\begin{aligned} u(x, t) = & \Phi(x, t) + \int_0^t \int_0^l G(x, \xi, t - \beta) \int_0^\beta k(\beta - \tau)u(\xi, \tau)d\tau d\xi d\beta - \\ & - \lambda \int_0^T \int_0^l G_0(x, \xi, t + T - \beta) \int_0^\beta k(\beta - \tau)u(\xi, \tau)d\tau d\xi d\beta - \\ & - \int_0^T \int_0^l \int_0^l p(\mu)G_0(x, \xi, t + \mu - \beta) \int_0^\beta k(\beta - \tau)u(\xi, \tau)d\tau d\xi d\beta d\mu, \end{aligned} \quad (2.1)$$

where

$$\Phi(x, t) = \int_0^l \varphi(\xi)G_0(x, \xi, t)d\xi,$$

$$G(x, \xi, t) = \frac{2}{l} \sum_{n=1}^{\infty} e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t} \sin \frac{\pi n}{l} \xi \sin \frac{\pi n}{l} x,$$

$$G_0(x, \xi, t) = \frac{2}{l(1 + \lambda e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 T} + \int_0^T p(\tau)e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 \tau} d\tau)} \sum_{n=1}^{\infty} e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t} \sin \frac{\pi n}{l} \xi \sin \frac{\pi n}{l} x.$$

Now we write property of Green function which will be needed in the future.

Remark. *The integral of the Green function does not exceed 1:*

$$\int_0^l G_0(x, \xi, t) d\xi \leq \int_0^l G(x, \xi, t) d\xi \leq 1, x \in (0, l), t \in (0, T].$$

Denote the operator taking the function $u(x, t)$ to the right-hand side of (2.1) by A . Then (2.1) is written as the operator equation

$$u = Au, \tag{2.2}$$

Let

$$\Phi_0 = \max_{(x,t) \in \bar{D}_T} |\Phi(x, t)|, \quad k_0 = \max_{t \in [0, T]} |k(t)|, \quad p_0 = \max_{t \in [0, T]} |p(t)|,$$

$S_d(0) = \{u: \|u\| \leq d\}$, d be some positive number.

We use the Schauder principle to the existence of solution of the operator equation (2.2).

Theorem (Schauder principle)[see 10, p. 411]: *Let the operator A map a closed bounded convex set $S_d(0)$ of a Banach space X into itself. Then if A is completely continuous on $S_d(0)$, then it has a fixed point on $S_d(0)$.*

Lemma 2.1. *Suppose that the following conditions are satisfied: $\varphi(x) \in C[0, l]$, $k(t) \in C^1[0, T]$, $\varphi(0) = \varphi(l) = 0$. Then for all T satisfying the estimate*

$$0 < T \leq T_1, \tag{2.3}$$

where T_1 is a positive root of the equation

$$2p_0T^3 + 3k_0d(1 + \lambda)T^2 + 6(\Phi_0 - d) = 0,$$

the operator A is uniformly bounded and equicontinuous.

Then there exists a classical solution of problem (1.1)-(1.3) in the space $C^{2,1}(D_T)$.

Proof. First, we establish the uniform boundedness of the operator A . To this end, we show that there exists a $\rho \in (0, d]$ such that $\|Au\| \leq \rho$, where $\|Au\| = \max_{(x,t) \in \bar{D}_T} |Au|$. For $u \in S_d(0)$ and $(x, t) \in \bar{D}_T$, we find estimate

2. $\forall a, b, c \in O(1, Y)$ elementlar uchun $(a \circ b) \circ c = a \circ (b \circ c)$ tenglik o'rinli ekanligini ko'rsatamiz. Tenglikning chap tomonidan quyidagi $(a \circ b) \circ c = a \circ (b \circ c)$ tenglikni yozishimiz mumkin. (1) tenglikdan ko'rinadiki assosiativlik o'rinli.

3. $\exists e \in O(1, Y), \forall a \in O(1, Y)$ lar uchun $a \circ e = e \circ a = a$ tenglik o'rinli bo'lishini ko'rsatamiz. (1) tenglikdan ko'rinadiki, e element vazifasini I element bajaradi. Demak birlik element I ekanligi kelib chiqadi.

4. $\forall a \in O(1, Y)$ uchun $\exists a' \in O(1, Y)$ element topilib $a \circ a' = a' \circ a = e$ shart bajarilishini ko'rsatamiz. (1) tenglikdan ko'rinadiki I elementga teskari element I dir. I_- elementga teskari element I_- ekanligi kelib chiqadi.

Demak $(O(1, Y), \circ)$ juftlik gruppasi tashkil etadi. Qisqalik uchun gruppasi $(O(1, Y), \circ) = G$ shaklda belgilaymiz.

\square natural sonlar to'plami va $m \in \mathbb{N}$ bo'lsin. 1 sonidan m sonigacha bolgan natural sonlar to'plamini N_m orqali belgilaymiz. Demak $N_m = \{1, 2, \dots, m\}$ dir. $Y = \mathcal{Q}(\sqrt{2})$ bo'lsin.

Ta'rif 2. $h: N_m \rightarrow Y$ aks ettirishga m -ketma-ketlik deymiz va uni $h = (h_1, h_2, \dots, h_m)$ shaklda yozamiz. Barcha m -ketma-ketliklar to'plamini Y^m shaklda belgilaymiz.

G ortogonal gruppasi, $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$ va $y = (y_1, y_2, \dots, y_m)$ ikkita m -ketma-ketliklar berilgan bo'lsin, bu yerda $x_i \in Y, y_i \in Y, \forall i = 1, 2, \dots, m$.

Ta'rif 3. $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$ va $y = (y_1, y_2, \dots, y_m)$ m -ketma-ketliklar uchun shunday $g \in G$ element topilib, barcha $i \in (1, \dots, m)$ lar uchun $y_i = gx_i$ tenglik o'rinli bo'lsa, $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$ va $y = (y_1, y_2, \dots, y_m)$ m ketma-ketliklar G -ekvivalent deyiladi va qisqacha $x \stackrel{G}{\sim} y$ kabi yoziladi.

Ta'rif 4 $\varphi: Y^m \rightarrow Y$ funksiya berilgan bo'lsin. G gruppasi ixtiyoriy g elementi va $\forall x = (x_1, x_2, \dots, x_m) \in Y^m$ m ketma-ketlik uchun $\varphi(gx_1, gx_2, \dots, gx_m) = \varphi(x_1, x_2, \dots, x_m)$ tenglik bajarilsa, $\varphi(x_1, x_2, \dots, x_m)$ funksiya G -invariant deyiladi.

Tasdiq 3. φ - G -invariant funksiya va $x, y \in Y^m$ m ketma-ketliklar uchun $x \stackrel{G}{\sim} y$ bo'lsa, u holda $\varphi(y_1, y_2, \dots, y_m) = \varphi(x_1, x_2, \dots, x_m)$ bo'ladi.

Xulosa. Isbot. $x, y \in Y^m$ m -ketma-ketliklar $x \stackrel{G}{\sim} y$ bo'lgani uchun, shunday $g \in G$ mavjudki, $\forall i = 1, \dots, m$ lar uchun $y_i = gx_i$ bo'ladi. U holda $\varphi(y_1, y_2, \dots, y_m) = \varphi(gx_1, gx_2, \dots, gx_m) = \varphi(x_1, x_2, \dots, x_m)$ bo'ladi

ADABIYOTLAR:

1. Djavvat Khadjiev and Yavuz G'oksal, *Applications of hyperbolic numbers to the invariant theory in two-dimensional pseudo-Euclidean space*, Adv. Appl. Clifford Algebras 26 (2016), 645–668.

2. Djavvat Khadjiev, Idris Oren, Omer Peksen, *Global invariants of paths and curves for the group of all linear similarities in the two-dimensional Euclidean space*, *International Journal of Geometric Methods in Modern Physics* Vol. 15, No. 6 (2018) 1850092 (28 pages).

3. Rahmonov E. S., Beshimov G'. R. *Ratsional sonlar maydoni ustida $x_1y_1 - 2x_2y_2$ formalii ikki o'lchovli Birchiziqli-metrik fazodagi m ta nuqtaning to'la invariantlari sistemasi*

4. <https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=3658719210033948033&btnI=1&hl=ru>

DOIRA TASHQARISIDA TO‘RTINCHI TARTIBLI ELLIPTIK TIPDAGI DIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN QO‘YILGAN ICHKI - CHEGARAVIY MASALA

Tolipov Nodirjon Isaqovich,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg‘ona filiali “Tabiiy fanlar” kafedrasida assistent o‘qituvchisi
nodirjontolipov23098@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada doira tashqarisida to‘rtinchi tartibli elliptik tipdagi differensial tenglama uchun ichki - chegaraviy masala qo‘yilgan va masalaning nokorrekt ekanligi ko‘rsatilgan hamda turg‘unlik baholangan so‘ngra qo‘yilgan masala shartli korrektilikka tekshirilib, teoremda korrektilik to‘plamida qo‘yilgan masala yechimining yagonaligi ko‘rsatilgan va taqribiy yechimi qurilgan.

Kalit so‘zlar: Laplas operatori, nokorrektlik, Fur‘e koeffitsiyenti, Adamar ma‘nosidagi urg‘unlik, yechim yagonaligi, taqribiy yechim.

ВНУТРЕННЯЯ КРАЕВАЯ ЗАДАЧА ДЛЯ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО УРАВНЕНИЯ ЭЛЛИПТИЧЕСКОГО ТИПА ЧЕТВЁРТОГО ПОРЯДКА ВНЕ КРУГА

Аннотация: В данной статье за пределами круга ставится внутреннекраевая задача для дифференциального уравнения эллиптического типа четвёртого порядка и показывается, что задача некорректна, а после оценки устойчивости задача проверяется на условную корректность, в теореме показана единственность решения поставленной задачи во множестве корректности и построено приближённое решение.

Ключевые слова: оператор Лапласа, некорректность, коэффициент Фурье, стагнация в смысле Адамара, единственность решения, приближённое решение.

THE INSIDE-BOUNDARY-BORDER PROBLEM FOR THE DIFFERENTIAL EQUATION OF THE FOURTH-ORDER ELLIPTIC TYPE OUTSIDE THE CIRCLE

Abstract: In this article, outside the circle, an inner-boundary problem is posed for a fourth-order elliptic-type differential equation and it is shown that the problem is ill-posed, and after estimating stability, the problem is checked for conditional correctness, the theorem shows the uniqueness of the solution of the problem in, and an approximate solution is constructed.

Key words: Laplace operator, incorrectness, Fourier coefficient, stagnation in the sense of Hadamaru, uniqueness of the solution, approximate solution.

Kirish. Matematik fizika tenglamasiga biror masala qo‘yilgan bo‘lsa, bu masalaning yechimi, albatta, boshlang‘ich va chegaraviy shartlardagi funksiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Bu funksiyalar odatda tajriba yo‘li bilan aniqlanadi va shuning uchun ham ular aniq topilishi mumkin emas, chunki fizik kattaliklarni o‘lchashda muayyan o‘lchash xatoligi mavjuddir.

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni hosil qilishda yo‘l qo‘yilgan xatolar yechimga qanchalik ta‘sir qilishini aniqlash ham muhim ahamiyatga egadir. Boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni ozgina o‘zgarishiga yechimni juda katta o‘zgarishi ham mos kelishi mumkin. Bu hollarda bunday yechimdan foydalanish amalda yaxshi natijalar bermasligi mumkin.

Agar masalada boshlang‘ich va chegaraviy shartlarning hamda tenglama ozod hadining ozgina o‘zgarishiga yechimning ham ozgina o‘zgarishi mos kelsa, bunday masala yechimi turg‘un deyiladi.

Agar matematik fizika masalasining yechimi mavjud, yagona va turg‘un bo‘lsa, u holda matematik fizika masalasi korrekt qo‘yilgan deyiladi. Bu shartlarning istalgan biri bajarilmasa, bunday masalaga korrekt qo‘yilmagan masala deyiladi.

Ushbu korrektilik tushunchasini XX asr boshida taniqli fransuz matematigi Adamar kiritgan bo‘lib, keyinchalik uni klassik ma‘nodagi korrektilik yoki Adamar ma‘nosidagi korrektilik deb ataldi.

Klassik ma‘nodagi nokorrekt qo‘yilgan masalalarga fizik hodisalarni matematik talqin qilishda duch kelingan, lekin juda yaqin vaqtlargacha bu masalalar matematiklarni qiziqirmagan. Chunki ular bu tipdagi masalalarni hech qanday fizik hodisalarga bog‘liqmas deb hisoblaganlar.

A.N.Tixonovning geofizik tekshirishlarida boshlang'ich va chegaraviy shartlarni interpretatsiyalash muammolari vujudga kelishi natijasida klassik ma'noda nokorrekt qo'yilgan masalalarni tekshirishga zaruriyat tug'ildi va bunday masalalarga qo'yilgan yangi shartlarni Tixonov o'z ishlarida ko'rsatib berdi.

A.N.Tixonov birinchi marta o'z ishlarida nokorrekt masalalarga qo'yiladigan yangi shartlar mos fizik masalalarning mohiyatidan kelib chiqishini ko'rsatgan.

Matematik fizika masalalari shartli korrekt yoki Tixonov ma'nosida korrekt qo'yilgan deyiladi, agar quyidagi shartlar bajarilsa:

1) oldindan ma'lumki, masalaning yechimi mavjud va funksional fazoning berilgan qandaydir M to'plamiga tegishli;

2) masala yechimi M to'plamda yagona;

3) M to'plamda masalaning yechimi berilgan funksiyalarga uzluksiz bog'liq, ya'ni yechimni M to'plamdan tashqariga chiqarib yubormaydigan berilgan funksiyalarning cheksiz kichik o'zgarishiga yechimning cheksiz kichik o'zgarishi mos kelsa;

M to'plam korrektlik to'plami deyiladi va ko'p hollarda bu to'plam kompakt to'plamdan iborat bo'ladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Masalaning qo'yilishi.

$D = \{ (\rho, \varphi) : R < \rho < +\infty, 0 \leq \varphi \leq 2\pi \}$ sohada quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(\rho, \varphi)$ funksiya topilsin:

$$\Delta^2 u(\rho, \varphi) = 0 \tag{1.1}$$

$$\frac{\partial u(R_1, \varphi)}{\partial \rho} = f(\varphi), \quad 0 \leq \varphi \leq 2\pi \tag{1.2}$$

$$u(R_1, \varphi) = 0, \quad 0 \leq \varphi \leq 2\pi \tag{1.3}$$

$$u(\rho, \varphi + 2\pi) = u(\rho, \varphi), \quad R < \rho < +\infty \tag{1.4}$$

$$\lim_{\rho \rightarrow +\infty} \frac{\partial u(\rho, \varphi)}{\partial \rho} = O(1), \quad 0 \leq \varphi \leq 2\pi \tag{1.5}$$

$$\lim_{\rho \rightarrow +\infty} u(\rho, \varphi) = O(1), \quad 0 \leq \varphi \leq 2\pi \tag{1.6}$$

bu yerda $0 < R < R_1$, $f(\varphi)$ - berilgan funksiya, Δ - Laplas operatori.

Masalaning nokorrektligi.

Bevosita tekshirib ishonch hosil qilish mumkinki,

$$u_m(\rho, \varphi) = \varepsilon \frac{(\rho^2 - R_1^2)}{2R_1} \left(\frac{R_1}{\rho} \right)^m \cos m\varphi \quad (m \geq 3) \tag{1.7}$$

funksiya (1.1) - (1.6) masalaning $f(\varphi) = \varepsilon \cos m\varphi$ bo'lgandagi yechimi bo'ladi. (1.7) formuladan

ko'rinadiki, ixtiyoriy o'zgarmas $0 < \varepsilon < 1$, $c > 0$ sonlar uchun $\varphi \in (0, 2\pi)$, $\rho \in (R, R_1)$ shunday N

topiladiki, $m > N$ bo'lganda

$$\left\| \frac{\partial u_m(R_1, \varphi)}{\partial \rho} \right\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq \varepsilon; \quad \|u_m(\rho, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} > c > 0$$

tengsizliklar bajariladi:

Bundan ko'rinadiki, masala yechimi turg'un emas. Demak, qo'yilgan masala nokorrekt masala.

Turg'unlik bahosi.

Korrektlik to'plami sifatida

$$\|u(R, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq M$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi funksiyalar to'plamini olamiz.

Faraz qilaylik (1.1)-(1.6) masala yechimi mavjud va korrektlik to'plamiga tegishli bo'lsin

$u(\rho, \varphi)$ bigarmonik funksiyani ikkita $u_1(\rho, \varphi)$ va $u_2(\rho, \varphi)$ garmonik funksiyalar yig'indisi

$$u(\rho, \varphi) = (\rho^2 - R_1^2)u_2(\rho, \varphi) + u_1(\rho, \varphi) \quad (1.8)$$

ko'rinishda yozish mumkinligidan foydalanib, (1.1) - (1.6) masalani quyidagi ikkita masalaga keltiramiz:

1) $D = \{ (\rho, \varphi) : R < \rho < +\infty, 0 \leq \varphi \leq 2\pi \}$ sohada

$$\Delta u_1(\rho, \varphi) = 0, (\rho, \varphi) \in D \quad (1.9)$$

$$u_1(R_1, \varphi) = 0, 0 \leq \varphi \leq 2\pi \quad (1.10)$$

$$u_1(\rho, \varphi + 2\pi) = u_1(\rho, \varphi), \lim_{\rho \rightarrow \infty} u_1(\rho, \varphi) = 0(1), R < \rho < +\infty \quad (1.11)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u_1(\rho, \varphi)$ funksiya topilsin.

2) $D = \{ (\rho, \varphi) : R < \rho < +\infty, 0 \leq \varphi \leq 2\pi \}$ sohada

$$\Delta u_2(\rho, \varphi) = 0, (\rho, \varphi) \in D \quad (1.12)$$

$$\frac{\partial u_2(R_1, \varphi)}{\partial \rho} = \frac{1}{2R_1} f(\varphi), 0 < \varphi < 2\pi \quad (1.13)$$

$$u_2(\rho, \varphi + 2\pi) = u_2(\rho, \varphi), \lim_{\rho \rightarrow \infty} u_2(\rho, \varphi) = 0(1), R < \rho < +\infty \quad (1.14)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u_2(\rho, \varphi)$ funksiya topilsin.

Birinchi masala garmonik davom ettirish masalasi bo'lib [2], ushbu masala yechimining yagonaligidan $u_1(\rho, \varphi) = 0$ yechimga ega bo'ladi. Ikkinchi masalani hal etishda o'zgaruvchilarni ajratish usulidan foydalanamiz.

(1.12) - (1.14) masala yechimini

$$u_2(\rho, \varphi) = F(\rho)\Phi(\varphi) \quad (1.15)$$

ko'rinishda qidiramiz. (1.15) dan ikkinchi tartibli hosilalar olib, (1.12) ga qo'yamiz. Natijada

$$\begin{aligned} \frac{1}{\rho} \frac{\partial}{\partial \rho} \left(\rho \frac{\partial F(\rho)}{\partial \rho} \right) \Phi(\varphi) + \frac{1}{\rho^2} F(\rho) \Phi''(\varphi) &= 0, \\ -\frac{1}{\rho} \frac{\partial}{\partial \rho} \left(\rho \frac{\partial F(\rho)}{\partial \rho} \right) \Phi(\varphi) &= \frac{1}{\rho^2} F(\rho) \Phi''(\varphi). \end{aligned}$$

Oxirgi ifodani $\frac{1}{\frac{1}{\rho^2} F(\rho) \Phi(\varphi)}$ ga ko'paytirib, λ ga tenglab,

$$\frac{\frac{d}{d\rho} \left(\rho \frac{dF(\rho)}{d\rho} \right)}{\frac{1}{\rho} F(\rho)} = -\frac{\Phi''(\varphi)}{\Phi(\varphi)} = \lambda$$

tenglikni hosil qilamiz. Bundan esa quyidagi

$$\Phi''(\varphi) + \lambda \Phi(\varphi) = 0 \quad (1.16)$$

$$\rho \frac{d}{d\rho} \left(\rho \frac{dF(\rho)}{d\rho} \right) - \lambda F(\rho) = 0 \quad (1.17)$$

oddiy differensial tenglamalarga ega bo'lamiz. Bunda

$$u_2(\rho, \varphi + 2\pi) = u_2(\rho, \varphi), R < \rho < +\infty$$

shartlarga ko'ra

$$\Phi(\varphi + 2\pi) = \Phi(\varphi)$$

bo'lgani uchun $\sqrt{\lambda_n} = m$, m - butun son ekanligi kelib chiqadi.

U holda (1.16) tenglamaning umumiy yechimi

$$\Phi_n(\varphi) = \alpha_m \cos m\varphi + \beta_m \sin m\varphi, \quad (m=0,1,2,3,\dots) \quad (1.18)$$

ko‘rinishda ekanligini topamiz.

($m=0,1,2,3,\dots$) bo‘lganda (1.17) tenglamaning umumiy yechimi ushbu

$$F_0 = A_0 + B_0 \ln \rho, \quad F_m(\rho) = A_m \rho^m + B_m \rho^{-m} \quad (m=1,2,3,\dots) \quad (1.19)$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Bu qo‘yilgan masala yechimi uchun $F(+\infty)$ chegaralangan bo‘lishi kerak.

Shuning uchun (1.19) dan

$$F_0(\rho) = A_0, \quad F_m(\rho) = B_m \rho^{-m}, \quad (m=0,1,2,3,\dots)$$

bo‘ladi.

Shunday qilib, qaralayotgan tenglama yechimi

$$u_2(\rho, \varphi) = A_0 + \sum_{m=1}^{\infty} \rho^{-m} [A_m \cos m\varphi + B_m \sin m\varphi] \quad (1.20)$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu yerda A_m, B_m ixtiyoriy o‘zgarmas sonlar.

Endi chegaraviy shartlarni qanoatlantirishini tekshiramiz.

$$u_2(R_1, \varphi) = \frac{1}{2R_1} f(\varphi) \quad (1.21)$$

$$f(\varphi) = \frac{1}{2} a_0 + \sum_{m=1}^{\infty} (a_m \cos m\varphi + b_m \sin m\varphi) \quad (1.22)$$

bu yerda,

$$a_m = \frac{1}{\pi} \int_0^{2\pi} f(\varphi) \cos m\varphi d\varphi, \quad b_m = \frac{1}{\pi} \int_0^{2\pi} f(\varphi) \sin m\varphi d\varphi$$

a_m, b_m - $f(\varphi)$ funksiyaning Fur‘e koeffitsiyentlari.

(1.21) ning o‘ng tomonidagi $f(\varphi)$ o‘rniga (1.22) ni qo‘yib, mos koeffitsiyentlarini tenglaymiz va

$$A_0 = \frac{1}{4R_1} a_0, \quad A_m = \frac{a_m R^{m-1}}{2}, \quad B_m = \frac{b_m}{2} R_1^{m-1}$$

ni topamiz.

Topilganlarni o‘rniga qo‘ysak, chegaraviy shartni qanoatlantiruvchi yechim

$$u_2(\rho, \varphi) = \frac{1}{2R_1} \left(\frac{1}{2} a_0 + \sum_{m=1}^{\infty} \left(\frac{R_1}{\rho} \right)^m (a_m \cos m\varphi + b_m \sin m\varphi) \right) \quad (1.23)$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, (1.1) – (1.6) masalaning yechimi (1.8) formulaga ko‘ra

$$u(\rho, \varphi) = \frac{(\rho^2 - R_1^2)}{2R_1} \left(\frac{1}{2} a_0 + \sum_{m=1}^{\infty} \left(\frac{R_1}{\rho} \right)^m (a_m \cos m\varphi + b_m \sin m\varphi) \right) \quad (1.24)$$

ko‘rinishda yoziladi.

(1.24) yechim (1.6) shartni bajarishi uchun

$$a_m = \frac{1}{\pi} \int_0^{2\pi} f(\varphi) \cos d\varphi = 0, \quad (m=0,1,2,\dots), \quad b_m = \frac{1}{\pi} \int_0^{2\pi} f(\varphi) \sin d\varphi = 0, \quad (m=1,2,\dots)$$

shartlar bajarilishi kerak. Shuning uchun (1.1)- (1.6) masala yechimi

$$u(\rho, \varphi) = \frac{(\rho^2 - R_1^2)}{2R_1} \sum_{m=3}^{\infty} \left(\frac{R_1}{\rho} \right)^m (a_m \cos m\varphi + b_m \sin m\varphi) \quad (1.25)$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

(1.1)- (1.6) masala yechimining turg‘unligini xarakterlovchi quyidagi teorema o‘rinli bo‘ladi.

Teorema. Agar $u(\rho, \varphi)$ funksiya

$$\|u(R, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq M, \quad (1.26)$$

$$\int_0^{2\pi} \frac{\partial u(R_1, \varphi)}{\partial \rho} \cos m\varphi d\varphi = 0, m = 0, 1, 2,$$

$$\int_0^{2\pi} \frac{\partial u(R_1, \varphi)}{\partial \rho} \sin m\varphi d\varphi = 0, m = 1, 2,$$

$$\left\| \frac{\partial u(R_1, \varphi)}{\partial \rho} \right\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq \varepsilon \quad (1.27)$$

munosabatlarni qanoatlantirsa, u holda

$$\|u(\rho, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq \frac{|\rho^2 - R_1^2| \cdot M}{R_1^2 - R^2} \left(\frac{R}{\rho}\right)^{\lambda(\varepsilon)} \quad (1.28)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Bu yerda $\lambda(\varepsilon)$ son

$$\frac{R_1^2 - R^2}{2R_1} \left(\frac{R_1}{R}\right)^\lambda = \frac{M}{\varepsilon} \quad (1.29)$$

trantsendent tenglama ildizi.

Ushbu teoremdan korrektilik to'plamida qo'yilgan masala yechimining yagonaligi kelib chiqadi.

Natijalar va uning muhokamasi. Taqribiy yechimni qurish.

Matematik fizikaning qandaydir masalasini Tixonov ma'nosida korrektiligi ko'rsatilgandan keyin bu masalaning taqribiy yechimini qurish muammosi vujudga keladi.

Nokorrekt qo'yilgan masalalarning taqribiy yechimlarini qurish usullari ishlab chiqilganiga ancha bo'ldi. Tixonov 1963-yili nokorrekt qo'yilgan masalalarni taqribiy yechishga yangicha yondashishni ishlab chiqdi. Bu usulning nazariyasi regulyarlashtiruvchi oilalar tushunchasi bilan chambarchas bog'liq [2]. Aytaylik klassik ma'noda nokorrekt qo'yilgan matematik fizika masalasi berilgan bo'lsin.

α parametrغا bog'liq bo'lgan masalalar oilasi qaralayotgan nokorrekt masalaga nisbatan regulyarlashtiruvchi oila deyiladi, agar quyidagi ikkita shart bajarilsa:

1) $\forall \alpha > 0$ son uchun masalalar oilasiga qarashli bo'lgan masala klassik korrekt qo'yilgan.

2) agar berilgan funksiyalar shunday bo'lsaki, bunda qaralayotgan nokorrekt masala yechimi mavjud bo'lsa, u holda $\alpha \rightarrow 0$ da masalalar oilasidagi xuddi shunday berilgan funksiyalarga bog'liq masala yechimlari ketma - ketligi nokorrekt masala yechimiga intiladi.

α ni regulyarlashtirish parametri deyiladi. Ba'zida n butun sonli parametrغا bog'liq regulyarlashtiruvchi oilalar qaraladi va bunda ikkinchi shartda oilaga qarashli bo'lgan masala yechimini $n \rightarrow \infty$ da qaralayotgan nokorrekt masala yechimiga intilishi talab etiladi.

α yoki n parametrغا bog'liq operatorlar oilasi berilgan nokorrekt masalaga nisbatan regulyarlashtiruvchi operatorlar oilasi deyiladi, agar quyidagi ikki shart bajarilsa:

1) $\forall \alpha > 0$ ($n > 0$) uchun oiladagi har bir operatorlar uzluksiz bo'lsa;

2) $\alpha \rightarrow 0$ ($n \rightarrow \infty$) bo'lgan holda $B_\alpha f_\delta \rightarrow Bf$ bo'lsa, bu yerda $B_\alpha f_\delta$ - taqribiy yechim,

Bf - aniq yechim.

n butun sonli parametrغا bog'liq holda quyidagicha aniqlangan B_n chizikli operatorlar oilasini qaraymiz:

$$B_n f(\varphi) = \frac{\rho^2 - R_1^2}{2R_1} \sum_{m=3}^n \left(\frac{R_1}{\rho}\right)^m (a_m \cos m\varphi + b_m \sin m\varphi), \quad (1.30)$$

bu yerda, $a_m = \frac{1}{\pi} \int_0^{2\pi} f(\varphi) \cos m\varphi d\varphi$, $b_m = \frac{1}{\pi} \int_0^{2\pi} f(\varphi) \sin m\varphi d\varphi$, $f(\varphi)$ funksiyaning Fur'e

koefitsiyenti.

Agar $f(\varphi)$ va $u(\rho, \varphi)$ yechim $L_2(0, 2\pi)$ Gilgbert fazosining elementlari deb qaralsa, u holda B_n operatorlar oilasi regulyarlashtiruvchi bo'ladi [2].

Endi bu operatorlar oilasini (1.1) - (1.6) masalaning taqribiy yechimini qurishga qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, bizga (1.1)–(1.6) masala shartli korrekt qo'yilgan va $\|u(R, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq M$ tengsizlik orqali korrektilik to'plami aniqlangan bo'lsin.

Aytaylik, $f(\varphi)$ funksiya δ gacha aniqlikda berilgan bo'lsin, ya'ni $f(\varphi)$ o'rniga $f_\delta(\varphi)$ funksiya berilgan bo'lib,

$$\|f_\delta(\varphi) - f(\varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq \delta \quad (1.31)$$

bo'lsin.

(1.1) - (1.5) masalaning taqribiy yechimi sifatida quyidagi funksiyani olamiz:

$$u_{n\delta}(\rho, \varphi) = \frac{(\rho^2 - R_1^2)}{2R_1} \sum_{m=3}^n \left(\frac{R_1}{\rho}\right)^m (\bar{a}_m \cos m\varphi + \bar{b}_m \sin m\varphi), \quad (1.32)$$

bu yerda,

$$\bar{a}_m = \frac{1}{\pi} \int_0^{2\pi} f_\delta(\varphi) \cos m\varphi d\varphi,$$

$$\bar{b}_m = \frac{2}{\pi} \int_0^{2\pi} f_\delta(\varphi) \sin m\varphi d\varphi$$

$f_\delta(\varphi)$ funksiyaning Fur'e koeffitsiyenti.

Endi $u_{n\delta}(\rho, \varphi)$ va $u(\rho, \varphi)$ funksiyalar orasidagi farqni baholaymiz.

$$\begin{aligned} \|u(\rho, \varphi) - u_{n\delta}(\rho, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} &= \|B_n f_\delta(\varphi) - u(\rho, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} = \\ &= \|B_n f_\delta(\varphi) - u(\rho, \varphi) + B_n f(\varphi) - B_n f(\varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq \\ &\leq \|B_n [f_\delta(\varphi) - f(\varphi)]\|_{L_2(0, 2\pi)} + \|B_n f(\varphi) - u(\rho, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq \\ &\leq \|B_n\|_{L_2(0, 2\pi)} \delta + \|B_n f(\varphi) - u(\rho, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \end{aligned} \quad (1.33)$$

(1.26) va (1.27) tengliklardan

$$\|B_n f(\varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} = \frac{|\rho^2 - R_1^2|}{2R_1} \left(\frac{R_1}{\rho}\right)^n \quad (1.34)$$

$$\|B_n f(\varphi) - u(\rho, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)}^2 = \frac{(\rho^2 - R_1^2)^2}{4R_1^2} \sum_{m=n+1}^{\infty} \left(\frac{R_1}{\rho}\right)^{2m} c_m^2 \quad (1.35)$$

tengliklar kelib chiqadi. Bu yerda $c_m^2 = a_m^2 + b_m^2$.

Endi (1.35) funksionalni

$$\frac{(R_1^2 - R^2)^2}{4R_1^2} \sum_{m=3}^{\infty} \left(\frac{R_1}{R}\right)^{2m} c_m^2 \leq M^2 \quad (1.36)$$

shart ostida shartli maksimumga tekshiramiz. Buning uchun

$$L(c_m, \lambda) = \frac{(\rho^2 - R_1^2)^2}{4R_1^2} \sum_{m=n+1}^{\infty} \left(\frac{R_1}{\rho}\right)^{2m} c_m^2 + \lambda \left[\frac{(R_1^2 - R^2)^2}{4R_1^2} \sum_{m=3}^{\infty} \left(\frac{R_1}{R}\right)^{2m} c_m^2 - M^2 \right]$$

Lagranj funksiyasini tuzib, bu funksiyaning c_m , λ argumentlar bo'yicha xususiy hosilalarini nolga tenglaymiz:

$$\frac{\partial L}{\partial c_m} = 2c_m \frac{(R_1^2 - R^2)^2}{4R_1^2} \left(\frac{R_1}{R}\right)^{2m} = 0, \quad m = \overline{1, n},$$

$$\frac{\partial L}{\partial c_m} = 2c_m \left[\frac{(\rho^2 - R^2)^2}{4R_1^2} \left(\frac{R_1}{\rho}\right)^{2m} + \lambda \frac{(R_1^2 - R^2)^2}{4R_1^2} \left(\frac{R_1}{R}\right)^{2m} \right] = 0, \quad m = \overline{n+1, \infty},$$

$$\frac{\partial L}{\partial \lambda} = \frac{(R_1^2 - R^2)^2}{4R_1^2} \sum_{m=3}^{\infty} \left(\frac{R_1}{R}\right)^{2m} c_m^2 - M^2 = 0, \quad m = \overline{1, \infty}$$

Bu tengliklardan (1.38) funksional $c_m = 0$, $m \neq n+1$, $c_{n+1} = \frac{2R_1 M}{R_1^2 - R^2} \left(\frac{R}{R_1}\right)^{n+1}$ bo'lganda shartli maksimumga erishishi kelib chiqadi. Demak,

$$\|B_n f(\varphi) - u(\rho, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq \frac{|\rho^2 - R^2|}{R_1^2 - R^2} M \left(\frac{R}{\rho}\right)^{n+1} \quad (1.37)$$

(1.33), (1.34), (1.37) munosabatlardan foydalanib,

$$\|u(\rho, \varphi) - u_{n\delta}(\rho, \varphi)\|_{L_2(0, 2\pi)} \leq |\rho^2 - R_1^2| \left[\left(\frac{R_1}{\rho}\right)^n \frac{\delta}{2R_1} + \left(\frac{R}{\rho}\right)^{n+1} \frac{M}{R_1^2 - R^2} \right] \quad (1.38)$$

tengsizlikka ega bo'lamiz. Bu yerda $n = [n(\delta)] + 1$,

$$n(\delta) = \inf_n \left[\left(\frac{R_1}{\rho}\right)^n \frac{\delta |\rho^2 - R_1^2|}{2R_1} + \left(\frac{R}{\rho}\right)^{n+1} \frac{M |\rho^2 - R_1^2|}{R_1^2 - R^2} \right]$$

Shunday qilib, $L_2(0, 2\pi)$ da (1.1) - (1.6) masala to'la tekshirildi.

Xulosa. Ushbu maqolada doira tashqarisida to'rtinchi tartibli elliptik tipdagi differensial bigarmonik tenglama uchun ichki-chegaraviy masala o'rganilgan. Bu masalaning Adamar ma'nosida nokorrekt ekanligi ko'rsatilib, Tixonov ma'nosidagi korrektilikka tekshirilgan hamda korrektilik to'plamining yuqori chegarasi berilgan holda masalaning aniq yechimiga intiluvchi taqribiy yechimi qurilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Tolipov Nodirjon Isaqovich, "Chorak doira tashqarisida bigarmonik tenglama uchun nokorrekt qo'yilgan masala" *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*. 1.18 (2023): 73-83 b.
2. Лаврентьев М.М. Некорректные задачи для дифференциальных уравнений. Новосибирск. 1981.
3. Тихонов А.Н., Самарский А.А. Уравнения математической физики. –М.: Наука, 2004. – 798 с.
4. Лаврентьев М.М., Савельев Л.Я. Теория операторов и некорректные задачи. 2-е изд., перераб. и дополн. Новосибирск: Изд-во Ин-та математики, 2010. 941 с.
5. Фаязов К.С., Хажиев И.О. Условная корректность краевой задачи для составного дифференциального уравнения четвертого порядка. *Известия вузов, Математика*. 2015, № 4, С. 65 - 74, РАН.
6. Хажиев И.О. Исследования некорректной краевой задачи для уравнения третьего порядка составного типа. *Вестник НУУз*, 2011, №4/1. С. 222-224
7. Dinamik sistemalarning dolzarb muammolari va ularning tadbiqlari Respublika ilmiy konferensiyasi (xorijiy olimlar ishtirokida) materiallari 1 – 3 May, 2017 yil 57-58 b.

**ПРИМЕНЕНИЕ СВЁРТОЧНЫХ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ ДЛЯ ДИАГНОСТИРОВАНИЯ
РАКА ЛЁГКИХ НА РАННИХ СТАДИЯХ**

*Мухаммадиева Дилдора Кабиловна,
профессор Ташкентского университета информационных
технологий имени Мухаммад ал- Хоразмий, д.т.н.*

zulfinisozulfiniso@icloud.com

*Муродиллоева Зулфинисо Ҳаким қизи,
Ташкентского университета информационных
технологий имени Мухаммад ал- Хоразмий Ассистент*

zulfiniso@mail.ru

Аннотация: Мультиспиральная компьютерная томография (МСКТ) является основной методикой исследования томографии в медицине. Изображение органов и тканей МСКТ позволяет осуществлять диагностику заболеваний и повреждений внутренних органов и систем человека.

Для решения задачи предлагается использовать современные архитектуры свёрточных нейронных сетей: ResNet50 и Xception. Результатом работы являются обученные нейронные сети указанных архитектур и эксперименты с их гиперпараметрами (метод обучения, скорость обучения, количество эпох)

Ключевые слова: нейронная сеть, рак легких, датасет, Keras, TensorFlow.

**O'PKA SARATONINI ILK BOSQICHDA DIAGNOSTIKA QILISH UCHUN
KONVOLIYUTSION NEYRON TARMOQLARINI QO'LLASH**

Annotatsiya: Multispiral kompyuter tomografiyasi (MSCT) tibbiyotda tomografiyani o'rganishning asosiy usuli hisoblanadi. MSCT organlari va to'qimalarining tasviri ichki organlar va inson tizimlarining kasalliklari va shikastlanishlarini aniqlashga imkon beradi.

Muammoni hal qilish uchun konvolyutsion neyron tarmoqlarining zamonaviy ResNet50 va Xception arxitekturalaridan foydalanish taklif etiladi. Ishning natijasi sifatida belgilangan arxitekturalarning o'rganilgan neyron tarmoqlari va giperparametr(o'rganish usuli, o'rganish tezligi, davrlar soni)larning tajribalari hisoblanadi.

Kalit so'zlar: neyron tarmoq, o'pka saratoni, ma'lumotlar to'plami, Keras, TensorFlow.

**APPLICATION OF CONVOLUTIONAL NEURAL NETWORKS FOR DIAGNOSTICS OF
EARLY STAGE LUNG CANCER**

Annotation: Multislice computed tomography (MSCT) is the main technique for studying tomography in medicine. Image of organs and tissues MSCT allows diagnosing diseases and injuries of internal organs and systems of a person.

To solve the problem, it is proposed to use modern convolutional neural network architectures: ResNet50 and Xception. The result of the work is trained neural networks of these architectures and experiments with their hyperparameters (training method, learning rate, number of epochs)

Keywords: neural network, lung cancer, dataset, Keras, TensorFlow.

Введение.

Рассматривается база данных снимков компьютерной томографии лёгких (The IQ OTHNCCD lung cancer). База данных содержит изображения размера 512x512 в оттенках серого. С помощью четырех различных моделей нейронных сетей предсказывалась принадлежность изображений одному из двух классов: здоровый пациент, больной пациент [1].

Модели будут сравниваться по качеству предсказания на тестовых данных после обучения. Планируется в результате определить стадию болезни и сравнить производительность всех моделей в зависимости от изменения параметров при обучении нейронной сети.

Описание задачи.

Рассмотрим снимки здоровых и больных с заболеванием рака лёгких[2].



Рисунок.1. Снимки людей со здоровыми лёгкими




Рисунок. 2. Снимки людей больных с раком лёгких

Рассмотрим структуру датасета “IQ OTHNCCD lung cancer”. IQ OTHNCCD lung cancer- это датасет, состоящий из снимков людей со здоровыми лёгкими и больных с раком лёгких. Он включает в себя 977 наблюдений, полученных от 100 пациентов. Таким образом, датасет IQ OTHNCCD lung cancer содержит снимки внутренних органов, т.е лёгких. Каждое наблюдение было проведено аппаратурой отмечено как "0" – здоровый или "1" – больной [3].

Аугментация - это методика увеличения обучающей выборки из уже имеющихся данных. Существует множество разновидностей аугментации, но чаще всего на практике применяют различные отражения, как по горизонтали (*horizontal flip*), диапазон сдвига (*shear range*), приближение (*zoom range*) и др. В данной работе аугментация реализована с помощью функций из библиотеки keras.

Аугментация

```
train_datagen=ImageDataGenerator(
    preprocessing_function=keras.applications.resnet50.preprocess_input,
    shear_range=0.2,
    zoom_range=0.2,
    horizontal_flip=True)
```

```
test_datagen=ImageDataGenerator(
    preprocessing_function=keras.applications.resnet50.preprocess_input,)
```

Обучение проводилось в сервисе Google Colaboratory с сохранением весов предобученной модели. Данные были разделены на две части: тренировочные (*train data*) и тестовые (*test data*).

Решение


Использовались 2 типа архитектур нейронных сетей.

Нейронная сеть ResNet-50


К началу 2015 года общая тенденция в разработке глубоких моделей состоит в увеличении количества свёрточных слоев. С ростом глубины сети точность растёт и затем быстро начинает уменьшаться (деградировать). Проблема деградации глубоких моделей не является следствием переобучения модели, добавление дополнительных слоев приводит к еще большему значению тренировочной ошибки из-за затухающих градиентов (*vanishing gradients*). Сети ResNet решают эту проблему. Идея – предположить, что некоторая последовательность слоев сети аппроксимирует не базовое отображение, а остаточное отображение [3].

$H(x)$ – базовое отображение. $F(x)=H(x)-x$ – остаточное отображение. Базовое отображение можно представить как поэлементное сложение карт признаков $F(x)+x$.

$F(x)$ и x могут иметь разную размерность, чтобы исправить эту ситуацию достаточно выполнить проекцию входного вектора признаков $y = F(x, W_i) + W_s x$



Модели ResNet-50, 101, 152 построены по принципу наращивания сверточных слоев, проблема деградации моделей решается посредством введения остаточных связей для каждой последовательной тройки сверточных слоев.




Нейронная сеть Хсептион

Хсептион (Extreme version of Inception) – модификация модели Inception-v3, в которой используются *модифицированные отдельные по глубине свертки* (modified depthwise separable convolution). Модифицированные отдельные по глубине свертки состоят из двух преобразований:

- *Точечная свёртка* (pointwise convolution) – свертка 1x1 по третьей размерности, соответствующей каналам в карте признаков
- *Пространственная свертка* по отдельным каналам (depthwise convolution) – свертка NxN, применяемая к отдельным каналам карты признаков.


В классическом виде порядок преобразований обратный.

Пример модифицированной отдельной по глубине свертки:




Как использовать? Упрощенный inception-блок:


- Используем только один вид размер ядра свертки 3x3
- Удалим последовательность преобразований, содержащих пространственное объединение



Более сильная гипотеза – межканальные и пространственные корреляции могут быть отображены полностью раздельно. Упрощённый модуль можно представить как свертку 1x1, за которой следуют пространственные свертки 3x3, применяемые к непересекающимся сегментам выходных каналов[4].




«Экстремальная» версия insertion-блока основана на приведённой гипотезе. Сначала используется свертка 1x1 для отображения межканальных корреляций, а затем отдельно отображаются пространственные корреляции каждого выходного канала.




«Экстремальная» версия insertion-блока идентична рассмотренной модифицированной отделимой по глубине свертке. Архитектура модели Xception построена с использованием «экстремальных» insertion-блоков и связей, позволяющих использовать карты признаков с разных уровней детализации.


Архитектура модели Xception (начальная часть, Entry Flow):



Архитектура модели Xception (средняя часть, Middle Flow):



Архитектура модели Xception (выходная часть, Exit Flow):



Результаты и эксперименты.

В процессе работы был проведён ряд экспериментов, включающих в себя изменение таких важных параметров, как: количество эпох (epochs), применение различных оптимизаторов (optimizer) и изменения скорости обучения (lr). Оценивалась точность предсказания обученной модели на тестовых данных – Loss, Accuracy, Val_loss и Val_accuracy [4].

Model	Loss	Accuracy	Val_loss	Val_accuracy	Optimizer/lrate	Epochs
ResNet50	0.1228	0.9800	0.1736	0.9187	sgd/0.0001	5
ResNet50	0.0734	0.9804	0.1390	0.9187	sgd/0.0001	10
ResNet50	0.0160	0.9973	0.0560	0.9688	sgd/0.001	15
ResNet50	0.0089	1.0000	0.0599	0.9688	sgd/0.001	20
Xception	0.9025	0.9432	0.6415	0.9438	sgd/0.0001	5
Xception	0.5342	0.9704	1.3273	0.9125	sgd/0.0001	10
Xception	0.1430	0.9808	0.5191	0.9500	sgd/0.00001	15
Xception	0.1629	0.9817	0.1165	0.9688	sgd/0.00001	20

Для двух архитектур нейронных сетей (ResNet50 и Xception) был получен наилучший результат валидации (Val_accuracy) при количестве 20 эпох.

Легко заметить, что в случае, когда Xception обучалась 10 эпох со скоростью обучения (lr) равной 0.0001 было достигнуто переобучение нейронной сети. Это видно, так как при аналогичной скорости обучения на 5-й эпохе была получена значительно более высокая точность. Следовательно, необходимо понижать скорость обучения.

Поскольку архитектура Xception является более сложной, то для достижения результата, совпадающего с ResNet50 (Val_accuracy = 0.9688) потребовалось использовать более низкую скорость обучения.

Заключение.

- Для классификации изображений были применены 2 модели свёрточных нейронных сетей с использованием библиотек Tensorflow и Keras.
- Была произведена предобработка данных
- Были проведены эксперименты с выбранными нейронными сетями
- По результатам экспериментов была сделаны выводы и была достигнута точность тестирования Val_accuarcy = 0.9688.

ЛИТЕРАТУРА:

1. *Нейронная сеть* // Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017.
2. *McCulloch W.C. H. A Logical Calculus of Ideas Immanent in Nervous Activity.* / W. C. McCulloch, W. H. Pitts. // *Bulletin of Mathematical Biophysics.* — 1943/ - Vol. 5. — P. 115-119.
3. *Розенблатт Ф. Принципы нейродинамики: Перцептроны и теория механизмов мозга.* / Ф. Розенблатт. — М.: Мир, 1965. —480 с.
4. *Москалев Н. С. Виды архитектур нейронных сетей* // Молодой ученый. — 2016. — №29. — С. 30-34. — URL <https://moluch.ru/archive/133/37121/> (дата обращения: 17.12.2018).
5. *Галушкин А. И. Теория нейронных сетей.* — М.: Издательское предприятие редакции журнала «Радиотехника», 2000.
6. *Smith L. An Introduction to Neural Networks. Unpublished draft, University of Stirling, 2001.* <http://www.cs.stir.ac.uk/~lss/NNIntro/InvSlides.html>
7. *Короткий С. Нейронные сети: основные положения.* <http://www.gotai.net/documents/doc-nn-002.aspx>.
8. *Y. LeCun, B. Boser, J. S. Denker, D. Henderson, R. E. Howard, W. Hubbard and L. D. Jackel: Backpropagation Applied to Handwritten Zip Code Recognition, Neural Computation, 1(4):541-551, Winter 1989.*
9. *Convolutional Neural Networks (LeNet) - DeepLearning 0.1 documentation. DeepLearning 0.1. LISA Lab. Дата обращения: 31 августа 2013.*
10. *Matusugu, Masakazu; Katsuhiko Mori; Yusuke Mitari; Yuji Kaneda. Subject independent facial expression recognition with robust face detection using a convolutional neural network (англ.)// Neural Networks : journal. — 2003. — Vol. 16, no. 5. — P. 555—559. — doi:10.1016/S0893-6080(03)00115-1.*

YUPQA PLYONKALAR STRUKTURASINI TAHLIL QILISH

Tursunov Alisher Ravshan o'g'li,

Toshkent kimyo – texnologiya instituti Shahrisabz filiali o'qituvchisi
alishertursunov260@gmail.com

Axmedov Akbar Akramovich,

Toshkent kimyo – texnologiya instituti Shahrisabz filiali o'qituvchisi
akbarakramovich1111@gmail.com

Toshboboyev Shohzod Mahkam o'g'li,

Toshkent kimyo – texnologiya instituti Shahrisabz filiali o'qituvchisi
shahzodshahriyor1992202120@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yupqa plyonkalar strukturasi tahlil qilish asosida ularning fizik va kimyoviy xususiyatlari o'rganilgan. Bunda asosan zamonaviy mikroskopik tekshiruvlardan foydalanilgan. Bu mikroskoplar asosan tunnel mikroskopi va atom kuch mikroskolaridan foydalanilgan. Bu tekshiruvlar materialning tarkibi va xususiyatlari kristallitlarning soni, o'lchami, noto'g'ri yo'nalishi, ularning nuqsonlari va plyonkalarda tekstura mavjudligini aniqlashga imkon beradi. Bu xususiyatlar plyonkalarining mexanik xususiyatlariga sezilarli ta'sir qiladi.

Kalit so'zlar : yupqa plyonka , mikroskop, mikroelektronika, nanoelektronika, mikron, agregat, qatlam, qalinlik.

АНАЛИЗ СТРУКТУРЫ ТОНКИХ ПЛЁНОК

Аннотация. В данной статье на основе анализа структуры тонких плёнок исследуются их физические и химические свойства. При этом в основном использовались современные микроскопические исследования. Эти микроскопы в основном представляют собой туннельные микроскопы и атомно-силовые микроскопы. Эти тесты позволяют определить состав и свойства материала, количество, размер, разориентацию кристаллитов, их дефекты и наличие текстуры в пленках. Эти свойства существенно влияют на механические свойства пленок.

Ключевые слова: тонкая пленка, микроскоп, микроэлектроника, нанoeлектроника, микрон, агрегат, слой, толщина.

ANALYSIS OF THE STRUCTURE OF THIN FILMS

Abstract. In this article, based on the analysis of the structure of thin films, their physical and chemical properties are studied. In this, modern microscopic examinations were mainly used. These microscopes are mainly tunneling microscopes and atomic force microscopes. These tests allow to determine the composition and properties of the material, the number, size, misorientation of crystallites, their defects and the presence of texture in the films. These properties significantly affect the mechanical properties of films.

Key words: thin film, microscope, microelectronics, nanoelectronics, micron, aggregate, layer, thickness.

Kirish. Tabiatda keng tarqalgan barqaror holatlardan biri yupqa qatlamlardir. Tabiatning o'zi sirtida yupqa qatlamlarni hosil qiladi turli obektlarni, shu bilan ularni turli ta'sirlardan himoya qiladi. Metallar yuzasida, shisha yuzasida kremniy oksidli plyonka hosil bo'ladi.

Hozirgi kunga kelib yupqa plyonkalar mikro va nanoelektronikaning asosini tashkil qilmoqda. Yupqa plyonka - qalinligi 1 mikrondan kam bo'lgan plyonka. 1 mkm dan yuqori kondensatsiyalangan moddalar qatlamlari qalin plyonkalar, qoplamalar yoki plyonkalar deb ataladi. Plyonkalar va qoplamalar odatda taglikda qo'llaniladi va folga qalinligi 2 dan 100 mkm gacha bo'lgan erkin kondensatsiyalangan plastik material qatlamidir. Yupqa plyonka uchun quyma jismning xususiyatlari asosan o'ziga xosdir, ammo o'lcham effektlari tufayli uning xususiyatlari sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki,

plyonka yuzasida va uning sirtga yaqin qatlamida ($10 \div 20$ nm gacha) kvant mexanikasi ta'siri aniq namoyon bo'ladi. Yupqa plyonkalarining to'liq o'rganilgan tasnifi mavjud emas, lekin qulaylik uchun ularning qalinligi, agregatsiya holati, kristall tuzilishi, kimyoviy bog'lanish, kimyoviy va fizik xususiyatlari, qayta ishlash texnologiyasi, ulardan tayyorlangan mahsulotlar turi va boshqalar bo'yicha tizimlashtirish mumkin. Qalinligi bo'yicha yupqa plyonkalar odatda nanometr ($0,1 \div 100$ nm) va submikron ($0,1 \div 1$ mkm) ga bo'linadi. Odatda ushbu atama ham qo'llaniladi - qalinligi bir necha atom mono qatlamlari ($0,1 \div 10$ nm) gacha bo'lgan ultra yupqa plyonkalar. Bunday qatlamlarda kattalik va kvant o'lchamli effektlar muhim rol o'ynaydi. Qalinligi 10 nm dan yuqori plyonkalar oddiygina nozik hisoblanadi. Plyonkalar agregat holatiga ko'ra, prinsipial jihatdan ular odatda qattiq yoki suyuq holatda - kondensatsiyalangan holatda bo'ladi.

Plyonkalar tuzilishi jihatidan bir kristalli, polikristalli, shishasimon, amorf, keramik, polimerik, suyuq kristall, suyuq va boshqalar bo'lishi mumkin. Plyonka bir-biriga bog'langan kondensatsiyalangan moddaning yupqa qatlamidir. Plyonka taglikka yotqizilgan kukunlar yoki cho'kindi qatlamlardan aniq ajratish kerak. Plyonkadan farqli o'laroq, kukun yoki cho'kma bir-biri bilan deyarli bog'lanmagan alohida zarralardan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, atmosferadagi gaz atomlari kondensatsiyalangan moddaning yuzasida ham adsorbsiyalanadi. Bunday "gazsimon qatlam"da atomlar yoki molekularlar, qoida tariqasida, bir-biridan ancha uzoqda joylashgan bo'lib, uzluksiz qatlam hosil qilmaydi va odatda sirt bilan bir-biriga qaraganda kuchliroq ta'sir qiladi. Nanostrukturali yupqa plyonkalar zamonaviy texnologiyada katta ahamiyatga ega. Ilmiy-texnika sohasida bunday plyonkalardan foydalanish juda katta ahamiyatga ega. Ular fan va texnikaning turli sohalarida, masalan, quyosh energiyasini o'ta o'tkazuvchan qurilmalarda elektr energiyasiga aylantirish uchun himoya qoplamalari sifatida, mikroorientatsiya va funksional va nanoelektronika, kompyuter texnologiyalari, tibbiyot, farmakologiya, qishloq xo'jaligi va boshqalarda qo'llaniladi. Yupqa plyonkalar kondensatsiyalangan moddaning g'ayrioddiy holatidir. Bu hosil bo'lish jarayonining tabiati bilan bog'liq. Yupqa plyonkalar sirtidagi moddaning atom yoki molekulyar zarralarini kondensatsiya qilish, atom zarralarini (ionlarini) yotqizilgan sirt kimyoviy bug'ining yupqa qatlamlariga kiritish boshqalar orqali olinadi. Yupqa plyonkalarining shakllanishi sirtida cho'kish paytida ko'plab jarayonlarni o'z ichiga oladi yani qattiq yoki gazsimon suyuqlik bo'lishi mumkin bo'lgan kondensatsiyalangan fazadan moddalarning o'tkazilishi bug' bo'shlig'idagi moddani taglikka o'tkazish (odatda pasaytirilgan bosim ostida) taglikka yetib boradigan bug'ning kondensatsiyasi hisoblanadi. Birinchi ikkita jarayon yupqa plyonkalarni olishning turli usullari uchun sezilarli darajada farq qiladi va har bir cho'kish usuli uchun alohida ko'rib chiqiladi. Kondensatsiya jarayonlarining kinetikasiga adsorbsiya, yadrolanish, o'sish va yangi fazaning birlashishi jarayonlari kiradi.

Metodlar. Yupqa plyonkalar strukturasi tahlil qilishda asosan quyidagi asosiy metodlar qo'llaniladi. Strukturaviy rentgen tahlili va elektron diffraksiyasi, neytron diffraksiyasi usullari asosida monokristalli va polikristal plyonkalarining strukturaviy xususiyatlarini kristallitlarning soni, o'lchami, noto'g'ri yo'nalishi, ularning nuqsonlari va plyonkalarda tekstura mavjudligini aniqlashga imkon beradi. Bu xususiyatlar plyonkalarining mexanik xususiyatlariga sezilarli ta'sir qiladi. Tekstura - polikristallar yoki molekularlardagi kristallitlarning ustun yo'nalishi amorf materiallarda, suyuq kristallarda, polimerlarda xossalarning anizotropiyasiga olib keladi. Plyonkadagi to'qimalarni yo'naltirilgan o'tkir yoki lamelli kristallitlar mavjudligi bilan aniqlash mumkin. To'qimalar plyonka hosil bo'lganda yoki uning qayta kristallanishi paytida paydo bo'ladi. Shuning uchun, qoplamaning tayyorlash yoki uning issiqlik bilan ishlav berish parametrlarini o'zgartirish orqali materialning tuzilishini sezilarli darajada o'zgartirish mumkin. Skanerli elektron mikroskopiya yuqori vakuum sharoitida elektron nurlar yordamida namuna sirtini kuzatish va suratga olishga asoslangan. Skanerli elektron mikroskopiya o'lchamlari $5 \div 20$ nm ni tashkil qiladi, bu plyonkalar, qatlamli kristallitlar yuzasining relyefi va tuzilishini o'rganish imkonini beradi. Rentgen nurlarining diffraksiyasi epitaksial tuzilmalar va boshqa yupqa plyonkali materiallarni o'rganish uchun juda qimmatli texnikadir. Panjara parametrlarini o'lchashning aniq usullarini qo'llash epitaksial strukturaning panjarasi va u o'stirilgan plyonka o'rtasidagi nomuvofiqlikni katta aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. Ushbu parametrlarning mos kelmasligi epitaksial tuzilmalarga asoslangan qurilmalarning muhim xususiyatidir, masalan, xotira elementlari uchun magnit granat plyonkalari, LEDlar va yuqori tezlikdagi tranzistorlar uchun qo'shilgan GaAs plyonkalari, infraqizil detektorlar va boshqa muhim mikroelektronika mahsulotlari. Yupqa plyonka uchun yana bir qiziqarli dastur shundaki, termal kengayish koeffitsienti rentgen difraktometri harorat adapteri yordamida panjara parametrlarini haroratga nisbatan grafigini tuzish orqali aniqlanishi mumkin. Vakuumda yarimo'tkazgichlar, metallar va dielektriklarning kerakli xossalari, strukturaviy-fazaviy holati va kristallografik yo'nalishi bo'lgan yuqori sifatli yupqa qatlamlarni yaratish yangi nanotexnologik muammolarni hal qilishning zarur shartidir. Turli usullar bilan olingan plyonkalar va tagliklarni o'z ichiga olgan kichik o'lchamdagi namunalarda xarakterli o'lchamga qarab faza o'tish haroratining o'zgarishi


kuzatiladi. Fazalar shakllanadi va barqarorlashadi, ular bir xil sharoitlarda ommaviy namunalarda kuzatilmaydi. Nanoobektlardan massiv obektlarning fazaviy tarkibidagi farqlar turli sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin. Plyonkalar uchun tayyorlash shartlari hal qiluvchi shartlar bo'lishi mumkin, kondensatsiya jarayonining kinetikasi kondensatsiyalanuvchi zarrachalarning yetarli diffuziya harakatchanligini ta'minlay olmaydi. Diffuziya harakatchanligi uchun yetarli bo'lgan yuqori kondensatsiya haroratida belgilovchi shart xarakterli o'lchamdir. Bunday sharoitda kondensatsiya jarayonida minimal erkin energiyaga ega bo'lgan faza bo'ladi. Yupqa plyonkalarining xususiyatlari, ayniqsa, har bir qatlamning kichik qalinligi bo'lgan ko'p qatlamli nozik plyonkalarda, quyma materiallardan juda farq qiladi. Bunday "anomal" xususiyatlar plyonka hosil bo'lish jarayonida sodir bo'ladigan jarayonlar natijasida hosil bo'lgan nozik plyonkaning tuzilishining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Rezistiv plyonkani vakuumda cho'ktirishda, yotqizilgan materialning bug' fazasidan kondensatsiya paytida plyonka hosil bo'lish mexanizmi eng tushunarli. Ko'pincha, taglik sifatida amorf material yoki plyonka panjarasidan boshqa kristall panjara davriga ega bo'lgan material ishlatiladi. Cho'kish jarayonida bug'langan moddaning taglikka yetib boradigan atomlari adsorbsiyalanishi va plyonka yuzasiga mahkam o'rnatilishi, bir muncha vaqt o'tgach aks ettirilishi yoki bug'lanishi mumkin. Taglikka urilgan atomlar yuqori energiyaga ega (kJ dan ancha yuqori), shuning uchun plyonka ustida intensiv ravishda ko'chib o'tadigan atomlar asta-sekin energiyani yo'qotadi. Cho'kishning dastlabki bosqichlarida bazi adsorbsiyalangan atomlar bir-biri bilan mikro markazlari yoki yadrolar deb ataladigan kichik klasterlarda birlashadi, bu jarayon yadrolanish deb ataladi. Yadrolanish jarayonini amalga oshirish uchun bug'langan atomlar oqimi adsorbsiyalangan atomlar oqimidan kattaroq bo'lishi kerak. Yadro kritik hajmga yetganda, yadroning o'sish jarayoni qaytarilmas holga keladi. Yadrolarning soni va hajmini oshirish va bir jinsli yupqa qatlamli kondensat hosil bo'lish jarayoni plyonka o'sishi deb ataladi. Yadrolarning hosil bo'lishi va o'sishi yupqa qatlamli kondensat hosil bo'lishida bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi.

Yupqa plyonkalar noyob mikrostrukturali obyektlardir. Ular bir kristalli, polikristalli yoki amorf qatlamlar shaklida yaratilishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, plyonkalarining mikro tuzilishi asosan plyonka yotqizilgan taglikka va tayyorlash shartlariga bog'liq. Ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish orqali yupqa plyonkalarining turli mikro tuzilmalarini olish mumkin. Masalan, Si ning yupqa qatlamlarini monokristal, polikristal va amorf shaklda olish mumkin. Shuning uchun struktura bilan aniqlangan ko'plab fizik xususiyatlarni yupqa qatlamli namunalarda o'rganish qulayroqdir. Epitaksial yupqa plyonka, odatda, ma'lum bir kristallografik yozishmalarga ega bo'lgan bir kristalli taglikda o'stirilgan bir kristalli qatlam sifatida tushuniladi. Yuqori qatlam taglik bilan bir xil tarkibga ega bo'lsa, u gomoepitaksial deb ataladi. Agar yuqori qatlam boshqa tarkibga ega bo'lsa, u geteroepitaksial deb ataladi. Epitaksial monokristal plyonkalar odatda dislokatsiyalar, nosozliklari va pastki tuzilmalar kabi nuqsonlarni o'z ichiga oladi. Faqat juda kam hollarda epitaksial qatlamlar nuqsonlardan xoli bo'ladi. Amorf substratlardagi deyarli barcha metall yupqa plyonkalar orientatsiyani ko'rsatadi. Strukturasi yuzasi minimal sirt erkin energiyasiga ega. Arzon narxlardagi displeylar, magnitafonlar va quyosh batareyalari plyonkalarining katta sirtlarini talab qilganligi sababli, shisha yoki oksidlangan metall yuzalardagi bir o'qli teksturali plyonkalar texnologiya uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ideal holda, bir o'qli teksturali plyonkaning barcha ustunli nuqtalari uning yuzasiga normal umumiy o'qga ega. Plyonkadagi qo'shni nuqtalar orasidagi egilish burchaklarining taqsimlanishi bir xil bo'lishi mumkin emas, aksincha, nuqta chegaralarida kamroq energiya tufayli taqsimlanish tasodifiy burchaklarda maksimal bo'lishi kerak. Ammo amalda mukammal bir o'qli teksturali plyonka olish qiyin. Ko'pgina teksturali plyonkalarda afzal qilingan yo'nalish o'qi ba'zi fazoviy taqsimotni namoyish etadi. Ushbu o'q plyonka yuzasiga normal bilan bir oz burchak hosil qilishi mumkin, ayniqsa plyonka normal bo'ylab ishlab chiqarilmagan bo'lsa. Teksturali plyonkalar nafaqat amorf, balki monokristalli ham hosil bo'ladi, agar kristall panjaraning mos kelmasligi geteroepitaksial o'sish uchun juda katta bo'lsa, shuningdek, polikristalli tagliklarda, masalan, teksturali zanglamaydigan po'lat plitalarda. Xususiyatlarning orientatsion bog'liqligi katta ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlarda, disorientatsiyalangan nozik taneli yupqa plyonkalar nozik plyonka hajmlarining izotropik xususiyatlarini ko'rsatish uchun mos yozuvlar sifatida ishlatiladi, masalan, yupqa plyonkalarining magnit xususiyatlarini ko'plab tadqiqotlarda qo'llaniladi. Bunday plyonkalar, shuningdek, bir kristalli yupqa plyonkalar bilan, masalan, elektr o'tkazuvchanligini o'rganishda ushbu plyonkalarining xususiyatlarini taqqoslash orqali nuqta chegaralarining hissasini ochish uchun ishlatiladi. Qalin plyonkalarda tekstura va orientatsiyaga bog'liqlik nozik plyonkalarga qaraganda kamroq ahamiyatga ega. Qalinligi nuqtaning kattaligi bilan taqqoslanadigan plyonkada deyarli to'qimalar bo'lishi kerak, deb hisoblash mumkin. Ko'pincha plyonkada orientatsiya yo'qligining belgilaridan biri elektron diffraksiya naqshida uzluksiz halqalar tizimining mavjudligi hisoblanadi. Biroq halqalarning mavjudligi yetarli emas, xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun halqalarning nisbiy intensivligini o'lchash va uni hisoblangan qiymat bilan solishtirish kerak. Rentgen tahlilida plyonka namunasi intensivligini chang namunasi intensivligi yoki

ASTM (Amerika Sinov va Materiallar Jamiyati) kukunli rentgen ma'lumotlari fayllarida ko'rsatilgan intensivlik bilan solishtirish mumkin. Hajmdagi yutilish uchun tuzatish kiritilganligi va difraksiyaning geometriyasi bir xil. Xona haroratida barqaror bo'lgan amorf yupqa plyonkalar tasodifiy tarmoq tuzilishi yoki tasodifiy yaqin o'ralgan tuzilishga ega. Birinchisiga oksidlar, elementar yarim o'tkazgichlar kiradi, ikkinchisi asosan qotishmalarda uchraydi. Tartibsiz to'r strukturasi bir-biriga kirib boradigan, bir-biriga yaqin joylashgan ikkita tuzilma deb hisoblash mumkin. Ushbu tartibsiz tuzilmalar uzluksizlik, qatilylik va uzoq muddatli tartibning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Ular rentgen nurlari spektrida keng, diffuz cho'qqilarni va elektron diffraksiya naqshida qattiq halqalarni beradi. Ularni yuqori aniqlikdagi elektron mikroskopda elektron diffraksiya rejimda tekshirganda konsentrik halqalar ham olinadi.

Vakuumda yarimo'tkazgichlar, metallar va dielektriklarning kerakli xossalari, strukturaviy-fazaviy holati va kristallografik yo'nalishi bo'lgan yuqori sifatli yupqa qatlamlarni yaratish yangi nanotexnologik muammolarni hal qilishning zarur shartidir.

Yupqa plyonkalar yuzasini o'rganish skanerlash zond mikroskopi SolverNext orqali amalga oshirildi. Tekshirish jarayoni tasvir bilan sirtini skanerlashga asoslangan.




1 – rasm. Skanerli zond mikroskopining diagrammasi

1-rasmda skanerlovchi zond mikroskopining umumiy ishlash prinsipi sxematik ko'rsatilgan. Umumiy holatda u yuqori aniqlikdagi sirtning uch o'lchovli tasvirini olish imkonini beradi.


Namunaning sirt bilan o'zaro ta'siri ma'lum bir parametrlar bilan tavsiflanadi. Agar P parametrining prob-namuna masofasi $P = P(z)$ ga yetarlicha keskin va birma-bir bog'liqligi mavjud bo'lsa, u holda bu parametrlar mavjud bo'ladi.

Natijalar va uning muhokamasi. Plyonka yuzasining relyefi, topografiyasi va tuzilishini lazer nurga ta'sir qilish, ionlar, elektronlar bilan nurlantirish, mexanik yoki termik ishlov berish orqali o'zgartirish mumkin. 2-rasmda $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ plyonkasining nurlangan va nurlanmagan hududlari orasidagi interfeysning mikrografi ko'rsatilgan. Rasmda $4 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-2}$ dozada energiyasi 1,2 MeV bo'lgan He^+ ionlari bilan nurlanish ta'sirida plyonka relyefi va strukturasi o'zgarishi aniq ko'rsatilgan.



2 – rasm. $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ plyonkasining nurlangan va nurlanmagan hududlari orasidagi interfeysning skanerli elektron mikroskopiya tasviri

Nurlangan hududda sirt morfologiyasi bir xil bo'ldi, kristallitlar yo'q qilinadi va amorflanadi. Plyonka yuzasining tuzilishi skanerlovchi zond mikroskopiyasi (SZM), skanerlash elektron mikroskopiyasi (SEM) va boshqalar bilan o'rganiladi. SZM namunaning sirtini, uning relyefini, topografiyasini va tuzilishini atom rezolyutsiyasigacha o'rganish imkonini beradi. Misol uchun, 3 - rasmda geliy ionlari bilan nurlanish ta'sirida plyonka relyefining buzilishi aniq ko'rsatilgan. Bunday yuqori aniqlikdagi usullar skanerlash tunnel mikroskopiyasi (STM) va atom kuchi mikroskopiyasi (AKM) skanerlovchi zond mikroskopini o'z ichiga oladi.



3-rasm. YBa₂Cu₃O_{7-x} plyonkasi geliy ionlari bilan $32 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-2}$ dozada nurlangan. Skanerlash maydoni o'lchami 1 1 0,34 mkm

STM mikroskopning zond va uning yuzasi bo'ylab skanerlash paytida namuna yuzasi o'rtasidagi tunnel oqimini qayd etishga asoslangan. Qayta aloqa tizimi sirt profilini to'g'ridan to'g'ri tunnel oqimi rejimida ro'yxatdan o'tkazish imkonini beradi, bu namunaning haqiqiy yuzasiga to'g'ri keladi. AKM prob va namuna yuzasi o'rtasida ta'sir qiluvchi kuchlarni ro'yxatga olishga asoslangan. Qayta aloqa tizimi namunaning geometrik yuzasiga to'g'ri keladigan doimiy kuch sirtining profilini ro'yxatga olish imkonini beradi.

Xulosa. Yupqa plyonkalar strukturasi tahlil qilishda asosan strukturaviy rentgen tahlili va elektron diffraksiyasi, neytron diffraksiyasi usullari yordamida tahlil qilindi. Bunday yuqori aniqlikdagi usullar skanerlash tunnel mikroskopiyasi, atom kuchi mikroskopiyasi va skanerlovchi zond mikroskopini o'z ichiga oladi. Bu qurilmalar yordamida yupqa plyonklarning fizik va kimyoviy tarkibi o'rganildi va ularga tegishli bo'lgan asosiy materiallar tahlil qilindi. Bu esa zamonaviy mikro va nanoelektronikaning asosiy bug'inlaridan biridir. Chunki har bir materilning strukturasi tahlil qilish bizga uning fizik va kimyoviy xossalari o'rganishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. A.L. Stepanov, V.I. Nuzhdin, V.F. Valeev, V.V. Vorobev, A.M. Rogov, Y.N. Osin «Study of silicon surface implanted by silver ions», *Vacuum* 159 (2019) 353–357.
2. В.А.Гриценко, «Атомная структура аморфных нестехиометрических оксидов и нитридов кремния» УФН, 178 727–737 (2008).
3. S.B. Donaev, F. Djurabekova, D.A. Tashmukhamedova, B.E. Umirzakov «Formation of nanodimensional structures on surfaces of GaAs and Si by means of ion implantation», *Physics Status Solidi (C) Current Topics in Solid State Physics*, V.12. Issue 1-2, January 2015, P.89-93.
4. Donaev S.B., Djurabekova F., Tashmukhamedova D.A. and Umirzakov B.E. Formation of nanodimensional structures on surfaces of GaAs and Si by means of ion implantation. *Physica status solidi (c)* 12 (1-2), 89-93, doi.org/10.1002/pssc.201400156.
5. Isakhanov Z.A., Mukhtarov Z.E., Umirzakov B.E. and Ruzibaeva M.K. Optimum ion implantation and annealing conditions for stimulating secondary negative ion emission. // *Tech. Phys.*, 56, 546 (2011)
6. Андреевский Р.А., Спивак И.И. Прочность тугоплавких соединений и материалов на их основе. – М.: Металлургия, 1989.
7. Духопельников Д.В. Вакуумно-дуговые испарители в современной ионно-плазменной технологии // *Research and educational center «Ion plasma technologies»*. – 2012. – С. 32–33.

**IKKI O'LCHAMLI PANJARADA LOKAL BO'LMAGAN SHREDINGER
OPERATORINING XOS QIYMATI UCHUN ASIMPTOTIK YOYILMALAR**

*Turapova Aziza Usmanovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
aziza.turapova8391@gmail.com*

Annotasiya: Ushbu ishda biz ikki o'lchamli panjarada uchinchi tartibli lokal bo'lmagan Shredinger operatorlarining

$$\hat{h}_\mu = \hat{h}_0 - \mu \hat{V}, \quad \mu \in \mathbb{R}$$

oilasini ko'rib chiqamiz, bu yerda $\hat{h}_0 := \Delta\Delta\Delta$ — Lokal bo'lmagan uchinchi tartibli Laplas operatori va $V - \hat{v}$ funksiya ko'paytirish operatori bo'lib, bunda $v(x) = 1/2, |x|=1$ uchun va qolgan hollarda $v(x) = 0$. μ parametrغا bog'liq holda muhim spektrdan tashqarida \hat{h}_μ ning diskret spektri mavjudligini o'rganamiz, shuningdek, muhim spektrning o'ng va chap atroflarida xos qiymat uchun asimptotik yoyilmalar olamiz.

Kalit so'zlar: lokal bo'lmagan Laplasian, xos qiymat, asimptotik yoyilmalar, xos funksiya.

**АСИМПТОТИЧЕСКИЕ РАЗЛОЖЕНИЯ ДЛЯ СОБСТВЕННОГО ЗНАЧЕНИЯ
НЕЛОКАЛЬНОГО ОПЕРАТОРА ШРЕДИНГЕРА В ДВУМЕРНОМ ОКНЕ**

Аннотация: В данной работе рассматриваются нелокальные операторы Шредингера третьего порядка на двумерной решётке

$$\hat{h}_\mu = \hat{h}_0 - \mu \hat{V}, \quad \mu \in \mathbb{R}$$

рассмотрим семейство, где $\hat{h}_0 := \Delta\Delta\Delta$ — нелокальный оператор Лапласа третьего порядка и $V - \hat{v}$ — оператор умножения функций, где $v(x) = 1/2, |x|=1$ при x и в остальных случаях $v(x) = 0$. μ в зависимости от параметра исследуется существование дискретного \hat{h}_μ спектра вне критического спектра, а также получаются асимптотические распределения собственного значения на правом и левом краях критического спектра.

Ключевые слова: нелокальный лапласиан, собственное значение, асимптотические распределения, собственная функция.

**ASYMPTOTIC EXPANSIONS FOR AN EIGENVALUE OF A NONLOCAL SCHRÖDINGER
OPERATOR IN A TWO-DIMENSIONAL WINDOW**

Abstract: In this paper, we investigate the spectral properties of the Schrödinger-type operator

$$\hat{h}_\mu = \hat{h}_0 - \mu \hat{V}, \quad \mu \in \mathbb{R}$$

associated to a one-particle system in two-dimensional lattice \mathbb{Z}^2 , where \hat{h}_0 is a non-local operator generated by triple Laplacian $\hat{h}_0 := \Delta\Delta\Delta$ and V is a multiplication operator by the function \hat{v} , where $v(x) = 1/2, |x|=1$ and $v(x) = 0$ otherwise. We establish the existence or non-existence and also eigenvalues depending on the parameter μ . Moreover, in the case of existence we study the asymptotics decomposition of eigenvalues.

Keywords: non-local Laplacians, eigenvalues, decomposition, eigenfunctions.

1 Kirish

Ushbu maqolada biz ikki o'lchamli Z^2 panjarada aniqlanuvchi diskret triplegarmonik operator

$$\hat{h}_\mu = \hat{h}_0 - \mu \hat{V}, \mu \in \mathbb{R}$$

ning spektral xossalarini o'rganamiz, bu yerda $\hat{h}_\mu := \Delta \Delta \Delta$ uchinchi tartibli Laplasian va V — ta'sir potentsiali

$$\hat{v}(x) = \begin{cases} \frac{1}{2}, & |x|=1 \\ 0, & x \neq 1 \end{cases}$$

bo'lgan potentsial operatoridir. Ushbu model Z^2 potentsiali v bo'lgan bir zarrachali sistema bilan bog'langan bo'lib, unda zarracha panjaraning A tugunidan nafaqat eng yaqin qo'shnilaridan biri B ga (diskret Laplas holatiga o'xshash) erkin sakrab o'tadi, balki B tugunning ham qo'shnilaridan biri C tugunning ham eng yaqin qo'shnilariga ham.

So'nggi yillarda lokal bo'lmagan diskret Shredinger operatorlarining spektral nazariyasi, xususan diskret Laplasian keng qamrovli o'rganilgan [5-8] va ushbu modellar uchun zaif bog'langan holatlarning ko'rinishi juda yaxshi tushuntirilgan va ulanish konstantasi nuqtai nazaridan diskret spektrning mavjudligi uchun ham yetarli, ham zaruriy shartlar o'rnatilgan. Xususan, [2,8,10,13] maqolalarda lokal bo'lmagan Shredinger operatorlarining xos qiymat xarakteristikalarini $L^2(Z^d)$ da muhokama qilinadi.

Ushbu maqolada Fur'e almashtirishlari orqali $\ell^2(Z^2)$ fazoda ta'sir etuvchi \hat{h}_μ operatorining koordinata tasviridan, unga unitar ekvivalent bo'lgan $L^2(T^2)$ fazoda ta'sir etuvchi impuls tasviriga o'tib, (2.1) operatorning $L^{2,w}$ qism fazolardagi toraymalarini, muhim spektrning o'ng va chap atroflaridagi xos qiymatlari uchun asimptotik yoyilmalar olamiz.

2 Dastlabki tushunchalar

Z^2 — ikki o'lchamli tor va $\ell^2(Z^2) - Z^2$ da aniqlangan va modulining kvadrati bilan jamlanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosi bo'lsin. Biz $\ell^2(Z^2)$ fazoda ta'sir etuvchi o'z-o'ziga qo'shma, chegaralangan

$$\hat{h}_\mu = \hat{h}_0 - \mu \hat{V}, \mu \in \mathbb{R}$$

lokal bo'lmagan operatorni aniqlaymiz. Bu yerda $\hat{h}_0 := \hat{\Delta} \hat{\Delta} \hat{\Delta}$, lokal bo'lmagan diskret Laplasian, shuningdek, $\hat{\Delta}$ — diskret Laplas operatori bo'lib, $\hat{f} \in \ell^2(Z^2)$ elementga ta'siri

$$(\hat{\Delta} \hat{f})(x) = \frac{1}{2} \sum_{|s|=1} [\hat{f}(x) - \hat{f}(x+s)], \quad x \in Z^2$$

kabi aniqlanadi. \hat{V} — \hat{v} funksiyaga ko'paytirish operatori bo'lib $\hat{f} \in \ell^2(Z^2)$ funksiyaga ta'siri

$$(\hat{V} \hat{f})(x) = \hat{v}(x) \hat{f}(x)$$

kabi aniqlanadi. Bu yerda \hat{v} potentsialning ko'rinishi quyidagicha:

$$\hat{v}(x) = \begin{cases} \frac{1}{2}, & \text{agar } |x|=1; \\ 0, & \text{agar } |x| \neq 1. \end{cases}$$

T^2 - ikki o'lchamli tor va $L^2(T^2) - T^2$ da aniqlangan va modulining kvadrati bilan Lebeg ma'nosida integrallanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosi bo'lsin.

F — standart Fur'e almashtirishi bo'lib, $F : \ell^2(\mathbb{Z}^2) \rightarrow L^2(\mathbb{T}^2)$ va $\hat{f} \in \ell^2(\mathbb{Z}^2)$ ga ta'siri quyidagicha:

$$(F\hat{f})(\theta) = \frac{1}{2\pi} \sum_{x \in \mathbb{Z}^2} \hat{f}(x) e^{i(\theta, x)}, \quad \theta \in \mathbb{T}^2.$$

Shuningdek, F^{-1} — teskasi Fur'e almashtirish bo'lib, $F^{-1} : L^2(\mathbb{T}^2) \rightarrow \ell^2(\mathbb{Z}^2)$ va $f \in L^2(\mathbb{T}^2)$ elementga ta'siri

$$(F^{-1}f)(x) = \frac{1}{2\pi} \int_{\mathbb{T}^2} f(\theta) \cdot e^{i(\theta, x)} d\theta, \quad x \in \mathbb{Z}^2$$

kabi aniqlanadi. Fur'e almashtirishlari yordamida $\hat{\mathbf{h}}_\mu$ operatorni $\ell^2(\mathbb{Z}^2)$ fazodagi koordinat tasviridan unga unitar ekvivalent bo'lgan $L^2(\mathbb{T}^2)$ fazodagi \mathbf{h}_μ impuls tasviri:

$$\mathbf{h}_\mu := \mathbf{h}_0 - \mu \mathbf{V} \quad (2.1)$$

kabi aniqlanadi. Bu yerda, $\mathbf{h}_0 : \mathfrak{A}(\cdot)$ funksiyaga ko'paytirish operatori bo'lib, bunda

$$\mathfrak{A}(p) = \left(\sum_{i=1}^2 (1 - \cos p_i) \right)^3.$$

Shuningdek, \mathbf{V} - integral operator bo'lib $f \in L^2(\mathbb{T}^2)$ elementga ta'siri

$$(\mathbf{V}f)(p) = \frac{1}{2\pi} \int_{\mathbb{T}^2} v(p-s) f(s) ds,$$

kabi aniqlanadi. Yadro funksiya $v(\cdot)$ — \hat{v} ning Fur'e tasviri bo'lib, bunda

$$v(p) = \frac{1}{2\pi} \sum_{i=1}^2 \cos p_i.$$

Endi $L^2(\mathbb{T}^2)$ Hilbert fazosini qism fazolarga ajratamiz. $L^{2,e}(\mathbb{T}^2)$ va $L^{2,o}(\mathbb{T}^2)$ — mos ravishda $L^2(\mathbb{T}^2)$ dagi (barcha koordanatasi bo'yicha) juft va toq funksiyalarning qism fazosi, shuningdek,

$$L^{2,es}(\mathbb{T}^2) := \{f \in L^{2,e}(\mathbb{T}^2) : f(p_1, p_2) = f(p_2, p_1) \text{ barcha } (p_1, p_2) \in \mathbb{T}^2\},$$

$$L^{2,ea}(\mathbb{T}^2) := \{f \in L^{2,e}(\mathbb{T}^2) : f(p_1, p_2) = -f(p_2, p_1) \text{ barcha } (p_1, p_2) \in \mathbb{T}^2\},$$

$$L^{2,os}(\mathbb{T}^2) := \{f \in L^{2,o}(\mathbb{T}^2) : f(p_1, p_2) = f(p_2, p_1) \text{ barcha } (p_1, p_2) \in \mathbb{T}^2\},$$

$$L^{2,oa}(\mathbb{T}^2) := \{f \in L^{2,o}(\mathbb{T}^2) : f(p_1, p_2) = -f(p_2, p_1) \text{ barcha } (p_1, p_2) \in \mathbb{T}^2\}$$

mos ravishda $L^2(\mathbb{T}^2)$ dagi (es) juft-simmetrik, (ea) juft-antisimmetrik, (os) toq-simmetrik va (oa) toq-antisimmetrik funksiyalarning qism fozalari bo'lsin. Osongina tekshirish mumkinki $L^2(\mathbb{T}^2)$ fazo $L^{2,w}(\mathbb{T}^2)$ ($w \in \mathbf{W} = \{es, ea, os, oa\}$) qism fazolarning to'g'ri yig'indisidan iborat, yani

$$L^2(\mathbb{T}^2) = L^{2,es}(\mathbb{T}^2) \oplus L^{2,ea}(\mathbb{T}^2) \oplus L^{2,os}(\mathbb{T}^2) \oplus L^{2,oa}(\mathbb{T}^2).$$

$\mathfrak{A}(\cdot)$ juft va simmetrik funksiya bo'lganligi uchun, barcha $w \in \mathbf{W}$ larda $L^{2,w}(\mathbb{T}^2)$ \mathbf{h}_0 operatorga nisbatan invariant qism fazolar bo'ladi. Shuningdek bizda quyidagi ayniyatlar mavjud

$$\begin{aligned} 2 \cos p_1 \cos s_1 + 2 \cos p_2 \cos s_2 &= (\cos p_1 + \cos p_2)(\cos s_1 + \cos s_2) \\ &+ (\cos p_1 - \cos p_2)(\cos s_1 - \cos s_2), \end{aligned}$$

$$2\sin p_1 \sin s_1 + 2\sin p_2 \sin s_2 = (\sin p_1 + \sin p_2)(\sin s_1 + \sin s_2) + (\sin p_1 - \sin p_2)(\sin s_1 - \sin s_2).$$

va bu \mathbf{V} potensial operatorga

$$\mathbf{V} = \sum_{w \in W} \mathbf{V}^w$$

tasvirini olishga imkon beradi, bunda

$$\mathbf{V}^w := \langle \cdot, \psi_w \rangle \psi_w$$

operator \mathbf{V} operatorning $L^{2,w}(\mathbb{T}^2)$ qism fazodagi toraymasi bo'ladi. Bu yerda $\{\psi_w : w \in W\}$ $L^2(\mathbb{T}^2)$ dagi ortonormal sistema bo'lib, bunda

$$\begin{aligned} \psi_{es}(p) &= \frac{\cos p_1 + \cos p_2}{2\pi}, \psi_{ea}(p) = \frac{\cos p_1 - \cos p_2}{2\pi}, \\ \psi_{os}(p) &= \frac{\sin p_1 + \sin p_2}{2\pi}, \psi_{oa}(p) = \frac{\sin p_1 - \sin p_2}{2\pi}. \end{aligned} \quad (2.2)$$

Bu esa, \mathbf{h}_μ operatorning $L^{2,w}(\mathbb{T}^2)$ qism fazodagi

$$\mathbf{h}_\mu^w := \mathbf{h}_0 - \mu \mathbf{V}^w$$

tasvirini olishga imkon beradi.

$\sigma(\hat{\Delta}) = \sigma_{ess}(\hat{\Delta}) = [0, 4]$ ekanligidan ([1] ga qarang) $\sigma(\mathbf{h}_0) = \sigma_{ess}(\mathbf{h}_0) = [0, 64]$ va $\hat{\mathbf{V}}$ kompakt operator bo'lganligi uchun, Veyl teoremasiga ko'ra, har qanday $\mu \in \mathbb{R}$ da \mathbf{h}_μ va \mathbf{h}_μ^w operatorlarning muhim spektrlari uchun

$$\sigma_{ess}(\mathbf{h}_\mu) = \sigma_{ess}(\mathbf{h}_\mu^w) = [0, 64]$$

munosabat o'rinli bo'ladi. Bundan tashqari, \mathbf{h}_μ operatorning spektri \mathbf{h}_μ^w ($w \in W$) operatorlarning spektrlari yig'indisiga teng, ya'ni:

$$\sigma(\mathbf{h}_\mu) = \bigcup_{w \in W} \sigma(\mathbf{h}_\mu^w).$$

Shunday qilib, biz \mathbf{h}_μ operatorning $L^{2,w}(\mathbb{T}^2)$ qism fazolardagi \mathbf{h}_μ^w torayma operatorlarning diskret spektrlarini o'rganamiz.

3 \mathbf{h}_μ^w operatorning xos qiymati haqida

Ushbu bo'limda biz $L^{2,w}(\mathbb{T}^2)$ fazoda aniqlangan

$$\mathbf{h}_\mu^w := \mathbf{h}_0 - \mu \mathbf{V}^w$$

ko'rinishidagi operatorlarning xos qiymatlarini o'rganamiz.

Asosiy natijani keltirishdan avval quyidagi belgilashlarni keltiramiz:

$$\mu_w^l = \left[\int_{\mathbb{T}^2} \frac{|\psi_w(q)|^2 dq}{\mathfrak{a}(q)} \right]^{-1}, \mu_w^r = \left[\int_{\mathbb{T}^2} \frac{|\psi_w(q)|^2 dq}{64 - \mathfrak{a}(q)} \right]^{-1}. \quad (3.1)$$

Shuningdek, (2.1) da berilgan ψ_w funksiyalarni hamda, tasdiq-1 va tasdiq-2 larni e'tiborga olsak, har qanday $w \in W$ da $\mu_w^l = 0$, $\mu_{es}^r = 0$ va har qanday $w \in \{ea, oa, os\}$ uchun $0 < \mu_w^r < +\infty$ bo'ladi.

Endi biz quyidagi teoremda \mathbf{h}_μ^w operatorga mos xos qiymatning mavjudligi va uning muhim spektrining o'ng va chap atrofidagi yoyilmalarini keltiramiz.

Teorema 3.1 $\mu_w^l, \mu_w^r \geq 0$ (3.1) orqali berilgan bo'lsin. U holda \mathbf{h}_μ^w operator

- har qanday $\mu \in [-\mu_w^l, \mu_w^r]$ uchun xos qiymatga ega emas,
- har qanday $\mu \in \mathbb{R} \setminus [-\mu_w^l, \mu_w^r]$ uchun yagona $z_w(\mu)$ xos qiymatga ega va

$$f_\mu^w(p) = \begin{cases} \frac{\cos p_1 + \cos p_2}{\mathfrak{A}(p) - z_w(\mu)}, & \text{agar } w = es \\ \frac{\cos p_1 - \cos p_2}{\mathfrak{A}(p) - z_w(\mu)}, & \text{agar } w = ea, \\ \frac{\sin p_1 + \sin p_2}{\mathfrak{A}(p) - z_w(\mu)}, & \text{agar } w = os, \\ \frac{\sin p_1 - \sin p_2}{\mathfrak{A}(p) - z_w(\mu)}, & \text{agar } w = oe \end{cases}$$

unga mos xos funksiya.

Shuningdek:

1. har bir $\mu \in (-\infty, -\mu_w^l)$ da $z(\mu) < 64$ va har bir $\mu \in (\mu_w^r, +\infty)$ da $z(\mu) > 0$,
2. $z_w(\cdot): \mathbb{R} \setminus [-\mu_w^l, \mu_w^r] \mapsto z(\mu)$ haqiqiy-analitik va qat'iy kamayuvchi funksiya,
3. shunday $\gamma > 0$ son topilib, barcha $\mu \in (0, \gamma)$ lar uchun

$$\sqrt[3]{-z_w(\mu)} = \begin{cases} \sqrt{\frac{2\pi}{3\sqrt{3}}}\mu^{\frac{1}{2}} + \sum_{n+m \geq 1, n, m \geq 0} d_{n,m}^w \mu^{\frac{n}{2}} (\mu \ln \mu)^m & \text{agar } w = es \\ C_l^w e^{-\frac{3\pi}{\mu}} + \sum_{n+m \geq 2, n, m \geq 1} d_{n,m}^w \mu^n \left(\frac{e^{-\frac{3\pi}{\mu}}}{\mu} \right)^m, & \text{agar } w = ea, \\ \frac{2}{3\sqrt{3}}\mu + \sum_{n+m \geq 1, n, m \geq 0} d_{n,m}^w \mu^{n+1} (\mu \ln \mu)^m, & \text{agar } w = os, oe \end{cases} \quad (3.2)$$

va barcha $\mu + \mu_w^r \in (-\gamma, 0)$ lar uchun

$$z_w(\mu) - 64 = \begin{cases} C_r^w e^{\frac{\pi}{12\mu}} + \sum_{n+m \geq 2, n, m \geq 1} b_{n,m}^w \mu^n \left(\frac{e^{\frac{\pi}{12\mu}}}{\mu} \right)^m, & \text{agar } w = es, \\ C_r^w \lambda + \sum_{n+m \geq 1, n \geq 0, m \geq 0} b_{n,m}^w \lambda^{n+1} \tau^m, & \text{agar } w = ea, \\ C_r^w \frac{\lambda}{\ln(-\lambda)} + \sum_{n+n+k \geq 1, n, m, k \geq 0} b_{n,m,k}^w \lambda^n \sigma^m \theta^k, & \text{agar } w = os, oa, \end{cases} \quad (3.3)$$

yoyilmalar mavjud, bu yerda $\lambda = \mu + \mu_w^r$, $\tau = \lambda \ln(-\lambda)$, $\sigma = \frac{1}{\ln(-\lambda)}$,

$\theta = \frac{\ln(-\ln(-\lambda))}{\ln(-\lambda)}$ va $b_{n,m}^w$, $d_{n,m}^w$, C_w^l , $C_w^r > 0$ haqiqiy koeffitsentlar.

Ushbu teoremani isbotlashdan oldin quyida yordamchi lemmalarni keltirib o‘tamiz. Shundan so‘ng teoremani isbotlashda bevosita ushbu lemmalardan foydalanamiz.

Bizda Fredgolm teoremasi va Birman-Shvinger prinsipiga ko‘ra quyidagi lemma mavjud.

Lemma 3.2 $z \in \mathbb{C} \setminus [0, 64]$ soni \mathbf{h}_μ^w operatorning xos qiymati bo‘lishi uchun

$$\Delta_w(\mu; z) := 1 - \mu \int_{\Gamma^2} \frac{|\psi_w(q)|^2 dq}{\mathfrak{a}(q) - z} = 0 \quad (3.4)$$

bo‘lishi zarur va yetarli.

E‘tibor bering, har bir tayinlangan $\mu \in \mathbb{R}$ uchun $\Delta_w(\mu, \cdot)$ funksiya $\mathbb{C} \setminus [0, 64]$ da analitik va

$$\frac{\partial}{\partial z} \Delta(\mu; z) = -\mu \int_{\Gamma^2} \frac{|\psi_w(q)|^2 dq}{(\mathfrak{a}(q) - z)^2}.$$

Shunday qilib, har qanday $\mu > 0$ ($\mu < 0$) uchun $\Delta(\mu; \cdot)$ funksiya $\mathbb{R} \setminus [0, 64]$ da monoton kamayuvchi (monoton o‘svuchi) bo‘ladi.

Endi biz (2.1) dagi ψ_w funksiyalarni e‘tiborga olib

$$I_\psi(z) := \int_{\Gamma^2} \frac{|\psi_w(q)|^2 dq}{\mathfrak{a}(q) - z} \quad (3.5)$$

integralning $z \in \mathbb{Z} \setminus [0, 64]$ da asimtotik yoyilmalarni olamiz.

Lemma 3.3

1. Har qanday $z \in (-\frac{1}{64}, 0)$ uchun:

$$I(z) = \begin{cases} \frac{1}{\sqrt[3]{-z}^2} \left(\frac{4}{3\sqrt{3}} + \sum_{n \geq 1} b_n^w (-z)^{n/3} \right) + \frac{1}{3} \ln(-z) \sum_{n \geq 0} d_n^w z^n, & w = es, \\ -\frac{1}{3} \ln(-z) \left(\frac{1}{3\pi} + \sum_{n \geq 1} d_n^w z^n \right) + \sum_{n \geq 0} b_n^w (-z)^{n/3}, & w = ea, \\ \frac{1}{\sqrt[3]{-z}^2} \left(\frac{2}{3\sqrt{3}} + \sum_{n \geq 1} b_n^w (-z)^{n/3} \right) - \frac{1}{3} \ln(-z) \sum_{n \geq 0} d_n^w z^n, & w = os, oa; \end{cases} \quad (3.6)$$

2. har qanday $\beta \in (0, \frac{1}{16})$ uchun:

$$I(z) = \begin{cases} \frac{12}{\pi} \ln \beta + \ln \beta \sum_{n \geq 1} \hat{d}_n^w \beta^n + \sum_{n \geq 0} \hat{b}_n^w \beta^n, & w = es, \\ I_\psi(64) + \beta I'_\psi(64) + \ln \beta \sum_{n \geq 2} \hat{d}_n^w \beta^n + \sum_{n \geq 2} \hat{b}_n^w \beta^n, & w = ea, \\ I_\psi(64) - \hat{d}_0^w \beta \ln \beta + \ln \beta \sum_{n \geq 2} \hat{d}_n^w \beta^n + \sum_{n \geq 1} \hat{b}_n^w \beta^n, & w = os, oa \end{cases} \quad (3.7)$$

yoyilmalar mavjud, bu yerda $\beta := z - 64$, b_n^w , d_n^w , \hat{b}_n^w , \hat{d}_n^w — haqiqiy koeffitsentlar va

$$\hat{d}_0^w = \begin{cases} \frac{6}{\pi} (\nabla \varphi_1(\mathbf{0}) + \nabla \varphi_2(\mathbf{0}))^2, & \text{agar } w = os \\ \frac{6}{\pi} (\nabla \varphi_1(\mathbf{0}) - \nabla \varphi_2(\mathbf{0}))^2, & \text{agar } w = oe. \end{cases}$$

Isbot. Ushbu lemmaning isbotlash uchun dastlab (2.1) da aniqlangan ψ_w funksiyalarni (3.5) ga kiritamiz. Shuningdek, 1-tasdiq va 2-tasdiqlardan foydalanib isbot etamiz. Appendix A ga qarang.

Endi biz theorem 3.1 ning isbotini keltiramiz.

Isbot μ_w^l ning aniqlanishiga ko'ra, har qanday $\mu < -\mu_w^l$ uchun:

$$\lim_{z \downarrow 0} \Delta(\mu; z) = 1 + \frac{\mu}{\mu_w^l} < 0, \lim_{z \rightarrow \infty} \Delta(\mu; z) = 1.$$

$z < 0$ va $\mu > -\mu_w^l$ uchun $\Delta(\mu; z) > 1$ bo'lganligi uchun $(64, \infty)$ da $\Delta(\mu; \cdot)$ qat'iy monotonligidan kelib chiqqan holda, har qanday $\mu < -\mu_w^l$ uchun yagona $z(\mu) \in (64, \infty)$ mavjud bo'lib, $\Delta(\mu; z(\mu)) = 0$ bo'ladi. Xuddi shunday, har qanday $\mu > \mu_w^r$ uchun shunday $z(\mu) \in (-\infty, 0)$ $\Delta(\mu; z(\mu)) = 0$ bo'ladi. Oshkormas funksiya haqidagi teoremaga ko'ra $\mu \in \mathbf{R} \setminus [-\mu_w^l, \mu_w^r] \mapsto z(\mu)$ funksiya haqiqiy-analitikdir. Bundan tashqari, oshkor $z(\cdot)$ funksiyaning hosilasini hisoblaymiz:

$$z'(\mu) = -\frac{1}{\mu} \int_{\mathbb{T}^2} \frac{|v_w(q)|^2 dq}{\mathfrak{e}(q) - z(\mu)} \left(\int_{\mathbb{T}^2} \frac{|v_w(q)|^2 dq}{(\mathfrak{e}(q) - z(\mu))^2} \right)^{-1}.$$

Shunday qilib, $\mu(\mathfrak{e}(q) - z) > 0$ ekanligidan foydalanib, $z'(\mu) < 0$ ni olamiz, ya'ni $z(\cdot)$ $\mathbf{R} \setminus [-\mu_w^l, \mu_w^r]$ da qat'iy kamayib bormoqda.

Endi biz Lemma 1.3 dagi $I(z)$ ning asimtotik yoyilmalaridan foydalanib $z(\cdot)$ uchun xos qiymat yoyilmalarini olamiz.

1. $z(\cdot)$ funksiyaning qat'iy monotonlik va

$$\lim_{\mu \downarrow \mu_w^r} z(\mu) = 0$$

dan kelib chiqqan holda, har qanday $\mu \in (0, \mu_1)$ uchun $z(\mu) \in (-\frac{1}{128}, 0)$ bo'ladigan yagona

$\mu_1 > 0$ mavjud.

$$\mu = (I(z))^{-1}(A)$$

bo'lganligi uchun, $\mu = \mu(z)$ ga teskari funksiyani yoyilmalarini topish uchun Lemma 1.3 ning (B) asimtotik yoyilmalaridan foydalanishimiz mumkin. Shunday qilib, (A) ni

$$\mu = \frac{\alpha^l}{g(\alpha) + \ln(\alpha)h(\alpha)}, \quad (3.8)$$

shaklda qayta yozamiz, bu yerda $\alpha := \sqrt[3]{-z}$, $l \in \mathbb{N}_0$ hamda, g va $f - \alpha = 0$ nuqtaning atrofida analitik funksiyalardir.

a) $w = es$ bo'lsin. Bu holda (3.6) ning birinchi yoyilmasiga ko'ra

$$l = 2, \quad g(\alpha) = c_{es} + \sum_{n \geq 1} b_n^{es} \alpha^n, \quad h(\alpha) = \sum_{n \geq 1} d_n^{es} \alpha^{3n+2}$$

bu yerda $c_{es} = \frac{4}{3\sqrt{3}}$. Shunday qilib, $\mu := \lambda^2$,

$$\alpha = \lambda(\sqrt{c_{es}} + u) \quad (3.9)$$

va $\tau = -\lambda^2 \ln \lambda$ larni kiritib (3.8) ni biz

$$F(u, \mu, \tau) = u^2 + 2\sqrt{c_{es}}u - \sum_{n \geq 1} b_n^{es} \lambda^n (\sqrt{c_{es}} + u)^n + \tau \sum_{n \geq 1} d_n^{es} \lambda^{3n} (\sqrt{c_{es}} + u)^{3n+2} - \ln(\sqrt{c_{es}} + u) \sum_{n \geq 1} d_n^{es} \lambda^{3n+2} (\sqrt{c_{es}} + u)^{3n+2} = 0$$

shaklda qayta ifodalaymiz, bu yerda $F(0,0,0)$ nuqtaning atrofida analitik, $F(0,0,0) = 0$ va

$F_u(0,0,0) = \sqrt{c_{es}} > 0$. Shuningdek, oshkormas funksiya haqidagi teoremaga ko'ra, yetarlicha

kichik $|\lambda|$ va $|\tau|$ larda $F(u(\lambda, \tau), \lambda, \tau) \equiv 0$ shartni qanoatlantiruvchi

$u(\lambda, \tau) = \sum_{n+m \geq 1, n, m \geq 0} d_{n,m}^{es} \lambda^n \tau^m$ yaqinlashuvchi qator orqali berilgan yagona haqiqiy-analitik

$u = u(\lambda, \tau)$ funksiya mavjud. u ni (3.9) ga qo'yib hamda $\lambda = \mu^{1/2}$ almashtirish orqali $\alpha := (-z(\cdot))^{1/3}$ ning yoyilmasini olamiz.

b) $w = ea$ bo'lsin. Bu holda (3.6) ning ikkinchi yoyilmasidan

$$l = 0, \quad g(\alpha) = b_0 + \sum_{n \geq 1} b_n^{ea} \alpha^n, \quad h(\alpha) = \ln \alpha \left(c_{ea} + \sum_{n \geq 1} (-1)^n d_n^{ea} \alpha^{3n} \right)$$

ni olamiz, bu yerda $c_{ea} = \frac{1}{3\pi}$. Shunday qilib,

$$\alpha = e^{\frac{1}{\mu c_{ea}}} \left(u + e^{\frac{b_0}{c_{ea}}} \right) \quad (3.10)$$

va $\sigma = \frac{1}{\mu e^{\frac{1}{\mu c_{ea}}}}$ larni kiritib (3.8) ni

$$F(\mu, \sigma, u) = c_{ea} \ln \left(1 + u e^{\frac{b_0}{c_{ea}}} \right) + \sum_{n \geq 1} \frac{(-1)^n d_n^{ea}}{c_{ea}} \mu^{3n-1} \sigma^{3n} \left(u + e^{\frac{b_0}{c_{ea}}} \right)^{3n}$$

$$+\ln\left(u+e^{\frac{b_0}{c_{ea}}}\right)\sum_{n\geq 1}(-1)^n d_n^{ea}\mu^{3n}\sigma^{3n}\left(u+e^{\frac{b_0}{c_{ea}}}\right)^{3n}+\sum_{n\geq 1}b_n^{ea}\mu^n\sigma^n\left(u+e^{\frac{b_0}{c_{ea}}}\right)\equiv 0$$

shaklda qayta ifodalaymiz. Bu yerda $F(0,0,0)$ nuqtaning atrofida analitik, $F(0,0,0)=0$ va

$F_u(0,0,0)=c_{ea}e^{\frac{b_0}{c_{ea}}}$. Shuningdek, oshkormas funksiya haqidagi teorema ko'ra, yetarlicha kichik $|\mu|$ va $|\sigma|$ larda $F(u(\mu,\sigma),\mu,\sigma)\equiv 0$ shartni qanoatlantiruvchi $u(\mu,\sigma)=\sum_{n+m\geq 1,n,m\geq 0}d_{n,m}^{ea}\mu^n\sigma^m$ yaqinlashuvchi qator orqali berilgan yagona haqiqiy-analitik $u=u(\mu,\sigma)$ funksiya mavjud. u ni (3.10) ga qo'yib $\alpha:=(-z(\cdot))^{1/3}$ ning yoyilmasini olamiz.

c) $w=os$ yoki $w=oe$ bo'lsin. Bu holda (3.6) ning uchinchi yoyilmasiga ko'ra

$$l=1, \quad g(\alpha)=c_w+\sum_{n\geq 1}b_n^w\alpha^n, \quad h(\alpha)=\sum_{n\geq 1}d_n^w\alpha^{3n+1}$$

bu yerda $c_w=\frac{2}{3\sqrt{3}}$. Shunday qilib,

$$\alpha=\mu(c_w+u) \tag{3.11}$$

va $\tau=-\lambda\ln\lambda$ larni kiritib (3.8) ni biz

$$F(u,\mu,\tau)=u-\sum_{n\geq 1}b_n^w\mu^n(c_w+u)^n+\tau\sum_{n\geq 1}d_n^{es}\mu^{3n}(c_w+u)^{3n+1}-\ln(c_w+u)\sum_{n\geq 1}d_n^w\mu^{3n+1}(c_w+u)^{3n+1}=0$$

shaklda qayta ifodalaymiz, bu yerda $F(0,0,0)$ nuqtaning atrofida analitik, $F(0,0,0)=0$ va

$F_u(0,0,0)=1>0$. Shuningdek, oshkormas funksiya haqidagi teorema ko'ra, yetarlicha kichik $|\mu|$ va $|\tau|$ larda $F(u(\mu,\tau),\mu,\tau)\equiv 0$ shartni qanoatlantiruvchi $u(\mu,\tau)=\sum_{n+m\geq 1,n,m\geq 0}d_{n,m}^w\mu^n\tau^m$ yaqinlashuvchi qator orqali berilgan yagona haqiqiy-analitik $u=u(\lambda,\tau)$ funksiya mavjud. u ni (3.11) ga qo'yib $\alpha:=(-z(\cdot))^{1/3}$ ning yoyilmasini olamiz.

Ilava A. Bazi integrallarning asimtotik yoyilmalari.

Ushbu bo'limda biz

$$I_\psi(z)=\int_{T^2}\frac{\psi(q)dq}{\mathfrak{e}(q)-z} \tag{3.12}$$

integralning $z\rightarrow 0+$ va $z\rightarrow 64-$ dagi hatti-harakatlarini o'rganamiz, bu yerda $\psi:T^2\rightarrow\mathbb{R}-T^2$ da haqiqiy-analitik juft funksiyadir, hamda shunday $n_o, n^o\in\mathbb{N}_0=\{0\}\cup\mathbb{N}$ sonlar mavjudki

$$\psi(0)=D^2\psi(0)=\dots=D^{2n_o-2}\psi(0)=0, D^{2n_o}\psi(0)\neq 0, \tag{3.13}$$

$$\psi(\vec{\pi})=D^2\psi(\vec{\pi})=\dots=D^{2n^o-2}\psi(\vec{\pi})=0, D^{2n^o}\psi(\vec{\pi})\neq 0 \tag{3.14}$$

bo'lsin, bu yerda $D^m\psi(p)$ — ψ funksiyaning p nuqtadagi m — tartibli to'la differensiali, yani

$$D^m\psi(p)[w_1, w_2]=\sum_{\substack{i+j=m, \\ i,j\geq 0}}\frac{\partial^m\psi(p)}{\partial p_1^i\partial p_2^j}w_1^i w_2^j.$$

Keyichalik biz $W_r(\xi) \subset \mathbb{C}$ orqali radiusi $r > 0$ va markazi ξ nuqtada bo'lgan kompleks doirani belgilaymiz.

Tasdiq 1. ψ — haqiqiy analitik, juft va (3.13) shartni qanoatlantiruvchi funksiya bo'lsin. U holda (3.12) ko'rinishdagi I_ψ :

1. $n_o \geq 3$ uchun 0 nuqtada uzluksiz,
2. $n_o \geq 6$ uchun 0 nuqtada differensiallanuvchi.

Bundan tashqari, har qanday $z \in \left(-\frac{1}{64}, 0\right)$ uchun:

$$I_\psi(z) = \begin{cases} \frac{2\pi}{3\sqrt{3}\sqrt[3]{-z}^2} \left(c_\psi + \sum_{n \geq 1} b_n (-z)^{n/3} \right) - \frac{1}{3} \ln(-z) \sum_{n \geq 0} d_n z^n, & n_o = 0, \\ \frac{2\pi}{3\sqrt{3}\sqrt[3]{-z}} \left(c_\psi + \sum_{n \geq 1} a_n (-z)^{n/3} \right) - \frac{1}{3} \ln(-z) \sum_{n \geq 0} d_n z^n, & n_o = 1 \\ -\frac{1}{3} \ln(-z) \left(c_\psi + \sum_{n \geq 1} d_n z^n \right) + \sum_{n \geq 0} a_n (-z)^{n/3}, & n_o = 2 \end{cases} \quad (3.15)$$

$$I_\psi(z) = \begin{cases} I_\psi(0) - \frac{\pi\sqrt[3]{-z}}{3\sqrt{3}} \left(c_\psi + \sum_{n \geq 1} b_n (-z)^{n/3} \right) + \frac{z \ln(-z)}{3} \sum_{n \geq 0} d_n z^n, & n_o = 3 \\ I_\psi(0) - \frac{\pi\sqrt[3]{-z}^2}{3\sqrt{3}} \left(c_\psi + \sum_{n \geq 1} b_n (-z)^{n/3} \right) + \frac{z \ln(-z)}{3} \sum_{n \geq 0} d_n z^n, & n_o = 4 \\ I_\psi(0) - \frac{z \ln(-z)}{3} \left(c_\psi + \sum_{n \geq 1} d_n z^n \right) + \sum_{n \geq 2} b_n (-z)^{n/3}, & n_o = 5 \end{cases} \quad (3.16)$$

$$I_\psi(z) = I_\psi(0) + z \left(I'_\psi(0) + \sum_{n \geq 1} b_n (-z)^{n/3} \right) + z^2 \ln(-z) \sum_{n \geq 0} d_n z^n, \quad n_o \geq 6 \quad (3.17)$$

yoyilmalar mavjud. Bu yerda $\{a_n\}, \{b_n\}$ va $\{d_n\}$ haqiqiy koeffitsiyentlar,

$$c_\psi = \frac{2^{n_o}}{(2n_o)!} \int_S (D^{2n_o} \psi)(0) [w_1, w_2] dH \quad (3.18)$$

va (3.15)-(3.17) qatorlar absolyut yaqinlashuvchi bo'ladi.

Isbot. $\gamma \in \left(0, \frac{1}{\sqrt{2}}\right]$ berilgan bo'lsa, $\varphi: B_\gamma(0) \subset \mathbb{R}^2 \rightarrow \varphi(B_\gamma(0)) \subset \mathbb{R}^2$

$$\varphi_i(y) = 2 \arcsin(y_i), i = 1, 2$$

diffemorfizm berilgan bo'lsin. U holda

$$\alpha(\varphi(y)) = \left(\sum_{i=1}^2 (1 - \cos(2 \arcsin(y_i))) \right)^3 = 8 \left(\sum_{i=1}^2 y_i^2 \right)^3 = 8y^6 \quad (3.19)$$

tenglikga ko'ra barcha $q \in \mathbb{T}^2 \setminus \varphi(B_\gamma(0))$ larda

$$\mathfrak{a}(q) \geq 8\gamma^6 \tag{3.20}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi. Endi biz $I_\psi(z)$ ni

$$I_\psi(z) = \int_{\varphi(B_\gamma(0))} \frac{\psi(q)dq}{\mathfrak{a}(q) - z} + \int_{T^2 \setminus \varphi(B_\gamma(0))} \frac{\psi(q)dq}{\mathfrak{a}(q) - z} := I^*(z) + I^{**}(z)$$

shaklda qayta yozamiz. (3.20) ga ko‘ra,

$$I^{**}(z) := \int_{T^2 \setminus \varphi(B_\gamma(0))} \frac{\psi(q)}{\mathfrak{a}(q)} \left(1 - \frac{z}{\mathfrak{a}(q)}\right)^{-1} dq = \sum_{n \geq 0} z^n \int_{\varphi(B_\gamma(0))} \frac{\psi(q)dq}{(\mathfrak{a}(q))^{n+1}}, \tag{3.21}$$

ya’ni, $I^{**}(\cdot)$ funksiya $W_{4\gamma^6}(0)$ doirada analitik bo‘ladi. Shuningdek, $I^*(\cdot)$ da $q = \varphi(y)$ o‘zgaruvchilarni almashtirish va (3.19) dan foydalanib

$$I^*(z) = \int_{B_\gamma(0)} \frac{\psi(\varphi(y))J(\varphi(y))dy}{8y^6 - z} \tag{3.22}$$

ni olamiz, bunda

$$J(\varphi(y)) = \prod_{i=1}^2 \frac{2}{\sqrt{1 - y_i^2}} \tag{3.23}$$

φ almashtirishning Yakobiani. $\psi(\cdot)$ — (3.13) shartni qanoatlantiradigan juft analitik funksiya bo‘lganligi uchun, ψ ning Teylor qatori

$$\psi(p) = \sum_{n \geq n_0} \frac{1}{(2n)!} D^{2n} \psi(0) p_1^i p_2^j, i + j = 2n, i, j \geq 0 \mathbb{R}^2 \tag{3.24}$$

ko‘rinishda bo‘ladi va ψ ning $\varphi(B_\gamma(0))$ da analitik bo‘lganligi uchun ushbu sohada (3.24) qator absolyut yaqinlashuvchi bo‘ladi. φ ning aniqlanishiga ko‘ra, har qanday $r \in (0, \gamma)$ va $w = (w_1, w_2) \in \mathbb{S}$ ($w_1 = \cos(\theta), w_2 = \sin(\theta), \theta \in (-\pi, \pi]$) uchun $\varphi(rw) \subset \varphi(B_\gamma(0))$ bo‘ladi, bunda \mathbb{S} — dagi birlik aylana. U holda $p = \varphi(rw)$ ni qo‘yib va $2\arcsin(\cdot)$ ning $|rw_i| < 1$ uchun absolyut yaqinlashuvchi bo‘lgan

$$\varphi_i(rw) = 2rw_i + \frac{r^3 w_i^3}{3} + \sum_{n \geq 3} \tilde{c}_n r^{2n-1} w_i^{2n-1}$$

Teylor qatorlaridan foydalanib, (3.24) dan

$$\psi(\varphi(rw)) = \sum_{n \geq n_0} \tilde{C}_n(w_1, w_2) r^{2n} \tag{3.25}$$

ni olamiz, bunda $\tilde{C}_n : \mathbb{S} \rightarrow \mathbb{R}^2$ w ning $2n$ darajalar bo‘yicha bir jinsli ko‘phadi va

$$\tilde{C}_{n_0}(w_1, w_2) = \frac{4^{n_0}}{(2n_0)!} D^{2n_0} \psi(0) w_1^i w_2^j, \quad i + j = 2n_0, i, j \geq 0$$

aniqlanadi. Shundan so‘ng $J(\varphi(y))$ ni qarab chiqamiz. $(1 - t)^{-1/2}$ ning Teylor qatorini (3.23) ga kiritib

$$J(\varphi(rw)) = 4 \left(1 + \sum_{n \geq 1} \hat{C}_n(w_1, w_2) r^{2n} \right) \tag{3.26}$$

ni olamiz, bu yerda $\hat{C}_n : S \rightarrow \mathbb{R}^2$ $w \in S$ ning $2n$ darajali bir jinsli simmetrik ko'phad bo'lib, qator absolyut yaqinlashadi. Endi (3.22) da $y = rw$ almashtirish orqali qutb koordinatalari sistemasi o'tsak va (3.25) va (3.26) dan foydalanib absolyut yaqinlashuvchi

$$I^*(z) = 4 \int_0^\gamma \frac{r}{8r^6 - z} \left(\sum_{n \geq n_0} \int_S C_n(w) r^{2n} \right) dH dr = \sum_{n \geq n_0} \hat{c}_n \int_0^{2\gamma^2} \frac{s^n ds}{s^3 - z}, \quad (3.27)$$

qatorni olamiz, bu yerda $C_n : S \rightarrow \mathbb{R}^2$ $w \in S$ ning $2n$ darajali bir jinsli ko'phad va

$$\hat{c}_n := \frac{1}{2^n} \int_S C_n(w) dH,$$

dH bir o'lchamli Hausdorf o'lchovi. E'tibor bering $\hat{c}_{n_0} = c_\psi$, bu yerda c_ψ (3.18) orqali berilgan va (3.27) dagi oxirgi qator $C \setminus [0, 64]$ ning ixtiyoriy qism to'plamida tekis yaqinlashadi, chunki I^* va

$$z \in C \setminus [0, 64] \mapsto \mathbf{I}_n(z) = \int_0^{2\gamma^2} \frac{s^n ds}{s^3 - z}$$

$C \setminus [0, 64]$ dagi analitik funksiyalar va (3.27) qator nuqtali yaqinlashadi. Etibor bering, har qanday $n \geq 0$ uchun shunday $c_n \in \mathbb{R}$ va $W_{4\gamma^6}(0) \subset C$ da analitik f_n funksiyalar mavjudki, har qanday $z \in (-\gamma^6, 0)$ uchun

$$\mathbf{I}_n(z) = z^{\lfloor \frac{n}{3} \rfloor} \mathbf{J}_l^o(z) + c_n + z f_n(z) \quad (3.28)$$

tenglik o'rinli, bu yerda $l = n - 3 \lfloor \frac{n}{3} \rfloor \in \{0, 1, 2\}$ va

$$\mathbf{J}_l^o(z) = \begin{cases} \frac{2\pi}{3\sqrt{3}\sqrt[3]{-z}}, & \text{agar } l = 0; \\ \frac{2\pi}{3\sqrt{3}\sqrt[3]{-z}}, & \text{agar } l = 1; \\ -\frac{1}{3} \ln(-z), & \text{agar } l = 2. \end{cases}$$

Endi (3.28) ni (3.27) ga kiritib,

$$I^*(z) = \sum_{n \geq n_0} \hat{c}_n \left(z^{\lfloor \frac{n}{3} \rfloor} \mathbf{I}_{n-3\lfloor \frac{n}{3} \rfloor}^o(z) + c_n + z f_n(z) \right)$$

ni olamiz. (3.28) $C \setminus [0, 64]$ da lokal yaqinlashuvchi bo'lganligi uchun $C := \sum_{n \geq n_0} \hat{c}_n c_n$ chekli

bo'ladi va

$$\sum_{n \geq n_0} \hat{c}_n f_n(z) = g(z),$$

bu yerda g $W_{\gamma^6}(0)$ da analitik funksiya. Demak,

$$I^*(z) = C + zg(z) + \sum_{n \geq n_0} \hat{c}_n z^{\lfloor \frac{n}{3} \rfloor} \mathbf{I}_{n-3\lfloor \frac{n}{3} \rfloor}^o(z). \quad (3.29)$$

Agar $0 \leq n_0 \leq 2$ bo'lsa, u holda (3.29),

$$I^*(z) = \hat{c}_{n_0} z^{\left[\frac{n_0}{3}\right]} \mathbf{I}_{n_0-3\left[\frac{n_0}{3}\right]}^o(z) + C + zg(z) + \sum_{n \geq n_0+1} \hat{c}_n z^{\left[\frac{n}{3}\right]} \mathbf{I}_{n-3\left[\frac{n}{3}\right]}^o(z). \quad (3.30)$$

ko'rinishda bo'ladi. (3.21) va \mathbf{J}_l^0 ni hisobga olib (3.30) dan $0 \leq n_0 \leq 2$ uchun I_ψ ning (3.15) yoyilmalarini olamiz. Xususan, $n \geq n_0 + 3$ uchun $\left[\frac{n_0}{3}\right] \geq 1$ bo'lganligi uchun (3.30) dan

$$\lim_{z \rightarrow 0} I^*(z) = +\infty \quad (3.31)$$

ni olamiz.

Agar $3 \leq n_0$ bo'lsin, u holda har qanday $n \geq n_0$ uchun $\left[\frac{n_0}{3}\right] \geq 1$ bo'ladi. Demak, (3.29) da $I^*(0) := \lim_{z \rightarrow 0} I^*(z)$ mavjud va u C ga teng. Xususan, $3 \leq n_0 \leq 5$ uchun

$$I^*(z) = I^*(0) + \hat{c}_{n_0} z^{\left[\frac{n_0}{3}\right]} \mathbf{I}_{n_0-3\left[\frac{n_0}{3}\right]}^o(z) + zg(z) + \sum_{n \geq n_0+1} \hat{c}_n z^{\left[\frac{n}{3}\right]} \mathbf{I}_{n-3\left[\frac{n}{3}\right]}^o(z) \quad (3.32)$$

ni va (3.21) dan I_ψ ning (3.16) yoyilmalarini olamiz. Xususan, (3.32) va I^{**} ning analitikligi tufayli $3 \leq n_0 \leq 5$ uchun I_ψ uzluksiz bo'ladi. Shuningdek, (3.32) ga e'tibor bersak

$$\lim_{z \rightarrow 0} \frac{I^*(z) - I^*(0)}{z} = +\infty, \quad (3.33)$$

ya'ni, I^* (shu bilan birga I_ψ) $z = 0$ nuqtada differensiallanuvchi emas.

Va nihoyat agar $n_0 \geq 6$ bo'lsa, u holda barcha $n \geq n_0$ uchun $\left[\frac{n}{3}\right] \geq 2$ bo'ladi. Demak, (3.29) da

$$I^{*'}(0) := \lim_{z \rightarrow 0} \frac{I^*(z) - I^*(0)}{z} = g(0)$$

limit mavjud bo'ladi. U holda $n_0 \geq 6$ uchun

$$I^*(z) = I^*(0) + z \left(I^{*'}(0) + \sum_{n \geq 1} \frac{g^{(n)}(0)}{n!} z^n + \sum_{n \geq n_0} \hat{c}_n z^{\left[\frac{n}{3}\right]-1} \mathbf{I}_{n-3\left[\frac{n}{3}\right]}^o(z) \right) \quad (3.34)$$

ko'rinishda bo'ladi. Shuningdek, (3.21) va \mathbf{J}_l^0 ni hisobga olib (3.34) dan $n_0 \geq 6$ uchun I_ψ ning (3.17) yoyilmalarini olamiz. Tasdiq 1 isbot bo'ldi. **W**

Endi biz quyida $z - 64 \in (0, \gamma)$ bo'lganda (3.12) integral uchun asimtotik yoyilmalar olamiz.

Tasdiq 2 ψ — haqiqiy analitik, juft va (3.14) shartni qanoatlantiruvchi funksiya bo'lsin. U holda (3.12) ko'rinishdagi I_ψ :

1. $n^o \geq 1$ uchun $z = 64$ nuqtada uzluksiz,
2. $n^o \geq 2$ uchun $z = 64$ nuqtada differensiallanuvchi.

Bundan tashqari, har qanday $\beta \in \left(0, \frac{1}{16}\right)$ uchun:

$$I_{\psi}(z) = \begin{cases} C_{\psi} \ln(\beta) - \ln(\beta) \sum_{n \geq 1} \hat{a}_n \beta^n + \sum_{n \geq 0} \hat{b}_n \beta^n, & n^o = 0; \\ I_{\psi}(64) - C_{\psi} \beta \ln \beta + \ln \beta \sum_{n \geq 2} c_n \beta^n + \sum_{n \geq 1} \hat{b}_n \beta^n, & n^o = 1; \\ I_{\psi}(64) + \beta I'_{\psi}(64) + \ln \beta \sum_{n \geq 2} c_k \beta^k + \sum_{n \geq 2} \hat{b}_n \beta^n, & n^o \geq 2. \end{cases} \quad (3.35)$$

yoyilmalar mavjud. Bu yerda, $\beta = z - 64$ va $\{c_n\}, \{\hat{b}_n\}$ haqiqiy koeffitsientlar,

$$C_{\psi} = \frac{1}{4^{n^o} 8(2n^o)!_s} \int_{\mathcal{S}} (D^{2n^o} \psi)(\vec{\pi}) [w_1, w_2] dH \quad (3.36)$$

va (3.35) qatorlar absolyut yaqinlashuvchi bo'ladi.

Isbot. $\mathbf{e}(\cdot)$ funksiya $\vec{\pi} = (\pi, \pi) \in \mathbb{T}^2$ nuqtada yagona aynimagan maksimumga erishadi, yani

$$(\nabla \mathbf{e})(\vec{\pi}) = \left(\frac{\partial \mathbf{e}}{\partial p_1}(\vec{\pi}), \frac{\partial \mathbf{e}}{\partial p_2}(\vec{\pi}) \right) = (0, 0)$$

va Hessain

$$H_{\mathbf{e}}(\vec{\pi}) = \left(\frac{\partial^2 \mathbf{e}}{\partial p_1^i \partial p_2^j}(\vec{\pi}) \right)_{i+j=2, i, j \geq 0}$$

manfiy aniqlangandir. U holda, Mors lemmasiga ko'ra $\vec{\pi} \in \mathbb{T}^2$ ning shunday U atrofi va $\varphi(\cdot) = (\varphi_1(\cdot), \varphi_2(\cdot)) : B_{\gamma}(0) \mapsto U(\vec{\pi})$ analitik diffeomorfizm mavjudki, $\varphi(\vec{0}) = \vec{\pi}$ va

$$\mathbf{e}(\varphi(y)) = 64 - y^2 \quad (3.37)$$

tenglik o'rinli bo'ladi, bu yerda $B_{\gamma}(0) \subset \mathbb{R}^2 - \mathbb{R}^2$ tekislikda markazi koordinata boshida va radiusi $\gamma \in (0, 1)$ bo'lgan doira va $y^2 = y_1^2 + y_2^2$. Shuningdek, (3.37) ga ko'ra, ixtiyoriy $p \in \mathbb{T}^2 \setminus U(\vec{\pi})$ uchun

$$64 - e(p) \geq \gamma^2 \quad (3.38)$$

tengsizlik o'rinli. U holda (3.12) integralni

$$I_{\psi}(z) = - \int_{U(\vec{\pi})} \frac{\psi(q) dq}{z - \mathbf{e}(q)} - \int_{\mathbb{T}^2 \setminus U(\vec{\pi})} \frac{\psi(q) dq}{z - \mathbf{e}(q)} =: -I^*(z) - I^{**}(z) \quad (3.39)$$

shaklda qayta yozamiz. (3.38) ga ko'ra,

$$\begin{aligned} I^{**}(z) &= \int_{\mathbb{T}^2 \setminus U(\vec{\pi})} \frac{\psi(q) dq}{z - \mathbf{e}(q)} = \int_{\mathbb{T}^2 \setminus U(\vec{\pi})} \frac{\psi(q)}{64 - \mathbf{e}(q)} \left(1 + \frac{z - 64}{64 - \mathbf{e}(q)} \right)^{-1} dq \\ &= \sum_{n \geq 0} (-1)^n (z - 64)^n \int_{\mathbb{T}^2 \setminus U(\vec{\pi})} \frac{\psi(q) dq}{(64 - \mathbf{e}(q))^{n+1}} \end{aligned} \quad (3.40)$$

ya'ni, $I^{**}(\cdot)$ funksiya $W_{\gamma^2}(64)$ doirada analitik bo'ladi. Shuningdek, I^* uchun $q = \varphi(y)$ almashtirish va (3.37) dan foydalanib

$$I^*(z) = \int_{B_{\gamma}(0)} \frac{\psi(\varphi(y)) J(\varphi(y)) dy}{z - 64 + y^2} \quad (3.41)$$

ni olamiz, bunda $J(\varphi(\cdot))$ — φ almashtirishning Yakobiani. U holda (3.41) dan qutb koordinatalari sistemasiga o'tib

$$I^*(z) = \int_0^\gamma \frac{r}{z-64+r^2} \int_{\partial B_r(0)} \psi(\varphi(y))J(\varphi(y))dH(y)dr = 2\pi \sum_{n \geq n^o} \tilde{c}_n \int_0^\gamma \frac{r^{2n+1}dr}{z-64+r^2} \quad (3.42)$$

ni olamiz, bu yerda

$$\tilde{c}_n = \frac{1}{4^n (n!)^2} \Delta_y^n [\psi(\varphi(y))J(\varphi(y))]_{y=0}$$

Pizetti koeffitsiyenti [2] va Δ_y Laplas operatori. Shuningdek,

$$I_n(z) = \int_0^\gamma \frac{r^{2n+1}dr}{z-64+r^2}$$

dan, shunday $C_n \in \mathbb{R}$ va $W_\gamma(64)$ da analitik f_n funksiyalar mavjudki

$$I_n(z) = \frac{(-1)^{n+1}(z-64)^n \ln(z-64)}{2} + C_n + (z-64)f_n(z-64) \quad (3.43)$$

tenglik o'rinli. U holda (3.43) ni (3.42) ga kiritib

$$I^*(z) = 2\pi \sum_{n \geq 0} \tilde{c}_n \left[\frac{(-1)^{n+1}(z-64)^n \ln(z-64)}{2} + C_n + (z-64)f_n(z-64) \right]$$

ni olamiz. Shuningdek, (3.43) ning $C \setminus [0, 64]$ da lokal yaqinlashuvchanligiga ko'ra $C := 2\pi \sum_{n \geq 0} \tilde{c}_n C_n$ chekli va $g(z) = 2\pi \sum_{n \geq 0} \tilde{c}_n f_n(z-64)$ fuksiya $W_{\gamma^2}(64)$ da analitik bo'ladi. U holda,

$$I^*(z) = \pi \sum_{n \geq 0} (-1)^{n+1} \tilde{c}_n (z-64)^n \ln(z-64) + C + (z-64)g(z).$$

a) $n^o = 0$ bo'lsin. U holda

$$I^*(z) = -\pi \tilde{c}_0 \ln(z-64) + \pi \ln(z-64) \sum_{n \geq 1} (-1)^{n+1} \tilde{c}_n (z-64)^n + C + (z-64)g(z), \quad (3.44)$$

bu yerda

$$\tilde{c}_0 = [\psi(\varphi(y))J(\varphi(y))]_{y=0}.$$

Shuningdek, Mors lemmasiga ko'ra,

$$J(\varphi(0)) = \sqrt{\det \frac{\partial^2 \mathbf{e}(\vec{\pi})}{\partial p_i \partial p_j}} = 48$$

tenglik o'rinli. Bundan

$$\tilde{c}_0 = 48\psi(\vec{\pi})$$

ni olamiz. U holda (3.44) va (3.39) dan I_ψ ning (3.35) dagi birinchi yoyilmasini olamiz. Shuningdek,

$$\lim_{z \downarrow 64} I^*(z) = \infty,$$

yani limit mavjud emas.

b) $n^o = 1$ bo'lsin. U holda (3.14) ga asosan, $\psi(\vec{\pi}) = D\psi(\vec{\pi}) = 0$. U holda

$$I^*(z) = \pi(z-64) \ln(z-64) \sum_{n \geq 1} (-1)^{n+1} \tilde{c}_n (z-64)^{n-1} + C + (z-64)g(z). \quad (3.45)$$

U holda (3.45) da $\lim_{z \downarrow 64} I^*(z) =: I^*(64)$ limit mavjud va u C ga teng. Shuningdek, (3.45) ni

$$I^*(z) = I^*(64) + \pi \tilde{c}_1 (z - 64) \ln(z - 64) + \pi \ln(z - 64) \sum_{n \geq 2} (-1)^{n+1} \tilde{c}_n (z - 64)^n + (z - 64)g(z) \quad (3.46)$$

shaklda qayta yozamiz. Bu yerda,

$$\tilde{c}_1 = \frac{1}{4} \Delta_y [\psi(\varphi(y)) J(\varphi(y))]_{y=0} =$$

$$\frac{J(\varphi(\vec{0}))}{4} \left[\frac{\partial^2 \psi}{\partial p_1^2}(\vec{\pi}) (\nabla \varphi_1(\vec{0}))^2 + 2 \frac{\partial^2 \psi}{\partial p_1 \partial p_2}(\vec{\pi}) \nabla \varphi_1(\vec{0}) \cdot \nabla \varphi_2(\vec{0}) + \frac{\partial^2 \psi}{\partial p_2^2}(\vec{\pi}) (\nabla \varphi_2(\vec{0}))^2 \right]$$

Xususan, (3.39) va (3.46) ni (3.39) ga kiritib I_ψ ning (3.35) dagi ikkinchi yoyilmasini olamiz. Shuningdek, (3.46) dan

$$\lim_{z \downarrow 64} \frac{I^*(z) - I^*(64)}{z - 64} = \infty,$$

ya'ni, $I^*(\cdot)$ funksiya $z = 64$ nuqtada differensiallanuvchi emas.

c) $n^o \geq 2$ bo'lsin. U holda g ning $W_\gamma(64)$ da analitikligidan

$$g(z) = g(64) + \sum_{n \geq 1} \frac{g^{(n)}(64)}{n!} (z - 64)^n$$

yoyilma mavjud. Shuningdek, $n^o \geq 2$ uchun $I^*(\cdot)$ ni

$$I^*(z) = I^*(64) + \pi \ln(z - 64) \sum_{n \geq 2} (-1)^{n+1} \tilde{c}_n (z - 64)^n + (z - 64) \left[g(64) + \sum_{n \geq 1} \frac{g^{(n)}(64)}{n!} (z - 64)^n \right] \quad (3.47)$$

shaklda qayta yozamiz. U holda

$$I^*(64) := \lim_{z \rightarrow 64} \frac{I^*(z) - I^*(64)}{z - 64} = g(64), \quad (3.48)$$

limit mavjud ya'ni, I^* funksiya $z = 64$ nuqtada differensiallanuvchi bo'ladi. U holda (3.48) ni (3.48) ga kiritib

$$I^*(z) = I^*(64) + \pi \ln(z - 64) \sum_{n \geq 2} (-1)^{n+1} \tilde{c}_n (z - 64)^n + (z - 64) \left[I^*(64) + \sum_{n \geq 1} \frac{g^{(n)}(64)}{n!} (z - 64)^n \right] \quad (3.49)$$

ni olamiz. Shuningdek, (3.39) va (3.48) dan I_ψ ning (3.35) dagi uchinchi yoyilmasini olamiz. Ushbu tasdiq isbot etildi. **W**

Xulosa. Ikki o'lchamli panjara Z^2 μ konstantaga bo'liq holda bir zarrachali sistemaga mos chekli rangli potensial bilan bog'langan lokal bo'lmagan Shredinger operatorining xos qiymati uchun asimptotik yoyilmalar oldik.

Minnatdorchilik. Ushbu ishni yozishda yaqindan yordam bergani uchun f.-m.f.d. Z. Muminovga minnatdorchilik bildiraman.

ADABIYOTLAR:

1. Albeverio, S., Lakaev, S., Muminov, Z.: *Schrödinger operators on lattices. The Efimov effect and discrete spectrum asymptotics. Ann. Inst. H. Poincaré Phys. Theor.* 5, 743–772 (2004)
2. Albeverio, S., Lakaev, S., Makarov, K., Muminov, Z.: *The threshold effects for the two-particle Hamiltonians on lattices. Commun. Math. Phys.* 262, 91–115 (2006)
3. Hiroshima, F., Lörinczi, J.: *The spectrum of non-local discrete Schrödinger operators with a δ — potential. Pacific J. Math. Industry* 6, 1–6 (2014)
4. Sh. S. Lakaev, G. I. Ismoilov, O. I. Kurbonov. *The Spectrum of a Non-local Discrete Schrödinger Operator with a Delta Potential on the One-Dimensional Lattice.*
5. Lakaev, S., Kholmatov, Sh.: *Asymptotics of eigenvalues of two-particle Schrödinger operators on lattices with zero range interaction. J. Phys. A: Math. Theor.* 44 (2011)
6. Lakaev, S., Khalkhuzhaev, A., Lakaev, Sh.: *Asymptotic behavior of an eigenvalue of the two-particle discrete Schrödinger operator. Theoret. Math. Phys.* 171, 800–811 (2012)
7. F. Hiroshima, Z. Muminov, U. Kuljanov, *Threshold of discrete Schrödinger operators with delta-potentials on N — dimensional lattice, Linear Multilinear Algebra* (2020).
8. Sh. Kholmatov, A. Khalkhuzhaev, M. Pardabaev, *Expansion of eigenvalues of rank-one perturbations of the discrete bilaplacian, Monatsh. Math.* 197 (2022) 607–633.
Annotatsiya. Ushbu maqolada konsept tushunchasi hamda unga berilgan ta'riflar, uning jahon va o'zbek tilshunosligida shakllanishi, amalga oshirilgan tadqiqotlardan olingan misollar, fikr-mulohazalar va shuning bilan birgalikda konseptosfera hamda uning mohiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Salomatlik konsepti mazmunining milliy xususiyatlari lisoniy jihatdan talqin qilingan. Qolaversa, ilmiy maqolada metaforaning faqat nomlash usuli emas, balki bilish va fikrlash vositasi sifatidagi talqini, so'z, tushuncha va konseptning o'zaro aloqasi, ularning umumiy va alohidalik xususiyatlari haqida ham ayrim mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: konsept, konseptologiya, konseptosfera, tushuncha, so'z, tahlil, metafora, salomatlik, semantik, kasallik, kognitiv xususiyat.

О МЕТОДЕ И ЕДИНИЦАХ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО АНАЛИЗА

Аннотация: В данной статье особое внимание уделено понятию концепта и данным ему определениям, его становлению в мировом и узбекском языкознании, примерам из исследований, мнений, а также концептосфере и её сущности. Национальные особенности содержания концепта здоровья интерпретируются в лингвистическом аспекте. Кроме того, в научной статье также упоминается трактовка метафоры как средства познания и мышления, а также соотношение между словами, понятиями и концептами, их общие и отличные черты.

Ключевые слова: концепт, концептология, концептосфера, концепт, слово, анализ, метафора, здоровье, семантика, болезнь, когнитивный признак.

REGARDING THE METHOD AND UNITS OF CONCEPTUAL ANALYSIS

Abstract: In this article, special attention is paid to the concept and the definitions given to it, its formation in world and Uzbek linguistics, examples from researches, opinions, and therefore the conceptosphere and its essence. National characteristics of the content of the concept of health are interpreted linguistically. In addition, in the scientific article, the interpretation of metaphor as a means of knowing and thinking, as well as the relationship between words, and concepts, and their common and special features, is also mentioned in the scientific article.

Keywords: concept, conceptology, conceptosphere, word, analysis, metaphor, health, semantic, illness, cognitive trait

Kirish. Konseptual tahlilning obykti konsept sanalib, tahlil markazida turgan tushuncha\konseptning semantik ma'nosini bilish yo'li hisoblanadi. Konseptual tahlil konsepsiyalarni o'rganishning yetakchi usullaridan biri sifatida baholanadi va uning konseptual modellashtirish, geshtalt tuzilma va freym-senariy modellashtirish kabi tahlil ko'rinishlari mavjud.

Konsept tahlil asosida ma'lum bir konsepsiyani ko'rsatadigan nom bilan bog'liq barcha bilim va g'oyalar inson lisoniy manzarasida tiklanadi.

Konseptual tahlil, E. S. Kubryakovaning fikriga ko'ra, "bir belgi ostida jamlangan va belgining mavjudligini ma'lum bo'lgan kognitiv tuzilma sifatida oldindan belgilab beradigan va dunyo haqidagi bilimlarga olib keladigan umumiy tushunchalarni izlash sifatida namoyon bo'ladi. Tushunchalar deganda dunyoning umumiy konseptual modeliga kiruvchi belgilar mazmuni, ong birliklarining tasvirlari tushuniladi"[5; 91].

Avvalo aytish lozimki, tilni o'rganishga kognitiv yondashuv alohida subyektlarning ma'lum bir til birligi haqidagi individual guvohliklariga emas, balki barcha so'zlovchilarning tajribasiga tayanadi va bu tajriba tildagi leksema, birikmalarning voqelanishlarida namoyon bo'ladi.

*Geshtalt*larni ochib berish konseptual tahlilning taktikasi bo'lib, uning vazifasi lingvistik bilimlar strukturasi tavsiflashda, ya'ni "nomda yashiringan belgi mazmuni tasvirlarini aniqlashda hisoblanadi.

Geshtalt - ondagi individual hodisalarning xilma-xilligini tashkil qiluvchi murakkab, yaxlit funksional psixik tuzilma. Geshtalt – bu hissiy va ratsional elementlarni birlashtirgan, shuningdek, ko‘rsatilgan obyekt yoki hodisaning dinamik va statik tomonlarini birlashtirgan yaxlit tasvir. Geshtalt nemis tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, xilma-xillik degan tushunchani anglatadi va lingvistik ma‘noda J.Lakoff tomonidan birinchilardan bo‘lib qo‘llangan. Geshtaltlar mavhum leksikaning semantik tarkibini tashkil etadi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Tilshunos E.Yu.Guseva qarashlariga ko‘ra, geshtalt - bu o‘ziga xos yaxlit obrazli tasvir, hali "qo‘lga kiritilmagan" tasvir. Biz buni anglaymiz, lekin uni hech qanday belgi ostida olib kela olmaymiz [7; 45]. Demak, aytilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, "geshtalt" atamasi "tasvir" atamasining dubleti emas, balki empirik tarzda tushuniladigan *yashirin metafora* sanaladi. “Keng ma‘noda geshtaltni konsept assotsiativ maydonini shakllantiruvchi vositalaridan biri, geshtalt tuzilmasini esa assotsiatsiyalar iyerarxiyasi (pog‘onaviyligi) ning analogi sifatida ko‘rib chiqish mumkin” [7]. Tushunchaning bir turi sifatida ma‘lum madaniy ma‘lumotlar geshtaltda to‘planadi va bu madaniy ma‘lumotlar ma‘lum hayotiy hodisalar natijasida shaxs tafakkurida to‘planadi va lisoniy hodisalar orqali ifodalanadi. To‘plangan ma‘lumotlarning aksar qismini metaforik baholashlar tashkil etadi.

Metaforaning yoshi inson tili yoshiga deyarli teng bo‘lganligi sababli antik davrning eng buyuk mutafakkirlari allaqachon o‘z diqqat-e‘tiborlarini unga qaratishgan. So‘zlarning majoziy, ko‘chma ma‘noda qo‘llanilishiga oid eng dastlabki tasnifi, ya‘ni “jinsdan turga, yoki turdan turga, yoki jinsdan jinsga, yoki o‘xshashlikka asosan” tasnif Aristotelga tegishli bo‘lgan, lekin zamonaviy ma‘noda, faqat o‘xshashlik asosidagi ko‘chirish metafora deb atalishi mumkin, turdan jinsga va jinsdan turga ko‘chirish sinekdoxa hisoblanadi, turdan turga o‘tish esa metonimiyadir.

Sitseron metafora nutqda ikki sababga ko‘ra, ya‘ni birinchidan, tilda yangi narsalar va hodisalarni nomlash uchun so‘zlarning yetishmasligi, ikkinchidan, odamlarning nutqini bezash istagi tufayli paydo bo‘ladi, deb hisoblagan. Kvintilian o‘zining “Notiqni tarbiyalash to‘g‘risida” kitobida buning uchinchi sababini – odobsiz iboralarning evfemizatsiyasini ta‘kidlaydi, buning natijasida metafora uning nuqtayi nazaridan “eng chiroyli va eng muhim trop” deb nomlanishga loyiqdir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida metafora asosan adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilgan, ammo XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa uning ahamiyatligi kognitiv olimlar tomonidan qayta o‘rganib chiqilgan. Buning sababi shundaki, metafora faqat nomlash usuli emas, balki bilish va fikrlash vositasi sifatida talqin etila boshlandi.

Natijalar va muhokama

Aytish mumkinki, metafora – bu bevosita kuzatish uchun mavjud bo‘lmagan mavhum tushunchalarni tushunish mexanizmi sanaladi. V. P. Moskvina tomonidan quyida keltirilgan jadvalda metaforizatsiya mexanizmining barcha tarkibiy qismlari ko‘rsatilgan [3; 184] (2-chizma).

Yordamchi	Asosiy	Taqqoslanuvchi	Taqqoslash
obyekt	obyekt		aspekti
tulki	odam	ayyor	xulq-atvor
tojdor	virus	kasallik nomi	kasallik
bezgak	pashsha	hasharot	kasallik tarqatuvchi

2-chizma. Metaforizatsiya mexanizmi tarkibiy qismlari

Oxirgi monografiyalaridan birida V. K. Xarchen kometaforaning 15 funksiyasini aniqlaydi. Ushbu tasnif eng to‘liq bo‘lgani uchun ham uning asosiy qoidalari ushbu bobda aks ettirishga munosibdir.

1. Nominativ funksiya. Agar metafora tilda yetishmayotgan nomlarni to‘ldirsa, u holda nominativ funksiyani bajarayotgan bo‘ladi: *ko‘krak qafasi*, *ko‘z olmasi*.

2. Axborot beruvchi va tushuntirish funksiyalari. Ilmiy-ommabop adabiyotdagi metafora tushuntirishni osonlashtiradi va uni keng o‘quvchilar uchun ochiq va tushunarli qiladi. Masalan: **Mikroblar** juda **ayyor**: keksayganida o‘lib, yo‘qolmasdan, balki shartta ikkiga bo‘linib qo‘ya qoladi, anig‘rog‘i, yosharib, qaytadan ulg‘ayish davrini boshdan kechiradi. **Sodiq hamkorlar**– **viruslar** (hujayra tarkibiga ega bo‘lmagan, nihoyatda mayda o‘lchamli qo‘zg‘atuvchi) va **sodda jonivorlar** (ayrim gijjalor, qo‘tir kanasi) ham mikroblar

bilan birga inson salomatligiga muntazam tahdid solib turadi. Mikroblar asosan kasalxonalarini o'zlariga eng **ishonchli oshyon** deb bilishadi. Yillar davomida, inson asta-sekin **mitti dushmanlarini ko'rish**, bir-biridan farqlash, nihoyat, ularga qarshi kurashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Mnemonik funksiya. Uning mohiyati shundan iboratki, metafora tushuntiruvchining vazifasini nafaqat osonlashtiradi, balki materialni yaxshiroq o'zlashtirish va yodlashga ham hissa qo'shadi, chunki yorqin obraz doimo xotirada uzoq vaqtgacha qoladi. Mnemonika (yunoncha mnemonika – eslab qolish san'ati) – sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo'li bilan esda saqlashni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Ba'zi mnemonistlar o'zlashtirishda har xil sun'iy usullarni qo'llashga o'rganganligi tufayli katta hajmdagi, hatto ma'nosiz materialni tez esda olib qolish qobiliyatiga erishadilar. Lekin xotira samaradorligini tub ma'noda oshirish uchun sun'iy usullardan foydalanish ikkinchi darajali hamda yordamchi bo'lib hisoblanadi. Umuman, mexanik ravishda yod olishga qaraganda ma'nosiga tushunib yod olish ma'qul va samarali usuldir.

4. Metaforaning bilish bilan bog'liq yana bir vazifasi bu evristik yoki izlash funksiyasidir. Ko'pincha ilmiy gipoteza muvaffaqiyatli o'xshashlik bilan boshlanadi, bu keyinchalik butun ilmiy paradigmaning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fizika rivojlanib borishi bilan tabiat kitob bilan taqqoslandi (u hatto ikkinchi Muqaddas bitik deb ham nomlangan), Har bir bunday taqqoslash ortida dunyoning ma'lum bir ilmiy manzarasi turardi.

5. Matnni yaratish (shakllantirish) funksiyasi. Metaforaning mazkur vazifasi matnni shakllantirish, kengaytirish, izohlash bilan bog'liqdir. Metaforani matnda yanada joylashtirish qobiliyati obyektning yaxlit ko'rinishini shakllantirishga yordam beradi. Misol uchun immunitet tizimining tuzilishini yetib boradigan qilib tushuntirishda, harbiy terminologiyaga murojaat qilish mumkin: *Sog'ligimiz chegaralarini umr bo'yi qo'riqlaydigan qo'shinlar immunitet tizimi... deb ataladi... Dushman qo'shinlari soni juda ko'p yoki dushman askarlari juda kuchli bo'lganida, sog'ligimiz himoyachisiga mustahkamlanishi uchun yordamchi kuchlar talab etiladi* (gazetadan).

6. Metaforaning keyingi bir-biriga o'zaro yaqin vazifalari – bu uslub va janrni shakllantirish funksiyasidir. Metafora tilning barcha funksional turlarida ishlatilsa-da, faqat badiiy uslub uchun u ajralmas atributga aylangan. Ilmiy nashrda va badiiy asarda metaforalardan foydalanishning farqi shundaki, birinchi holda olim bitta taqqoslashni topadi, so'ngra uni butun ishi davomida ochib beradi va tarkiblashtirib beradi. Badiiy matn uchun, aksincha, shu matnda takrorlanmaydigan ko'plab original obrazlar yaratish xos hisoblanadi. Metaforaning janr shakllantiruvchi funksiyasini, V. K. Xarchenko ta'biri bilan aytganda, olimlar ko'pincha nazardan chetda qoldiradilar, garchi metaforasiz ertak, maqol va matal kabi janrlar prinsipial jihatdan yaratilmagan bo'lar edi (Яблоко от яблони недалеко падает; Одного поля ягоды. – Olma olma daraxtidan uzoqqa tushmaydi; rezavorlarning dalasi bitta)[6; 56].

7. Emotsional baholash funksiyasi. Metafora ekspressivlikni oshiruvchi universal usul hisoblanib, matnga ekspressivlik, emotsionallik, baholash kabi xususiyatlarni baxsh etadi hamda muallifning asl niyatini tushunib yetishda ko'maklashadi. Yorqin obraz har doim tinglovchining yetarlicha kuchli hissiy reaksiyasini keltirib chiqarishi sababli, metaforaning idrok etuvchi subyekt ongiga ta'siri "oddiy" fikrlashlar bilan solishtirganda sezilarli bo'ladi. Masalan, *Chaqaloq to'qqiz oy mobaynida issiqqina o'rinda, kindik orqali tayyor oziq moddalar va kislorodni olib, oyoqni osmondan qilib yotgan bo'lsa, endi quruq va keskin ob-havo sharoitiga, tashvishli dunyoning shovqin-suronlariga, baqir-chaqiriqlariga ko'nikishiga, og'iz orqali ovqat, burun orqali nafas olishga, zararli chiqindi mahsulotlarini ichak va peshob yo'llari orqali chiqarishga majbur bo'ladi*.

8. Konseptual funksiyasi shundan iboratki, u orqali inson olamni bilish qobiliyati asosida narsa/harakat/holat va boshqa haqiqatlarni anglay oladi. Metafora bundan tashqari manipulyativ maqsadlarda, ya'ni qabul qiluvchining dunyoqarashini o'zgartirish yoki uni biror narsa qilishga majburlash uchun ishlatilishi mumkin – bu suggestiv (taklif qiluvchi) funksiya sanaladi.

9. Metaforaning kodlash funksiyasi tabulashtirishlarda (*pes* o'rnida *o'sha* olmoshi ishlatilganida), evfemizmlarda (*o'lgan* o'rniga *vafot etgan*, *doril* *baqoga rihlat etgan*), harbiy amaliyotlarni nomlashda (Bo'ron, Chaqmoq) amalga oshiriladi. Maxfiylik funksiyasidagi metafora ma'noni to'liq yashirish uchun ishlatiladi. Topishmoq buning eng yorqin namunasi hisoblanadi (*Yer tagida oltin qoziq*).

V. K. Xarchenko tabriklar, salomlashishlar, qadah so'zlari, tilaklar, ta'ziralardagi o'ziga xos marosim nutqlari ham metaforik tasvirlardan xoli emasligini ta'kidlaydi va ular ham ma'lum vazifa bajarishini asoslaydi.

Kognitiv tilshunoslik metaforaning suggestiv (taklif qilish) funksiyasiga, ya'ni uning inson dunyoqarashiga ta'sir qilish xususiyatiga katta e'tibor beradi. Ko'rinib turganidek, metafora tilga

yetishmayotgan ma'noni ifodalash, badiiy ifoda vositasini, nutq figurasini ifodalash usulidan to ongni manipulyasiyalash vositasigacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tadi(Qarang: 3-chizma).



3-chizma. Metaforaning asosiy lisoniy funksiyalari

Metafora mexanizmini o'rganish konseptual tahlil usuli bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u lisoniy metaforani rasshifroka qilish asosida, dunyoning sodda manzarasidagi mavhum tushuncha bilan o'zaro bog'liq bo'lgan "konkret" obrazni ochib beradi va uning birikuvchanligini boshqaradi. Kognitiv bilimlar albatta freymlar bilan bog'lanadi.

«Frame» (freym) – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «karkas» yoki «ramka» degan ma'nolarni anglatadi.

Freym – bu turli xil axborot va situatsiyalarni universal sistema tarzida bayon qiluvchi, kognitiv struktur tiplari asosida standart bilimlar majmuini har xil modellar va har xil til birliklari yordamida ifoda etuvchi, ko'p komponentli konseptdir. Freymlar to'g'ridan to'g'ri nutqning muloqot jarayonida ishtirok etadi va ekstralingvistik bilimlar dunyosini o'zida aks ettiradi. U inson ongida ma'lumotlarni saqlash yo'lidir. Freymlar insonning umri davomida yig'gan ijtimoiy-madaniy ma'lumotlariga asoslanadi deya ishchi ta'rif beriladi manbalarda.

Xulosa

Boshqacha qilib aytganda, freymlar maxsus kognitiv tuzilmalar bo'lib, ularning vazifasi assotsiatsiyalar va og'zaki muloqot yordamida amalga oshiriladigan lingvistik ongni stereotiplash. Rus tilshunosligida freym o'ziga xos tushuncha sifatida ko'rilib, quyidagicha ta'riflanadi: "xotirada saqlanadigan assotsiatsiyalar to'plami, ularning sharhi". Manbalarda xitoylik lingvistlarning freymlar uchun pog'onaviylik, tizimlilik, madaniy xoslik mansubligini qayd etishgani keltirilgan.

Umuman olganda, konsept biror hodisa \obyekt\ predmet haqidagi katta mental bilim majmui bo'lib, geshtalt, tasvir, freym(ramka) kabilar uning namoyon bo'lishida turlari, navlari sifatida baholanadi. Bu holatda biz lisoniy tur-jins munosabatini kuzatishimiz mumkin, ya'ni konsept jins, sanab o'tilganlar esa tur sifatida – giponim\ giperonim sifatida bir-biriga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR :

1. Aristotel. *Poetika* // Sochineniya v 4 gt.T.4., M., 1984.-S.669.
2. Babushkin A. P. *Tipy konseptov v leksiko-frazeologicheskoy semantike yazyka. Voronej:Izd-voVoronej. gos. un-ta, 1996. -103 s.*
3. Moskvina V.P. *Russkaya metafora: Ocherk semioticheskoy teorii. Izd. 3-ye. M.:2007. -184 s.*
4. Muxamedova M. "Topical issues of teaching foreign languages" / Republican scientific-practical online conference on March 17-19, 2021. Web: <https://econferenceglobe.com>

5. *Kubryakova Ye. S. Ob odnomfragmente konseptualnogo analiza slova pamyat / Ye. S. Kubryakova // Logicheskiyanalizuazyka. Kulturnyye konsepty. - M., 1991. - S. 85-91.*
6. *Xarchenko V. K. Uchebnoye posobiye. Voronej: Izd-voKD Librokom, 2006, - 93.c*
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptualnyy-analiz-kak-metod-lingvisticheskikh-issledovaniy>

UDK: 811'112

**“VATAN” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI
(NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

Hayotova Dilafro'z Zoyirovna,
Buxoro davlat universiteti Nemis filologiyasi
kafedrasida katta o'qituvchisi
d.z.hayotova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslik fani, uning yangi yo'nalishi bo'lgan lingvokulturologiya haqida, lingvokulturologiya fani orqali milliy qadriyatlar, an'analar va madaniy shakllarning lison (ong) va tilni shakllantirishi va kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri bo'lgan konsept tushunchasi, konsept va tushuncha orasidagi farq, konseptualizatsiya yoki konseptuallashtirish, konseptosfera atamasi haqida fikr yuritilgan. Bu maqolada vatan konseptining o'zbek, nemis, rus va boshqa tillardagi talqini, Heimat so'zining etimologik tahlili, Vaterland va Heimat so'zlarining kelib chiqishi va tarixi to'g'risida ma'lumot berilgan. Qolaversa, vatan konseptiga doir ko'plab nemis, o'zbek va rus olimlarning nazariy qarashlari haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, termin, tushuncha, vatan, konsept, leksema, sxema, etnografiya, psixologiya, ssenariy, konseptualizatsiya, etimologiya.

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА "РОДИНА".
(НА ПРИМЕРЕ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

Аннотация: В данной статье речь идёт о науке о языкознании, её новом направлении, лингвокультурологии, о формировании языка (сознания) и языковых национальных ценностей, традиций и культурных форм посредством дисциплины лингвокультурология, а также о концепт-концепте, который является одним из основных понятий когнитивной лингвистики, понятие и разница между концептом, концептуализацией, термин концептосфера. В данной статье интерпретация концепта Родина в узбекском, немецком, русском и других языках, этимологический анализ слова Heimat, происхождение и история слов Vaterland и Heimat верны. Кроме того, приводятся интересные сведения о теоретических взглядах многих немецких, узбекских и русских учёных на понятие «Родина».

Ключевые слова: лингвокультурология, терминология, понятие, Родина, лексема, концепт, рамка, схема, гештальт, прототип, сценарий, концептуализация, этимология.

**LINGUOCULTURAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT "FATHERLAND".
(EXAMPLE OF GERMAN AND UZBEK LANGUAGES)**

Annotation: This article deals with the science of linguistics, its new direction, linguoculturology, the formation of language (consciousness) and linguistic national values, traditions and cultural forms through the science of linguoculturology, as well as the concept, which is one of the basic concepts of cognitive linguistics, the concept and the difference between the concept, or conceptualization, the term concept sphere. This article provides information on the interpretation of the concept of homeland in Uzbek, German, Russian and other languages, the etymological analysis of the word Heimat, the origin and history of the words Vaterland and Heimat. In addition, interesting information is provided about the theoretical views of many German, Uzbek and Russian scientists on the concept of homeland.

Key words: linguoculturology, terminology, concept, motherland, lexeme, concept, frame, diagram, gestalt, prototype, script.

Kirish. Lingvokulturologiya tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, til va madaniyatning to'qnashuvi asosida hosil bo'lgan va bir vaqtning o'zida barcha xalqlarning tilida aks etadigan madaniyat, urf-odat, an'analarni o'rganadigan fan hisoblanadi. Shuningdek, lingvokulturologiya fani orqali milliy qadriyatlar, an'analar va madaniy shakllarning lison (ong) va tilni shakllantirishi; uni ma'lum bir jamiyatga xos bo'lgan qolipga solishi; mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini hosil qilishini ham o'rganishimiz mumkin.

Bundan ayon bo'ladiki, lingvokulturologiya fanida tadqiq qilinayotgan til orqali nafaqat hozirda mavjud til xususiyatlarini, balki o'tmishda va hozirda shu tilda muloqot qilgan xalq madaniy hayoti, urf-odati va qadriyatlarini ham bilib olish mumkin. Demak, bu o'rinda lingvistika (lingvokulturologiya) xalqlarni yanada chuqur o'rganishda madaniyatshunoslik, tarix, psixologiya, etnografiya kabi fanlar bilan hamkorlik qilishini ta'kidlash joiz.

Lingvokulturologiya fanining tadqiqot obyekti sifatida, asosan, xalq og'zaki ijodi namunalari olishimiz mumkin. Negaki, ibora, maqol, matal, hikmatli so'z va metaforalar asrlar osha lingvistik omil asnosida milliy qadriyat va an'analar, umuman, o'sha millat haqida to'liq ma'lumot saqlanib qolgan bebaho xazina sanaladi. Buyuk rus tilshunosi Larin iboralarga quyidagicha ta'rif bergan: "Iboralar har doim xalq dunyoqarashini, ma'lum davrga xos ustuvor g'oyalarni, jamiyat qurilishini ifodalaydi. Bu tong yorug'i quyosh shu'lasi orqali ayon bo'lganidek aniq ifodalanadi". Ma'lum bir tilni o'rganish uchun unga qardosh tilni ham chog'ishtirib ko'rish va har ikkalasini qiyosan tadqiq etish tilshunoslik fani uchun yaxshi metodlardan biri sanaladi. Shunday ekan, lingvokulturologiyada ham bir-biriga har taraflama yaqin va o'xshash bo'lgan bir oilaga mansub tillarni o'rganish yaxshi samara beradi. Zero, ba'zi holatlarda madaniy qadriyatlari, joylashish o'rni, mansub bo'lgan til oilalari, grammatik qurilishi, leksikasi jihatdan butunlay farq qiladigan tillar lingvokulturologik asnoda o'rganilganda xalq og'zaki ijodi namunalari mavjud o'xshashlik tadqiqotchini hayratga soladi. Qadimdan mavjud bo'lgan "Buyuk ipak yo'li" va boshqa iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy aloqalar natijasida turli millat va elatlar adabiyotida paydo bo'lgan ijod namunalari bugungi avlodga meros qilib qoldirilganligini isbotlaydi.

XXI asrda lingvistika nafaqat aloqa-aralashuv vositasi bo'lmish tilni, balki millatning madaniy belgisini yoritib beradigan yangi yo'nalishni ham tadqiq eta boshladi. Tilga bunday yondashuv V.Gumboldt va A.A.Potebnya kabi olimlarning qo'ygan tamal toshlari asosida bo'ldi. Shu o'rinda V.Gumboldtning: "Millatim tiliga qo'yilgan to'siq mening dunyoqarashimga qo'yilgan to'siq demakdir", degan fikri har bir xalq tili uning madaniyati, urf-odati va hatto dunyoqarashi bilan naqadar bog'liq ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Shunday ekan, har bir tilni o'rganar ekanmiz, tadqiq etiladigan davr, millat, uning madaniy hayoti, mavjud siyosiy tizim, mamlakatning iqtisodiy ahvoli kabi xususiyatlarni bilish va tadqiqot ishida aniqlangan ma'lumotlarni inobatga olish juda muhim omil sanaladi.

Atrofni o'rab turgan olam haqidagi ma'lumotlarning ko'pi insonlarga lisoniy omil asosida yetkazib beriladi. Shuning uchun ham, kishida moddiy olamdan ko'ra, ma'naviy olam qurshovi kuchliroq bo'lib, intellektual, milliy, ijtimoiy zarur bilimlarni shaxsiy leksikonda takomillashtirib boradi. Ko'p hollarda, hali amalda ko'rmagan va bilmagan voqea-hodisa, narsa-buyum, fan-texnika yangiliklari haqida qandaydir lug'at boyligi va uning izohlangan tasavvuri xalq ongida mavjud bo'ladi. So'z qo'llash mahorati ham kishining jamiyatga qanchalik moslashganini, barcha yangiliklardan xabardorlik darajasini ko'rsatadi. Ko'p hollarda, leksik qobiliyat insonning jamiyatdagi mavqeyini ham belgilab beradi. Hatto, faylasuflar: "Ma'lum so'zni butunlay anglab yetish uning moddiy holatini o'rganishni osonlashtiradi", deyishadi. Ya'ni yaratilgan kashfiyotning o'zini ko'rishdan oldin uning nomlanishi va xususiyatlarini o'rganish qo'lga kiritilgan ishni tushunishni birmuncha yengil qiladi. Demak, lingvokulturologiya fani ma'lum xalq madaniy hayoti, undagi yutuq va kamchiliklar, yaratilgan yangiliklar va kashfiyotlarni lingvistik omil asosida o'rganadi, deyish mumkin. Shuningdek, lingvokulturologiyada insoniyat umri davomida mavhum saqlaydigan sir-sinoatlardan eng muhimi ya'ni, ma'lum bir xalqqa tegishli bo'lgan lingvistik abstrakt tushunchalar ham o'rganiladi. Uni ochish yoki javobini topish orqali millatning asrlar davomida qilgan ishlari, bajargan amallari hamda erishgan yutuqlari va hatto boshqa xalqlardan sir saqlagan tilshunoslikka oid tushunchalarini ham bilib olish mumkin.

Asosiy qism. Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri - bu konseptdir. Mazkur atama XX asrning 90-yillariga kelib keng qo'llanila boshladi. Konsept so'zi aslida lotincha conceptus bo'lib, "tushuncha" ma'nosini ifodalaydi. Hozir ham ko'pincha "konsept" terminidan "tushuncha" so'zining sinonimi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, konsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo'llanilmoqda.

Ye.S.Kubryakova ta'kidlaganidek, "konsept" termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi. Tilshunoslikda keng ishlatilayotgan "Olamning lisoniy manzarasi" tushunchasining o'rtaga chiqishida fizik olim G.Gertsning xizmati bor. Tilshunoslikka kirib kelishi va keng joriy qilinishi esa L.Vaysgerber nomi bilan bog'liq. U lisoniy belgini tushunchaga tenglashtirgan holda, har bir xalq lug'at boyligidagi belgilarga muvofiq keladigan tushunchalarga - olamning o'ziga xos manzarasiga ega bo'ladi, deb hisoblaydi.

L.Vaysgerber fikriga ko'ra tilda u yoki bu lisoniy belgi, ya'ni tovush ifodasi bo'lmasa, unga mos keladigan tushuncha ham bo'lmaydi, turli tilda gaplashuvchi insonlar turli olamlarda yashaydilar. O'zbek tilshunosligida rus va boshqa tilshunosliklarda bo'lgani kabi olamning konseptual va lisoniy manzaralari farqlanadi. Olamning konseptual manzarasi hissiy idrok bilan bog'liq bo'lib, his etish orqali tasavvur qilingan manzara hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasi esa konseptual, ya'ni hislar orqali anglangan, tasavvur qilingan manzaraning tildagi ifodasidir. Olamning konseptual manzarasi muayyan konseptlar sifatida namoyon bo'lsa, olamning lisoniy manzarasi til birliklari orqali ifodalanadi.

Atoqli tilshunos, professor G'.M.Hoshimov konseptga quyidagicha ta'rif beradi: "Konsept, butafakkurda kechuvchi biri-biri bilan chambarchas bog'liq nafaqat ikki muhim jarayon konseptualizatsiya (konseptuallashtirish) va kategorizatsiya (kategoriyalashtirish)ning natijasi bo'lib sanaladi, balki unga qo'shimcha yana bir qator muhim (psixologizatsiya, kognitizatsiya, sotsiologizatsiya, (lingvo) semantizatsiya, sotsiolektizatsiya, stilizatsiya (dialektizatsiya, variantizatsiya va idiolektizatsiya kabi) jarayonlarning pirovard natijasidir va u yaxlit konseptual/kognitiv semantika sifatida lingvistik semantikaning kognitiv asosini tashkil etadi hamda unda til birligi o'zining semantik sig'imi bilan bog'liq holda ma'lum darajada (qisman) aks etadi".

Professor konseptni murakkab idrokiy voqelik, ya'ni tilda verbal (va kerak hollarda noverbal) vositalar orqali voqelantiriluvchi hodisa sifatida murakkab ichki tashkil etuvchilardan iborat, deb hisoblaydi. Olimning fikricha, u o'ziga xos tashkil etuvchilarni o'z ichiga olgan shajaraviy tarkibga ega va tilda gapiruvchilar o'rtasida barcha so'zlovchilar tomonidan belgi (lar) orqali moddiylashtiriladi hamda barchaga umumiy bo'lgan bir ma'no sifatida qabul qilinadi. Til inson ongida konseptni ifodalovchi va shakllantiruvchi vositalardan biridir. Konsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir. Konseptlar inson ongida nafaqat so'zning lug'aviy ma'nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Tajriba qancha boy bo'lsa, konseptning chegarasi shunchalik keng bo'ladi. Aynan shunday holatda konsept o'zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, konsept dunyoni bilish va u haqida o'z tasavvuriga ega bo'lish demakdir. Intensivlikning konseptualizatsiyalashuvi til jarayoni bo'lib, unda til birliklari ma'no jihatdan qayta ishlanadi. Intensifikator ham so'zga nisbatan qo'llanadi, natijada o'sha so'zning konseptiga aloqador bo'ladi. Konseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning ma'naviy mulki, madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jamoa ongi (fikri) konseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi. Oddiy tushuncha va konsept o'zining farqli hamda o'xshash tomonlariga ega. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o'ta muhim bo'lmagan) tomonlarini ham ifodalay oladi.

Konsept tahlilini konseptosfera doirasida tadqiq qilish, dominant va chekka (yondosh) konseptlarni izlash maqsadga muvofiqdir. Konseptosfera atamasi mental reallikni ifodalashga xizmat qiladi. Konseptlarning madaniyat, kasbiy etika ishlarini yuritishdagi o'rni beqiyosdir. Umumiy konseptlar individual konseptlardan, etnomadaniylari etnososiomadaniylaridan farqlanadi. Vatan konsepti deyarli barcha ijodkorlar ijodida keng o'rin egallaydi. Qolaversa, ko'plab olimlar o'z ishlarida ayni shu masalaga ham alohida to'xtalib o'tgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, vatan va vatanparvarlik mavzusi eng katta ehtiyoj singari har doim insoniyatga kerak bo'lgan, uning ma'naviy kamolotida asosiy omil bo'lib xizmat qiladigan vositadir. Yosh avlodni buyuk kelajak uchun jonkuyar farzandlar qilib tarbiyalashda, eng asosiy e'tibor ularning qalbida vatan tuyg'usini chuqur ildiz ottirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Inson dunyoga kelishi bilan ko'z ochib ko'rgan zaminni vatanim deb biladi, shuning uchun ham shimolning juda murakkab iqlimiga qaramay yerli aholi u joylarni dunyoning hech bir jannatmakon joylariga almashmaydi. Chunki bu keng muzliklarda uning ajdodlarining bosib o'tgan hayot yo'llari bor va u ham shu yo'llar bilan borib o'z hayotini tashkil etadi va o'tkazadi. Bu-qonuniyat.

Vatan, vatanparvarlik nima. Vatan aslida arabcha so'zdan olingan bo'lib, ona yurt ma'nosini anglatadi. Shu ma'noda O'zbekiston o'zbek xalqining vatani, sajdagohi kabi muqaddas makonidir. Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan tuproq, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlar shakllanib, rivojlanib, kamol topib boradigan zamindir. Vatan deganda hamisha har birimiz tug'ilib o'sgan, ko'z ochib ko'rgan, ta'lim-tarbiya olib voyaga yetgan, avlod – ajdodlarimiz yashab o'tgan, ularning aql-idroki, mehnati bilan to'kilgan peshona terlari, xoklari abadiy qo'nim topgan yurt ko'z oldimizga keladi.

Vatan ona kabi aziz, mukarram va muqaddasdir. Vatan insonga – baxt –iqbol beradigan zamin. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: "Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar biz

turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimoslar shimol taraflar, eng sovuq qor va muzlik yerlarni boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi turonlik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi".

Ona vatan tushunchasi ifodalanganmaydigan tilni tasavvur qilish qiyin. Biroq ba'zi tillarda bu tushunchani ifodalash uchun bir nechta leksemalar mavjud, qarang rus tilida *родина, отчизна, отечество*; ukrain tilida *батьківщина, вітчизна, рідний край*; belarus tilida *бацькаўшчына, айчына, радзіма*; litvaliklar tilida *tevyne, gimytine*; nemis tilida *Heimat, Heimatland, Vaterland*;

Heimat so'zini etimologik tahlil qiladigan bo'lsak, bu so'zning paydo bolishi (Mittelhochdeutsch-1050-yildan 1350-yilgacha bo'lgan) 1050 -1350-yillarga borib taqaladi va *heimote, heimuote, heimoti* "joy, makon inson tug'ilgan joyi, o'zini o'z uyidek his qiladigan joy ma'nosini anglatadi. Nemis tilida *Heimat* so'zi fonetik o'zgarishga XV asrda duch kelgan. XVII asrgacha bu so'z sredniy rodga qo'llanilgan. Hozirgi kunda biz bu so'zni jenskiy rod bilan ishlatamiz, ammo ba'zi hududlar shevasida sredniy rodga ishlatilyapti. *Heimlich* sifati ham XVIII asrdan boshlab olmon tilida qo'llanilgan va "vatanga taalluqli, tug'ilib o'sgan joyga taalluqli ekanligini bildiradi". Aka-uka Jakob va Vilhem Grimmning "*Deutsches Wörterbuch*" kitobida *Heimat* va *Vaterland* so'zlarining asosiy ma'nolari haqida ma'lumotlar mavjud. *Vaterland* so'zi *Heimat* so'zidan keyin paydo bo'lgan. [8] "*Das grosse Wörterbuch der deutschen Sprache*" kitobida *Heimat* leksemasini ikkita ma'noga ajratadi: a) *Land, Landesteil oder Ort, in dem man [geboren und aufgewachsen ist] oder sich durch ständigen Aufenthalt zu Hause fühlt (oft als gefühlbetonter Ausdruck enger Verbundenheit gegenüber einer bestimmten Gegend); b) Ursprungs-, Herkunftsland eines Tiers, einer Technik oder anderes.*

Ularning birinchisida, insonning muayyan joyga, uning qayerda tug'ilganiga bog'liqligi haqidagi insoniy tuyg'ularga, bu qiymat insonning biror joyga bog'lanishiga asoslanadi. Leksemaning ikkinchi ma'nosi sof moddiy asosni aks ettiradi, chunki u mamlakatning kelib chiqishini yoki hayvonot dunyosi yoki texnologiya dunyosining yaratilishi kabi ma'nolarni ko'rsatadi.

"Meyer neues Lexikon" da quyidagi fikrlar berilgan: "*Heimat, subjektiv von einzelnen Menschen oder kollektiv von Gruppen, Stämmen, Völkern, Nationen erlebte territorial Einheit, zu der ein Gefühl besonders enger Verbundenheit besteht*". Ushbu talqinda yana ma'lum bir hududga bog'lanish tuyg'usi haqida gap ketgan bo'lib, ammo bu bog'lanish shaxs yoki odamlar guruhida ularning subyektiv dunyoqarashi asosida shakllangan, lug'at tuzuvchilar bu odamning tug'ilgan joyiga bog'liqligini ko'rsatmaydilar.

"Das Psychologie - Lexikon" kitobida insonning tug'ilgan joyiga intilishi haqida gap boradi. Odatda bu inson o'sib-ulg'aygan va bolaligini o'tkazgan joyga bog'liqlik tuyg'usi ko'proq ma'lum bir landshaftda, o'ziga xos muhitda, millati va xalqida ko'proq namoyon bo'ladi. Umuman olganda, "ota-ona uyi" tushunchasi inson hayotida katta ahamiyatga ega, chunki vatandan uzoqda, "chet elda" yoki "begona yerda" inson o'z bolaligini, tug'ilib o'sgan joyini sog'inib yashaydi. [7].

Nemis tilida "Vatan" konsepti ikkita leksema bilan beriladi: *Vaterland* va *Heimat*. Bu ikki so'zning qo'llanilishi tarixiy voqealarga borib taqaladi. Germaniya ministri bo'lgan faylasuf Y. Gebbel (16-mart, 1942-yilda) o'zining farmoyishida har bir kishi vatan uchun o'zini qurbon qilib, qahramon bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu farmoyishdan so'ng olmon xalqi *Heimat* so'zi o'rnida *Vaterland* so'zini ishlata boshladi. [3]

Xulosa qilib aytganda, vatan konseptini keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Shuni alohida qayd etish joizki, vatan va vatanparvarlik mavzusi eng katta ehtiyoj singari har doim insoniyatga kerak bo'lgan, uning ma'naviy kamolotida asosiy omil bo'lib xizmat qiladigan vositadir. Ko'plab olimlar o'z ishlarida ayni shu masalaga ham alohida to'xtalib o'tgan. Shu sababdan ham vatan konseptini o'rganish va uni o'qitish barcha davrlarda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Monografiya. Fanlar akademiyasining "Fan" nashryoti. – Toshkent, 2016
2. Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Filolog fan diss Toshkent, 2017. – B. 45;48
3. Игнатова. Е. М. Концепт Родина в социально-культурном контексте Германии. Вопросы филологии-2006-№С-8
4. Аскольдов С. Концепты слова Русская Словесность. М, 1997, – С.269
5. Арутюнова Н. Д. Воля и свобода / Н. Д. Арутюнова // Логический анализ языка. Космос и хаос. Концептуальные поля порядка и беспорядка. – М. : Индрик, 2003. – С. 73–100.

6. Пименова М. В. *Концепт сердце: Образ. Понятие. Символ : монография / М. В.*
7. *Das Psychologie – Lexikon.-Deutschland,2008*
8. *8.Akademie der Wissenschaften zu Göttingen Deutsches Wörterbuch von Jacob Grimm und Wilhelm Grimm.-Berlin,2013*
9. Hayotova D. *Konsept va tushuncha munosabati //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.*
10. Zoyirovna K. D. *Study of Linguoculturology in Linguistics //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 30. – С. 292-294.*
11. Hayotova D. *Tushuncha va so'z munosabati //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.*
12. Zoyirovna H. D. *Studies on the Concept of “Motherland”(“Heimat”) in Cognitive Linguistics //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 155-158.*
13. Sharopovna B. R. *Nomlarni Tadqiq Qilishda Turli Yondashuvlar //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 30. – С. 337-339.*
14. Бозорова Р. III. *Сув билан боғлиқ жой номларининг лисоний қатламлари таҳлили //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 112-118.*
15. Pirmukhammadovich R. A. *Flipped Learning in The Educational Process: Essence, Advantages, Limitations //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.*
16. Babayev O. *The first encounter between Jaloliddin Rumi and shams tabrizi //Sentr nauchных publikatsiy (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.*
17. Abdikarimovich, Mr B. O. *"The True Values of the Mavloni Jaloliddin Muhammad Rumi's Philosophy in Russian Translations." International Journal on Orange Technologies, vol. 2, no. 12, 31 Dec. 2020, pp. 68-71, doi:10.31149/ijot.v2i12.1091.*
18. Sanoyeva Dildora Qaxorovna *"Mavloni rumiy va asketizm." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 1.9 (2022): 40-43.*
19. Babayev, O. (2023). *Жалоліддин румийнинг «маснавийи маънавий» асарининг жаҳон адабиётида ўрганилиши. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 29(29).*

UO'K: 801.8

O'ZBEK TILIDA MEVA NOMLARINI IFODALOVCHI ATOV BIRLIKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Hojiyeva Nigina Hayot qizi,
Buxoro davlat univrsiteti O'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrası mustaqil izlanuvchisi
n.h.hojiyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Meva nomlariga xos umumiy xususiyatlar, meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining tarixiy-etimologik xususiyatlari o'zbek milliy madaniyati, ma'naviyati, tili tarixiy taraqqiyotining ilg'or tendensiyalari bilan bog'liq ravishda tarkib topgan. Shu boisdan bu tizimga kiruvchi leksemalar o'z va o'zlashma qatlamga oid mikrosistemalardan iborat. Meva nomlari ifodalovchi atov birliklari murakkab shakliy tuzilishga ega. Boshqa ma'noviy tizimlarda so'zlar shunchaki sodda va murakkab birliklarga ajratilsa, bu terminologik tizimda atov birliklari so'z va so'z birikmasi, murakkab birikmali birliklarga bo'linishi bilan bog'liq fikrlar maqolada batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: meva nomlari, atov birliklar, olma, olcha, nok, shaftoli, anor.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ИМЕННЫХ ЕДИНИЦ ПРЕДСТАВЛЯЮЩИХ НАЗВАНИЯ ФРУКТОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: Общие черты названий фруктов, историко-этимологические особенности единиц названий, представленных названиями фруктов, формировались в связи с передовыми тенденциями исторического развития узбекской национальной культуры, духовности, языка. Следовательно, лексемы, входящие в эту систему, состоят из микросистем, относящихся к собственному и приобретённому слоям. Существительные единицы, представляющие названия фруктов, имеют сложную формальную структуру. В других семантических системах слова просто делятся на простые и сложные единицы, в данной терминологической системе в статье отражены представления, связанные с делением именных единиц на слова и словосочетания и сложносочетательные единицы.

Ключевые слова: названия фруктов, существительные, яблоко, вишня, груша, персик, гранат

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PRONOUNS REPRESENTING FRUIT NAMES IN UZBEK LANGUAGE

Annotation: Common features of the names of fruits, historical and etymological features of the units of names represented by the names of fruits, were formed in connection with the advanced trends in the historical development of the Uzbek national culture, spirituality, and language. Consequently, the lexemes included in this system consist of microsystems belonging to their own and acquired layers. Noun units representing the names of fruits have a complex formal structure. In other semantic systems, words are simply divided into simple and complex units; in this terminological system, the article reflects representations related to the division of nominal units into words and phrases and compound units.

Key words: fruit names, nouns, apple, cherry, pear, peach, pomegranate.

Kirish. Meva nomlarini ifodalovchi atov birliklari tarixiy-etimologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu tizimga kiruvchi birliklarning leksik xarakterlilarini mazkur belgi nuqtayi nazaridan tavsiflashga harakat qildik. Zero, birikma holatidagi barcha atov birliklari tarixiy-etimologik jihatdan o'z qatlamga oid hisoblanadi.

Asosiy qism. Meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining tarixiy-etimologik xususiyatlari o'zbek milliy madaniyati, ma'naviyati, tili, tarixiy taraqqiyotining ilg'or tendensiyalari bilan bog'liq ravishda tarkib topgan. Shu boisdan bu tizimga kiruvchi leksemalar o'z va o'zlashma qatlamga oid mikrosistemalardan iborat. O'z qatlam birliklariga ayiqmurut, aymoqi, amiri, jiyda, kishmish, ko'ksulton, ko'kcha, mayiz, olma, olcha, yong'oq, o'rik, tog'olcha, uzum, xo'jag'at, chetan, chilonjiyda, chiya, chumchuqko'z kabi leksik birliklar mansub bo'lib, ularning aksariyati yasamaligi bilan xarakterlanadi.

O'zlashma qatlam birliklari esa o'z o'rnida quyidagi guruhlariga bo'linadi:

a) arabcha: *zaytun, tut, po'rtaxol, salib, sovundaraxt, zaqqum va b;*

b) forsha: *anjir, anor, bedona, behi, bodom, bodrezak, zardoli, meva, gilos, olxo'ri, nok, tok, xurmo, shaftoli, na'matak, g'o'ra ;*

d) ruscha-baynalmilal: *banan, kivi, ananas, apelsin, bandar, mango, malina, limon, rezavor, sakura, shpanka, qulupnay (klubnika), kokos.*

O'zlashma atov birliklarining forsiy qatlami arabiy qatlamga nisbatan boyroq ekanligi ma'lum bo'ldi.

Bilamizki, otlar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Sodda ot bir o'zakli bo'ladi: *maktab, inson, bola, gilam.* Murakkab ot o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) qo'shma ot; b) juft ot; d) takroriy ot. Bu tasnif ot turkumiga kiruvchi ma'noviy guruhlarining barchasiga tegishli. Biroq o'zbek tilida meva nomlari ifodalovchi atov birliklari o'z shakliy strukturasi bilan ajralib turadi.

Til birliklarini shakliy strukturasi ko'ra tasniflashda ularni tashkil etuvchi o'zaklar soni, miqdori inobatga olinadi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, meva nomlari ifodalovchi atov birliklari tuzilishiga ko'ra so'z va birikma holida uchraydi. Jumladan,

So'z shaklidagi meva nomlari:

a) sodda so'z: *olma, olcha, nok, shaftoli;*

b) murakkab so'z: *ayiqmurut, olmamurut, ko'ksulton, tog'olcha, chilonjiyda, chumchuqko'z, qoraqat, anjirshaftoli.*

Birikma shaklidagi meva nomlari:

a) sodda birikmali: *qattiq meva, mevali daraxt, mevali buta, quruq meva, ho'l meva, xom meva, achchiq meva, shirin meva;*

b) murakkab birikmali: *achchiq danakli o'rik, qog'oz po'choqli bodom, yupqa po'st yong'oq.*

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan har bir guruh o'z o'rnida ichki guruhlariga bo'linib ketadi.

Masalan, "sodda so'z" guruhi sodda tub va sodda yasama guruhlariga ajraladi:

a) sodda tub: *olma, anor, tut, shaftoli;*

b) sodda yasama: *olcha (olu+cha).*

"Murakkab so'z guruhi", o'z o'rnida, qo'shma va juft ichki guruhlariga ajraladi:

a) qo'shma: *ayiqmurut, ko'ksulton, tog'olcha, chilonjiyda, chumchuqko'z, qoraqat;*

b) juft: *g'o'r-sho'r, meva-cheva, xom-xatala.*

Meva nomlarini ifodalovchi atov birliklari orasida erkin birikma holatidagi atamalar talaygina. Ular ushbu tizimga kiruvchi tushunchalarni ifodalashga ixtisoslashib borayotganligi tufayli so'z birikmasidan qo'shma so'zlarga aylanayotgan hodisalar sifatida baholanishi mumkinligi yuqorida ta'kidlandi.

Ma'lumki, leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog'i, gipogiperonimiya), ya'ni tur-jins munosabati. Giponimik munosabatda *giperonim* (tur) va *giponim* (jins) farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrosistemaning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlik. Giponim esa ma'lum jins turining nomini hamda o'zining semantik tarkibida implisit tarzda jins ma'nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlik.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa obyektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bog'liq. Masalan, *daraxt* giperonimi tur ma'nosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik- semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan *daraxt* leksemasi giperonim sifatida giponim bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, *daraxt – qayin, daraxt – terak, daraxt – dub, daraxt – archa.*

Giponimlar teng huquqli bo'lib, giperonimga munosabati bir xil. O'z navbatida, bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisasi bilan ham bog'lanadi. Masalan, o'zbek tilidagi *daraxt* nomi dastlab ikki guruhga bo'linadi: *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt*. Mevali daraxt o'z mevasining nomi bilan ataladi. Shuning uchun bu leksema ko'p ma'noli bo'lganligi bois bir tomondan *meva*, ikkinchi tomondan *daraxt* giperonimi bilan semantik munosabatga kirishadi:

meva: olma – o'rik – shaftoli – behi.

daraxt: olma – o'rik – shaftoli – behi.

Daraxt giperonimi tur tushunchasini ifodalovchi leksema sifatida, birinchi navbatda, shu turning jinsini bildiruvchi so'z bilan bog'lanadi. *Daraxt* leksemasi uning jinsi nomi o'rnida qo'llanishi ham mumkin. Lekin giperonim giponim o'rnida qo'llanganda uning mohiyatini yorqin ifodalay olmaydi. Shu boisdan o'z oldidan giponimni aniqlovchi sifatida qabul qiladi: *o'rik daraxti, shaftoli daraxti* kabi.

Giponim leksemaning sememasi giponim leksemalar uchun birlashtiruvchi sema bo'lib xizmat qiladi. Masalan, *daraxt* giperonim leksemasining sememasi "tanasiidan shoxlanuvchi o'simlik" bo'lib, "qizil, yashil yoki sariq rangli yong'oqdan piyolagacha bo'lgan hajmdagi sersuv meva beruvchi daraxt" sememasiga ega *olma* leksemasining "daraxt" semasi – *daraxt* giperonim leksemasi semasining sememalashgan ko'rinishi.

Giperonimning ma'nosi giponim leksemanikiga nisbatan kengroq va "xiraroq" (noaniqroq), giponim leksemaning ma'nosi esa giperonimnikiga nisbatan torroq va "yorqinroq". Shu boisdan, aytish mumkinki, giperonimning ma'noviy mohiyati barcha giponimining ma'noviy mohiyati yig'indisiga teng.

Aytilganidek, daraxt mevali va mevasiz daraxtga bo'linadi. Demak, borliqdagi bu bo'linish giponimiya hodisasi sifatida tilda ham aks etadi. Lekin daraxtning mevali va mevasiz turini ataydigan alohida leksema o'zbek tilida yo'q. Demak, giponimning o'rni bo'sh bo'lib, ular leksik lakuna (bo'shliq) hosil qiladi. Leksik lakunani turli nutqiy nominativ birlik to'ldiraverishi mumkin (Masalan: *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt* so'z birikmalari).

Giponimlar teng huquqli bo'lib, ularning giperonimga munosabati bir xildir. Har bir gipo-giperonimik qator cheklanmagan miqdorda lug'aviy lakunalarga ega bo'ladi. Bu bo'sh xonalar ayni bir jinsning turli belgilari bilan chegaralanmagan miqdorda to'lib borish imkoniyatiga ega. Masalan, o'nta uzum nomini biluvchi odam uchun o'zbek tilidagi 600 ta uzum nomining 590 tasi lug'aviy lakuna hisoblanadi. Demak, lakunalar ijtimoiy ham ("mevali daraxt" va "mevasiz daraxt" tushunchasini ifodalovchi leksemalar), individual ham (mavjud leksemalarni ma'lum bir kishining bilmasligi) bo'lishi mumkin.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi ayrim so'zlar tavsifida ba'zan terminologik semalarga asoslanilsa, ba'zan bunday yo'l tutilmaydi. Masalan, [olma] so'zi tavsifida terminologik semalarga asoslanish mavjud. Qiyoslaymiz:

o'zbek tilida:

O'RIK I Guli oq va pushti, mevasi esa oqish, sarg'ish, qizg'ish ranglarda bo'ladigan yirik daraxt (II tom, 511-bet)

O'RIK II Shu daraxtning danakli mevasi

Rus tilida:

Абрикос Южное фруктовое дерево с жёлто-красными плодами с крупной косточкой, а также сам плод этого дерева.

Ruslarning keyingi lug'atlarida bu tasniflar kengaytirilgan. **Абрикос** daraxt sifatida, **абрикос** meva sifatida batafsil izohlangan o'rinlar mavjud. Ammo o'zbek lug'atlarida bu holat o'zgarishsiz qolmoqda.

So'zlarning semantik mohiyati ularning o'z semantik tizimida ochiladi, shu boisdan so'zlararo semantik munosabatlarning leksikografik metatilga muvofiq ravishda lug'atlarda aks etishi va ichki ma'nolarni farqlovchi muhim yechimlarning leksikografik talqinga «yedirib» yuborilishi muayyan ma'no bilan so'zning semantik tizimdagi o'rnini aks ettirgan lug'atlarning amaliy qiymatini yanada oshiradi. Chunki semantik munosabatlarni ochish asosidagina tilning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan farqlash, differentsiatsiya amalga oshiriladi. Masalan, sinonimik munosabatlarda so'zlarning ifoda bo'yoqlari orasidagi farqlar ochilsa, tur-jins munosabatlarida ma'noviy noaniqlik muayyanlik tomon intiladi. Partonimik munosabatlarda esa butunlikning bo'linishi asosida butunda qismni, qismda butunni ko'rish, ravshan ilg'ash imkoni vujudga keladi.

Quyida [olma] leksemasini semantik-sintagmatik munosabatlari asosida tavsiflashga harakat qilamiz.

OLMA 1 dumaloq, ba'zan cho'zinchoq shakldagi yong'oqdan tortib piyola kattaligicha bo'lgan oqish yoki sarg'imtir yashil, ko'k yoki qizil rangli danaksiz, urug'li, meva beruvchi atirgullilar oilasiga mansub ko'p yillik daraxt. Olma ko'chati. *Olma ekildi. Olma payvand qilinadi.*

turlari: *qirmizak, semirenko, besh yulduz*

jinsdoshlari: *o'rik, nok, anjir, behi*

birikuvchilari: *ekmoq, qirqmoq, sug'ormoq, payvand qilmoq*

OLMA 2 olma daraxtining hosili; dumaloq, ba'zan cho'zinchoq shakldagi yong'oqdan tortib piyola kattaligicha bo'lgan oqish yoki sarg'imtir yashil, ko'k yoki qizil rangli danaksiz, urug'li, shirin, nordon ta'mli meva. *Olma pishdi. Olmani yedik.*

turlari: *qirmizak, semirenko, besh yulduz*

jinsdoshlari: *o'rik, nok, anjir, behi*

birikuvchilari: *pishmoq, yemoq, artmoq, archmoq*

Bizningcha, lug'atlarimizda meva nomlari hech bo'lmaganda mana shu tartibda izohlanishi zarur. Bu esa leksikografik talqinlarda semantik-sintagmatik munosabatlarning ham qanchalik zarur ekanligini yaqqolroq namoyon etadi.

Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabatlar ana shunday lisoniy munosabatlardir. Quyida meva nomlari ifodalovchi atov birliklarining semantik paradigmalari xususida so'z yuritimiz.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semalari aynan bir xil bo'lib, ifoda semalari farqlanadi. Masalan, *meva* so'zi ko'chma ma'noda *samara*, *natija*, *mahsul* kabi atov birliklari bilan sinonimik qatorini tashkil etadi.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semalari turli-tumandir. Ulardan ayrimlari quyidagilar:


- 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semalari;
- 2) leksemaning qo'llanish vaqtga munosabatini ko'rsatuvchi semalar: eskirgan, yangi, o'ta yangi, arxaik, tarixiy;
- 3) leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi semalar: shevaga xos, so'zlashuvga xos, kitobiy, ko'tarinkilik va hokazo.

Yuqorida keltirgan ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semalari leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema hisoblanadi.


O'zbek tilshunosligida olimlar semema va tushuncha munosabatini turlicha talqin qiladilar. Masalan, ayrimlar semema ko'pincha ongimizdagi ma'lum bir tushuncha va tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi. Tushuncha ong, mantiq birligi, semema esa, tilga, leksemaga xos birlikdir. Juda ko'p hollarda bir semema bir necha tushunchani o'z ichiga oladi. Jumladan, [o'rik] leksemasining sememasi quyidagi tushunchalarda namoyon bo'ladi:

- a) yangi, ho'l mevaning bir turi (zardoli);
- b) shu mevaning quritilgani (turshak, g'o'lin);
- d) shu mevani beradigan daraxt (o'rik daraxti).

Har qanday lisoniy birlik serqirra mohiyatli bo'lib, bu uning kamida ikki paradigmaga kirishini ta'minlaydi. Leksema birdan ortiq tushunchani qamrab olgan ekan, bunda uning serqirraligi yanada "kuchayadi". Jumladan, [o'rik] leksemasi o'zida bir necha tushunchani saqlar ekan, bu bilan u kamida ikki lug'aviy paradigmaga kiradi:



yoki



Birinchi paradigmada [o'rik] leksemasi bir denotati asosida meva va boshqa bir denotati asosida esa daraxt nomlarini ifodalovchi ot-leksemalar bilan uyadoshlik qatori hosil qilsa, ikkinchi paradigmada bir ma'nosi bilan [zardoli], ikkinchi ma'nosi asosida [turshak], [g'o'lin] leksemasi bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi.

Leksema tarkibida birdan ortiq tushuncha mujassamlashganda leksema turli sintagmatik qurshovlarga kiradi. Masalan, yuqorida tilga olingan olma leksemasida ikkita («meva», «daraxt») tushunchalari mavjud bo'lib, u har bir ifodalangan tushunchasi asosida ham boshqa-boshqa, ham umumiy qurshovlarga ega bo'lishi mumkin.

Yoki shu o'rinda anor leksemasiga murojaat etaylik.

[ANOR] leksemasi				
<i>daraxt semasi</i>	<i>meva semasi</i>	<i>anor mevasi mahsulotlari</i>	<i>anorning turlari</i>	<i>anorning xususiyatlari</i>
<i>olma</i>	<i>olma</i>	<i>sharbat</i>	<i>tuya tishi</i>	<i>shirin</i>

<i>nok</i>	<i>nok</i>	<i>kompot</i>	<i>oq dona</i>	<i>nordon</i>
<i>shaftoli</i>	<i>shaftoli</i>	<i>murabbo</i>	<i>qora dona</i>	<i>achchiq</i>
<i>olcha</i>	<i>olcha</i>	<i>mors</i>	<i>novoti</i>	<i>burushtiruvchi</i>
<i>olxo`ri</i>	<i>olxo`ri</i>	<i>kvas</i>	<i>Quva anori</i>	<i>davolovchi</i>
<i>anjir</i>	<i>anjir</i>		<i>G`urbin anori</i>	
<i>olmurut</i>	<i>olmurut</i>		<i>Romitan anori</i>	
<i>limon</i>	<i>limon</i>			
<i>uzum</i>	<i>uzum</i>			
–	<i>maymunjon</i>			
–	<i>qulubnay</i>			

Anorni kesdik sintaktik qurshovida *anor* qaysi tushuncha, denotatni anglatayotganligi muayyanlashmaydi. Ammo *anorni ekdik*, *anorni yedik* sintagmatik qurshovlarida atalayotgan denotat farqlanayotganligi sezilib turadi (birinchi qurshovda «daraxt», ikkinchisida «ho`l meva»). Ko`rinadiki, leksema birdan ortiq tushunchani ifodalaganda har bir tushunchaga mos sintagmatik qurshov mavjudligi ham anglashiladi.

Xulosa. Meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining tarixiy-etimologik xususiyatlari o`zbek milliy madaniyati, ma`naviyati, tili tarixiy taraqqiyotining ilg`or tendensiyalari bilan bog`liq ravishda tarkib topgan. Shu boisdan bu tizimga kiruvchi leksemalar o`z va o`zlashma qatlamga oid mikrosistemalardan iborat.

Mevachilik leksikasi doirasidagi nomlarning katta qismi uzoq tarixga ega. Ularning paydo bo`lishi, muhimi, umumiste`molda qo`llanilishi qadimgi manbalarga borib taqaladiki, bunda meva nomlarini ifodalovchi birliklar arab, fors, turkiy hamda yevropa tillariga mansubligi, shuningdek, bu mazkur xalqlarning lingvistik, adabiy aloqalarida mushtaraklik borligiga ishora qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Bafoyev B. *Ko`hna so`zlar tarixi*. –Toshkent: Fan, 1991. -161 b.
2. Begmatov E. *Hozirgi o`zbek adabiy tilining leksik qatlamlari*. – Toshkent: Fan, 1985. -200 b.
3. Гак В.Г. *Лисоний белги ассимметрияси ва терминологиянинг айрим умумий муаммолари*. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси//Филология. IV чiqishi. Илмий маqолалар туплами. – Самарqанд: СамДУ, 2002. –183 б.
4. Ne`matov H., Bozorov O. *Til va nutq*. –Toshkent: O`qituvchi,1993.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. *Hozirgi o`zbek tili. Darslik*. –Germaniya: “GlobeEdit international Publishing Group” ISBN: 978-620-0-61410-0. – 2020. -555 b.

UO'K: 811.512.133

ZULFIYA MO'MINOVA SHE'RIYATIDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARNING
LEKSIK-POETIK IFODASI

Hojiyeva Sadoqat Hamzayevna,
Buxoro davlat uniuersiteti
Lingvistika (o'zbek tili) magistranti
sadoqat@mail.ru

Annotatsiya: *So'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emas ekanligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatta, so'zning qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaligi turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ushbu maqolada shoira Zulfiya Mo'minova she'riyatida milliy-madaniy xususiyatlarning leksik poetik ifodasi yoritilgan. Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasi alohida yoritilgan. Shoiraning she'rlarida turli til hodisalar keng o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *konnotativ jihat, graduonimiya, giponimiya, giperonim, leksik-frazeologik ma'nodoshlik, matniy ma'nodoshlik, okkazional so'zlar.*

ЛЕКСИКО-ПОЭТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ
ОСОБЕННОСТЕЙ В ПОЭЗИИ ЗУЛЬФИИ МУМИНОВОЙ

Аннотация: *Чтобы оценить, находится ли употребление слов на уровне искусства или не на уровне искусства, прежде всего, необходимо ясно представлять себе слово, его значение и структуру этого значения. Конечно, дополнительные смысловые оттенки и различия в содержании, возникающие в связи с употреблением слова, могут быть реализованы с помощью различных изобразительных приёмов и средств. В данной статье описывается лексико-поэтическое выражение национально-культурных особенностей в поэзии поэтессы Зульфии Муминовой. При изучении смысловой структуры номинативных единиц в языке в языкознании выделяется понятие коннотативного аспекта семантики. В стихах поэтессы исследуются различные языковые явления.*

Ключевые слова: *коннотативный аспект, градуонимия, гипонимия, гипероним, лексико-фразеологическое значение, текстовое значение, окказиональные слова.*

LEXICAL-POETIC EXPRESSION OF NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS IN
ZULFIYA MUMINOVA'S POETRY

Abstract: *To assess whether the use of words is at the level of art or not at the level of art, first of all, it is necessary to clearly imagine the word, its meaning and the structure of this meaning. Of course, additional nuances of meaning and differences in content that appear in connection with the use of the word can be realized through various image methods and tools. This article describes the lexical poetic expression of national-cultural features in the poetry of the poetess Zulfiya Mominova. When studying the meaning structure of nominative units in the language, the concept of the connotative aspect of semantics is highlighted in linguistics. Various language phenomena are studied in the poems of the poetess.*

Keywords: *connotative aspect, graduonymy, hyponymy, hyperonym, lexical-phraseological meaning, textual meaning, occasional words.*

Kirish

Til va yozuvchi o'rtasidagi munosabatni shaxmat va shaxmatchi o'rtasidagi munosabatga qiyoslanadi. Shaxmatda har bir donaning mavqeyi, darajasi, shaxmat taxtasi ustidagi harakatlanish qoidalari avvaldan belgilangan. Ana shu qoidalarni tugal egallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli shaxmatchi tamoman yangi, kutilmagan yurishlar qiladi, betakror kombinatsiyalar yaratadiki, bu unga raqibini mag'lub va muxlisini maftun qilish imkonini beradi. Tilda ham har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan to'la xabardor bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z

chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Bunda yozuvchi umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi rol o'ynaydi

Adabiyotlar sharhi

Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasiga alohida e'tibor qilinadi. Bu masalani monografik tarzda tadqiq etgan V.N.Teliya ta'rificha, "konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okkozional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy - baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat"dir. Konnotatsiya, ta'rifidan ko'rinib turganiday, so'zlovchining borliqni ifodalash vositalariga munosabatiga daxldor bo'lgan jihatdir.

V.N.Teliya so'zning leksik ma'nosini, kamida, uch makrouzving kombinatsiyasi sifatida tasavvur etish mumkinligini aytadi:

- 1) ma'noning borliqdagi muayyan reallikni ifodalovchi denotativ uzvi;
- 2) kategorial-grammatik uzvi;
- 3) nutq subyektining so'z orqali ifodalangan narsaga munosabatini anglatadigan emotiv-modal uzvi.

Ana shu uchinchi uzv ekspressiv bo'yoq, uslubiy bo'yoq, emotsional bo'yoq, subyektiv baho kabi tushunchalarni umumlashtiruvchi konnotativ ma'nolardir. Bunday uzvning mazmun-mohiyati o'zbek tilshunosligida ham ancha keng ochib berilgan.

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vul'gar so'zlar ajratib olinadi va ulardan asarda qanday maqsadda foydalanilgani izohlanadi.

Quyida Zulfiya Mo'minova she'riyatining leksik-poetik xususiyatlarini shu asosda tahlil etishga harakat qilamiz.

Ma'nodosh so'zlar shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksema turi, ya'ni *sinonimlar* (gr. *synonymos* – "bir nomli"). Sinonim leksema orasidagi munosabat *sinonimiya* yoki *sinonimik munosabat* deb yuritiladi.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni topib o'z asarlarida qo'llashga harakat qiladilar, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko'rsatib berishga intiladilar.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ijodkor–

1) *ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlaydi.* Jumladan, [oltin]~[tilla]~[zar]

Jonim Vatan, jon tomiring

Tillolarga alishmasman.

Shiroq o'tgan sahrolaring

Daryolarga alishmasman. ("Alishmasman" she'ridan)

[ko'ngil]~[yurak]~[dil]~ [qalb]

Qaydasan, deb so'rmagin,

Men ko'ngil tarafdaman,

Sen mening jonimdasan degan

Shirin til tarafdaman. ("Fozil el tarafdaman" she'ridan)

[yorug']~[nurli]~[ziyoli]~ [oydin]

Chuchmomalar chiroq yoqqan

Nurli yo'l tarafdaman.

O'zbekiston, deb kuylagan

Shod bulbul tarafdaman. ("Fozil el tarafdaman" she'ridan)

[oqshom]~[tun]~[kechqurun]~ [shom]

Oydin **oqshom** g'azal aytgan,
Oydin dil tarafdaman.
Parishtalar olma otgan
Oynako'l tarafdaman. ("Fozil el tarafdaman" she'ridan)

[bol]~[asal]~[shaxd]

Shu Vatanni sevaman jondan,
Sevdim – yana go'zal bo'ldi u.
Oqqush bo'ldi har tushgan qori,
Har yomg'iri **asal** bo'ldi u. ("Vatan" she'ridan)

2) ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir. Chunonchi,

[baxt]~[saodat]

Ayolga **baxt** bering, **saodat** bering...

[xon]~[sulton]; [zurriyod]~[avlod]

Menkim, **xonlar** bergan, **sultonlar** bergan,
Qutlug' Nigorlarning **zurriyodidirman**.
Sohibqiron sevgan **Bibixonimning**–
Saroyulkxonimning **avlodidirman**. ("Mening bobolarim" she'ridan)

[ganjina]~[xazina]

Mening hayratlarim gulzotlarimning
Jonidan jonimga o'tgan **ganjina**.
Mening she'r yozishim nurzotlarimning
Qonidan qonimga o'tgan **xazina**. ("Mening bobolarim" she'ridan)

[go'dak]~[bola]

Qamalda— olmalar...
Bombapanadagi **go'dak** qo'lida
Har olma qamalning ustidan kuldi.
Begunoh qon tomgan front yo'lida
Sanbatlar olmalar hidiga to'ldi...
Qamalda olmalar...
Erkalik qilishni unutib qo'ygan
Bolalarni bir-bir o'pdi olmalar,
Palataga yuzi mehrga to'lgan
Hamshira qizlardek chopdi olmalar. ("Qamalda—olmalar" she'ridan)

Ma'nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so'z, so'z birikmasi, nutqiy ko'chma so'z bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi vosita sanaladi. Ma'nodoshlikdan 1) til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligidan qochish uchun; 2) tasvir obyektiga e'tiborni jalb qilish maqsadlarda foydalaniladi.

Matniy ma'nodoshlik. Mahoratli ijodkorlar faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilar, o'quvchi, kitobxon tomonidan bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan,

Men titrayman, hozirgina o'tovdan qaytdim,
Ko'zimdagi og'rig'larni ko'zga olmangiz.
Men **she'r** aytdim, men **dard** aytdim nimaki aytdim,
Yolvoraman bu she'rdan so'ng qarsak chalmangiz.
("Yolg'iz kampir" she'ridan)
To'rtta bolasidan ayrilgan ayol,
Ishonmay titradi: «Tushimmi– o'ngim?»
U og'ir yo'llarga og'ir bir savol,
U mening **o'lanim**, u mening **mungim**. ("G'alaba" she'ridan)
Duelga chaqiraman sizni bu oqshom,
Duelga chaqiraman

Yo 'golgan or-u
 Yo 'golgan **vi**jdón,
 Och nafsingizni.
 Duelda o 'q emas,
 So 'z otíladi! ("Duel davom etadi" she'ridan)
 Juda pishiq, deb qo 'yar birov,
 G 'iybat qilar ichib **may, chog'ir**.
 U so 'roqlar: tog 'da qish-qirov,
 Cho 'pon, holing emasmi og 'ir?
 ("Yaxshi odam haqida oddiy satrlar" she'ridan)
 Qaraysiz, qarashki, shu qadar **mo'min**,
Dardni yelkasidan bosib o'ldirar.
 Kulasiz, **kulishki**, shu qadar shirin,
Armonni bo'ynidan osib o'ldirar. ("Muqimtosh Rahimovaga" she'ridan)

Zo'lfiya Mo'minova she'rlarida matniy sinonimlar quyma misralarning yuzaga kelishiga ko'maklashgan.

Frazeologik ma'nodoshlik. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalanitirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. *Oyog'ini qo'liga olib – o'pkasini cho'pga ilib, yuz o'girmoq – bet qaytarmoq, yaxshi ko'rmoq - ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq - oyoq tirab olmoq, oyog'i kuygan tovuqdek – pashsha talagan itdek* kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi. Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha ko'rsatib tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan,

[ipini uzmoq]~[quyishqondan chiqmoq]– [me'yorni unutmog]

Toki

Tashlandiq boladek yig'larkan imon,
 Munglig' latifalar aytarkan hayot,
 Cho 'ntakdan cho 'ntakka o 'tarkan vijdón,

Ipini uzarkan tunlar xiyonat–

Men she'r o 'qiyman! ("Duel davom etadi" she'ridan)

[qo'li kalta]– [imkonsiz]

Mening **qo'llarim kalta**, Juda kalta. Kiprikchalik bo'lolmas ular. Sening kipriklaringga tegib turgan Bir juvonning kiprigicha kelolmas ular.

[yelkasiga shamol tegmoq]~ [omadi chopmoq]~ [baxti kulmoq]

Tanglayim hasrat-la bosganmi doya,

Bir umr **yelkamga shamol tegmadi**.

Dilimga cho 'kkanmi og 'ir tosh-qoya,

Ostonamga omad boshin egmadi.

Shoira ba'zi iboralarni aynan qo'llasa, ba'zi iboralarda mazmunni saqlab, shaklni she'riy matnga moslaydiki, bu shoiraning noyob iste'dodidan darakdir.

Leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la olishini bilamiz. Masalan, *sho'x – yerga ursang, ko'kka sapchiydigan; bosiq– qo'y og'zidan cho'p olmagan; beg'am– dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan* kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi. Jumladan,

Gar o'lsam ko'zimni yopguvchi yo'qdir,

Anavi tunu kun yorni mushtlaydi.

Nega men to shu kun **tirnoqqa zorman**,

Ayt, yomonlik qildim kima, Qoratorv?! ("Er kishining qarg'ishi" she'ridan)

Pichirladi o 'ziga o 'zi:

«Paxtalarning holi ne kechdi...»

Yo 'lga tushdi **dili xufton, g'ash**,

Ne atasin bu dard otini? ("Brigadir" she'ridan)

Darajalanuvchi so'zlar. Graduonimiya (gr. *gradatio* – "ko'tarilish", "o'sish", *onymo* – "nom").

Lug'aviy birliklar o'zaro ma'naviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi. Darajalanish qatori a'zolari kamida uchta bo'ladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog‘langan so‘zlar qatorini:

- a) g‘ayrilisoniy asos;
- b) sof lisoniy asosga tayanib ajratish mumkin.

G‘ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson *go‘daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik* holatini; o‘simlik *navnihollik, ko‘chatlik, yetilganlik, quriganlik* davrini boshidan kechiradi – o‘sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo‘yoqchilar birgina qora rangning hatto o‘ndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til onging ifodasi bo‘lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, *nihol – ko‘chat – daraxt; ninni – chaqaloq, go‘dak – bola; buzoq – tana – g‘unajin – sigir* kabi.

Graduonimik lug‘aviy qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar: a) ma‘noviy omil; b) so‘zlararo paradigmatic munosabat.

Graduonimik qatorni ajratishdagi ma‘noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma‘lum bir belgining oz-ko‘pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Graduonimik qator ijobiy yoki salbiy belgining darajama-daraja ortib borishini aniq ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan,

1. *Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o‘lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.*
2. *Ko‘nglini ko‘taring hech bo‘lmaganda,
Qo‘lini silashga shafolat toping.
Yig‘lab turganida hech bo‘lmaganda,
Yoshini artishga muruvvat toping...
Chaqaloq yalagan etaklarini
Toza deb aytishga adolat toping.*
3. *Ayolga baxt bering, saodat bering,
Illohi nur toping,
hidoyat toping.
Illohi baxt bergan ayol yonidan
Baxtiyor o‘tmoqqa inoyat toping.*

Demak, leksemalararo lisoniy munosabat sanaluvchi graduonimiya hodisasi bir necha leksemaning ma‘lum bir belgining oz-ko‘pligiga qarab, lug‘aviy ma‘noviy qatorda, tizimda namoyon bo‘lishi bo‘lib, bunda dominanta va qurshov leksema farqlanadi.

Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog‘i, gipogiperonimiya), ya‘ni tur-jins munosabati.

Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko‘pgina ma‘noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo‘luvchi lug‘aviy birlik. Giponim esa ma‘lum jins turining nomini hamda o‘zining semantik tarkibida implisit tarzda jins ma‘nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo‘lgan lug‘aviy birlik.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa obyektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bog‘liq. Masalan, *daraxt* giperonimi jins ma‘nosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan *daraxt* leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, *daraxt – qayin, daraxt – terak, daraxt – dub, daraxt – archa.*

[oila] (giperonim)– [ota]~[ona]~[bola] (giponimlar)

- Eshikka termulib turgan, bolajon
Aqldan ozaman, bunday qarama.
Sog‘inchin yashinlar urgan, bolajon,
Mendan she‘r so‘rama, qo‘shiq so‘rama.
Sen ona so‘zini ohim, deb yutding,
Dilingda javobsiz savollar yig‘lar.
Hech kimga bildirmay otangni kutding,
Sochingda bekinib shamollar yig‘lar. (“Bolalar uyining bolalariga” she‘ridan)*

[inson] (giperonim)– [ayol]–[erkak]~[nasl] (giponimlar)

*Ayolga gul bering, shunday gullarki,
Erkak yuragidan ungan gullarni.
Ayolga gul bering, shunday gullarki,
Erkakning mehridan ungan gullarni.
Azizam onam deng, e'zozga o'rang,
Ko'zingizga surtib etaklarini.
Mana shu hazrati ayol ulg'aytgan.
Dunyoning hazrati erkaklarini,
Baloyi ishq dashti biyobonida.
Bag'ri tilinmagan ayol bormikin?
Taqdirning beshafqat toshbo'ronida,
Yuragi sinmagan ayol bormikin?
Ayolga gul bering shunday gullarki,
Erkak bardoshidan ungan gullarni,
Ayolga gul bering shunday gullarki,
Erkak ko'z yoshidan ungan gullarni.
Har bitta erkakning umr yo'lida
Balodan qutqarib qolgan ayol bor.
Ajdarning og'zidan, jar yoqasidan,
Sochi-la, sug'irib olgan ayol bor.
Ayolga gul bering, shunday gullarki,
Erkak quvonchidan ungan gullarni.
Ayolga gul bering, mard erkaklarning,
Rashkidan, qizg'onchidan ungan gullarni.
Ayolni, vatanni sevgan nasllar,
Asrlar qa'ridan etadi ogoh,
Ayolni aldamoq, onani sotmoq,
Vatani sotmoqdek eng og'ir gunoh.
Ayolga gul bering shunday gullarki,
Erkak nafasidan ungan gullarki,
Hayqiriq, baqiriq, chaqrig'imas,
Shiviridan, sasidan ungan gullarni.
U sizni kechirar munis-u, mushtoq,
U sizni oqlaydi, siz oppoq, oppoq.
Evaziga esa, sizdan kutgani,
Tushunmoq, tushunmoq, tushunmoq.
Ayolga gul bering, shunday gullarki,
Erkak yuragidan ungan gullarni.*

[qurilish ashyolari] (giperonim)– [zambil]~[belkurak]~[ketmon]~[g'altak] (giponimlar)

*Zambillar intildi balandlik tomon,
Balandga intildi tosh to'la g'altak.
Qadoqli qo'llarda belkurak, ketmon,
Azim yelkalarda ter yutdi yaktak.*

Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Zid ma'noli so'zlar. Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. "Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takofu deb ham ataladi. Bu san'atda, badi'shunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi".

Yevropa filologik an'anasida bu san'at "antiteza" deb yuritiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi. Masalan,

Bir kechada dunyoni

Dog'lab, tig'latgan yigit.
Bizni kuldigan yigit,
Bizni yig'latgan yigit. ("Kursdoshim Ravshan Fayzni eslab" she'ridan)
To'rtta bolasidan ayrilgan ayol,
Ishonmay titradi: «Tushimmi– o'ngim?»
U og'ir yo'llarga og'ir bir savol,
U mening o'lanim, u mening mungim. ("G'alaba" she'ridan)
O'zbekiston! Bolalarin urushga berib,
Besh yildaki, tutday to'kilding.
Front uchun boshoglar terib,
Dala, dashtda ochdan yiqilding.
Tuzalmagan yarangni silab,
She'r yozolmay qoldim necha kun.
Dardlarini tishida tishlab
Qoraxatlar jim boqadi.
Men tinchlik uchun ovoz beraman!
 ("Tinchlik uchun ovoz beraman!" she'ridan)
Ming dod dedim: xiyonat so'ygan
Sadoqatning qo'llari yara.
Shu qo'llarni kuylashni suygan
O'lanimning tillari yara. ("Narpaylik baxshi" she'ridan)
Tuproq ko'cha ichida armon
Ilk qadamim, so'ng poyim, xayr.
Loyqa suvlar chetida nolon,
Qamish chalgan Narpayim xayr. ("Narpaylik baxshi" she'ridan)
Notanish yo'lchidek o'tib ketding sen,
U tanish dardingni ichga yutgan cha.
Notanish yo'lchidek o'tib ketdim men,
U tanish sabrimni mahkam tutgan cha. ("Notanishim, to'xta" she'ridan)
 Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi.

Masalan,

Operatsiyadan chiqdingiz.
Terlaringiz artib jilmaydingiz jim,
Ona tirik qoldi, o'lim chekindi. ("Muqimto'sh Rahimovaga" she'ridan)
Notanish yo'lchidek o'tib ketding sen,
U tanish dardingni ichga yutgan cha.
Notanish yo'lchidek o'tib ketdim men,
U tanish sabrimni mahkam tutgan cha. ("Notanishim, to'xta" she'ridan)

Bu nutqiy parchada dard va sabr so'zlari "visol" va "hijron" ma'nolari bilan antonimik munosabatga kirishgan.

Zid ma'nolilikni barqaror birikmalarda ham ko'plab kuzatishimiz mumkin. Iboralarda:

Men yashay olmayman xotirni o'rab,
Senga pok tilaklar sovg'a qilaman.
Tonglar uyg'onaman senga baxt so'rab,
Bir qarg'ab, ming marta tavba qilaman.
Sen yashay olmaysan cho'ntakka tiqib
Shirin qasoskoring sog'inch isini.
Kunduzlar she'rimni yashirib o'qib,
Pichirlab chiqasan tunlar ismimni.
 Maqol va matallarda:
Karvonman to'abad,
Kazzob taladi.
Qozonman to'abad
Och it yaladi... ("Er kishi qarg'ishi" she'ridan)

Shoira she'rlarida **barqaror birikmalardan** ham unumli foydalanilganligini kuzatamiz. Ma'lumki, ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Iboralar, tilimizga ko'chgan izofalar, maqol-matallar va hikmatli so'zlar barqaror birikmalar hisoblanadi.

Iboralar. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalanitirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir.

Ijodkorlar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga "umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin".

Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo'ldoshev tomonidan keng o'rganilgan. Badiiy matnda eng ko'p uchraydiganlari quyidagilardan iborat:

1. **Ibora tarkibini aynan qo'llash.** Masalan,

So'zlariga asal surtilgan

Munis qizni sog'inar abad.

Onasining g'amlar ortilgan

Ko'zlariga sig'inar abad.

Yuragini tashlab ketolmas:

Yo'rgaklangan muqaddas g'amlar.

Orqasidan chopib yetolmas

Og'zi bilan yurgan odamlar. ("Yaxshi odam haqida oddiy satrlar" she'ridan)

Chirqillar edi vaqt ortidan soat,

Yig'ladim: Bir nima gapir, so'ng da'fa.

Sen na ko'z yosh to'kding.

Na chekding faryod,

Deding: endi menga to'rt tomon qibla. ("Ketding" she'ridan)

2. **Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni almastirish:**

Hech bir ikkilanmay Mirvali bobo

Bir qo'l bilan paxta terib yuribdi,

Kulib deydi: "Enam egatda tug'gan..." (Aslida: *onasi dalada tug'gan*)

Bilaman, shu mahal bir ishonganim

Burqsigan davrada meni sotmoqda. (Aslida: *sirini sotmoq*)

3. **Ibora tarkibini kengaytirish.** Bunda ibora tarkibiga yangi so'z kiritiladi.

Ketding. qaro tunda bosh olib ketding,

U borgan manziling shunchami olis?

Yoki yolg'iz o'zing samoga yetding,

Bunda men, zaminda yashayman yolg'iz. ("Ketding" she'ridan)

(Aslida: *bosh olib ketmoq*)

Har qandayin tegirmonlardan

Sening uchun chiqaman butun. (Aslida: *tegirmondan butun chiqmoqmoq*)

Eshikka termulib turgan, bolajon

Aqldan ozaman, bunday qarama.

Sog'inchin yashinlar urgan, bolajon,

Mendan she'r so'rama, qo'shiq so'rama. (Aslida: *yashin urgan*)

4. **Ibora tarkibini qisqartirish.** Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni tushirib qo'llash tildagi tejamkorlik talabi bilan amalga oshiriladi. Ammo yozuvchilar bundan o'z badiiy-lisoniy maqsadiga ko'ra foydalanadilar.

Siniq nigohingda, siniq kulgingda

Umidga o'ralgan zorlar yig'laydi.

Ayni saratonda, yarim ko'nglingda

Bitta-bitta yog‘gan qorlar yig‘laydi. (Aslida: *yarim ko‘ngli to‘lmoq*)....

Badiiy asarda qo‘llanilgan iboralarni o‘rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan biri sanaladi. Ana shunday tahlilda ijodkorning imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanish mahorati to‘laroq namoyon bo‘ladi.

Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma‘noda yoki ham ko‘chma ma‘noda, ham o‘z ma‘nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralidir. Maqollarda fikrni lo‘nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta‘sirchanligini ta‘minlashda juda qo‘l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta‘minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi.

Natijalar

Zo‘lfiya Mo‘minova she‘riyatida ham maqollardan unumli foydalanilganligini kuzatamiz. Masalan,

Kechirib yashaysan uning gunohin,

Deysan: “Yopiq qolsin yopig‘liq qozon...”

Tunlar titrab-titrab yetganda ohing

Yulduzlar falakda hovuchlaydi jon. (“Bolalar uyining bolalariga” she‘ridan)

Yig‘layman, bolalik – sutdek oq osmon,

Shu poklik guvohi yulduzlar aytsin.

Kim tupurar ekan shu osmon tomon,

Tupugi cho‘g‘ bo‘lib yuziga qaytsin!

(Aslida: ***Osmonga tupurma, yuzingga tushadi.***)

...Cho‘ntakdan cho‘ntakka o‘tarkan vijdon,

Ipini uzarkan tunlar xiyonat–

Men she‘r o‘qiyman! (“Duel davom etadi” she‘ridan)

(Aslida: ***Tanacha ko‘zini suzsa, buqacha ipini uzadi.***)

Muzlayotgan suvga ma‘yus termulib,

Yig‘ladim, “Ne bo‘lur, ne bo‘lur ertam?”

Sochimdagi qorni sidirib turib,

Sen deding: “Qo‘y, endi yig‘lama, erkam”.

Bilardim, bunisi so‘nggi erkalash,

Bilardim, g‘am yutar choralarimni.

Bilardim, bu ayoz muzga aralash,

Qo‘shib tuzlab ketar yaralarimni.

O‘ngimda borliqni yengdi oppoq tus,

Aytmading, aytmoqchi bo‘lgan so‘zingni.

Qadamlaring og‘ir, ortingdan ma‘yus

Qor ko‘tarib ketdi bosgan izingni. (“Ketding” she‘ridan)

Ushbu she‘rda 3ta xalq maqoli shaklan o‘zgartirilib qo‘llangan. Bular: 1) Har kim o‘z boshiga yog‘gan qorni o‘zi sidiradi (Bu maqol mazmunan she‘r mag‘ziga va lirik qahramonning ruhiy holatiga singdirilgan.); 2) Yarasini tuzladi (Azob berdi ma‘nosida qo‘llangan.); 3) Qorlar yog‘di–izlar bosildi (Bunda lirik qahramonga aziyat yetkazgan “oshiq”ning ma‘shuqa boshiga ayriliqni tashlab ketish holatini tasvirlaydi.)

Ijodkor **izofalardan** ham unumli foydalana olgan: *tani devor, joni fido, baxti bekam, umri bayonim, devonayi dalli, sohibi kamol* va b.

Shoira she‘riyatida sanoqli, biroq o‘ziga xos **okkazional so‘zlar** ham uchraydi. Masalan,

Mening hayratlarim gulzotlarimning

Jonidan jonimga o‘tgan ganjina.

Mening she‘r yozishim nurzotlarimning

Qonidan qonimga o‘tgan xazina. (“Mening bobolarim” she‘ridan)

Sheva so‘zlari. Ijodkorlar o‘z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadi. Sheva so‘zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirish bilan birga “badiiy nutqda muayyan estetik funktsiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me‘yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo‘llanishi bilan bog‘liqdir.

Zulfiya Mo‘minova she‘rlarida sheva so‘zlari kam ishlatilganligini kuzatamiz. Masalan,

*Urush to 'xtar, to 'xtamaydi belanchak,
Enam, bir kun titrar bug 'doy poyalar,
Baxshi tug 'ib iymonar yosh kelinchak,
Suyunchiga yuguradi doylar. ("Front uchun bug 'doy o 'rdi ayollar" she 'ridan)
Bu qordagi qonli iz
Bovrim, sening izingma?
Mung qoplagan g 'amli ko 'z
Jon-jigarim, ko 'zingma? ("Narpaylik baxshi" she 'ridan)
Shu turish ertaga yo 'qman yo borman,
Dardimni aytayin kima, Qoratov?!
Nega men to shu kun tirnoqqa zorman,
Ayt, yomonlik qildim kima, Qoratov?! ("Er kishi qarg 'ishi" she 'ridan)*

Xulosa va munozara

Shu o'rinda aytish zarurki, shoira she'rlarining aksariyati o'zbek ayolini kuylashga; urush asoratlarini ko'rsatib berishga hamda oddiy insonlar mehnatini ulug'lashga, his etishga qaratilganligi bilan e'tiborlidir. Balki shu boisdandir Zulfiya Mo'minova she'rlarida samimiyat, ravonlik, ixchamlik hamda falsafiylik barq urib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлиliga бағишланган янги тадқиқот ҳақида//Филология.10-чиқиш. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.*
2. *Умурқулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.*
3. *Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М., 1986.– С.:5.*
4. *Ўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.–Тошкент: Фан, 2006.–162 б.–65-б.*
5. *Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. (Лексикология ва фразеология. Лексикография.) – Т., 2004.*
6. *Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.;*
7. *Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994.;*
8. *Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2006.;*
9. *Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Т.: Ўқитувчи, 1995. ва б.*
10. *Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари.– Т.: Фан, 1996.;*
11. *Маматов А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т., 1991.;*
12. *Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Т.: Фан, 2000.*
13. *Маматов А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т., 1991.*

NEMIS VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA INKOR KATEGORIYASINING TASNIFI

*Husainova Xolisxon Komiljonovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti lingvistika:
nemis tili yo'nalishi, 2-bosqich magistranti
xhusainova@bk.ru*

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillaridagi barcha inkor ma'no anglatuvchi grammatik birliklarni jamlash, ularning hosil bo'lish yo'llari, qo'llanilishi, ma'no anglatishdagi umumiy va farqli tomonlarini tadqiq etish maqsad qilingan. Qiyoslanayotgan tillardagi inkor ifodalovchi vositalarning grammatik jihatdan tasnifi, nemis va o'zbek tilshunoslarining inkorning hosil bo'lishi masalasidagi qarashlari o'rganilgan. Maqolada analiz, sintez, qiyoslash, ta'riflash, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijasida nemis va o'zbek tillaridagi inkor gaplarni shakllantiruvchi grammatik qo'shimchalar va vositalar o'rtasidagi umumiy va farqli xususiyatlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nemis tili, o'zbek tili, inkor so'zlar, inkor gaplar, grammatik kategoriya, prefiks, suffiks, juft bog'lovchilar, partikel, artikel.

КЛАССИФИКАЦИЯ КАТЕГОРИИ ОТРИЦАНИЯ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗЫНИИ

Аннотация: Цель данной статьи - собрать все отрицательные слова в немецком и узбекском языках, изучить их способы образования, употребления, общие и разные аспекты значения. Изучена грамматическая классификация выражений отрицания в сравниваемых языках, взгляды немецких и узбекских языковедов на формирование отрицания. В статье используются методы анализа, синтеза, сравнения, описания и обобщения. В результате исследования были изучены общие и различные черты грамматических наречий и средств, образующих отрицательные предложения в немецком и узбекском языках.

Ключевые слова: немецкий язык, узбекский язык, отрицательные слова, отрицательные предложения, грамматическая категория, приставка, суффикс, союзы, частица, артикль.

CLASSIFICATION OF THE NEGATION CATEGORY IN GERMAN AND UZBEK LINGUISTICS

Annotation: This article aims to summarize all negative words in German and Uzbek languages, research their ways of formation, their application, their common and different aspects in meaning. The grammatical classification of negation expressions in comparable languages, the views of German and Uzbek linguists on the issue of the formation of negation, have been studied. The article uses methods of analysis, synthesis, comparison, definition, generalization. As a result of the study, the general and distinctive features between grammatical suffixes and means that form negation sentences in German and Uzbek are studied.

Keywords: German, Uzbek, negative sentences, negation sentences, grammatical category, prefix, suffix, conjunctions, particle, article.

Kirish. Olam yaratilibdiki, inson hayotiy tajribalari, kuzatishlari natijasida jamiyatda va tabiatda bo'layotgan o'zgarishlarni, qonun-qoidalarni ong ostida o'rganib boradi va o'z shaxsiy qarashlari, xulosalariga ega bo'ladi. Natijada atrofidagi voqea-hodisalarni kuzatib, unga javoban yangi axborotlarni tasdiqlash yoki inkor qilish ko'nikmasini oshirib boradi. Ma'lumki, tilshunoslikda tasdiq-inkor tushunchasi turli xil grammatik vositalar bilan gapning kesimidan anglashilgan fikrning nol valentligiga ta'sir qilish orqali hosil qilinishi barchamizga sir emas.

Asosiy qism. Bu tilshunoslik atamasi, ayniqsa maqolamiz bosh mavzusi bo'lgan inkor tushunchasi turli tillarning grammatik talabidan kelib chiqib farqli ifodalanadi, nomlanadi.

Jumladan, o'zbek tilida inkor ma'nosini ifodalashda nol shaklga ega bo'lgan(tasdiq)qa qarama-qarshi tarzda quyidagi grammatik birliklar orqali ifodalaymiz:

- *-ma bo'lishsiz shakli,*
- *yo'q, emas so'zlari,*
- *na...,na inkor bog'lovchisi,*
- *ohang,*
- *bo'lishsizlik olmoshlari,*
- *inkor mazmunli qo'shma ravishlar,*
- *siz, no-, be- qo'shimchalari*

Inkor tushunchasi barcha tillarga xos bo'lgan umumiy (universal) hodisa hisoblanadi. Jumladan, o'zbek tiliga qiyosan tadqiq qilib o'rganilayotgan nemis tilida ham inkorni ifodalovchi bir qancha vositalar mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *“nicht” inkor yuklamasi,*
- *“kein, niemand, nichts” inkor olmoshlari,*
- *nie, niemals, nirgends, nimmer, nirgendwo, nirgendwohin, nirgendwoher ravishlari.*

Bundan tashqari nemis tilida ham inkor ma'no faqat so'zlar yordamidagina emas, balki shunday ma'no anglatuvchi prefikslar, suffikslar, juft bog'lovchilar ham mavjud bo'lib, jumladan quyidagilarni misol sifatida keltirsak bo'ladi: *un-, ver-, miss- (prefikslar), weder, noch (juft bog'lovchilar).*

Yuqorida o'zaro qiyoslanayotgan har ikkala tilda sanab o'tilgan inkor vositalarning anglatadigan ma'nosi, qo'llanilish o'rnini va uslubiy jihatdan bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari mavjud.

Nemis tilida inkorni ifodalovchi vositalar grammatik jihatdan bitta so'z turkumiga kirmaydi. Inkor so'zlar sintaktik jihatdan tahlil qilinganda turli grammatik kategoriyalarga xos ekanligini (misol uchun partikl, ravish yoki olmosh so'z turkumlari) ko'rishimiz mumkin. Ularning umumiy o'xshashlik tomoni esa darak gapni inkor qilishidir. Bundan shuni anglash mumkinki, ular bitta semantik birlikdir.

Nemis tilidagi inkor so'zlarni gapda egallagan o'rnini turli xil bo'lganligi sababli ular turli xil so'z turkumlariga kiritiladi.

- | | |
|------------------------------------|---|
| (1) ... kommt. | (keiner, niemand, nichts) |
| (2) Er läuft... | (nie, niemals, nirgends, nirgendwo, nicht, nirgendwohin, keinesfalls, keineswegs) |
| (3) Er liest... Buch | (kein) |
| (4) Kommt er? ..., er kommt nicht, | (nein) |
| (5) ... ein Schüler war krank. | (nicht) |
| (6) Er ist... dumm ... faul. | (weder — noch) |

Birinchi misolda inkor so'zlar substantiv olmoshlardir (ular *der freund*, *er v. h.* lar bilan almashtirilishi mumkin). Ikkinchi misolda inkor so'zlar ravishlardan iborat (ular *dort, heute v.h.* lar bilan almashtirilishi mumkin). Uchinchi misolda inkor so'zlar artikel so'zlardir (ular *ein, mein v.h.* lar bilan o'rin almasha oladi). To'rtinchi misolda so'z-gaplar yoki inkor so'z-gaplardir (ular *ja, doch* so'z gaplar bilan o'rin almashishi mumkin). Beshinchi misolda inkor so'z partikeldir (u *auch, nur* partikellari bilan o'rin almasha oladi). Oltinchi misolda inkor so'zlar bog'lovchilardir (ular *sowohl – als auch, entweder – oder* juft bog'lovchilar bilan o'rin almasha oladi).

Aksariyat inkor so'zlar hech qanday o'zgarishga uchramaydi, bularga *nein, nicht, nichts, nie, niemals, nirgends, nirgendwo, nirgendwohin, nirgendwoher, weder-noch* kirsam, *nimand* va *kein* inkor so'zlari esa *fleksibl*, ya'ni o'zgaruvchan hisoblanadi.

“*Kein*” inkor so'zi birlik sonda xuddi noaniq artikl “*ein*” singari ko'plikda esa xuddi sifat kabi turlanadi. Misol uchun:

- Max hat einen großen Hund / Max hat keinen großen Hund.*
 - Max hat eine große Katze, Max hat keine große Katze.*
 - Max hat ein liebes Tier. Max hat kein liebes Tier.*
 - Max hat *liebe Tiere. Max hat keine lieben Tiere*
- “*Niemand*” inkor olmoshi quydagicha turlanadi.

- Nominativ: niemand
- Akkusativ: niemand(en)
- Dativ: niemandem
- Genitiv: niemandes

Tilshunoslikda inkor ma'no anglatuvchi gaplar (tushunchalar) kommunikativ (pragmatik), leksik, morfologik, sintaktik yo'llar orqali ifodalanadi. Inkor tushunchasi hamma sohada ham to'g'ridan to'g'ri til

vositalari orqali ifodalanmaydi, balki kontekstdan kelib chiqib xulosa qilsa ham bo‘ladi. Bunday hodisaga *kommunikativ inkor qilish* deyiladi.

Masalan: Gehst du heute Abend ins Training?

– Bugun kechda mashg‘ulotga borasanmi?

Ich muss für eine Pürufing lernen.

Men imtihonga tayyorlanishim kerak.

Leksik yo‘l bilan inkor hosil qilishda gapda aniq bir inkor vositalari qo‘llanilmaydi. Chunki unda salbiy ma‘no anglatuvchi so‘zlar orqali inkor ifodalaniladi. Heinemanning fikricha, bunday so‘zlarga negatv ma‘no anglatuvchi so‘zlar kiradi. Masalan,

unterlassen – tiyilmoq (nimadir qilmaslik),

leer – bo‘sh (ichida hech narsa yo‘q) va hokoza...

Lekin bunga nafaqat alohida so‘zlar, balki juft bog‘lovchilar ham kiradi „entweder, oder“ (na, na) kabi. Bundan tashqari leksik inkorni frazeologik birliklarni qo‘llash orqali ham ifodalash mumkin. Masalan, *Tomaten auf den Augen haben – nicht sehen wollen oder können* (ko‘rishni xohlamaslik yoki ko‘ra olmaslik).

Morfologik inkor qilish deganda esa inkor affikslarining til birliklariga qo‘shilish jarayonini tushunish mumkin. Nemis tilida bu *un-*, *nicht-* yoki *in-* prefikslari hamda *-los* va *-frei* kabi qo‘shimchalari bilan amalga oshiriladi. Bunday hollarda salbiy ma‘no faqat so‘zga ta‘sir qiladi va bu jarayonni „Wortbildung“, ya‘ni yangi so‘z yasashning bir turiga kiritish mumkin.

Mustaqil morfema shaklida inkor qiluvchi funksiyaga ega bo‘lgan birliklar erkin inkor vositalari, inkor so‘zlar yoki iboralar deb ataladi va sintaktik inkor sohasiga kiradi. Ular turli funksiyalarga ega bo‘lgan turli so‘z turkumlariga tegishli bo‘lishi mumkin. Bularga „*nicht*“ partikeli, *nie*, *nirgenwohin* kabi ravishlar, *niemand*, *nichts* kabi bo‘lishsiz olmoshlari, *kein*, *keinerlei* kabi artikel so‘zlar va *nein* kabi inkor-so‘z gaplar kiradi. Turli sinflarga mansubligi tufayli bu elementlar sintaktik jihatdan har xil vazifa bajarishi mumkin. Ulardan ko‘pchiligi gap vazifasini bajaradi. „*Kein*“ inkor so‘zi esa artikel sifatida ham namoyon bo‘ladi. „*Nein*“ esa aksincha so‘z-gap vazifasini bajaradi. „*Nicht*“ partikelini sof inkor so‘zlar toifasining markaziy vositasi sifatida tavsiflash mumkin.

O‘zbek tilida ham yuqorida sanab o‘tilgan inkor ma‘no anglatuvchi grammatik vositalar anglatadigan ma‘nosidan kelib chiqib turli so‘z turkumlariga xosdir. Bulardan *-ma bo‘lishsizlik qo‘shimchasi* fe‘lning deyarli barcha shakllarida inkor ifodalash uchun qo‘llana oladi: *yozmayapti*, *yozmaslik*, *yozmagan*, *yozmaydigan*, *yozmay* kabi. Faqat harakat nomi shaklida ushbu qo‘shimcha *-maslik* (o‘qish-o‘qimaslik), sifatdosh shakliga esa *-mas* shakliga qo‘shiladi (*kelar-kelmas*).

Inkor ifodalovchi *emas* (tarixan-ermas) so‘zi aslida to‘liqsiz fe‘lning inkor shaklidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *emas* so‘zi inkordan boshqa ma‘no ifodalamaydi hamda yakka holda qo‘llana olmaydi (masalan: *aytgan emas*, *borgan emas*). Shuning uchun *emas* fe‘li inkor ifodalovchi to‘liqsiz so‘z sifatida qaraladi.

Yo‘q so‘zi esa quyidagi o‘rinlarda kelib, inkor mazmunini ifodalaydi:

1) o‘tgan zamon fe‘lidan keyin kelib, inkor shaklini ifodalashdalovchi yordamchi so‘z

Akam bugun kelgani yo‘q;

2) gapning mustaqil kesimi vazifasida keladi: *Menda kitob yo‘q;*

3) inkor-so‘z gap vazifasida keladi:

-Bugun sayohatga chiqasanmi?

-Yo‘q.

Yo‘q so‘zi o‘tgan va hozirgi zamon sifatdosh shakllaridan keyin kelganda harakat bajaruvchisining shaxs va sonini ifodalovchi qo‘shimchalar yo‘q so‘ziga *emas*, aksincha undan oldin kelayotgan fe‘lga qo‘shiladi. fe‘llarining yo‘q so‘zi yordamida yasaluvchi inkor shaklida shaxs-son ko‘rsatkichlari egalik affikslari bilan bir xil ko‘rinishga ega bo‘ladi:

<i>I. borgan +im yo‘q</i> + <i>imiz yo‘q</i>
<i>II. ... +ing yo‘q</i> + <i>ingiz yo‘q</i>
<i>III. ... +i yo‘q</i> + <i>(lar) i yo‘q</i>
<i>borayotgan +im yo‘q</i> + <i>imiz yo‘q</i>
... + <i>ing yo‘q</i> + <i>ingiz yo‘q</i>
... + <i>i yo‘q</i> + <i>(lar) i yo‘q</i>

Inkor ma'no *emas so'zi* bilan hosil qilinayotganda esa aksincha holat yuz beradi. Harakat bajaruvchisining shaxs va sonini ifodalovchi qo'shimchalar oldin kelayotgan fe'lga qo'shilmay, *emas so'zi* tarkibida keladi:

Masalan, *kelgan emasman, kelgan emassan, kelgan emasmiz, kelgan emassiz* kabi.

O'zbek tilida yuqoridagi sanab o'tgan grammatik birliklardan tashqari yana inkor anglatuvchi so'zlar sirasiga *hech so'zi* va *ayrim so'roq olmoshlari*, shuningdek, *bir, narsa* kabi so'zlar birikishidan hosil bo'lgan *bo'lishsizlik olmoshlari* ham kiradi. Ular tuzilishiga ko'ra ikki turga ega: a) tub so'z shaklidagi bo'lishsizlik olmoshi.

Bunday holat *hech* so'zini yakka holda keltirish yo'li orqali hosil qilinadi.

Masalan, *Hech g'am yema.*

b) qo'shma so'z shaklidagi bo'lishsizlik olmoshi. Qo'shma so'z shaklidagi bo'lishsizlik olmoshlari esa *hech so'ziga kim, nima, qachon* kabi so'roq olmoshlarining yoki *bir, narsa* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'ladi: *hech kim, hech nima, hech bir, hech narsa* kabi. Bunday hollarda gap tarkibida nafaqat bo'lishsizlik olmoshi yordamida, balki gap kesimi tarkibidagi *-ma* bo'lishsizlik qo'shimchasi orqali ham doimo inkor mazmuni ifodalanadi, ta'kidlanadi.

Masalan, *Hech kim majlisda ishtirok etmadi.*

Inkor gaplar *hech so'zi* va payt, ma'kon-zamon bildiruvchi so'zlar yordamida hosil qilingan qo'shma ravishlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bu so'zlar gapdagi mavjud inkor ma'nosini kuchaytiradi: *Hech zamonda ham darvozani ochiq qoldiradimi?*

Na..., na inkor bog'lovchisi uyushiq bo'laklar oldidan takroran qo'llanib< inkor ma'nosini anglatishga xizmat qiladi. Bunday gapning kesimi har doim tasdiq (bo'lishli) shaklda qo'llanadi, ammo gapdan anglashilgan mazmun inkor ma'noni ifodalaydi. Masalan, *Mening nomimga bir g'alati konvert chiqdi: na adresi bor, na familyasi bor, na pochta muhri bor?*

Nutq jarayonidan kelib chiqib ohang yordamida ham inkor mazmunini ifodalash mumkin. Bunday hollarda shakl tasdiq bo'lsa-da mazmun inkorni ifodalaydi. Masalan, *Olasan-olasan, qani olib ko'r-chi?*. Ushbu gap tarkibidagi "olasan-olasan" so'zi shaklan tasdiq bo'lsa-da, ammo ohang yordamida inkor mazmunini ifodalab kelyapti.

O'zbek tilida bundan tashqari yana inkor ma'no ifodalash uchun sifat yasovchi qo'shimchalardan ham foydalanish mumkin. Bunda asosdan anglashilgan narsaga, holatga, predmetga ega emaslikni anglatuvchi *-siz, be-, no-* qo'shimchalaridan foydalaniladi va bunday yasama sifatlardan gapda inkor yoki negativ ma'no anglatish maqsadida qo'llaniladi: *suv+siz, yer+siz, adolat+siz; beqaror, beminnat, befarzand; noma'lum, noaniq* kabi.

Ключевые слова: *ИКТ в образовании, методика обучения иностранным языкам, геймификация обучения, мобильное обучение, коммуникативная компетентность, обучающее мобильное приложение.*

**O'ZBEKISTONDA TIL O'QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISH
JARAYONIDAGI GRAMMATIK KOMPETENSIYALAR**

Annotatsiya. *Ushbu maqola mobil ilovalardan chet tilini o'rgatish jarayonida o'yin faoliyatini joriy etish vositalaridan biri sifatida foydalanish masalasiga bag'ishlangan. Maqolada "o'yinlashirish" tushunchasi ko'rib chiqiladi va o'quv o'yinlarini tasniflashga turli xil yondashuvlar taqdim etiladi. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga hissa qo'shadigan o'ziga xos mobil xizmatlar ham taklif etiladi va tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga ko'ra, kommunikativ kompetensiyaning til, nutq va ijtimoiy-madaniy tarkibiy qismlarini shakllantirish uchun qanday texnologiyalardan foydalanish mumkinligini aniqlash mumkin.*

Kalit so'zlar: *ta'limda AKT, chet tillarini o'rgatish usullari, ta'limning gamifikatsiyasi, mobil ta'lim, kommunikativ kompetensiya, o'rganish mobil ilovasi.*

Introduction. Mobile applications have become an integral part of the life of a modern person. Currently, they are used in all areas of human activity: culture, communication, transport, entertainment, finance, sports, professional activities, etc., including education. The main goal of educational mobile applications is to facilitate the learning process, make it more exciting, interesting and effective for users, often through the introduction of a game moment into learning, i.e. through the gamification of education [5].

Materials and methods. M.F. Stronin distinguishes the following types of educational games: preparatory games, grammar games, lexical games, phonetic games, spelling games, creative games, auditory games, speech games [4].

There is also a classification developed by D. Hadfield and built on the basis of the principles of actions performed by students during a particular game:

1. Information gap (information gap).
2. Connection or selection of elements (jigsaw or fitting together principle).
3. Exchange (barter principle) [4].

According to E.N. Solovova, educational games are divided into:

1. games like "Lotto" (bingo games);
2. games based on the use of the "information gap", discrepancies in the assessment and perception of information (information gap, opinion gap, perception gap);
3. puzzle games on the principle of jigsaw games;
4. games using dramatization (simulations) [4].

Results and discussion. Linguistic competence is the ability to understand and produce an unlimited number of linguistically correct sentences with the help of learned linguistic signs and the rules for their connection [3]. Below is an analysis of the didactic potential of applications aimed at developing language competence.

Duolingo is an application and website containing a wide range of exercises, games and tasks aimed at developing the lexical, grammatical and phonetic skills of students with a foreign language level from A1 to C1. The technology includes the following types of tasks: translation exercises, recording one's own voice (pronunciation of phrases and sentences), tests, filling in gaps, writing down phrases heard, etc. The application can be used to reinforce or repeat already learned grammar and lexical material as homework. The Duolingo language learning app is the world's most popular way to learn languages. The company's mission is to develop the best education in the world and make it universally available.

Learning with Duolingo is fun, and research shows that it works! With quick, bite-sized lessons, you'll earn points and unlock new levels while gaining real-world communication skills.

The Phrasal Verbs Machine (Cambridge University Press) is a mobile application for expanding the vocabulary of students, namely by memorizing phrasal verbs. The application provides visualization and graphics: to explain phrasal verbs, a real life situation is played out (using animation), as well as various meanings of verbs and examples of their use in sentences.

With the Phrasal Verbs Machine app iPad users will be able to learn how Phrasal Verbs work while being entertained by fun animations that help visually memorize the real meaning of Phrasal Verb.

Quizlet is a service that can be used on both PC and mobile devices. Using this technology, you can learn a new vocabulary using the following tasks: Flashcards - flashcards will be useful for learning new words, memorizing them and further practicing them; Learn - a task for fixing the vocabulary (Russian translation / definition is given, it is necessary to enter the English version); Spell - a task for practicing spelling. The student needs to listen to the pronunciation of the word (as an additional hint, the Russian equivalent / definition of the word is also shown) and write it in the box; Test - this task includes several exercises at once: translating a word, matching a word with its translation / definition, multiple choice and determining whether the presented translation is correct. Such a task is suitable for a control check of the assimilation of new words. Match is a game in which you have to match a word with its translation to make it disappear. The faster all the words disappear from the field, the better; Gravity is a game in which you have to save the Earth from asteroids by typing the correct translation of the words written on them.

Practice English Grammar is an application that, despite the name, is designed to train not only grammar skills, but also lexical ones.

Words, Sounds: Pronunciation App by Macmillan - this mobile application is aimed at developing students' listening and pronunciation skills. A table is provided with all the vowels and consonants of the English language, when you click on any of them, they are played. After studying the table, you can practice or go straight to the test.

Mobile technologies, providing the possibility of processing information in a foreign language involving various channels of its perception and reproduction, are a kind of integrated learning tool that a student can use for independent study of a foreign language for professional improvement. But it is worth noting that working with mobile technologies in general and with mobile applications in particular requires an initial level of formation of information and self-educational competencies, allowing to improve and develop these competencies further. So, today there are a large number of mobile applications designed specifically for learning foreign languages, which is both a unique feature and an undeniable advantage of

mobile technologies [4]. These applications can act as learning tools in their own right and be classified accordingly.

Actually educational mobile applications can be divided into three groups according to the degree of application and integration into the educational process: 1) mobile applications-additions to teaching aids; 2) mobile applications for independent study of disciplines; 3) mobile applications for distance (mobile) education [7]. They allow the student to quickly, in any place and at any time, find the necessary information, including in a foreign language, on any subject, including professional. Existing mobile applications are diverse and targeted [7].

As a result of the analysis of the literature on mobile applications in education [6], Internet sources, conversations with students, and a survey of students of non-linguistic faculties, the most common mobile applications for self-study of the English language were identified. For example, applications such as Duolingo, Lingualeo offer the user to perform exercises with English grammar and vocabulary based on the repeated use of words of the same subject in certain grammatical structures. One of the tasks asks you to write voiced words and simple sentences. The application checks completed tasks. This contributes to the formation of pronunciation and lexical and grammatical skills.

The Triplingo application contains various information about the culture of more than 100 countries in English, including English-speaking countries (Australia, New Zealand, Canada, USA, UK). Of particular interest to bachelors in law may be the sections Politics and Government, Safety. The application also includes a translator to translate spoken language into your desired language, including Russian. In addition, the application has a phrase book function, suggesting commonly used phrases and expressions. Working with this application contributes to the development of reading skills, the improvement of pronunciation and lexical and grammatical skills, the acquisition of sociocultural knowledge.

With the English Conversation app, you can communicate with Beginner-Intermediate English learners around the world by exchanging written and spoken messages in real time. In addition, it includes a series of video lessons containing dialogues and vocabulary exercises for them. Thus, it can be argued that this application contributes to the improvement of language and speech skills, as well as the development of all types of speech activity. Table 1 lists some popular mobile applications that can be used to develop language and speech skills and speech skills.

Table 1

Mobile programs and applications for the acquisition of language knowledge, the formation and improvement of foreign language hearing and pronunciation, lexical and grammatical skills and speech skills

		Mobile applications	
		for the common component	Foreign language in the professional field
Knowledge	Linguistic and/or extralinguistic	Podcasts & Videocasts, TripLingo, Learn English Podcasts, Lingualeo, DIVII, mobile dictionaries	Translegal Law Dictionary, the Legal Dictionary, International Legal English, the-Law.com, Above the Law, Law Dictionary, English Law App, Legal Dictionary by Farlex, TripLingo
Skills	Hearing-pronunciation	Podcasts & Videocasts, Duolingo, TripLingo, Learn English Podcasts, Conversation English, Lingualeo, Talk English, Busuu, DIVII, Mobile Dictionaries, English File Pronunciation	Translegal Law Dictionary, International Legal English
	Lexical	Podcasts and videocasts, Duolingo, TripLingo, Learn English Podcasts, Conversation English, Lingualeo, MindMeister, Busuu, Babel, Flashcards, DIVII, mobile dictionaries	Translegal Law Dictionary, the Legal Dictionary, International Legal English, the-Law.com, Above the Law, Law Dictionary, English Law App
	Grammar	Podcasts & Videocasts, Duolingo, TripLingo, Learn English Podcasts, Lingualeo, Busuu	Translegal Law Dictionary

LINGUISTICS

Skills	listening	Podcasts and Videocasts, Learn English Podcasts, Conversation English, Lingualeo, Busuu, DiVii	Podcasts and videocasts, DiVii
	Reading	Podcasts & Videocasts, TripLingo, Conversation, English Lingualeo, Busuu, Babel, DIVII, mobile dictionaries	Translegal Law Dictionary, the Legal Dictionary, Inter- national Legal English, the- Law.com, Above the Law, Law Dictionary, English Law App
	speaking	Conversation English, Lin- gualeo, Talk English, Busuu	Conversation English
	Letter	Lingualeo, MindMeister, Busuu, Babel, Flashcards	theLaw.com

Based on the results of a survey conducted among 1st-2nd year students of two faculties in the 2021/22 academic year, the most popular mobile devices among university students include smartphones and tablet PCs / tablets. Students actively use these devices for educational purposes, including when learning a foreign language - 93% of respondents, and only 7% do not use mobile technologies for learning purposes. When preparing for foreign language classes, students mainly perform such actions as working with a textbook and workbook in electronic form (87%), working with an online translator (79%), searching for linguistic and sociocultural information on the Internet (55%) on a smartphone or tablet, search for words in dictionaries (40%), learning a foreign language through mobile applications (23%) and social networks (10%). Directly in class, mobile technologies are used by 75% of students, limited to working with an electronic textbook, translating texts in an electronic translator, searching for words in an electronic dictionary, and rarely searching for linguistic and cultural information on the Internet. Moreover, 63% of students who use mobile technologies in teaching note that they use mobile technologies for independent learning of a foreign (English) language at home, outside the program. Of these, 58% use various sites with articles, lexical and grammatical material and other linguistic and sociocultural information (text, audio and video), mobile applications aimed at teaching a foreign language are used by 13% of respondents (limited to one or two), the use of social networks was noted by 12% of the students surveyed, 9% listen to audio books in a foreign language, 3% listen to songs in a foreign language for the purpose of self-learning, 5% use bilingual phrasebooks for independent study of a foreign language. All students (100%) resort to the help of electronic translators and dictionaries in their independent work. So, we see that mobile technologies are more successfully used during the student's independent work (in preparation for classes) and in the process of self-learning a foreign language.

27% of students do not use mobile technologies for self-learning a foreign language, noting that there is "no time", "inconvenient", "it is not clear how to use it", "no desire", "no need", "there are other ways", "some applications require financial investments", "haven't heard anything about applications." These answers indicate that many students do not know how to use mobile technologies effectively, do not know about the existence of mobile applications, or do not see the need to study something beyond what is asked at the university, filling in the gaps.

However, 93% of the respondents explained that they study the subject using mobile technologies, as "the phone does not take up much space in the bag", "the mobile phone helps to make work easier", "it is convenient", "it helps to quickly translate and search for the necessary information in Internet", "this is convenient, because the phone has everything: a dictionary, a textbook, and a translator", "large amounts of information can be stored in the phone", "you can learn a lot of new things", "what what is incomprehensible in a couple, you can study on your own", "the use of mobile technologies will allow you to learn faster if they are used correctly", etc.

However, despite the noted positive aspects of mobile technologies, their effectiveness is not so high, because students of non-linguistic faculties of the university still have a low level of results of independent work. In our opinion, the reason for this lies in the inability of students to properly organize independent activities, the inability to work independently, including the wrong choice and / or inefficient way of using self-learning tools. The analysis of the survey showed that students do not use all the opportunities provided by mobile technologies for learning a foreign language, or in their incomplete volume. Many students note that they do not use the full potential of mobile technologies and want to know more about it.

Thus, the chosen teaching aids significantly influence the achievement of the goals of the educational process. In the existing classification of learning aids, mobile technologies, and, accordingly, mobile applications, can be attributed to the group of technical learning aids. The variety of mobile applications created for learning a foreign language and ways of working with the use of mobile technologies allows them to act as a comprehensive learning tool aimed at developing pronunciation and lexical and grammatical skills, as well as all types of foreign language speech activities.

Conclusion. So, we can conclude that with the teacher carefully developing a learning strategy and choosing the most appropriate means in accordance with the goals, needs and age of students, modern mobile applications as a tool for gamification provide ample opportunities to achieve high results. When learning a foreign language as part of a communicative approach to learning, as they allow you to smoothly and harmoniously introduce elements of the game into the learning process, as well as increase student motivation.

REFERENCES:

1. Azimov E.G., Shchukin A.N. *A new dictionary of methodological terms and concepts (theory and practice of teaching languages)*. M., 2019. 448 p.
2. Dareeva O.A., Dashieva S.A. *Sociocultural competence as a component of communicative competence // Bulletin of the Buryat State University*. 2019. No. 15. P. 154–159.
3. Zhazheva D.D., Zhazheva S.A. *Formation of linguistic competence based on the use of a didactic game [Electronic resource] // Bulletin of the Adyghe State University. Series 3: Pedagogy and psychology*. 2013. No. 4. P. 99–108.
4. Solovova E.N. *Methods of teaching foreign languages: an advanced course: a guide for ped students. Universities and teachers*. M., 2018. 272 p.
5. Titova S.V. *Didactic problems of integrating mobile applications into the educational process. Bulletin of the Tomsk State University*. 2016. No. 7–8 (159–160). pp. 7–14.
6. Пауудов, Д. (2022). *Transport korxonlari uchun nogironlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan maxsus kiyimlar va boshqa mahsulotlar xaridini ko'paytirish orqali nogironlar mehnatini rag'batlantirish*. Scienceweb academic papers collection.
7. Eremin Yu. V., Krylova E. A. *The use of mobile technologies in the independent work of students in a foreign language in a non-linguistic university // Bulletin of the Russian State Pedagogical University named after A. I. Herzen*. – 2014. –No. 167. - P. 158-166.
8. Klimenko M. V., Sleptsova L. A. *Mobile learning in the practice of teaching a foreign language at a university // Bulletin of the Chuvash State Pedagogical University. I. Ya. Yakovleva*. - 2016. - No. 4 (92). - P. 118-126.
9. Mirontseva S. S. *Pedagogical experiment in the study of the process of teaching future managers a foreign language using electronic educational resources // World of Science, Culture, education*. - Gorno-Altaysk, 2018. - No. 5 (72). - P. 126-128.
10. Bormosova N.E. *Method of projects in the pedagogical process / N.E. Bormosov // Agrarian science in the XXI century: Problems and prospects. Collection of articles of the All-Russian Scientific and Practical Conference*. - Saratov, 2018 - S. 65–68.

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA KO'CHIRMA NUTQ TALQINI

Saidova Muhayyo Umedilloevna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Buxoro davlat universiteti ingliz

tilshunosligi kafedrasida dotsenti

muniraomonovna@gmail.com

To'xtayeva Munira Omonovna,

Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola o'zga nutq, jumladan, ko'chirma nutqning o'zbek va ingliz tilshunosligidagi tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu mavzu doirasida har ikki til orasidagi farqli va mushtarak jihatlar aniq kodifikatsiyalangan qoidalar, dalillarga misollar asosida yoritiladi. Ko'chirma gap alohida grammatik qoidalar asosida tuziladi. Ko'chirma gapni ifodalash uchun leksik, grammatik, intonatsion vositalar qo'llanilib, uning o'ziga xos konstruksiyasi bor. Ko'chirma gap bilan avtor gapi orasida organik aloqa mavjud. Avtor gapi ko'chirma gapni ma'lum jumlagacha kiritib qolmasdan uni boshqa gaplardan ajratib ham turadi. Avtor gapi bilan ko'chirma gap birga qo'llanishi natijasida qo'shma gap konstruksiyasi kelib chiqadi. Bu konstruksiyada ko'chirma gap o'z mustaqilligini saqlaydi; avtor gapi, aksincha, mustaqillikka ega emas. Bu hol, ayniqsa, u ko'chirma gapdan ajratib olinganda yaqqol seziladi.

Kalit so'zlar: o'zga nutq, ko'chirma nutq, muallif nutq, leksik vosita, grammatik vosita, intonatsion vosita, fikriy butunlik, komponent, sintaktik konstruksiya, semantik-sintaktik, valentlik, ruhiy quvvat, yaxlitlik.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРЯМОЙ РЕЧИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: Данная статья посвящена изучению чужой речи, в том числе на иностранном языке, в узбекском и английском языкознании, в которой на основе чётко кодифицированных правил и примеров, доказательств выделяются различия и общие моменты между двумя языками. Прямое предложение создаётся на основе специальных грамматических правил. Для выражения цитаты используются лексические, грамматические и интонационные средства, и она имеет свою конструкцию. Между цитируемым предложением и предложением автора существует органическая связь. Авторское предложение не только включает цитируемое предложение в определённое предложение, но и отделяет его от других предложений. В результате употребления вместе авторского предложения и цитируемого предложения образуется сложносочинённая конструкция предложения. В этой конструкции цитируемое предложение сохраняет свою самостоятельность; предложение автора, с другой стороны, не имеет самостоятельности. Эта ситуация особенно заметна, когда оно отделено от цитируемого предложения.

Ключевые слова: чужая речь, прямая речь, авторская речь, лексический приём, грамматический приём, интонационный приём, интеллектуальная целостность, компонент, синтаксическая конструкция, семантико-синтаксическая, валентность, умственная сила, целостность.

TRANSLATION OF SPEECH IN UZBEK AND ENGLISH

Abstract: This article is devoted to the study of someone else's speech, including in a foreign language, in Uzbek and English linguistics, in which, on the basis of clearly codified rules and examples of evidence, differences and common points between the two languages are highlighted. A fragment sentence is created on the basis of special grammatical rules. To express a quote, lexical, grammatical and intonational means are used, and it has its own construction. There is an organic connection between the quoted sentence and the author's proposal. The author's sentence not only includes the quoted sentence in a certain sentence, but also separates it from other sentences. As a result of the use of the author's sentence and the quotation sentence together, a complex sentence construction is formed. In this construction, the quoted sentence

retains its independence; the author's proposal, on the other hand, has no independence. This situation is especially noticeable when it is separated from the quoted sentence.

Key words: *indirect speech, direct speech, author's speech, lexical device, grammatical device, intonational device, intellectual integrity, component, syntactic construction, semantic-syntactic, valency, mental strength, integrity.*

Kirish. O'zbek tilshunosligida o'zga gaplarga doir ilmiy maqola, monografiya, risolalar bosilib chiqqan, dissertatsiyalar yozilgan. Bundan tashqari mazkur mavzu o'zbek tilining ilmiy, akademik grammatikalari hamda oliygo'hr filologiya fakultetiga mo'ljallangan darslik va qo'llanmalarda turli darajada yoritilgan. Mazkur ishlarda o'zga gapning tuzilishi, mazmuni va qo'llanishiga nisbatan mualliflarning munosabati bir xil emas. Chunonchi, ayrim tilshunosning fikriga ko'ra ba'zi ko'chirma gap muallif gapiga nisbatan mustaqilligini saqlaydi. Shu bois uni bog'langan qo'shma gap deyish mumkin. Ikkinchi xil ko'chirma gap esa muallif gapini izohlab keladi va unga nisbatan ergash gap vazifasini bajaradi. Binobarin, bunday ko'chirma gap ergash gapga aylangan bo'ladi.

Asosiy qism. O'zbek tilining akademik grammatikasida mazkur mavzu ko'chirma va o'zlashtirma gap sarlavhasi ostida berilgan bo'lib, prof. A. N. Nurmaxonova tomonidan yozilgan. O'zga gapning xususiyati haqida bayon qilingan fikrlardan ayrimini keltiramiz: Ko'chirma gapli jumla ikki qism (avtor gapi va ko'chirma gap)dan iborat. Ko'chirma gap alohida grammatik qoidalar asosida tuziladi. Ko'chirma gapni ifodalash uchun leksik, grammatik, intonatsion vositalar qo'llanilib, uning o'ziga xos konstruksiyasi bor. Ko'chirma gap bilan avtor gapi orasida organik aloqa mavjud. Avtor gapi ko'chirma gapni ma'lum jumlagacha kiritib qolmasdan uni boshqa gaplardan ajratib ham turadi. Avtor gapi bilan ko'chirma gap birga qo'llanishi natijasida qo'shma gap konstruksiyasi kelib chiqadi. Bu konstruksiyada ko'chirma gap o'z mustaqilligini saqlaydi; avtor gapi, aksincha, mustaqillikka ega emas. Bu hol, ayniqsa, u ko'chirma gapdan ajratib olinganda yaqqol seziladi: *Juda to'g'ri qilibsan, – deb uning so'zini bo'ldi chol.* (N. Safarov).

So'zlovchi nutqining so'zma-so'z berilishiga ehtiyoj bo'lmaganda o'zlashtirma gap qo'llanadi. O'zlashgan gap turmushda ko'p ishlatiladi. Chunki o'zga gapning bu turi katta jummalarni qisqartirib aytishga qulaylik tug'diradi. Natijada ko'chirma gap ikkinchi marta avtor tomonidan o'zlashtiriladi, avtor birinchi marta ko'chirma gapni gapiga yedirib, o'z uslubida qayta ishlab chiqadi. Bu o'zgarish natijasida ko'chirma gap tarkibida kishilik olmoshi bo'lmaydi, fe'lining shaxs, son kategoriyalari ko'rsatilmaydi, butun gap avtor nomidan III shaxs orqali ifodalanadi. Yakuniy xulosa shuki, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar kommunikativ vazifani yuzaga chiqaruvchi vositalardan biridir.

O'zbek tilining boshqa akademik grammatikasida mazkur mavzu kengroq yoritilgan. U akademik M. Asqarova qalamiga mansub bo'lib, ko'chirma gapli konstruksiyalar sarlavhasi ostida berilgan. Unda o'zga gap uch turga bo'lib tadqiq qilinadi. Olimning ko'rsatishicha, mazmuni, grammatik va leksik xususiyati o'zgartirilmay, aynan berilgan o'zgalarning gapi avtor gapi bilan birikib, qo'shma gapning ko'chirma gapli turini hosil qiladi. O'zganing gapi ma'lum shaxs fikrini hikoya qilib beruvchining gapi orqali ifodalanishidir. O'zganing gapini bayon qilib beruvchi avtor, uning gapi avtor gapi deyiladi. Gapi ifoda qilinayotgan shaxs so'zlovchi hisoblanadi.

Qo'shma gapning boshqa turlari bilan ko'chirma gapli qo'shma gap orasida ma'lum o'xshash va farqli tomonlar bor. O'xshashlik shundan iboratki, qo'shma gap birdan ortiq sodda gapning intonatsion va fikriy butunligidan iboratdir. Qo'shma gapni tashkil etuvchi komponent (sodda gap) mazmunan va intonatsiyasi jihatidan bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etadi. Ko'chirma gap ham avtor gapi bilan birga olinib, ikki komponentning intonatsion va mazmuniy butunligini keltirib chiqaradi, qo'shma gapning bir turini tashkil qiladi. Farq shundan iboratki, ko'chirma gapli konstruksiyaning komponentlari ko'chirma gapning sodda yoki qo'shmaligidan qat'i nazar deyarli hamma vaqt ikki asosiy komponentdan – ko'chirma gap va avtor gapidan tashkil topadi. Qo'shma gaplar esa ikki va undan ortiq sodda gapning birikuvidan tashkil topadi. Ko'chirma gapli konstruksiyada komponentni tutashtiruvchi grammatik vositalar deyarli ishlatilmaydi, uning tarkibida nisbiy so'zlar qo'llanmaydi. Ko'chirma gapning komponentlari bir so'zdan tortib butun bir jumla, hatto monolog shaklida keladi. Qo'shma gap komponentlari tuzilish va mazmuniga ko'ra sodda gaplarga teng yoki ularga yaqin bo'ladi. Qo'shma gap tarkibidagi komponentlarni ba'zan alohida sodda gap shaklida qo'llash mumkin bo'lsa ham, ko'chirma gapli konstruksiya komponentlarini ajratib alohida olib qo'llash deyarli mumkin emas. Avtor gapisiz kelgan o'zgalarning gapi ko'chirma gap emas. Ko'chirma gap sodda yoki murakkabligidan qat'i nazar avtor gapi bilan bog'lovchisiz qo'shma gap yoki to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap bo'lib kelishi mumkin. Bundan tashqari ikki ko'chirma gapli qo'shma gap bo'lib, murakkab turdagi qo'shma gapni hosil qilishi mumkin. Bunday gaplarda birinchi ko'chirma gapli qo'shma gap

keyingisiga nisbatan ergash gaplik vazifasini bajarishi va keyingi gapdagi harakatni yuzaga kelish payti yoki shartini ifodalashi mumkin. Jonli tilda, baʼzan adabiy tilda ham ikkinchi darajali koʻchirma gaplar uchraydi. Avtor bunday gaplarda oʻzganing gapini koʻchirma gap holida keltiradi: “Sirdaryodan quyosh koʻtariladi, mamlakatga nur oqadi” deyishgan edi, dedi faxrlanib Oʻktam.

Koʻchiriladigan gap birdan ortiq shaxsning oʻzaro soʻzlashuvi tarzida boʻlsa koʻchirma gap avtor gapisiz dialog shaklida berilishi mumkin. Dialog shaklidagi fikr yoki gapning kimga qarashli ekanligi nutq jarayonida maʼlum boʻladi.

Oʻzganing gapi mazmuni saqlangani holda leksik, grammatik xususiyatlari oʻzlashtirilib berilsa, oʻzlashtirilgan gap deyiladi. Oʻzlashtirma gapda oʻzganing fikri yoki gapi shaklan oʻzgarib, mazmunan saqlangani holda hikoya qilib beriladi. Oʻzlashtirma gap koʻchirma gap va avtor gapining aralashtirilib, yoyiq toʻldiruvchili sodda gapga aylangan shaklidir. Oʻzlashtirma gapda avtor gapidagi ega, kesim munosabati saqlansa ham koʻchirma gap birikmali toʻldiruvchiga aylanib koʻchirma gapli qoʻshma gap sodda gap shakliga keltiriladi.

Oʻzganing gapi koʻchirma gap bilan oʻzlashtirma gap oraligʻidagi bir holatda beriladi. Bunda oʻzganing fikri avtor gapisiz koʻchirilgan holda soʻzlovchi (personaj) ishtirok etmasdan bayon qilinadi, yaʼni avtor koʻchirma gapdagi soʻzlovchi sifatida ishtirok etadi. Bunday gaplar oʻziniki boʻlmagan koʻchirma gap hisoblanadi: Sulstonov senga taʼna qiladi-yu, biroq oʻzini oʻylaydi. Ish kam boʻlsa-yu, shuhrat koʻp boʻlsa...mana uning asl maqsadi qayerda (Sh. Rashidov). Bu gapda koʻchirma gapning soʻzlovchisi (Sulstonov) nomidan avtorning oʻzi gapiradi. Uning gapi (ish kam boʻlsa-yu, shuhrat koʻp boʻlsa) hech oʻzgarishsiz semantik, grammatik, leksik xususiyatlari deyarli saqlangan holda keltiriladi. Bu tomondan u koʻchirma gapga oʻxshaydi. Lekin bu gap kimga xos ekanligini koʻrsatuvchi avtor gapining boʻlmasligi bilan koʻchirma gapdan farq qiladi. Avtor gapning toʻla boʻlmasligiga koʻra oʻzlashtirma gapga oʻxshasa ham, gapning grammatik, leksik xususiyatlari maʼlum darajada saqlanganligi bilan undan ajralib turadi. Oʻziniki boʻlmagan koʻchirma gap oʻzlashtirma gap bilan koʻchirma gap oraligʻidagi sintaktik birlikdir. Oʻzga gapning bu turi koʻproq badiiy asarlarda uchraydi.

Oʻzbek tilining shakl va mazmun birligi asosida qurilgan yangi nazariy grammatikasida har qanday gap muayyan sintaktik oʻrin tizimidan iborat deb qaraladi. Shunga muvofiq Ahmad: “Oʻrtogʻim imtihon topshirdi”, – dedi gapida ega va kesim hamda alohida gap (koʻchirma gap) bilan ifodalangan toʻldiruvchi mavjud. Toʻldiruvchi oʻrnini egallagan birlik komponent (predikativ) birlik ekanligiga asoslanib yaxlit gap qoʻshma gap deb baholanadi. Bunda muallif gapi bosh, koʻchirma gap ergashgan gap maqomida boʻladi.

Koʻchirma gapli qoʻshma gapning mazkur va havola boʻlakli turi (Ahmad shunday dedi: – “*Oʻrtogʻim imtihon topshirdi*”)da ham ularning shakliga muvofiq tarzda asosan ikki (yoki undan ortiq) mazmun munosabati (propozitsiya) ifodalanadi. Faqat bunday qoʻshma gapning birinchi turida bu propozitsiyalar biri boshqasi ichiga kirsam ikkinchisida yonma-yon joylashadi. Demak, ikkala holda ham shakl va mazmun muvofiqligi kuzatiladi.

Faqat shakl va mazmuni mos keladigan gaplarni emas, aksincha, ikki propozitsiyadan biri yoʻqolgan gaplarning ham tahlili natijasida oʻta muhim xulosa chiqariladi. Koʻchirma gapli qoʻshma gaplardagi bosh (muallif gapi) va ergash (koʻchirma) gapning oʻzaro munosabati oʻziga xosdir. Bu tur qoʻshma gaplarning shakl va mazmun munosabatini yanada chuqur oʻrganish matn sintaksisi uchun ham ahamiyatlidir.

Mazkur xulosa nuqtayi nazaridan prof. A. B. Abdullayevning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Olimning koʻrsatishicha, fikr mazmuni baʼzan bir gap doirasiga sigʻmay qoladi, sintaktik yaxlitlik va mazmuniy tugallik gapga nisbatan kengroq konstruksiyalar orqali ifodalanadi. Natijada murakkab sintaktik butunlik – gapga nisbatan yangi mazmunga ega boʻlgan sintaktik konstruksiyalar, sintaksisning yangi obyekti yuzaga keladi. Oʻzga gap ham ana shunday konstruksiyalar sirasiga kiradi. Ammo oʻzga gapli butunliklar oʻzbek tilshunosligida hozirgacha yaxlit konstruksiya sifatida oʻrganilganicha yoʻq. Bunday konstruksiyalarni gap doirasida oʻrganish esa bu butun-likning oʻziga xos tomonlarini yoritishga imkon bermaydi. Negaki avtor gapi bilan koʻchirma gap bir-biri bilan aloqador boʻlsa-da, uni qoʻshma gap konstruksiyasi komponentlari oʻrtasidagi munosabat bilan tenglashtirib boʻlmaydi. Koʻchirma gapli konstruksiyaning ayrim turi qoʻshma gapga shaklan oʻxshaydi, ammo ular sintaktik qurilishi, komponentlarining konstruksiya tarkibidagi vazifasi, intonatsion oʻziga xoslik va boshqa bir qator belgilari bilan qoʻshma gaplardan farq qiladi. Koʻchirma gapning toʻliqsiz shakli va oʻzlashtirma formalarning sodda gapga teng kelishi hisobga olinadigan boʻlsa, koʻchirma gapli komponentlarni umuman qoʻshma gaplar doirasiga kiritib boʻlmasligi aniq. Soʻngra masalani yanada ravshanroq yoritish uchun qoʻshma gap bilan koʻchirma gapli konstruksiya oʻrtasidagi oʻxshash va farqli tomonlari alohida tahlil qilinadi.

Ko'p yillik ilmiy kuzatishga asoslanib olim o'zga gapning ifoda shakllarini belgilab uni tasniflaydi. Bunda o'zga gapda bayon qilingan fikr mundariyasi, uning qay darajada berilayotganligi, undagi grammatik shakllarning qo'llanish darajasi, avtor gapi va o'zga gap o'rtasidagi fikriy munosabat kabi belgilar inobatga olinadi. Mazkur belgilar hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zga gapning etti turi mavjudligini ko'rsatadi:

- 1) ko'chirma o'zga gapli konstruksiyalar;
- 2) o'zlashtirma o'zga gapli konstruksiyalar;
- 3) tematik o'zga gapli konstruksiyalar;
- 4) chog'ishtirma o'zga gapli konstruksiyalar;
- 5) bilateral (oraliq) o'zga gapli konstruksiyalar;
- 6) aralash o'zga gapli konstruksiyalar;
- 7) ilova o'zga gapli konstruksiyalar.

Tahlil natijasida ko'chirma gapli konstruksiyalarni alohida sintaktik konstruksiya yoki mustaqil sintaktik kategoriya deb nomlash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelinadi.

Tilshunos D. Abdullayevaning tadqiqotida o'zga gapli qurilmalar semantik-sintaktik valentlik va lisoniy sintaktik qoliplarni ochish asosida tadqiq qilinadi va o'zga gapli qurilmalarning o'ziga o'xshash grammatik kategoriyalar bilan o'xshashlik va farqi o'rganilib shu asosda o'zga gapli qurilmalarning quyidagicha ilmiy ta'rifi beriladi: "O'GQ – bu markazida nutq fe'li (NF) va bu fe'ling obyekt valentligini ochuvchi aktant (W) turgan birlikma (qurilma). Shuning uchun O'GQ boshqa sintaktik qurilmalar singari semantik-sintaktik valentlik va uning nutqiy voqelanishi bilan bog'liq bo'lgan hodisadir". Tadqiqotchi shu asosda o'zga gapning lisoniy qolipini (W + NF = O'GQ) tarzida ifodalaydi.

Ingliz tilida o'zbek tilidan farqli ravishda o'zga gap (another speech) ikki tur, Direct hamda Indirect speech ga bo'lingan holda o'rganiladi. Raymond Murphy o'zining "English grammar in use" kitobida Direct speech (ko'chirma gap) ga "To repeat another's words" ya'ni o'zganing fikrini so'zma-so'z takrorlash hodisasi sifatida ta'rif bersa, Betty Azar "Quoted speech refers to reproducing words exactly as they were originally spoken" ya'ni ko'chirma nutq so'zlarni dastlab aytilganidek takrorlashni anglatadi degan fikrni ilgari suradi. Har ikkala olimning ko'chirma nutq haqidagi qarashlarini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholash mumkin.

Ko'chirma nutq atamasi turli adabiyotlarda turli xil nomlar orqali ifoda etiladi. Jumladan, Raymond Murphy "Direct Speech" birikasini qo'llaydi. Lug'atlarda Direct atamasiga "extending or moving from one place to another without changing direction or stopping" ya'ni bir manzildan boshqa manzilga yo'nalish va to'xtash joyi jihatidan hech qanday o'zgarishsiz harakatlanish deb izoh beriladi. Betty Azar esa kitobida mazkur tushunchani "Quoted speech" atamasi orqali ifodalaydi. Aniqlovchi Quoted "Quot" fe'lidan yasalgan bo'lib (repeat a statement by someone) o'zganing matn yoki nutqdagi (og'zaki yoki yozma) fikrini ko'chirish yoki aynan takrorlash kabi ma'noni ifodalab keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda har ikkala termin ham (Directed va Quoted) ingliz tilida ko'chirma nutq hodisasining asl ma'nosini ochib beryapti degan xulosaga kelish mumkin.

Ingliz tilida Direct speech (Ko'chirma nutq) o'zbek tilidagidek ikki qism, muallif va o'zganing aynan ko'chirib aytilgan nutqidan iborat bo'ladi. Bunda tinish belgilarining, jumladan, qo'shtirnoqning qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu punktuatsion hodisa tilning British English yo'nalishida "Inverted commas" deb nomlanib, u ikki (") yoki bir (') belgili bo'lishi mumkin.

She said, "My brother is a student"

She said, 'My brother is a student'

Vergul tinish belgisining qo'llanishi esa muallif gaping qay tartibda joylashganligiga bog'liq bo'ladi; 1) agarda muallif gapi ko'chirma nutqdan oldingi qismda joylashgan bo'lsa, vergul qo'shtirnoqdan tashqarida, muallif gapidan keyin qo'yiladi; 2) muallif gapi ko'chirma nutqdan keyin turgan bo'lsa vergul tinish belgisi qo'shtirnoq ichida ko'chirma nutqdan keyin qo'yiladi; 3) agarda muallif gap ko'chirma nutq orasida joylashsa, unda ikki tomondan vergul bilan ajratiladi. Ikki qismga bo'lingan ko'chirma nutq esa alohida-alohida qo'shtirnoqlanadi.

1) *She said, "My brother is a student."*

2) *"My brother is a student," she said.*

3) *"My brother," she said, "is a student."*

Ko'chirma nutq ikki va undan ortiq gapdan iborat bo'lganda qo'shtirnoq belgisi dastlabki gap oldidan ochiladi va so'ngi gapdan keyin yopiladi. Mazkur vaziyatda verballashgan ko'chirma fikrga yaxlit matn sifatida qaralganligi bois gaplar alohidalanib qo'shtirnoqqa olinmaydi:

"My brother is a student. He is attending a university", she said.

Betty Azar qo'shtirnoq belgisining qo'yilishi muallif gapining joylashgan o'rni bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Muallif gapi ko'chirma nutq tarzida berilgan matn tarkibidagi ikki gap orasida kelganda, har bir ko'chirma gap alohida qo'shtirnoqlanishi va muallif nutqdan keyin albatta nuqta belgisi qo'yilishi kerakligi urg'ulanadi:

"My brother is a student "she said . "He is attending a university "

Olima fikrida davom etarkan, talab etilayotgan tinish belgisining qo'llanilish o'rni muallif gapi joylashuvidan tashqari ko'chirma nutqning qanday gap turiga mansub ekanligi bilan ham bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi.

- a) *She said, "My parents live in London.*
- b) *"My parents live in London , " she said.*
- c) *She asked, "When will you be here?"*
- d) *"When will you be here ? " she asked*
- e) *She asked "Watch out !"*

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, muallif gapi joylashuv jihatdan ko'chirma nutqdan oldin kelganda ko'chirma nutq gapning ifoda maqsadiga ko'ra qaysi turiga mansub bo'lishidan qat'iy nazar tinish belgilarining qo'llanishida o'zgarish ro'y bermaydi. Vergul muallif gapidan keyin qo'yilsa ko'chirma gap turini ko'rsatuvchi tinish belgi (.), (?), (!) qo'shtirnoq ichida ko'chirma gap oxirida qo'yiladi. Ammo ko'chirma nutq so'roq tarzida ifodalanib , muallif gapidan oldinda tursa, ko'chirma gap va muallif gapi orasidagi (,) tinish belgisi tushirib qoldiriladi. Yuqoridagi (d) misoli bunga yaqqol dalildir.

Yirik olim G'.N.Zikrillayev o'zining "Ruh va til" nomli monografiyasi so'z boshisida umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V.Humboltning til haqidagi qarashlarini keltirib shunday yozadi; " Til 1)mohiyatiga ko'ra ruhiy va aqliy faoliyat, ruhiy quvvat, 2)tuzilishiga ko'ra butunlik, yaxlitlik (sistema) 3) vazifasiga ko'ra ijtimoiy hodisa. Bunda til 1) xalq ruhiy quvvatining ifoda vositasi, 2) unsurlari o'zaro uzviy bog'langan butunlik hamda 3) jamiyat a'zolariga o'zaro muloqot qilish, bir-birini tushinish imkonini beradigan bebaho xilqat ekanligi nazarda tutiladi. Butunlikning qurulishi, ya'ni unsurlarning o'zaro aloqasiga asoslangan tartiboti(tuzilishi) xalqning ruhiy quvvatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Xalqlarning ruhiy quvvati (tafakkur tarzi) har xil bo'lganidan tillarning qurilishi ham bir xil bo'lmaydi." Yuqoridagi fikrlar bitta til doirasidagi gaplarning (ko'chirma gaplarning ham)sintaktik qurilishiga ham tegishlidir. Jumladan, ingliz tili ko'chirma nutqida muallif gapi egasi olmoshi (pronoun) orqali ifodalanib kelganda Subject+verb (ega+kesim) so'z tartibiga amal qilinadi. Bunda muallif gapining o'rni qoida o'zgarishiga olib kelmaydi.

She said, "My brother is a student. "

"My brother is a student, "she said.

"My brother, " she said, "is a student. "

Mazkur holatda olmoshning ot so'z turkumiga almashtirilishi esa so'z tartibining tubdan, ya'ni Verb+subject (kesim+ega) holatiga o'zgarishiga olib keladi. Mazkur holat Humboltning til haqidagi qarashlari naqadar asosli ekanligidan dalolatdir;

"My brother is a student, "said Anna

"My brother, " said Anna, "is a student. "

Kommunikativ maqsad kategoriyasining asosiy ko'rinishidan bo'lmish ko'chirma nutqda muallif gapi kesimi sifatida qo'llanadigan fe'llar ham muhimlik kasb etadi. Bu barcha tillarga xos xususiyat bo'lib, unda fe'llar qo'llanishiga ko'ra aktiv va nisbatan passive turlarga bo'linadi. Jumladan, say va ask fe'llari add, agree, announce, answer, beg, begin, comment, complain, confess, continue, explain, inquire, promise, remark, reply, respond, shout, suggest, whisper larga nisbatan kesimlik vazifasini bajaruvchi aktiv fe'llardir.

"Let's leave, " whispered Dave.

"Please help me, " begged the unfortunate man.

"Well, " Jack began, "it's a long story. "

Xulosa. Qisqacha tahlildan ma'lum bo'ladiki, o'zbek va ingliz tilshunosligida ko'chirma nutq hodisasi o'zining sintaktik, punktuatsion va shu kabi ba'zi bir grammatik jihatlari bilan farqlansa ham kommunikativ, performatsiya va transformatsion tomonidan umumiylikni tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Werlich E.(1979), *A Text Grammar of English, Heidelberg, Quelle & Meyer:17-26.*

2. De Beaugrande R.A., Dressler W.U. (1981), *An Introduction to Text Linguistics*, London & New York, Longman: 1-13 (una sintesi disponibile all'indirizzo: http://www.beaugrande.bizland.com/introduction_to_text_linguistics.htm).
3. Murphy R. *English grammar in use*, Cambridge University Press, 2003.-46-47 p.
4. Betty Azar, *Understanding and using English grammar third edition*, 2002-251p.
5. Zikrillayev G_. *Ruh va til.* –Toshkent: Fan, 2018. – 464 b.
6. Safarov F.S, Jumayev E.B, *O'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalik va matn*, "Durdona" nashriyoti, Buxoro – 2022
7. Umedilloevna S. M. (2019). *Lexical stylistic devices and literary terms of figurative language. International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(3 Special Issue), 231-233. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41817547>
8. Saidova M. U. (2020). *Lexicographic and etymological analysis of the concise oxford dictionary of literary terms* BY. <https://namdu.researchcommons.org/cgi/viewcontent.cgi?article=2723&context=journal>
9. Saidova M. U. (2019). *The structural composition of the literary terms in literary dictionary" literary terms and literary theory"* by ja cuddon. *Международный академический вестник*, (1), 73-76. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36875142>.

SHIFOKOR KASBIY MULOQOTIDA TIBBIY SO'Z VA UNING O'RNI

Yunusova Maftuna Shokirovna,
Buxoro davlat universitetining Pedagogika
instituti stajyor-tadqiqotchi
unusovamaftuna24@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada shifokorning kasbiy faoliyat sharoitida kommunikativ xatti-harakati ko'rib chiqiladi. Tibbiy nutqning o'ziga xos xususiyatlariga katta e'tibor beriladi. Nutq xulq-atvorining eng samarali modellari ochib berilgan. Ta'kidlanishicha, shifokorning nutq mahorati, ayniqsa, og'ir kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan og'ir vaziyatlarda va bu haqda bemor va uning yaqinlarini xabardor qilish zaruratida namoyon bo'ladi. Shifokorning dialogik muloqotni o'rnatish qobiliyati unga har qanday murakkablikdagi kasbiy muammolarni eng samarali hal qilishga imkonini beradi. Tahlil qilingan material aloqa xavfini minimallashtirish va professional aloqa darajasini oshirish usullarini ishlab chiqishga imkon beradi. Ushbu maqolamizda shifokor va bemorning o'zaro muloqotlari va shifokorning nutqiy salohiyati lingvistikasoslar ostida ochib berilgan. Shifokorning diologlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy nutq, nutq xatti-harakati, muloqot qobiliyatlari, aloqa xavfi, bemor bilan muloqot, nutqiy etiket, shifokor nutqi.

МЕДИЦИНСКАЯ РЕЧЬ И ЕЁ РОЛЬ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ
ОБЩЕНИИ ВРАЧА

Аннотация: В статье исследуется коммуникативное поведение врача в условиях профессиональной деятельности. Особое внимание уделяется особенностям медицинской речи. Выявляются наиболее эффективные модели речевого поведения. Отмечено, что речевые навыки врача особенно проявляются в трудных ситуациях, связанных с тяжёлыми заболеваниями и необходимостью сообщить об этом больному и его близким. Способность врача к установлению диалогического общения позволяет ему наиболее эффективно решать профессиональные задачи любой сложности. Проанализированный материал даёт возможность разработать методы минимизации риска общения и повышения уровня профессионального общения. В данной статье в рамках лингвистики раскрываются взаимодействие между врачом и пациентом и речевой потенциал врача. Использовались диалоги врача.

Ключевые слова: медицинская речь, речевое поведение, коммуникативные навыки, коммуникативный риск, общение с пациентами, речевой этикет, профессиональная речь.

THE MEDICAL WORD AND ITS PLACE IN THE PROFESSIONAL COMMUNICATION
OF A DOCTOR

Abstract. The article examines the communicative behavior of a doctor in the conditions of professional activity. Particular attention is paid to the peculiarities of medical speech. The most effective models of speech behavior are revealed. It is noted that the doctor's speech skills are especially manifested in difficult situations associated with serious illnesses and the need to inform the patient and his relatives about this. The doctor's ability to establish dialogic communication allows him to most effectively solve professional problems of any complexity. The analyzed material makes it possible to develop methods for minimizing the risk of communication and increasing the level of professional communication. In this article, within the framework of linguistics, the interaction between the doctor and the patient and the speech potential of the doctor are revealed. Doctor's dialogues were used.

Key words: healing speech, speech behavior, communication skills, communication risk, communication with patients, speech etiquette, professional speech.

Kirish.

Shifokorlik kasbi o'qituvchi, jurnalist, huquqshunoslik kasblari bilan bir qatorda an'anaviy ravishda lingvistik faol kasblardan biridir. Nutq qobiliyatlari universal bo'lib, jamiyat hayotining turli sohalarida talab

katta. Ularsiz siyosatchi, tadbirkor, diplomat, teleboshlovchi, tahlilchi, din arbobi, shuningdek, boshqa soha mutaxassislarining samarali faoliyati mumkin emas, ular uchun soʻz odamlar bilan muloqotning asosiy vositasi va insonga kuchli taʼsir koʻrsatish vositasi hisoblanadi. Ong. Bu, ayniqsa, koʻplab tanish belgilarning keskin oʻzgarishi, qadriyatlarining anʼanaviy koʻlamining sezilarli oʻzgarishi, axborotni qabul qilish va uzatishning koʻplab yangi usullarining paydo boʻlishi bilan tavsiflangan zamonaviy- madaniy va nutqiy vaziyatga toʻgʻri keladi.

Shifokor noyob kasb, uni haqli ravishda insoniy ilm deb atashadi. Bu bizning hayotimiz davomida har birimizga hamroh boʻlgan shifokorlar: neonatologlar va pediatrlar, barcha tibbiyot sohalari va mutaxassisliklari boʻyicha mutaxassislar, gerontologlar va geriatrlar va boshqalar.

Uning oʻziga xosligi misli koʻrilmagan ijtimoiy talabda, eng yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga, tibbiyot xodimlarini tayyorlash darajasini oshirishga va ularning kasbiy harakatchanligini taʼminlashga qaratilayotgan eʼtiborda namoyon boʻladi. Zamonaviy hayot haqiqatlari turli mamlakatlar shifokorlari oʻrtasidagi hamkorlik va turli bilim sohalari mutaxassislarining birgalikdagi faoliyati zarurligini taqozo etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Soʻnggi yillarda tibbiyotning yangi tarmoqlari faol rivojlanmoqda: chegarasiz tibbiyot, tezkor tibbiy yordam, ofatlar tibbiyoti, palliativ tibbiyot, karyomeditsina, IT tibbiyoti, estetik tibbiyot, telemeditsina, tibbiy marketing va boshqa koʻplab sohalar yuqori malakali va malakali mutaxassislar va raqobatbardosh tibbiyot xodimlar tayyorlashni talab qiladi.

Shifokor oʻz nutqini, tilni va bemorlar orqali toʻgʻri muloqotni yaxshi bilish mutaxassisning kasbiy faoliyatga samarali integratsiyalashuviga yordam beradi va uning fuqarolik faolligini belgilaydi. Har qanday kasbiy xavflar malakali nutq amaliyoti va shifokorning kommunikativ tashabbusi orqali mohirona bartaraf etiladi.

Shu munosabat bilan tibbiy nutq til va nutq aloqasi sohasidagi mutaxassislar tomonidan faol oʻrganish mavzusi boʻlib qolmoqda (V.I. Karasik, T.V. Kochetkova, I.A. Ivanchuk, L.S.Beilinson, M.I. Barsukova, V.V.Jura va boshqalar). Oʻzbek tilshunosligida M.Abuzalova, N.Izatullayevna kabi mutaxassislar oʻz ilmiy ishlarida ishlar olib borishgan. Tibbiy nutqni batafsil oʻrganish shifokorning nutq portretini taqdim etishga, bemorga nutq taʼsirining eng samarali usullarini aniqlashga imkon beradi.

“Lingvistik ensiklopedik lugʻat”da diskursning quyidagi taʼrifi berilgan: “Diskurs (fransuzcha discours — nutq) ekstralingvistik, pragmatik, sotsial-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan uygʻunlashgan izchil matn; voqea aspektida olingan matn; Maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq, odamlarning oʻzaro taʼsirida va ularning ongi mexanizmlarida (kognitiv jarayonlar) ishtirok etadigan tarkibiy qism sifatida. Diskurs - bu "hayotga botgan" nutqdir.[1]

And While her utilizing of such elements adds portions to her beautiful view of the village life. Mary Elanour Wilkins Freeman was born in Randolph, Massachusetts on October 31, 1852. She was very experienced and talented story writer of her period. Freeman commenced to write stories and verse for young children when she was in her early ages and became popular soon.. one of her famous works was written between the 1880s and 1890s when she was dwelling in Randolph. Freeman wrote about 24 volumes of different kind of published short stories and novels. She has got two collections of stories, *A Humble Romance and Other Stories* (1887) and *A New England Nun and Other Stories* (1891). Her stories deal mostly with New England life. Freeman is also remembered for her novel *Pembroke* (1894), and she contributed a notable chapter to the collaborative novel entitled *The Whole Family* (1908) "with her diversal genres of works including poems, children's stories, and short stories, Mary Wilkins Freeman determined to reflect her values as a feminist "The Revolt of mother" First published in 1890 in *Harper's Bazaar*, "The Revolt of 'Mother'" then republished the next year, with only some textual changes, in Mary E." [5.4]

Litarature review. Freeman's work has been the subject and object of research for several decades. The author's works became the subject of treatises of a number of critics, including English, American, Russian, Japanese, and Indian. The short story genre occupies a special place in Freeman's work. The writer's stories can be called the golden age of American short stories. Although the author describes a single region and common themes in his stories, Freeman can be considered to be one of the regional writers.

Without doubt it is said that, Freeman as a literary writer was praised and approved by different kind of critics of her time. Such as Mc Elrath who gave praises as "Freeman's construction of "The Revolt of 'Mother'" for the author's deft handling of plot, suspense, and climax. He also put a stress that Freeman's writing style was so plain and simple and full of stylistic colours". Another critic Mary r. Reichardt says "Freeman's fiction, as does Jewett's, often moves beyond simply regional concerns to explore wider issues of women's roles in late nineteenth-century America, thus approaching an early feminist realism.

As it mentioned above Freeman had gained precious norms and style of writing as a story writer. In fact, her writing style was very delicate and precise which had made her readers more satisfied while applying her works. Let's take one more critic's opinion, it is Keith Newlin "Until now there has been no sustained discussion of Freeman's central role in opening the doors of the nation's most prestigious cultural organization to women. She is considered to be the first woman defender against the unfair rules of society in England". Undoubtedly, taking into consideration of those critics opinions about Freeman we can say that she was a deserved figure of freedom towards women rights. Basically, she had a brilliant ability of how to analyze and understand the events happening around her society in new England.[4.56]

Research methodology. It is believed that, among her different kind of short stories "The Revolt of Mother" had a distinctive feature revealing some aspects of realism in literary concepts. In the most works of the writer she tries to depict events which happens in her own city. American realist literature of the 20th century, while being complex and dramatic, is characterized by its richness and variety.

In world literature, a number of works, monographs, and scientific articles were written about the literature of this period. In this season, mainly, controversial opinions of Russian and American critics regarding American realist literature and its mature representatives were analyzed. It should be noted that at the basis of all existing literary trends and methods are the issues of exposing the human, his experiences, and vices in society. American realist literature did not appear out of nowhere, it emerged as a result of a number of literary directions, social struggles, and took a strong place in American literature.

During such kind of controversial society all writers were impressed by social conditions and events occurring during that age.

In fact, we witness that the writer has an unparalleled level of love for humanity. It gives the impression that the qualities of human nature are searched for and depicted in her work. It is emphasized in all works that the source of humanity in her characters is in family, community, nation

On the Earth we can come across different kind of issues which might be represented as women's rights. Such as, discrimination, humiliation, depression, inequality have been the sorrowful peaks among females so far. "The Revolt of Mother" demonstrates essential theses of lightening features of women's life .Freeman intended to illustrate the painful points of her region's community. She mainly tried to reflect the

role of women in family and society. Also, Freeman's short story "The Revolt of Mother" describes the rebellion of rural women and the role they owned in their families. "The Revolt of 'Mother'" was one of the first stories which initiated the debates on the rights of rural woman, and prolonged to urge lots of pieces reflecting discussions about the lack of owning rural woman had over families financial situations, and hoping to enhance the situation of farm families in the early 20th century. In addition, in "The Revolt of 'Mother'" Freeman's focuses mostly deals with the oppression and revolts of women, a theme that concur with other stories written during the same period. The main character Sarah was a symbol of patient and resolute woman who had big ears only for hearing and agreeing. She was sentences to perform what she was told. While another main character Adoniram reflected as "father" in the story was very steady and reserved. His mind was blocked with ideas as women had no right except for doing house-works. Freeman represents Sarah Penn as a New England ordinary farm woman, who long get used to obeying her husband and who accepts the fretful character of men. As it is stated in story the limit of patience had reached to its peak when her husband Adoniram intends and constructs a new, spacious barn on the very spot where he had for decades promised to build her a new house. And Sarah with her girl Nanny Pen who was going to be married were look forwarding to see the real carry of that promise. One of the main character in the short story was Sammy. Through his way of behaving, it is not difficult to realize that men had superior rights compared to women of that period. It is obvious from the situational part of story. When Sammy came to home Sarah Pen his mother told about the new barn which was being built by the order of his father. However, at that time Sammy did not paid much focus on the words of his mother. This was because of the fact that, he already had known about it. Actually Sammy was also a man and it means that he had the priority of knowing and discussing all events happening in their family. The story reveals such dishonest issues till the end. To conclude the story one can assume that there were real bad conditions and full of unfair situations in that community.

Analysis and results: Life in the 20th century was not easy and smooth in America, despite the times full of contradictions, many difficulties and losses, representatives of literature continued without deviating from the path they chose. The national literature expressed the creative activity of nation, the history of its struggles towards a new society, and the spirit of the new age in general. The literature of this period did not actively reflect various issues of life, but expressed its opinion about it. Not a single important event of multifaceted life has not found its artistic expression in our literature.

Absolutely, during all periods of time the role and reputation of women's had been in different rank regarding the region and cultural features. The gender roles were obviously distinctive during twenties century in America. As an illustration of this we can take the story of "the Revolt of Mother" by Wilkins Freeman. "The Revolt of 'Mother'" this short story by American author Mary E. Wilkins Freeman was first published in 1890. Considered by many to be a pre-feminist work, the short story reveals several multiple themes of the agony of women domestic rebellion, self-confidence, and tradition in a male-dominated society. The author worked creatively in a period full of complex socio-political changes and tested his artistic skills in various genres and styles.

It is known that in the second half of the 20th century, the prevailing realistic views began to move from the social-historical sphere to the spiritual-spiritual form. In their works, the novelists deeply studied the human, his inner feelings, social evils in the improvement or decline of the individual. During this period in the United States, although the development was much advanced, mutual relations in the society took place at the bottom. Writers realized the mirage of the "American Dream" and described their disappointment in their works. Let's analyze clear, main ideas of the short story by giving examples from the work.

"Look here, father, I want to know what them men are digging over in the field for, and I am going to know".

"I wish you would go into the house mother, and tend to your own affairs", the old men said then.

"Why, mother, I hadn't no idea you was so set on't as all this comes to." [3.8]

From the reflected passage one can predict that this family has got its own rules such as not involving women's while you are going to plan something. We can assert that it is not the common case for only one family, but also it illustrates the whole American society and its periodical appearance. The beginning of the twentieth century of American literature aimed to incline the real conditional, traditions and issues of its era. With other pen writers freeman was also the real and regional reflector of her own time. As a writer she was very popular for depicting factual and controversial problems of her small town. "The revolt of mother" can be regarded as proof teller of American society.

Throughout the story, Sarah has tried to explain her feelings, However, Adoniram is not accustomed to listening to his wife. One of most essential roles of Sarah is in addition to cooking her husband's...

"Sarah Penn's face as she rolled her pies had that expression of meek vigor which might have characterized one of the new Testament saints. She was making mince-pies. Her husband Adoniram Penn, liked them better than any other kind. She baked twice a week. Adoniram often liked a piece of pie between meals". [3.8]

We can observe the pressure and disrespect of men towards women by the words and behavior of the character of Adoniram. Because as we read the short story, we can catch these meanings. Adoniram the husband of Sarah takes care of much more about himself and his personal desires and owns. He will pass most of his time in the barns, therefore he preferred a new place for himself before a new house for his wife and family. It is obvious that during that time men believed their intentions are more essential compared to desires of women. Adoniram's feeling of power over Sarah is obvious when he rejects to answer her questions about the barn he has ordered to build. He seems to think he is in some way better than she, for she was just an obedient women who was created to do nothing but house chores. While portraying a main character decisive on receiving fair treatment from her husband, both for herself and her family, Freeman conveys women's lack of power. At the same time, she puts forth one way to get around such inequality. During analyzing this short story we can come across lots of different painful topics of that period. The following extract from passage is also one of them.

A boy stood before the kitchen glass combing his hair. He combed slowly and painstakingly, arranging his brown hair in a smooth hillock over his forehead. He did not seem to pay any attention to her conversation.

"Sammy, did you know father was going to build a new barn?"

Asked the girl.

The boy combed assiduously,

Sammy!"

He turned and showed a face like his father's under his smooth crest of hair. "Yes, I suppose I did" he said, reluctantly,

How long have you known it?" asked his mother.

"About three months I guess"

"why did not you tell of it?[6:3]

As it illustrated above this passage can be considered the real example of another concept from this story. Sarah Pens' son Sammy was aware of everything that his father Adoniram was going to do. This is because of the fact that as Sammy was one of men he had the right and prerogative of everything for him. He was regarded as important and high ranked man. If we look through this passage we can see how Sammy was inattentive towards her mother's inquires. It means that this case is very casual for that periods human beings of social community. Sarah Pen has been illustrated as if she could know something by asking some questions from her son. If we look and read thoroughly, we can come to the idea that Sarah is not nervous and amazed from her son's awareness. It can make sense that Sarah and her girl had been accustomed to such kind of conditions. Though Sammy is described as lazy or irresponsible boy he was not actually like that. What made him like this is the period's stereotypical issues. From this passage the reader can get inclinations that even Sammy the "father's" son knows everything that is being happening in their life.

Conclusion. In short, realistic literature of the 20th century is distinguished by its diversity and truthfulness in the depiction of real life. The mature figures of the time created works filled with feelings of humanity, humanity, patriotism, and sympathy for the fate of the homeland and left their names forever in the world literature.

Mary Eleanor Wilkins Freeman was very famous for and notable writer of her time. What made her such a popular writer is that her short stories. As we mentioned above Freeman tried to illustrate, write about happenings of her city all the time. Through those stories Mary wanted to make apparent the untrustworthy conditions happening in her own regional society. Because she was one of the writers who was encouraged to write all her periodical events. Freeman really could reflect and present the real appearance of her time social community. By "The Revolt of Mother" she had aimed to describe and make known how women were behaved in that severe community of new England. As she was a great, skillful colorist writer, most of her short stories reserved for depicting general social conditions of her region. The obvious illustration of opinions that can be concluded is this short story by Wilkins Freeman is considered the clear reflection of living condition of people in America during XX century. As I stressed above, Freeman's all short stories

LITERARY CRITICISM

were the demonstrative examples of the society that existed in certain period of time in certain place. Through reading “The Revolt of Mother” one can easily discover humiliated rights of females of that time. One of The most clear reasons of why writer wanted to present these types of short stories is that she merely purposed to illuminate bad conditions of her age to the next generation. This story is the real proof of the idea that as the result of male-centered family rules, the women were devoid of their fair rights during the whole time of their dwellings. And it is obvious from this thesis’s analysis that, the women were such kind of human beings that who were oppressed to do their daily chores and that all. “The Revolt of mother” is an exact writing that can be the testimony of role issues of the women of historical period of time.

REFERENCES:

1. <https://americanliterature.com/author/mary-e-wilkins-freeman/short-story/the-revolt-of-mother>.
2. Edward Albert *History of English Literature Oxford University Press- 1979, p-457.*
3. “*The Revolt of Mother*” *Mary Wilkins Freeman Dover Thrift Editions, II volume, 1865-1900-p 3-8.*
4. *The Dover Anthology of American Literature, Volume I: From the Origins Through, p-56.*
5. “*The Revolt of Mother and other stories*” *Kessinger Legacy Reprints p-4.*
6. <https://www.supersummary.com/the-revolt-of-mother/summary/>.*The Herzstein Library.*

UO‘K: 82-311.2

XX ASR AMERIKA ADABIYOTIDA ROMAN JANRI TADRIJI

Tilakova Zarnigor To‘lqin qizi,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti
zarnigor@mail.ru

Annotasiya: Maqolada XX asr Amerika adabiyotida roman janrining rivoj topishi, taraqqiyoti hamda uning rivojida yuksak hissa qo‘shgan mualliflar ijodi haqida so‘z borgan. Realizm, naturalizm hamda modernizm adabiy oqimlari ustuvorlik qilgan. XX asr AQSH adabiyotida romanlarning poetik jihatlari nazariy tadqiqotlar misolida yoritilgan. XX asr Amerika romanchiligi murakkab jarayonni boshidan kechirdi. Amerika adabiyotida kechgan iqtisodiy o‘zgarishlar nafaqat turli adabiy oqimlar vujudga kelishiga, balki nasriy turning yirik janri romanning ham yanada rivojlanishiga olib keldi.

Kalit so‘zlar: realizm, modernizm, psixologik realizm, roman, inson, jamiyat, adib, ong oqimi, ichki monolog.

РАЗВИТИЕ ЖАНРА РОМАНА В АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА

Аннотация: В статье рассказывается о тенденциях и развитии романа в американской литературе XX века, а также о творчестве авторов, внёсших значительный вклад в его развитие. В литературе США XX века, где преобладали литературные течения реализма, натурализма и модернизма, поэтические аспекты романов освещаются на примере теоретических исследований. Американский роман прошёл через сложный процесс. Последние экономические изменения в американской литературе привели к возникновению различных литературных течений и дальнейшему развитию романа определённого типа.

Ключевые слова: реализм, модернизм, психологический реализм, роман, человек, общество, писатель, поток сознания, внутренний монолог.

DEVELOPMENT OF THE NOVEL IN AMERICAN LITERATURE OF THE XX CENTURY

Annotation: The article tells about the development of the novel in American literature of the 20th century and the work of authors who have made a significant contribution to its development. In the literature of United States of the 20th century, where the literary trends of realism, naturalism and modernism prevailed, the poetic aspects of novels are highlighted by the example of theoretical studies. Poetic aspects of novels in 20th century American literature are covered by the example of theoretical studies. The American novel of the 20th century went through a complicated process. The recent economic changes in American literature led not only to the emergence of various literary movements, but also to the further development of the novel, a large prose genre.

Key words: realism, modernism, psychological realism, novel, person, society, writer, stream of consciousness, internal monologue.

Kirish. Ma'lumki, Amerika adabiyoti jahon adabiyotlari ichida eng yoshlaridan biri hisoblansa-da, uning o'ziga xos bir qator xususiyatlari mavjud. Mazkur adabiyotda realizm, naturalizm, romantizm singari qator yo'nalishlar bo'lib, ularning Amerika adabiyotida o'z tutgan o'rni bor. XX asrning 20-30- yillari, ayniqsa, Amerika tanqidiy adabiyotida "ikkinchi adabiy uyg'onish davri" deb talqin etiladi [3; 4]. Bu davr adabiyotida Amerika haqqoniyatining fojiasini anglash oshdi va chuqurlashdi. Teodor Drayzerning "Ernita", Dos Passos qissalari, Ernest Xemingueyning "Farewell to Arms" ("Alvido, qurol!") kabi romanlari adabiyotda 30 - yillarning hukmron asarlariga aylandi va ular yangi motiv hamda an'analarni namoyon etdi. Amerika fojiasi haqida butun dunyoga so'zlab bergan adabiyotning 20-yillaridan keyin xalq qalbidan g'azab uchqunlarini ifodalagan 30-yillar dunyoga keldi.

1929-yildagi jahon iqtisodiy tanazzuli Amerika iqtisodida ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. O'sha davrda 12,5 milliondan ortiq ishsizlar bo'lib, mamlakat juda kuchli qiyinchilikni boshdan kechiradi. Bu davrda adabiyotda ham turli adabiy yo'nalishlar vujudga kela boshladi. Bir qator yozuvchilar oddiy ishchilar hayoti haqida ijod qilishgan bo'lsa, boshqalar tub aholining achchiq taqdirini adabiyotga olib kirishdi.

Bunday yozuvchilar safiga Irving Bebbit, Pol Elmer Mor va T.S.Eliotlarni qo'shish mumkin. Dastlabki o'n yillikda hukmron bo'lgan naturalizm g'oyalariga qarama-qarshi tarzda ularning qahramonlari mavjud jamiyat va davrga qarshi tura oldi. Ular har qanday mavzu ham insoniy g'oyadan yuqori bo'lolmasligini ilgari surishdi.

Bu yangi insonparvar yo'nalish adabiyotda iliq kutib olinmadi, albatta. Ba'zi tanqidchilar qoralashdan nariga o'tishmayotgan bo'lishsa, ba'zilarining ijobiy tomonlarini ham ko'rishdi. Dastlabki namoyondalar bu - Ezra Paund va T.S. Eliotlar edi. Ular burjua olami tanazzulidan chiqish yo'lini topishga urindilar, ammo urinishlarning bari befoyda edi. "Yangi gumanist"lar Ezra Paund va Eliotlarning faoliyati samarasiz edi, ular jamiyatdagi oliyjanob sanalgan tabaqa vakillariga o'z fikrlarini, g'oyalarini singdira olishmadi [3; 272]. Ammo ularning bu harakati keyinchalik vujudga kelgan 30-yillar tanqidiy realizmi va 20-yillar realistik adabiyoti rivojida juda katta ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Xalq ommasi oshishining Amerika adabiyotiga ta'siri juda sermahsul kechdi - Teodor Drayzer, Ernest Xeminguey, Jon Steynbek, Sinkler Lyuis, Erskin Kolduell, Lengston Xyuz, Tomas Vulflar butun jahonga mashhur asarlar yaratdilar.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Amerika adabiyotida kechgan iqtisodiy o'zgarishlar nafaqat turli adabiy oqimlar vujudga kelishiga, balki nasriy turning yirik janri romanning ham yanada rivojlanishiga olib keldi. U mamlakatning nafaqat buguni yoki o'tmishi, balki ertasini ham belgilab beradigan omilga aylandi. Amerika romani milliy adabiyotning kuchi va saviyasini namoyon etuvchi omilga aylandi, millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etdi.

Roman uchinchi qatlamga mansub kishilar didiga muvofiq dunyoga kelgan va oldin shakllangan "yuksak poeziya" namunalaridan keskin farq qiladigan janr bo'lgani uchun juda uzoq vaqt davomida adabiyot nazariyotchilarining e'tiboridan chetda qolib keldi. Deyarli yetti yuz yil mobaynida romanga xos belgilar ilmiy jihatdan tadqiq qilinmadi. Bu boradagi ilk nazariy qarashlar romanchilarning o'zlari tomonidan bildirildi. Faqat XIX asrga kelib, Gegel roman nazariyasiga qo'l urdi. Aynan nazariy qolipning yo'qligi romanning xilma-xil sinkretik va qirg'oqsiz janr bo'lishiga olib keldi. Nazariy cheklovlarning kamligi sababli roman yetakchi adabiy janrga aylandi. Ibtidoda insonning individual xususiyatlari, ruhiyat jilvalari tasviriga e'tibor qaratilgani bois, Belinskiy romanni "individning eposi" deb atagan. Ko'rinadiki, roman alohida shaxslarning ichki dunyosini badiiy idrok etish va izohlash yo'sini sifatida yuzaga kelgan.

Adabiyotshunos T. Boboyev o'zbek adabiyotshunosligi xususida g'oyatda muhim fikrlarni bildiradi. Uning fikricha, mazkur davr adabiyoti hayot hamda inson orasidagi munosbatning tasviriga kengroq e'tibor qaratdi, qahramonlarning qalb tug'yonlari, ichki kechinmalari chizgilariga ko'proq diqqat qaratildi. Davr romannavislari, asosan, xarakter va sharoitning o'zaro ta'sirini chuqur aks ettirish an'analari bilan uyg'un tendensiyalarga sodiq holda ijod qilishdi. Zabardast nosirlar Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Pirmqul Qodirov romanlari davr, muhit, sharoit, inson hamda jamiyat munozabatlarida ziddiyatli vaziyatlar, inson omili, taqdiri singari dolzarb mavzularda qalam tebratishdi.

Abdulla Qahhor ijodi haqida so'z ketganda, tabiiyki, uning romanlari xususida fikr bildirish joiz, deb o'ylaymiz. Chunki adibning XX asr o'zbek romanchiligi rivojida hissasi beqiyos. Romannavis asarlarida turli taqdirga ro'para bo'lgan insonlar qismati, davr mafkurasining salbiy illatlari, jamiyat va tuzum illatlari kabi aktual masalalar yoritiladi. Adabiyotshunos H.Umurov realizm, realist ijodkorlar haqida fikr bildirib, diqqatga molik g'oyani ilgari suradi. Uning ta'kidlashicha, realist-san'atkor o'z asarida hayotning muayyan bir ko'rinishini tasvirlash orqali kitobxonda umuman hayot haqida, odamlar haqida mushohada uyg'otadi. Shakl g'oyani singdirgani kabi, muallif aytmoqchi bo'lgan fikrini, g'oyasini, falsafasini asardagi qahramonlarga, asar ruhiga singdirib yuboradi. Abdulla Qahhor ijodida adabiyotshunos bildirgan fikrlarning isbotini ko'ramiz. Yozuvchi real hayot tasvirida haqqoniy yondashuv sari bordi. Dilidagi gaplarini ochiqdan ochiq ayta olmagan sababli, qahramonlar tasvirida ularning dialog hamda monologlari, xatti-harakatlari, imo-ishora hamda mimika-yu jestlari yordamida ifodaladi. Adib o'z oldiga qo'ygan badiiy niyatini shu tariqa amalga oshirdi.

Roman o'zining tarixi mobaynida qahramonlarni tasvirlash yo'sini hamda inson shaxsiga yondashuv maromiga ko'ra asosan ochiq yoki ekstensiv va yopiq yoxud intensiv singari ikki turga bo'lindi. Servantesning mashhur "Don Kixot"idan boshlangan ochiq romanlarda tasvirlanayotgan obrazlarning taqdiri, hatti-harakatlari, faoliyati ijtimoiy turmush bilan aloqadorlikda, hayotiy determinizmga muvofiq sabab-oqibat bog'liqligida tasvir etiladi. Ochiq romanlarda odamga asosan ijtimoiy mavjudot deb qaralib, uning taqdirida jamiyat tartiblari, ijtimoiy asoslar hal qiluvchi mavqe'da bo'lishi ko'rsatilgan.

Fransuz adibi M. M. de Lafayetning "Malika Klevskaya" asaridan boshlab, alohida bir odamning o'y-kechinmalari chuqur ko'rsatiladigan, tasvir fokusi qahramon shaxsiyatining ichki jihatlarini aks ettirishga qaratilgan yopiq romanlar yaratila boshlandi. Yopiq, ya'ni, personajlarning tabiati va hatti-harakatlarini

to'lig'icha ijtimoiy tartiblarning mahsuli sifatida tasvirlamagan romanlarda asosiy e'tibor inson ruhiyati tovlanishlarini ko'rsatishga qaratilgan. Vaqti kelib, inson ruhiyatining o'zi olami kabi ekanligi anglab yetilib, uni badiiy aks ettirish usullari egallangach, birvarakayiga ochiqlik va yopiqlik xususiyatlariga ega bo'lgan romanlar yaratila boshlandi. Odam ichki dunyosi, ruhiyati va o'ylarining ham ijtimoiy, ham psixo-fiziologik asoslarini badiiy tasvirlash muhim bo'lganidan bu ikki xususiyatning aralash qo'llanishi keng yoyildi.

Natijalar va tahlil. Roman janriga xos belgilarni tayin etish borasida o'zbek adabiyotshunosligida ham ancha ishlar qilingan. Agar dastlabki tadqiqotlarda hajmning kattaligi va mavzu janrining asosiy belgilari sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik romanning mohiyati o'zga unsurlardan ham qidirila boshlandi. Chunonchi, adabiyotshunos professor Dilmurod Quronov: "...Roman muallifi uchun qahramon vosita – dunyoni anglash (bunisi maqsad) vositasi, qissanavis uchun qahramonning o'zi maqsad (voqea-hodisalar vosita), hikoyanavis uchun voqeaning o'zi maqsad bo'lib qoladi" [8; 258]. Olimning roman dunyo-yu davrni bilish maqsadida yaratiladi va uning qahramoni ana shu jarayonning vositasi degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki yuqorida keltirilgan dalillar roman dunyoni emas, balki aynan shaxsni anglash maqsadida yuzaga kelganini ko'rsatadi. Badiiy adabiyot tarixida XX asr romanlari o'zgacha shakl hamda mazmun kasb etdi. Davr ijodkorlari o'z nuqtayi nazarlari, maqsad hamda intilishlarini ijod namunalarida tasvirlar ekanlar, unga chuqurroq yondashishga, qahramon ichki olamini teranroq tasvirlash orqali, inson ruhiyati, uning sarhadsiz chegaralarini taftish hamda tadqiq qilish orqali erishishga urindilar. Buning natijasi o'laroq, adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm, ong oqimi hamda ichki monolog singari qator terminlar kirib keldi. Mualliflar qahramon ichki olami talqinida badiiy psixologizمنىing turli shakllaridan unumli foydalansihdi hamda prinsiplariga tayangan holda ish tutishdi.

Amerika adabiyotida Teodor Drayzer o'zining "Baxtiqaro Kerri", "Jenni Gerxardt" romanlari hamda "Amerika fojiasi" roman-trilogiyasi bilan XX asrni ochib berdi. So'ng Jek London, Ernest Xeminguey kabi bir qator atoqli yozuvchilar roman janrining rivojida beqiyos hissa qo'shdilar.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Amerika adabiyotini hayotga yaqinlashtirishda ma'lum xizmat qilganlardan biri romannavis va tanqidchi Uilyam Xouellsdir. (1837-1920). U adabiyotda sun'iylik va shartlilikka qarshi chiqib «nozik realist»larning favqulodda, alohida voqealarni tasvirlashga javoban kundalik hayotda uchraydigan oddiy hodisalarni real ko'rsatishga chaqirdi. Shu bilan birga, Xouells 70- yillardagi asarlarida Amerika taraqqiyoti va hayotining o'ziga xos qirralarini ochib berishga urinadi. Yozuvchining «Anna Kilberri» (1889), «Altruriyalik sayohatchi» (1894) romanlarida buning isbotini ko'rishimiz mumkin.

Amerika adabiyotida G.Stayn hamda T.Eliot boshlab bergan an'analar nafaqat she'riyatda, balki nasrda ham davom etdi. Tasvirda majoziylik, assotsiativ tahlil, so'z o'yini kabi badiiy usullar roman janrida modernizm yo'nalishini boshlab berdi. Nasrda modernizmi boshlab bergan irland yozuvchisi J.Joysdan Amerika adabiyoti namoyandalari Dos Passos, Ernest Heminguey, F. Skot Fitsjerald hamda Uilyam Folkner singari adiblar ilhomlanib, mazkur an'analarni o'z ijod namunalarida davom ettirishdi. Jon Dos Passosning ijodida Jeyms Joysning ta'siri bevosita kuzatilmaydi, ammo ta'kidlash joizki, muallif romanlari o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi [5; 32]. Dos Passos ijodi davomida qator diqqatga molik romanlar yaratdi, ularning sirasiga "One Man's Initiation" (1917), "Three Soldiers" (1921) hamda eng muvaffaqiyatli asari "Manhattan Transfer" (1925)ni kiritish mumkin.

"Three Soldiers" ("Uch askar") romani an'anaviy usulda yozilgan roman bo'lib, unda kitobxon uch qahramonning sarguzashtlarini qiziqish bilan kuzatadi, muallif tasvirda ham me'yorni saqlashga uringani seziladi. Dos Passos insoniyatga hamdardligi, urushning salbiy oqibatlariga munosabati romanlarida yaqqol aks ettiriladi. Mazkur asarda sarlavhadan uch qahramon taqdiri hikoyasi namoyon bo'lsa, "Manhattan Transfer" ("Manhetten safari") romanida bir qator markaziy qahramonlar qismati yoritiladi. Asosan sakkizta personaj ustunlik qilsa, qolgan oltita yordamchi qahramonlar taqdiri tasviri ham ularning hikoyasiga ulanib ketadi. Garchi mazkur ijod namunasida Jeyms Joys ijodining ta'siri sezilsa ham, aynan uning asarlarining aynan andozasi deb bo'lmaydi. Ushbu romanda turli uslublar uyg'unligi namoyon bo'ladi, garchi voqealar bir ortga, bir ilgarilab ketsa ham, asosan romandagi badiiy zamon 1920-yillar tasviridan iborat. Asarda qisman rivoya ketsa, qisman Teodor Drayzer uslubiga monand naturalistik tasvir, ba'zida impressionizمنىing ta'siri kuzatiladi.

Dos Passos ijodida "The 42nd Parallel" (1930), "1919" (1932), "The Big Money" (1936) romanlaridan iborat "U.S.A" trilogiyasi o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu asar Amerika hayotini 1905-yildan tortib, 1935-yilgacha davom etgan davrini aks ettirib, unda ko'plab haqiqiy tarixiy qahramonlar taqdiri hikoya qilinadi.

Amerika adabiyotida XX asr birinchi yarim yilligi davomida roman janri takomili yuqori nuqtalarga yetdi, realistik, naturalistik, psixologik, modernistik uslubda qator asarlar yaratildi. Har bir roman millat adabiyoti boyishiga xizmat qilishi bilan birga, jahon adabiyotida ham o'chmas iz qoldirdi. Ernest Heminguey

romanlari ham o'ziga xos shakl va mazmun kasb etdi. "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti vakili sifatida muallif romanlarida yangi nafas ufurib turdi. "The Sun Also Rises" va "A Farewell to Arms" adibning eng mashhurlik keltirgan romanlari bo'lib, har ikkala asarning o'ziga xos uslubini qahramonlarda ulug'langan mardonavor matonat xislati tasvirida ko'rish mumkin. XX asr o'zbek romanchiligi ham Amerika romanchiligi kabi jadal rivojlanish yo'lidan bordi. Garchi davrdagi hukmron tuzum barcha yozuvchilarga ularni qiynagan muammolarni baralla ifodalashga izn bermagan bo'lsa ham, ijodkorlar qalblarini o'rtagan masalalarni turli yondashuvlar asosida ifodalashdi. Abdulla "Qahorning "Sinchalak", "Qo'shchinor chiroqlari", Asqad Muxtorning "Chinor", "Opa-singillar", Oybekning "Oltin vodiyan shabadalar", Shuhratning "Oltin zanglamas", "Jannat qidirganlar", Pirimqul Qodirovning "Qora ko'zlar", "Uch ildiz", Odil Yoqubovning "Diyonat", "Oq qushlar, oppoq qushlar" ko'plab romanlar fikrimizning isboti bo'la oladi. Mazkur yozuvchilar asarlarida davrning ijtimoiy masalalari misolida, ularga o'zlarining munosabatlarini ifodalashdi, shuningdek, oila, do'stlik, Vatan, tug'ilib o'sgan yurtiga hurmat, azaliy an'analarga sodiqlik, insonlararo munosabatlarda samimiylik, vijdon, poklik kabir ko'plab ma'naviyatni yuksaltiruvchi mavzularni yoritishdi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr Amerika hamda o'zbek romanchiligi tezkor taraqqiyot yo'lidan bordi hamda turfa romanlar dunyo yuzini ko'rdi, ular millat romanchiligi taraqqiyotiga olib keldi.

O'zbek adabiyotida ham Amerika adabiyotida bo'lganidek, roman janri turli adabiy ta'sirlar natijasida o'zida turfa tendensiyalar rivojini aks ettirdi. XX asr o'zbek adabiyoti ham turli adabiy oqimlar evolyutsiyasi givohi bo'ldi, turli adabiy janrlar kirib keldi hamda taraqqiy etdi. Millat adabiyoti vakillari jahon adabiyoti durdonalaridan ta'sirlanib, har xil yo'nalishda o'zlarini sinashdi va betakror asarlar yaratishdi. Jumladan, professor Naim Karimov davr adabiyoti, xususan XX asr o'zbek milliy adabiyoti haqida quyidagicha fikr bildiradi: *"XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug' asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko'p qon to'kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro'y bergan bo'lmasin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi.... Bu asrda sodir bo'lgan barcha voqealar insoniyat tarixining ajralmas tarkibi ... XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o'rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo'lmagan. XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o'z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayan yutuqlarga erishdi"*. Bu davrda o'zbek adabiyotida voqelikni real tasvirlash, jamiyat hayotini boricha aks ettirish taraqqiy etdiki, bu bilan inson va jamiyat orasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ijtimoiy muammolarga yechim topish, avlodni ezgulik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik ruhida tarbiyalash hamda kamol toptirish, shuningdek, estetik zavq ulashishni maqsad qildi. Eng ahamiyatlisi, XX asr boshida ijod ahli jahon adabiyoti vakillari asarlaridan ilhomlanib, realistik ruhda hikoya, qissa va romanlar, she'riy va drama asarlari yaratishdi, bu namunalar dunyoda hukmron adabiy tendensiyalarni davom ettirdi. Bu bilan aytish mumkinki, XX asr boshida o'zbek adabiyoti realizm yo'nalishida bo'ldi, modernistik ruh ustuvorlik qildi. Mazkur davrning atoqli vakillari sirasiga Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom kabi bir qator buyuk shoir va yozuvchilarni kiritish mumkin. Ular o'z ijodiy izlanishlari va mehnatlari sababli o'zbek adabiyotini jahon adabiyotining tarkibiy qismiga aylantirishdi. XX asr boshi o'zbek nasri haqida so'z ketganda, Fitratning "Munozara" asari xususida to'xtalish joiz, chunki jadid nasrini boshlab bergan muallif sifatida bu davr rivojida Fitratning o'rni va roli beqiyos. Keyinchalik bu an'analar Cho'lpon, Mirmuhsin Shermuhammedov, Hamza, Mo'minjon Muhammadjon o'g'li (Toshqin) va qator ijodkorlar asarlarida davom etdi, ular davr hayotining mudhish manzaralarini tasvirlashdi, xalqqa milliy taraqqiyot yo'llarini ko'rsatishga harakat qilishdi. O'zbek adabiyotida ilk qissa, hikoya, ocherk hamda esse kabi janrlarda namunalar vujudga keldi, shuningdek, zamonaviy o'zbek adabiy tili shakllana bordi. Mazkur davr adiblari deyarli barcha nasriy janrlarni o'zbek adabiyotiga olib kirishga urinishdi, davr asarlari buning isboti bo'la oladi, bu bilan milliy uyg'onish davri g'oyalarni xalq ommasiga singdirish maqsad qilindi. Jadid yozuvchilari tufayli o'zbek adabiyotining xalq hayoti bilan aloqasi mislsiz darajada mustahkamlandi, g'oyaviy va estetik ta'sir kuchi oshdi. Bu adabiyot yangi avlodni shakllantirishga qaratilgan, hukmron muhit ta'siridan xalqni olib chiqish, komillik sari odimlash, ommani XX asr g'oyalari singdirilgan jamiyat sari yetaklashni maqsad qildi. Haqiqatan ham, roman janri millat hayotining har bir kunini nazardan chetda qoldirmadi, o'tmishidan saboq olishga, bugunidan xulosa chiqarishga harakat qildi, real hayot muammolarini o'rta olib chiqib, ularni taftish va tahlil qildi, shu boisdan ham, ularda xalqning dardi, hasrati, boshidan kechirgan tizginsiz mushkulotlari o'z talqinini topdi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr Amerika romanchiligi tezkor taraqqiyot yo'lidan bordi hamda turfa romanlar dunyo yuzini ko'rdi, ular millat romanchiligi taraqqiyotiga olib keldi. Mazkur davr romanlari o'zining tematik jihatdan turli xil yondashuvga asoslangani bilan keng kitobxonlar orasida ommalashdi.

Uilyam Folkner, Ernest Xeminguey singari ko'plab amerikalik adiblar millat romanchiligi rivojida beqiyos hissa qo'shishdi.

ADABIYOTLAR:

1. *Adabiy turlar va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). Birinchi jild.* - T.: Fan, 1991. - B.302.
2. *Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish asoslari* - T.: O'zbekiston, 2002. - B.31.
3. *Засурский Я.Н. Американская литература XX века.* - М.: МГУ, 1984. С.4.
4. *Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi.* – T.: O'qituvchi, 1999. - B.25.
5. *Lathbury R. American Modernism. (1910-1945)* – N.Y.: Facts on File, 2006. – P. 32.
6. *Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti.* – T.: Yangi asr avlodi, 2005. - B.3.
7. *Umurov H. Badiiy ijod asoslari.* - T.: O'zbekiston, 2001. - B.101.
8. *Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati.* – T.: Akademnashr, 2013. – B. 126.

UO'K: 808.5.

ZAMONAVIY O'ZBEK NASRIDA XALQ MAYDON KULGISI IFODALARI

Xaitov Xamza Axmadovich,

*Buxoro davlat pedagogika instituti, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Maqolada xalq maydon kulgisining paydo bo'lish omillari va taraqqiyot tamoyillari va kulgi san'atining badiiy adabiyotga kirib kelish masalasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodining lof, latifa, askiya kabi janrlarining badiiy asar taraqqiyotidagi analitik ta'sirlari o'zbek nasri namunalaridan aniq misollarni tahlil qilish orqali asoslanadi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotida xalq maydon kulgisining o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligi dunyo adabiyotshunoslari va o'zbek adabiyoti bilimdonlarining nazariy fikrlari va ilmiy tahlillar orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: xalq kulgisi, universal, samimiy tafakkur shakli, ijtimoiy hayot, shaxsiy va xususiy tipik hodisalar, salbiylik, murojaat qilish, kulgili bo'lish, tarix va uning vakillari, odamlar, shohlar, sarkardalar, qahramonlar, kulgili soha, tor va o'ziga xoslik.

ВЫРАЖЕНИЯ НАРОДНОГО СМЕХА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ

Аннотация: В статье научно и теоретически анализируются факторы возникновения народного смеха и принципы его развития, а также вопрос внедрения искусства смеха в художественную литературу. В исследовании на основе анализа конкретных примеров узбекской прозы проводится аналитическое влияние таких жанров фольклора, как лоф, латифа, аския в развитии художественных произведений. Тот факт, что место и значение народного танца в развитии современной узбекской литературы несопоставимы, основан на теоретических взглядах и научных анализах мировых литературоведов и узбекских литературоведов.

Ключевые слова: народный смех, общечеловеческий, искренний образ мышления, общественная жизнь, личные и частные типичные события, негативность, привлекательность, смешность, история и ее представители, народ, короли, полководцы, герои, сфера смешного, узость и оригинальность.

EXPRESSIONS OF PUBLIC LAUGHTER IN MODERN UZBEK PROSE

Annotation: In the article, the factors of the emergence of folk laughter and the principles of its development, as well as the issue of the introduction of the art of laughter into fiction, are scientifically and theoretically analyzed. In the study, the analytical effects of the genres of folklore such as lof, latifa, and askiya in the development of artistic works are based on the analysis of specific examples of Uzbek prose. The fact that the place and importance of folk dance in the development of modern Uzbek literature is incomparable based on the theoretical opinions and scientific analyzes of world literary scholars and scholars of Uzbek literature.

Key words: Folk laughter, universal, sincere way of thinking, social life, personal and private typical events, negativity, appeal, being funny, history and its representatives, people, kings, generals, heroes, funny sphere, narrow and originality.

Kirish. Badiiy adabiyot musiqa san'atiga xos bo'lgan tovush va ohang imkoniyatlaridan ham, rassomlik san'atida qo'llanadigan rang va tasvir usullaridan ham, ilm-fan sohasidagi kuzatish, tanlash, baho berish, tahlil etish, xulosa chiqarish kabi prinsiplardan ham foydalanishi mumkin. Lekin xalqning yurak ohanglariga benihoya mos bo'lgan folklor adabiyoti ta'sirida yozilgan zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalarida lutf-u nazokat beqiyosdir.

Adabiyotlar tahlili. Avvalo, xalq kulgisi qanday paydo bo'ldi? Hukmdor- shohlarning davlat boshqaruv tizimi marosim va marosimlardan tashqarida, ulardan majburan chiqarib yuborilgan shov-shuv, kulgi va hazilni qonuniylashtirish zarurligiga olib keldi va badiiy adabiyotda kulgiga asoslangan janrlarning paydo bo'lishi uchun zamin yaratdi. A. N. Veselovskiy o'zining Rable haqidagi maqolasida hazilning ijtimoiy ahamiyatini quyidagicha tavsiflaydi: "O'rta asrlarda masxaraboz obyektiv mavhum haqiqatning huquqdan mahrum tashuvchisi bo'lgan"[1]. Xalq kulgisi ming yillar davomida qahqaha va xalq-bayram

kulgi shakllari bag'rida shakllanib, himoyalangan. Kulgi dunyoni o'zining maksimal quvnoq va hushyor xususiyati bilan yangicha ochib berdi. Vaqt o'tishi bilan xalq maydonidagi bu tasvirlar saroy tomoshalariga ko'chib o'tdi va bu yerda ularning uslubi va tushunchasi ham shunga yarasha o'zgardi, albatta ("Mehrobdan chayon", "Qiziqqlar" fasli nazarda tutilgan H.H.). Qadimda G'arb mamalakatlari keng nishonlangan "valintin" bayramlarida ham maydon tomoshalarini, masxarabozlik karnavallari, kulgi an'analari namoyish qilingan. Mixail Baxtinning ta'kidlashicha, O'rta asrlarning boshqa barcha oddiy diniy bayramlarida, biz kirish qismida aytib o'tganimizdek, kulgi har doim bayramning folklor-kvadrat tomonini tashkil qilish orqali ma'lum bir ozmi-ko'pmi rol o'ynagan. Qadimgi an'ana Pasxa kunlarida, hatto cherkovda ham kulgi va bepul hazillarga ruxsat berilgan. Minbardan ruhoniylar bu kunlarda o'zi turli xil hikoyalar va hazillarga ruxsat bergan, shuning uchun uzoq ro'za va tushkunlikdan so'ng, quvnoq qayta tug'ilish kabi, quvnoq kulgi matnlari o'qilgan. Bu kulgi "Pasxa kulgi" deb nomlangan. Bu hazil va quvnoq ertaklar asosan moddiy va jismoniy hayotga bag'ishlangan, ular karnaval tipidagi hazillar edi. "Pasxa kulgi" sidan tashqari, "Rojdestvo kulgi" si an'anasi ham mavjud edi. Agar Pasxa kulgisi, asosan, va'zlarida, kulgili hikoyalarda, latifalar va hazillarda amalga oshirilgan bo'lsa, unda Rojdestvo kulgisi - kulgili qo'shiqlarda ifodalangan. Ammo xalq maydon kulgi madaniyati, mohiyatiga ko'ra, umummilliy hisoblanadi. Yillar mobaynida rivojlanib kelgan kulgi haqiqati hammani qamrab oldi va unga hech kim qarshilik ko'rsata olmadi. O'rta asrlarning ulkan parodik adabiyoti bevosita yoki bilvosita xalq-bayram kulgi shakllari bilan bog'liq. Mazlum xalqning orzu-istak, umidlari bilan mutanosib holda muqallidlar, masxarabozlar, qiziqchilarning tilidan aytiladigan hangomalar sayllarda ommalasha boshladi. Biroq bu g'alaba faqat vaqtinchalik, bayramona edi, u yana qo'rquv va zulmning kundalik hayoti bilan davom etdi, ammo inson ongining bu bayramona bo'shliqlaridan dunyo va inson haqidagi yana bir norasmiy haqiqat shakllandi. Bu kulgining badiiy ifodalash masalasi edi. Mana shu ma'naviy va ruhiy istirob tufayli xalq kulgisi badiiy asarlarda aks-sado bera boshladi. Chunki hajviyot, mutoyiba, kulgi ijtimoiy hayotni aks ettirar ekan, undagi illatlar, salbiy voqea yoki faktlarni oddiy qayd etmaydi, balki uning mohiyatini ochib berishi shart. Ammo shunga qaramay, u allaqachon asarga kirgan va ma'lum darajada o'z tasvirlarini mavhum axloqiy va'zning qandaydir ko'ngilochar ilovasiga aylantirgan. Bu kulgini qayta ko'rib chiqish jarayoni faqat keyinchalik, janrlar iyerarxiyasining o'rnatilishi va bu iyerarxiyada kulgining o'rni bilan chambarchas bog'liq holda sayqal topib boradi. Bu hodisa badiiy adabiyotda hajvni umumlashtirish, tipiklashtirish orqali obrazlar, tiplar, hajviy xarakterlar yaratish asosida amalga oshiriladi. Kulgi moddiy va jismoniy lahza, kamaytiruvchi va tiklovchi prinsip sifatida ayniqsa mahalliy tabiatga ega bo'lgan. Xalq kulgi san'ati ta'siri ostida vujudga kelgan asarlarda yuqoridagi kabi aniq umumlashma va umumlashma- to'qima obrazlar bilan birgalikda badiiy ijodning mukammal unsuri bo'lgan hajviy tiplar ham mavjud:

"Qoravoy hamon cho'miladi. Qiztaka ko'zoynakli otinoyining raqamini izlaydi." Kechirasiz, raqamini bering". Ko'zlaridan tashnaligi bilinib turibdi mehr-muhabbatga. Telefonchi telefonini o'padi, silaydi, peshanasiga qo'yganicha bir daqiqagina uxlaydi. So'ng yana o'yin va internet dengizigz sho'ng'iydi"[2].

Badiiy matndagi "Qoravoy", "Qiztaka", "Telefonchi" kabi hajviy tiplar yuqoridagi obraz turlaridan shu bilan farq qiladiki, unda ma'lum bir sinf, ijtimoiy tabaqa yoki guruh kishilariga tegishli bo'lgan belgilar bilan bir qatorda bu obrazning o'ziga tegishli bo'lgan shaxsiy xususiyatlar ham keng ifoda etiladi. O'quvchining ko'z oldida ham butun bir ijtimoiy tabaqaga mansub xususiyatlarni tashuvchi, ham jonli insonga xos bo'lgan fe'l-atvorli odam obrazi gavdalanadi. Bunda ikki tomon shaxsiy va umumiy sifatlar uyg'unlashgan bo'ladi. Yani umumiylik yakkalik orqali ochiladi. Hajviy tip- xarakter yaratish hiyla murakkab adabiy-ijodiy muammo bo'lib, yozuvchidan hayotni chuqur bilishni, katt mahoratni talab qiladi.

"Meshpolvon odatdagidek maqtanib yuborganini o'zi bilmay qoldi:

-Tashvishlanmang, lo'li xola, biron yil yonimda yursa, suvda baliqni quvib ushlaydigan qip qo'yaman. Ana, Go'ro'g'li boboning chevarasi menga qo'shilib, kam bo'ptimi?"[3]

Keltirilgan badiiy matndagi "Meshpolvon", "Lo'li xola", "Go'ro'g'li bobo" kabi obrazlar orqali milliy xususiyatlarga xos kulgi tiplari yaratilgan. Kulgi tiplari ijtimoiy tabaqa yoki guruhga mansub bo'lgan ko'p kishilarning fe'l-atvorlarini, odat va turmush kechirish tarzlarini o'rganib, to'plab, ularning xarakterli tomonlarini yig'ib, shuningdek bir obrazgagina xos bo'lgan jonli, individual xususiyatlarini ham topib, uni tiriltirishi va estetik ifodalashi lozim. Aslida xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan kulgi an'analari o'zbek adabiyoti tuprog'ida qayta ishlangan va mustahkam ildiz otgan. Bunday ifoda natijasida mavhum tendensiya grotesk tasvirning bu tabiatini muqarrar ravishda buzadi. U tortishish markazini tasvirning mavhum semantik, "axloqiy" mazmuniga o'tkazadi. Bundan tashqari, tendensiya tasvirning moddiy asosini salbiy momentga bo'ysundiradi: mubolag'a karikaturaga aylanadi. Ammo bu yerda bu jarayon faqat boshida, mavhum tendensiya xizmatiga joylashtirilgan grotesk tasvirlar bu yerda hali ham juda kuchli: ular o'zlarining tabiatini

saqlab qoladilar va muallifning tendentsiyalaridan qat'iy nazar va ko'pincha ularga zid bo'lgan o'ziga xos mantiqni rivojlantirishda davom etadilar. Zero, xalq kulgisi juda yaxlit xususiyatga ega, butun hayotiy jarayonga, uning ikkala qutbiga (ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy) tegishli bo'lib, unda tug'ilish va yangilanishning g'alabali ohanglari yangraydi. Ammo shunga qaramay, u allaqachon zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari tarkibiga singgan, kirgan va ma'lum darajada o'z tasvirlarini mavhum axloqiy va'zning qandaydir ko'ngilochar ilovasiga aylantirgan. Bu kulgini qayta ko'rib chiqish jarayoni faqat keyinchalik, janrlar iyerarxiyasining o'rnatilishi va bu ierarxiyada kulgining o'rni bilan chambarchas bog'liq holda yuksalish va estetik taraqqiyot qilish bosqichidir. Xalqimizning to'y-u tomoshalarida, bayramlarda latifago'y, masxaraboz va askiyachilarning aytishuvlarida, o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turgani badiiy adabiyotimizda ijodkorlar tomonidan mahorat bilan estetik ifodasini topgan. Jahon romanchiligi an'alarini maxsus o'rgangan M.M. Baxtin xalq maydon kulgi san'ati va madaniyati adabiyotda roman janrining shakllanishi va taraqqiyotiga poydevor bo'lib xizmat qilganligini alohida qayd etadi [4].

Agar zamonaviy o'zbek romanlari shu jihatdan kuzatilsa, bu fikrning asosli ekanligi, ularda xalq kulgi san'atiga xos ayrim elementlar muhim o'rin tutishi oydinlashadi. Dunyo xalq kulgi madaniyatining ildizlari qadimgi yunon nazariy adabiyotlarida qayd etilgan "jiddiy-kulgili" janrlarga borib taqalishini, mimlar, masallar, bukolikalar, pamfletlar, memuarlar, suqrotona, lukiancha dialoglar uning tarkibiga kirishini, asosida xalq kulgi madaniyati yotuvchi ushbu qadimiy janrlar roman janri uchun poydevor bo'lganligi olimlarning tadqiqotlarida uchraydi [5]. Kulgi chuqur dunyoqarash ma'nosiga ega, u butun dunyo, tarix, inson haqidagi haqiqatning eng muhim shakllaridan biridir; bu dunyoga alohida universal nuqtayi nazar; dunyoni boshqacha ko'rish, lekin jiddiylikdan kam emas (ko'p bo'lmasa); shuning uchun katta adabiyotda kulgi ham xuddi jiddiylik kabi qabul qilinadi (bundan tashqari, umuminsoniy muammolarni qo'yadi); dunyoning ba'zi juda muhim jihatlari faqat kulgi uchun ochiqdir. Xalq kulgisi universal, samimiy tafakkur shakli bo'lib, u faqat ijtimoiy hayotning ayrim shaxsiy va xususiy tipik hodisalariga, salbiy tartibli hodisalarga murojaat qilishi mumkin, kulgili bo'lishi mumkin emas tarix va uning vakillari sifatida harakat qiladigan odamlar (shohlar, sarkardalar, qahramonlar); kulgili soha tor va o'ziga xosdir (xususiy va jamoat yomonliklari); dunyo va inson haqidagi muhim haqiqatni kulgi tilida aytish mumkin emas, bu yerda faqat jiddiy ohang mos keladi; shuning uchun adabiyotda kulgiga faqat shaxsiy odamlar va ijtimoiy quyi tabaqalar hayotini aks ettiruvchi past janrlarda o'rin beriladi; kulgi – yo yengil o'yin-kulgi, yoki yovuz va pastkash odamlar uchun ijtimoiy foydali jazo turidir. Fikrimizning dalili sifatida quyida tahlillarni keltiramiz: Atoqli yozuvchisi Omon Muxtorning "Ffu" falsafiy romanida o'zbek xalqiga xos psixologiya, millatimizning yashash tarzi, milliy urf-odatlarida asosida ota-o'g'il Toshpo'lat va Toshtemir obrazlari badiiy ifodalanadi. Yozuvchi romanda xalq kulgi madaniyatining lof, latifa, askiyaga xos xususiyatlaridan juda ko'p o'rinlarda foydalangan. Bosh qahramon Toshpo'latning xotirasi va uning o'g'li Toshtemirning xarakterini ta'riflashdanoq kitobxon xalq kulgisiga xos mutoyibani angelaydi:

"Otam o'lganlarida, yenglaridan arzimagan uch-to'rt so'm pul chiqdi. Qog'ozga o'rab, ip bilan bog'langan. Ochib qaradik. Bunday yozuv; "Meni ko'rgani kelgan kimdir buni tushirib qoldirgan, topib topshiringlar. Ishondim". Yana bir bosh qahramonga berilgan ta'rifni keltiramiz:

"Har qanday farzand otaga o'xshaydi, albatta. Lekin... Shunday kishilar borki, ular uchun bu o'xshashlik muhim ahamiyatga ega baxt, o'xshamaslik fojiaidir. Dorbozning o'g'li dorboz bo'lmasa, u o'ladi. Cho'ponning o'g'li tayoqni tashlab qochsa, dala-dashtda "Cho'li iroq" yangraydi. Mulla Toshpo'lot bu toifaga kirmasa hamki, shunga yaqin, uning yetti pushti "otasining o'g'li" bo'lib kelgan edi. Boshqacha bo'lishni tasavvur qila olmas edi" [6].

Keltirilgan badiiy parchadan ayon bo'ladiki, zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari kulgining ifodasi didaktik yo'nalish bilan bevosita bog'liq bo'lib, insonning har qanday illatini, ruhiy holatlarini fosh etishda adabiy estetik xususiyatlarga putur yetmaydi, aksincha, ularni to'ldiradi, qimmatini oshiradi. Toshpo'lot obrazi orqali ifodalangan satirik elementlar hech qachon kulmagandan kelib chiqqandek va quvnoq kulishni emas, balki g'azab va qayg'uni yoki, har qanday holatda zaif tabassumni ifoda etib kelgan. Asarda qahramonning jinnilik mavzusi uning atrofida har xil karnaval tojlari, qoralashlar, niqoblar va yolg'onlarning butun turkumini ochishga imkon beradi. Ushbu mavzu (qahramonning aqldan ozishi) dunyoning qolgan qismiga odatiy rasmiy tartibsizliklaridan chiqib ketishga va qahramonning karnaval jinniligiga qo'shilishga imkon beradi. Toshmurod obrazida bu motivlar qanchalik zaiflashgan bo'lmasin, baribir ularda jonlanayotgan moddiy-tanaviy tip bilan xalq-bayram kulgi uchqunlari yonib turadi. Ammo an'anaviy karnaval motivlari va tasvirlarining bu chuqurroq xususiyatlari bu erda deyarli muallifning irodasi va ongiga zid ravishda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti kulgiga o'ziga xos munosabatini, birinchi navbatda, o'zining adabiy faoliyati va adabiy baholari bilan ifodalaydi. Ammo kulgini dunyoqarashning universal shakli sifatida oqlaydigan nazariy mulohazalar bizga qadar qadimgi miflarda, mumtoz adabiyot, jadid davri adabiyotida juda ko'p ifodalangan. Yozuvchi Omon Muxtor milliy urf-odatlarimiz asosida "ota vasiyati", "ota merosi" kabi ijtimoiy hodisalarni tasvirlashda xalq kulgi madaniyatining boy merosidan o'z o'rnida mahorat bilan foydalangan. Toshpo'lotning otasidan na ma'naviy, na moddiy meros qolmaganligi, Mulla Toshpo'lotning o'zi va "yetti pushti "otasining o'g'li" bo'lib kelganligi" shu bilan birga hayotda "boshqacha bo'lishni tasavvur qila olmasligi", shu toifa odamlarning jamiyatimizda juda ko'p uchrashi kinoyali tarzda tasvirlanadi. Xalq maydon kulgi madaniyatining badiiy adabiyotga ta'siri millatning milliy xususiyatlarini badiiy ifodalash bilan bir qatorda ajdodlarimizga xos rasmiy madaniyat masalasi, ikkinchi tomondan yerli aholiga xos tubjoy, xalq madaniyatining alohida o'zaro ta'siriga asoslangan hodisa sifatida qarash imkonini beradi. Biz kinoya kulgisi deb qaragan holat aslida xalqimizning ma'naviy yuksak tuyg'ularini, o'ziga xos xarakterini ifodalaydi: "Meni ko'rgani kelgan kimdir buni tushirib qoldirgan. Topib topshiringlar. Ishondim". Mana shu jumlada tashqi tomondan kitobxon "qoldirgan merosi arziyas chaqa ekan" deya istehzoli kulgi tuyg'usini his qilsa, ikkinchi muhim jihati Sharq xalqlariga xos yuksak ma'naviy tarbiya- "omonatga xiyonat qilmaslik" falsafasi tasvirlangan. Shu o'rinda xalq kulgi madaniyatini badiiy adabiyotga ta'sirini o'rgangan yevropalik adabiyotshunos olim Yu.M.Feldmanning quyidagi fikrlarini keltirish joiz: "Qanchalik paradoksal tuyulmasin, yuqori (omonatga xiyonat qilmaslik) va past (arzimagan chaqa, u ham bironiki) badiiy tasvir o'rtasidagi munosabatni hisobga olmasdan turib, kulgi adabiyotining mohiyatini tushunib bo'lmaydi"[7]. Obrazlar harakatida, shuningdek, personajlarning nutqlarida, oddiy odamlarning jamoat va shaxsiy faoliyatini ko'rsatma sifatida tasvirlash (Mulla Toshpo'lot bu toifaga kirmasa hamki), hajviy tasvirlar orqali hazilga yaqinlashish, latifanamo kulgili lahzalarni ifodalash orqali yozuvchi xalq kulgi madaniyatining keng imkoniyatlaridan foydalanadi.

O'zbek hikoyalarining juda ko'plarida ham xalq kulgisi ta'siri sezilib turadi. Zamonaviy o'zbek adabiyoi hikoyachiligida o'ziga xos uyg'onish, yangilanish jarayoni kechmoqda. Ma'lumki, badiiy ijodda muayyan yo'nalishning yuzaga kelishi tasodifiy hodisa emas. Har qanday tamoyilning vujudga kelish tarixi, ko'lami, miqyosi, tarixiy genezisi bo'ladi. Badiiy adabiyotdagi tamoyillarning vujudga kelishi badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar jarayonidan boshlanadi. Bu olamda har bir inson, millat va xalq hayotining ma'nosini o'zini o'rab turgan muhitdan, milliy urf-odatlar, elu yurtiga xos azaliy fazilatlaridan kelib chiqqan holda tushunadi. Tabiiyki, bu tushunchalarning har birida hayotiy asos, ibratli jihatlar bor. Jumladan, bizning xalqimiz ham bu borada butun bir qarashlar sistemasi, yaxlit hayotiy falsafaga ega. O'zbeklar, boshqa xalqlar qatori, farzand, oila, Vatan va millat, elu yurt kabi tushunchalarni muqaddas deb biladi. Ularni milliy qadriyat darajasiga ko'tarib, har birini pok, dahlsiz saqlash uchun bor kuch-g'ayrati, bilim va tajribasini ayamadan mehnat qiladi. Shunday qadriyatlar qatori necha asrlardan buyon xalqimizning kundalik hayotida asosiy maslak-muddao bo'lib kelayotgan, uning uchun milliy xarakter va mintalitet, an'analar negizini belgilab beradigan mezonga aylanib ketgan yana bir tushuncha borligini ham ta'kidlash o'rinlidir. Bu tushuncha yaxshilik va andisha nomli oddiy so'z bilan ifodalanadi. O'zbek hikoyalarida mana shu tushunchalarning ifodalari bilan bir qatorda milliy madaniyat hisoblangan kulgilikning mutanosib tasviri xalqona xususiyatlarning badiiy talqinidir. Fikrimizning dalili sifatida yozuvchi Ne'mat Aminovning quyidagi hikoyasini tahlilga tortamiz:

"-Daslab Samad muallimga xabar qo'yinglar. Manga alifboni o'rgatgan. Janozaning ixtiyorini Karomatovga qo'y. Amon keltirgan o'zbekcha Qur'onni domoding Ahmadga ber, o'qisin.... Qoqishtuvondan usto Nurboyni ayttinglar....

-Axir, u kishi....

E, e.... gapimga quloq sol, o'zi o'lgan bo'lsa, o'g'li, aka-ukalari bor... Shofirkonga, usto Quadratga tilpon qilinglar... Tesha boboga moshin yuboringlar.. Mandan hech qo'rqma.. Faqat omonatni sog'-omon Haqqa topshirib olsam bo'ldi... Tana, ana shu tana qoladi... Hech narsadan qo'rqma... lahadga jasadimni o'zing qo'y, taylog'im..."[8].

Keltirilgan badiiy matnga e'tibor bersak, Abdulla Qahhor uslubiga xos ifodani ko'ramiz ("Tobutdan tovush" nazarda tutilyapti X.X.). Fojiali vaziyat hisoblangan otaning so'ngi safar oldidan aytayotgan vasiyati tasviridan mahorat bilan ifodalash orqali mutoyiba kulgisi paydo bo'lgan. "Samad muallimga xabar qo'yinglar. Manga alifboni o'rgatgan", jumlasida o'zbek millatiga xos milliy xususiyat andishani tasvirida kitobxonda og'ir vaziyat, so'nggi manzil safari arafasida "alifboni o'rgatgan muallifga nima bor?!", - degan kulgili holat paydo bo'ladi. Aslida, biz yuqorida ta'riflagan o'zbekona andisha har qaysi xalq hayotida ko'pdan-ko'p qadriyat va an'analar, yangi-yangi g'oya va qarashlar sistemasini shakllantiradigan tushuncha

ekanini kitobxonga anglatish yozuvchining maqsadi edi. Xalqimiz bu haqiqatni qadim-qadim zamonlardan boshlab g'oyat chuqur anglagan. Shunday an'analar ruhida tarbiya topgan ota-bobolarimiz bu olamda yaxshilik qilganga albatta, yaxshilik qaytadi, degan ishonch e'tiqod bilan yashab kelganlar. Adib xalqona sodda dialektal tilning keng imkoniyatlaridan mohirona foydalanadi. Bu uslubni qo'llagan ijodkor mazkur sodda va samimiy obrazning o'z tilidan xalqona kulgini ifodalashda foydalanadi. Chunki yozuvchi o'sha toyifa tilini yaxshi bilibgina qolmasdan, balki undan kulgi ifodalovchi ibora va jummalarni mohirlik bilan o'z o'rnida ishlata olishi katta mahorat talab qiladi. Temirchi chol (vasiyat qiluvchi) katta xalq vakili. Yozuvchining ustaligi shundaki, u mazkur kishilarga xos bo'lgan umumiy til xususiyatlarini bir obrazga shundayicha taqib qo'ymasdan, balki til sohasida ham umumiylik va xususiylikning o'zaro didaktik aloqada bo'lishini ta'minlaydi, ya'ni umumiy til xususiyatlaridan faqat individual obraz uchun zarur tomonlarni tanlab oladi va shu nutq orqali samimiy, beg'araz kulgini ifodalaydi. Mazkur individual obrazda esa butun bir xalqning, millatning barcha asosiy xususiyatlarini jamlaydi. Shu bilan birga forscha- ruscha so'zlarni ishlatish orqali yana kitobxonda kulgi kayfiyatini mustahkamlaydi. "...Amon keltirgan o'zbekcha Qur'onni domoding Ahmadga ber o'qisin". Mana bu yo'l-yo'lakay aytilgandek tuyuladigan jumlada ham ziyarak kitobxon anglaydigan kinoyali kulgi ifodasi mavjud. Qur'on iymonga chaqiruvchi manba hisoblanadi, uni asliyatdan o'qish esa ma'lum darajada ilm talab qiladi. Uni aynan o'qishi shart bo'lgan shaxs-domod (kuyov) "o'zbekchasini" o'qishi vasiyat qiluvchining tomonidan alohida ta'kidlanishi aynan kuyov ya'ni "domod" iymon tarbiyasiga muhtojligini anglatadi va yana kitobxonda zavq-u shavq paydo bo'ladi. Qardosh xalqlardan o'zlashgan so'zlarning badiiy matnda buzib talaffuz qilinishi lingvistik nuqtayi nazardan makoronizmlar deb yuritiladi. Makoronizmlar "tilpon"(telefon), "moshin"(mashina) orqali orqali kulgi uyg'otish hodisasi o'zbek ijodkorlarining juda ko'plarida uchraydi. Ayniqsa, Anvar Obidjon, Otkir Hoshimov, Ne'mat Aminov kabi. Biz bunday til munosibligini, ya'ni shaxs bilan tilning birlashib ketganligini Temirchi bobo obrazida yaqqol ko'ramiz. Ko'rinib turibdiki, bu xildagi gapirish, so'zlashuv uslubi Temirchi bobo obraziga xosdir. Yozuvchi mazkur obrazlarni tasvirlashda birdan-bir vosita personajlarni o'z tilida gapirtirish yo'li bilan kulgi uyg'otadi. Shuning uchun ularning tilida goh haqoratimiz so'zlar, goh hayot ikr-chikrlariga xos so'zlar ba'zan esa mutoyibali o'xshatishlar ham qo'llanib, kulgi hosil qilish uchun xizmat qiladi. Badiiy matnda "Qoqishtuvondan usta Nurboyni ayttinglar. -Axir u kishi...

- E, e gapimga quloq sol, o'zi o'lgan bo'lsa, o'g'li, aka-ukalari bor". Mana shu o'rinda vafot etgan kishini chaqirtirish hodisasi kitobxonda kulgi kayfiyatini paydo qilish bilan bir qatorda, hayot mantig'i mavjudligini ifodalaydi. Biz real hayotda so'nggi manzilga ketayotgan odamning boqiy dunyodagi marhumlar bilan muloqotga kirishish holatlariga guvoh bo'lamiz. Tasvirda yozuvchining mahorati yordamga keladi va chol tezda o'zini o'nglab oladi. Nurboyning o'zi bo'lmasa o'g'li, aka-ukalari borligiga ishora qilish orqali millatimizga xos andisha mafkurasi estetik ifodalangan. Hikoyada ota farzandi naberali kishi bo'lishiga qaramasdan "taylog'im" deb murojaat qilishida ham samimiy kulgi ifodasi bilan bir qatorda yuksak va buyuk millatga xos ota-o'g'illik rishtasi tasvirlanadi. Dunyodagi genetik jihatdan eng yaqin insonlar- ota va o'g'ilni o'zaro bog'lab, yaqinlashtirib turadigan qudratli kuch o'zbekona mehr hisoblanadi. Binobarin, ana shu mo'jizaviy kuch bo'lmasa, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar ham begona odamlar o'rtasidagi oddiy munosabatlardan farq qilmay qoladi. Yozuvchi oddiygina erkalash ma'nosida qo'llanuvchi "taylog'im" so'zi orqali kulgi ifodasini paydo qilsada, aslida bu so'z muhim milliy va umumbashariy didaktika uchun xizmat qiladi. Mohiyatan, maydon kulgi tomoshalari, xalq maydon kulgisi, askiyalar, latifalarning ham mag'zida tarbiya yotadi. N. Aminov xalq va millat ruhini yaxshi bilgani bois hikoyalariida hajviy holatni xalqona hikmat tarzida ifodalaydi. Hayotiy voqea va hodisalarni juda sinchkovlik bilan kuzatadigan va undan tamomila milliy ma'nolar topa oladigan ijodkor sifatida qadrlidir. Hatto otaning vasiyatidan ham samimiy kulgini topadi. Shu bilan birga Sharq xalqlaridagi ota-o'g'il munosabati (taylog'im), o'zbekona andisha (Samad muallim, u menga alifboni o'rgatgan), insoniy mohiyatga tegishli bo'lgan do'stga sadoqat (o'zi o'lgan bo'lsa o'g'li, aka-ukasi bor) kabi xalq hikmatlariga xoslik ifodasini chiroyli ranglarini topadi. Ne'mat Aminovning hikoyalari shunisi bilan qimmatliki, u hayot achchiq haqiqatlaridan, qarama-qarshiliklaridan, hayot dialektikasidan aslo ko'z yummaydi, yuz o'g'irmaydi, balki shu tinimsiz harakat ichidagi obyektiv borliqdan xalq kulgisiga xos tasviriy ifodalarni topadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bu dunyoda faqat yaxshilikni o'zi bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi, ezgulikka biroz quvvat-gohida ayyorlik, gohida aldov, gohida zar, gohida zo'r-xullas, qulay bir vosita, qurol ham kerak bo'ladi. Mana shu ma'naviy qurol sifatida xalq kulgi madaniyati yozuvchiga keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Veselovskiy A.N. «Izbranniye stati» L. 1939.ctr-441-442.
2. Jovliyev J. «Qo'rqma». Roman. Toshkent. Nihol. 2020. B-130.
3. Obidjon Anvar. "Yengilmas Meshpolvon". Toshkent. Ziyo nashr. 2019. B-46.
4. Baxtin M.M. "Epos va roman" (Romanni talqin etish metodologiyasi haqida) Filologiya masalalari. 2005.5-son,b-239.
5. Baxtin M.M."Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. Rus tilidan Uzoq Jo'raqulov tarjimasi. Toshkent. Akademnashr. 2015.b-22.
6. Omon Muxtor. "Ffu". Toshkent. Sharq. 1997.b-6, 10.
7. Lotman Yu.M. "Tanlangan maqolalar".III jildli.II jild.Tallin.1992-1993. B-231.
8. Aminov N."Temirchidan qolgan tillolar".Toshkent. Kamalak.1995.b-68.

УДК: 41

НУТҚДА КООПЕРАЦИЯНИ ТАЪМИНЛАШДА САМИМИЙЛИК ВА ИШОНЧ СТРАТЕГИЯСИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

*Бегматова Раъно Фахридиновна,
Ўзбекистон Давлат жаҳон тиллари университети
Немис тили назарий фанлар кафедраси доценти вазифасини бажарувчиси
rano@rambler.ru*

Аннотация: Маданиятлараро мулоқотда кооперацияга турли хил стратегиялар ва тактикалар орқали эришилади. Ушбу мақолада нолисоний воситалар саналган самимийлик ва ишонч стратегияси ёрдамида нутқда кооперацияга эришиши ёритилган бўлиб, ушбу стратегиянинг таҳлилимиз давомида аниқланган асосий тактикалари сифатида ёритилади ва ушбу мақолада лисоний таҳлили таклиф этилади. Ушбу тактикаларга қизиқишни намоён этиш, ростгўйликка чақириш ва кўз алоқасини сақлашлар кириб, жаҳон ва Ўзбекистон олимларини фикрлари таҳлил қилинади. Тўпланган назарий материал маданиятлараро бўлиб ўтган диалогларнинг таҳлили орқали ўз далилини топади.

Калим сўзлар: кооперация, коммуникация, маданиятлараро мулоқот, стратегия, тактика, қизиқишни намоён этиш, ростгўйликка чақириш, самимийлик, ишонч

ПРИМЕНЕНИЕ СТРАТЕГИИ ИСКРЕННОСТИ И ДОВЕРИЯ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ КООПЕРАЦИИ В РЕЧИ

Аннотация: В межкультурной коммуникации достижение кооперации осуществляется с помощью различных стратегий. В данной статье приведена одна из них – стратегия искренности и доверия. В ходе анализа было выявлено, что к данной стратегии относятся тактики выражения заинтересованности, призыва к откровенности и поддержание зрительного контакта.

Ключевые слова: кооперация, коммуникация, межкультурная коммуникация, стратегия, тактика, выражение заинтересованности, призыв к откровенности, искренность, доверие

ENSURING COOPERATION IN SPEECH THROUGH A STRATEGY OF SINCERITY AND TRUST

Abstract: Cooperation in cross-cultural communication is achieved through a variety of strategies. One of them is presented in this article: the strategy of sincerity and trust. The review discovered that this strategy includes tactics such as expression of interest, call for honesty and eye-contact.

Key words: cooperation, communication, cross-cultural communication, strategy, tactics, expression of interest, call for honesty, sincerity, trust

Кириш (Introduction). Мулоқотда муваффақиятга эришишнинг асосий омилларидан бири саналган кооперацияга эришишда самимийлик ва ишонч стратегияси ўз аҳамиятига эга. Маълумки, ҳар қандай нутқий мулоқот бу бетартиб эмас, балки маълум қонуниятлар доирасида амалга оширилади. Самимийлик ва ишонч стратегиясининг тактикалари сифатида биз қизиқишни намоён этиш, ростгўйликка чақириш ва кўз алоқасини сақлаш каби тактикаларни тушунамиз ва ушбу мақолада лисоний таҳлилини таклиф этамиз.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Самимийлик стратегиясининг лингвистик тавсифига эътибор қаратар эканмиз, изоҳли лугатга мурожаат қиламиз. “Самимийлик” сўз белгини англатувчи от сўз туркуми саналиб, риёкор, мунофиқ сўзларининг антонимидир. Бирор-бир фикрни айтишда юракдан, дилдан чиқариб ва бирор ишни бажаришда чин қалбдан қилишга интилган сидқидилликдир. [8; 17] Унинг тоза ва пок сингари коннотатив маънолари ҳам мавжуд.

Кооперацияни ташкил этувчи стратегиялардан бири саналган самимийликни юзага келтирувчи омиллар мавжуд бўлиб, лисоний шахснинг қадрияти саналади, уларнинг шахсий шаъни билан боғланади. У маълум бир талаблар доирасида реаллашиб, бунда коммуникатив этика ва семиотика

аҳамиятга эгадир. Самимийлик бу ўйлаб ёки ҳис қилаётганинг билан адресатга етказётган хабарга мос бўлиши лозим. Самимийлик тўғриси бўлишига қарамасдан хушмуомалаликка ўрин беради.

Мулоқотда учрайдиган самимийликнинг этикет формалари мавжуд бўлиб, улардан бири самимийлик инсонлар орасидаги келишувга асосан хушмуомалаликка ўз ўрнини беради, бунда инсонлар томонидан ижтимоий маъқулланган сохта самимийлик намойиш этилишини кузатиш мумкин. Мисол тариқасида кўйидагиларни келтирамиз: – *Сизни чин юракдан табриклашимга ижозат беринг*; – *Самимий тилакларимни изҳор этмоқчиман*; – *Чин кўнгилдан ҳамдардлик билдираман*; – *Herzlich willkommen!* Самимийлик сўзи немис тилида *aufrechtig* ва *herzlich* сўзлари ёрдамида юзага чиқади. От сифатида эса *Erlichkeit* ва *Aufrichtigkeit* сўзларига мос келади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили (Literature review). Рус олимнинг фикрига кўра самимийлик бу тарбияда мавжуд бўлиши коммуникацияда эса ўта эҳтиёткорлик билан ҳар бир сўзловчи самимийликни коммуникацияда қўллашда адресантнинг эмоцияларини ва унга таъсирини ҳисобга олган ҳолдагина қўллай олади. Демак, самимийлик ва тўғрисиқлик тарзида ва хатти-ҳаракатларида юзага чиқиши лозим. Самимийлик кўпроқ панд ейишга олиб келиши мумкин. Самимий равишда билмаслигини тан олиш бу унинг нокомпитентлигини англатмайди. Балки тўғри сўзлик ижтимоий шартномасига амал қилишини ифодалайди.

Ўзбек типолог олими Ж.Б. Бурунов инглиз тилида ростгўй деган сўз мавжуд эмаслигини ёзади, бу инглиз халқи ростгўй эмас деган маънони келтирмайди балки ростгўйлик халққа таълуқли ижтимоий келишувда мавжуд бўлган меъёр эканлигини равшан бўлади. [2; 151] Зеро Оскар Уайлд “Инсоннинг юзига тўғриси гапириш бурчданда юқорироқ бўлган хузурдир” дея нисбат беради. Рус халқида эса бунинг ўзгартирилган фразеологизмини гувоҳи бўламиз. Тўғриси кўзига эмас, балки қулоғига айтиш лозим кўрилади. [6; 133]

Самимийлик стратегияси устида иш олиб борган олимлар сирасига Н. Н. Панченко, Н.Н. Кириллова, А.Э. Иванов ва бошқалар қиради.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Таҳлил материали сифатида ўзбек блогери Мирзоҳид Бобоқуловнинг “Немислар Ўзбекистон ҳақида билишадими?” видео-интервьюси олинди. Видеоматериал ёзувлари муаллиф томонидан ҳарфлаштирилди. Мисол [9]:

R.: O. Ich bin nicht informiert, tatsächlich.

M.: Ok, ja Wissen Sie, wo sich das Land befindet?

R.: Also, ganz grob würde ich vermuten unterem Bereich Asien, Richtung östlicher Bereich Europa.

R.: Nee, genau. Ich bin leider nicht informiert, was die Richtung aniert.

M.: Sie kommen aus Stuttgart?

R.: Vom Dorf.

M.: Vielen Dank. Chao, Chao.

Ушбу суҳбатда кооперацияни амалга ошириш учун лингвистик ва паралингвистик воситалардан фойдаланилмоқда. Юқоридаги мисолда Ўзбек блогерининг “*Сиз Ўзбекистон ҳақида нималарни биласиз?*” саволига йўловчилардан бири “*Мен етарлича фактик маълумотга эга эмасман*” жавобини беради. Бу билан саволга жавоб берувчи суҳбатни тўхтатишга уринмайди балки янада мулоқот қилиб, “*Мен Осийнинг наст қисмида шарқий Европа худудида жойлашканлигини тахмин қила оламан холос*” деб жавоби беради. Бундан кўринадики, унинг мақсади коммуникациядаги кооперацияни бузмаслик ва тўғри маълумотни етказишдан иборатдир.

Шундай қилиб, маданиятлараро мулоқотда коммуникация эталони саналган кооперацияга эришиш учун самимийлик стратегиясидан фойдаланилади. Илмий адабиётларда самимийлик стратегияси коммуникация феномени билан боғлаб ўрганилади. Айтиб ўтиш керакки, у синергетик аҳамиятга эгадир. Хулоса сифатида айтиш мумкинки, Маълумки, кооперация коммуникатив нутқ ҳаракатларининг бир тури сифатида қаралиб, кооперацияга эришиш учун бир неча стратегиялардан фойдаланиш орқали амалга оширилад. Самимийлик стратегияси шулардан биридир.

Қизиқишни намоён этиш тактикаси. Таҳлилларимиз давомида самимийлик стратегиясидан бири бўлган қизиқишни намоён этиш тактикаси лисоний кооперацияга эришишнинг йўллари билан бири эканлишига амин бўлдик.

Қизиқишни намоён этиш деганда сўзловчи коммуникация жараёнга, мунозара қилинаётган мавзуга ўзининг қизиқишини намоён этиши тушунилади.

Тилшуносликда коммуникация жараёнида қизиқишни билдириш тактикасини қўлланилиши бир қатор олимлар томонидан ўрганилган бўлиб улар қаторига А.В. Ланских, В.С. Анохина, О.В. Лунёва, В.Т. Матвеева ва бошқалар қиритиш мумкин.

Коммуникатив жараёнда суҳбатдош маълум бир мавзуда эксперт бўлганлиги ва ушбу мавзуни ривожлантиришга қизиқиш билдириш тактика сифатида мулоқот жараёнида кооперацияга эришишнинг йўллари билан биридик.

Оилавий контекстда кооперацияга эришишда турли тактикалардан фойдаланилишини ўрганган олима В.С. Анохина, оилавий қизиқишни билдириш тактикасини амалга ошириш негизида оила аъзоларига уларнинг ҳаётида бўлаётган ҳодисалар тўғрисида савол бериш ётишини ўз ишида келтириб ўтган¹. Олима қизиқишни билдириш тактикасини оилавий этикет тактикаларига киришини таъкидлаб ўтган бўлиб, у ушбу тактикалар сўзловчининг ҳақиқий қизиқиши борлигини ёки этикет доирасида эътиборнинг мавжудлиги билан боғлиқ эканлигини ажратиб ўтган.

Қизиқишни билдириш тактикаси қуйидагилар ёрдамида намоён бўлади (бевосита ва билвосита):

1. Бевосита – қизиқишни билдирувчи тил унсурларидан фойдаланиш:

а) сифат сўз туркумидан фойдаланиш: – *Жуда қизиқарли*; – *Ажойиб*; – *Жуда Қулай!*; – *Фойдали-ку*

б) нутқни давом эттиришга тўртки бериш: – *Давом этинг*; – *Марҳамат, қулогимиз сизда*; – *Ха албатта, сизни эшитябмиз*.

в) хайратни англатувчи тил унсурларидан фойдаланиш: – *Наҳотки!*; – *Ўйге, кейин нима бўлди?*; – *Бўлиши мумкин эмас, у шундай қилдимми?*; – *Қўйсангизчи!*

2. Билвосита – суҳбатдошининг ҳаёти, ишлари, уни қизиқтирадиган мавзулар тўғрисида савол бериш:

а) савол бериш: – *Ишларингиз анча энгиллашиб қолдимми?*; – *Қорниз очмадимми?*; – *Сизнингча у одам яна қайтиб келадими?*; – *Кейин нима бўлди?*

б) қайтадан савол бериш: – *Исмими нима дедингиз, қайтариб юборинг*; – *Яна олиб келаман дедими?!*; – *Шундай қилиб, соат нечада бўлади дедингиз?*

в) аниқлик киритувчи савол бериш: – *Яна кимлар бор эди?*

Нутқда кооперацияга эришишда қизиқишни намоён этиш тактикаси ўз аҳамиятига эга бўлиб, у суҳбатдошнинг мавзуга бефарқ эмаслигини билдиради.

Демак, нутқда кооперацияга эришишда муназара қилинаётган мавзуга қизиқиш билдириш суҳбатдошни нутқини давом эттиришга ундайди, ва шу билан бирга унда яхши таасурот қолдиради. Бунда, кооперацияга эришиш осон кечилади.

Ростгўйликка чақириш тактикаси. Тахлилимиз давомида нутқда кооперацияга эришиш мақсадида коммуникантлар томонидан самимийлик ва ишонч стратегиясидан бири бўлган ростгўйликка чақириш тактикаси қўлланилишининг гувоҳи бўлдик.

Ростгўйликка чақириш деганда суҳбатдошини ростгўйликка чақириш тушунилади. Ростгўйлик, очкилик, самимийлик, чин юракдан гапириш нутқда кооперацияга эришишнинг асосий омилларидан биридир. Коммуникация жараёнида

Коммуникация жараёнида ростгўйликка чақириш тактикасини ўрганган олимлар қаторига А.Э. Иванов, Н.Н. Панченко, Н.А. Карпова, А.В. Морева ва бошқалар қиради.

Рус ва инглиз кинодискурсларида кооперациянинг ростгўйликка чақириш тактикасидан фойдаланилишини ўрганган А.Э. Иванов инглизлардан кўра русларга бу тактика кўпроқ ҳослигини аниқлаган. Ушбу тактика суҳбатдошдан тўғри маълумотни олиш, уни рост гапиришга ундашни англатади. Масалан: – *Қани гапирчи, нима бўлди*.

Ростгўйликка чақириш тактикаси нутқда қуйидаги тил унсурлари орқали амалга оширилади: – *Тан ол*; – *Тўғриси айт*; – *Чин юракдан айтаманки...*

Нутқда ростгўйликка чақириш кооперацияга эришиш учун: 1) интимизация тактикаси билан ҳам уйғун ҳолатда қўлланилиши мумкин. Масалан: – *Биз сен билан яқин дўстлармизку, шунинг учун менга тўғриси айт...* . Бунда интимизация ростгўйликка чақиришни кучайтириш учун ишлатилмоқда; 2) муаммони тушунишни ифодалаш тактикаси орқали ҳам қўлланилиши мумкин. Масалан: – *Биламан сен Давлат олдида қасам ичгансан, лекин бу нарсани ким олганлигини айтмасанг бўлмайди*; 3) Комплимент ва мақтов тактикалари билан бирга. Масалан: – *Сени тўғриси одам деб биламан...*

¹ Анохина Виктория Сергеевна Стратегии и тактики коммуникативного поведения в малой социальной группе (семье) // Наука. Инновации. Технологии. 2008. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/strategii-i-taktiki-kommunikativnogo-povedeniya-v-maloy-sotsialnoy-gruppe-semie> (дата обращения: 19.03.2023).

Тўғрисўзликка чақириб аператив функцияни бажариб, суҳбатдошнинг ҳатти-харакатини, ўзини тутишини регуляция қилишга қаратилган тактика бўлиб, у турли усуллар орқали амалга оширилиши мумкин:

Демак, самимийлик ва ишонч стратегиясидан бири бўлган ростгўйликка чақириб тактикаси нутқда кооперацияга эришишда муҳим аҳамиятга эгадир.

Кўз алоқаси тактикаси. Таҳлилимиз давомида нутқда кооперацияга эришиш мақсадида коммуникантлар томонидан самимийлик ва ишонч стратегиясидан бири бўлган кўз алоқаси тактикаси қўлланилишининг гувоҳи бўлди. Зеро, немис халқи билан сўзлашганда кўз алоқасини сақлаш зарурати мавжуд.

Кўзга қараб гапириш деганда тана тилининг асосий ифода воситаси ҳисобланган, новербал ёки нолисоний коммуникациянинг таркибий қисмини тушунилади. Шунингдек, ушбу атама “кўз алоқаси” деб ҳам таснифланади. Кўз алоқаси бу, аввало, суҳбатнинг, қолаверса, муносабатларнинг давомийлигини таъминловчи ишонч гаровидир. У алоқа турларидан бири бўлиб, кўзлар ёрдамида амалга оширилади.

М.О. Гузикованинг фикрига кўра мулоқот давомида кўз алоқасини сақлаб қолиш 60-70 фоизни ташкил этиши лозим бўлиб, ушбу кўрсаткич самимийлик белгиси саналади. [3; 86]

Суҳбатдош кўзига қараб гапиришининг турли маданиятларда турли ўзига хосликлари мавжуд бўлиб, уни тўғри тушуниш ва ундан фойдаланиш қоидаларига амал қилиш мақсадга мувофиқдир. Масалан, Япон маданиятида ҳушмуомала одам инсон кўзига эмас, балки унинг бўйни томонга нигоҳини қаратади. Япон ўқитувчилари ҳам аудиторияга қарамайди, шу билан бирга японларнинг гавдасини тик тутиб, бошини озгина олдинга эгиб, кўзларини сал юмган ҳолда суҳбатни эшитиши уларнинг гапириладиган мавзуга қизиқишини билдиради. Ўз навбатида, Осиё халқларида аёлларнинг эркаклар кўзига тик қараши, ишчиларнинг бошлиғи юзига қараб гапириши мумкин эмасдир, чунки ушбу ҳолат одобсизлик ва ҳурматсизлик белгиси деб юритилади.

Ғарб маданиятида эса бунинг акси, агар суҳбатдош кўзга тик қараб гапирмаса, кўзини олиб қочса бу носамимийликка йўйилиши мумкиндир. Кўз алоқаси позитив таъсурот уйғотиш учун муҳимдир. Ушбу ҳолатда транспарентлик, яъни шаффофлик юзага келади. Суҳбат мавзуси коммуникант учун қизиқлигини, унга ёқадиганлигини текшириб туриши учун муҳим ҳисобланади. Ўз навбатида, немислар бир-биридан етуклик талаб қилади, ва суҳбатдош кўзига қараб гаплашиш шунинг омилларидан биридир. Немис халқи билан суҳбат куришда кўзига қараб эшитишининг суҳбатдошнинг диққатли эканлигини англатади. Демак, коммуникация когнитив ҳолатларни ҳам камраб олганлиги туфайли кўз алоқаси ҳам когнитив ҳолат саналади ва сўзловчининг компетенциясидан дарак беради.

Кўз алоқаси қоидалари турли вазиятларда турлича қўлланилсада, суҳбатга киришишдан олдин коммуникантнинг кўзига қараб, унинг нигоҳини ушласа суҳбат жараёнида кооперацияга эришиш осонроқ кечади. Бунда кўз ҳаракатлари тез содир бўлмаслиги лозим, акс ҳолда коммуникант шошма-шошарликда айбланиши мумкин.

Кўз алоқаси суҳбатдошнинг мавзунини давом эттиришга тайёрлигини кўрсатувчи белгидир. Албатта, нигоҳлар туташуви доим ҳам ўзаро ҳуш ёқишни англатмайди. Кўз алоқаси орқали кооперация рад этилиши хавфи ҳам мавжуд, шу каби нозикликларни ҳам эътиборга олиш лозим ва суҳбатни давом эттиришга коммуникантнинг хоҳиши мавжудлигини кўздан қочирмаслик керак.

Юқорида келтирилган диалогимизда кўз алоқасининг сақланмаганлиги, немис мулоқот шериғида унғайсизлик тўғдирган бўлиб, ўз фикрларини ифодалашда тарқоқлик мавжуддек. Унда киришиб кетиб, қизиқиш билан сўзлаб бериш ҳолати, яъни энтузиазм чеклангандек кўринади. Бу ҳолат суҳбат ривожини учун хавф тўғдиради.

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations). Демак, нутқда кооперацияга эришишда самимийлик ва ишонч стратегияси муҳим аҳамиятга эгадир. Бунга қиравчи қизиқишни намоён этиш, ростгўйликка чақириб ва новербал бўлган кўз алоқасини сақлаш тактикаларидан нутқда фойдаланиш кооперацияга эришишда қўл келади.

Шунингдек, кўз алоқасини сақлаш учун суҳбат олиб бориладиган жойни қўлай ҳолатга келтириш лозим, суҳбатдошлар бир-бирига қарама-қарши ўтиришни таъминлаш муҳим омиллардан биридир. Немис миллатига мансуб суҳбатдошга эътибор ажратаётганлигини маълум қилиш муҳимдир. Баъзи маданиятларда, кўзга тик қараб гапиришда авторитетлик ва ҳукмдорлик белгилари англашилсада, кўз алоқасини сақлаб қолиш академик гуруҳларда айниқса муҳим аҳамиятга эгадир.

Демак, немис халқи билан сўзлашганда кўз алоқасини сақлаш зарурати мавжуд. Кўз алоқаси кооперацияни сақлаш тактикаларидан бири саналади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Анохина В.С. *Стратегии и тактики коммуникативного поведения в малой социальной группе (семье)* // *Наука. Инновации. Технологии*. 2008. №3.
2. Буранов Дж. *Сравнительная типология английского и тюркских языков*. Москва. Высшая школа. 1983 С. 261
3. Гузикова М.О. *Основы теории межкультурной коммуникации: учебное пособие для вузов* Гузикова М. О., Фофанова П. Ю.. — Москва: Издательство Юрайт, 2022.— 121 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-09551-7. — Текст: электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт].
4. Каменева В.А., Рабкина Н.В., Морозова И.С., Долганов Дмитрий Николаевич *коммуникативная стратегия одобрения (Когнитивно-дискурсивный подход)* // *Политическая лингвистика*. 2022. №1 (91).
5. Кириллова Н.Н. *Коммуникативные стратегии и тактики с позиции нравственных категорий* // *Вестник НГТУ им. Р. Е. Алексеева. Серия «Управление в социальных системах. Коммуникативные технологии»*. 2012. №1.
6. Панченко Н. Н. *Правда и искренность в экологичной / неэкологичной коммуникации* / Н. Н. Панченко // *Научный диалог*. – 2012. – No 12: Филология. – С. 124–135.
7. Садохин А.П. *Межкультурная коммуникация*. Москва • Альфа-М • ИНФРА-М • 2004. 286 с.
8. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Икки томли. З.М. Маъруфов таҳрири остида 1 том. Москва “Рус тили” нашриёти, 1981. 456 б.
9. <https://www.youtube.com/watch?v=tPgtEi2uu7k>

УДК:82.091

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ В ЖАНРЕ ИРОНИИ В РИТОРИКЕ И ТЕОРИИ ЛИТЕРАТУРЫ

Бозорова Вилюят Музаффаровна,
старший преподаватель
Бухарского государственного университета
roginraz2015@gmail.com

Аннотация: В этой статье рассматривается обзор литературы в жанре иронии в риторике и теории литературы. Любой текст в какой-то степени является продуктом своего социокультурного и исторического контекста. Это справедливо даже при отсутствии явных социальных, культурных или исторических ссылок. Среди всех текстов литературные произведения выделяются как тексты, особенно привязанные к контексту.

Это оказывает влияние на теорию литературы, на которую в значительной степени влияет эволюция философских течений. Ярким примером является связь между понятием деконструкции Дерриды (т.е. поиском скрытых альтернативных значений, которые противоречат предполагаемому смыслу и последовательности текста) и разрушением философии Хайдеггера, понимаемым как демонтаж или преодоление репрезентативного мышления и платонизма и переход к современной теории бытия.

Ключевые слова: алаzoneя, эйронея, ирония, литература, риторика, лексика, иллюстрация, обзор литературы, парадигмальный язык

RITORIKA VA ADABIYOT NAZARIYASIDA IRONIYA JANRIDAGI ADABIYOTLARNING SHARHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ritorika va adabiyot nazariyasida kinoya janridagi adabiyotlar ko'rib chiqiladi. Har qanday matn ma'lum darajada uning ijtimoiy-madaniy va tarixiy kontekstining mahsulidir. Bu aniq ijtimoiy, madaniy yoki tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lmagan taqdirda ham amal qiladi. Barcha matnlar orasida adabiy asarlar matn sifatida ajralib turadi, ayniqsa kontekstga bog'liq.

Bu ko'p jihatdan falsafiy oqimlar evolyutsiyasi ta'sirida bo'lgan adabiyot nazariyasiga ta'sir qiladi. Derridaning dekonstruksiya tushunchasi (ya'ni matnning taxmin qilingan ma'nosi va uyg'unligiga zid bo'lgan yashirin muqobil ma'nolarni izlash) va vakillik tafakkuri va platonizmi demontaj qilish yoki yengish, deb tushunilgan Xaydegger falsafasini yo'q qilish yoki mavjudlikning zamonaviy nazariyasiga o'tish o'rtasidagi bog'liqlik yorqin misoldir.

Kalit so'zlar: alazonea, eironeia, ironiya, adabiyot, ritorika, lug'at, illyustratsiya, adabiyot sharhi, paradigmatik til

REVIEW OF LITERATURE IN THE GENRE OF IRONY IN RHETORIC AND THEORY OF LITERATURE

Abstract: This article reviews literature in the genre of irony in rhetoric and literary theory. Any text is to some extent a product of its socio-cultural and historical context. This is true even in the absence of explicit social, cultural or historical references. Among all texts, literary works stand out as texts, especially those tied to the context.

This has an impact on the theory of literature, which is largely influenced by the evolution of philosophical trends. A striking example is the connection between Derrida's concept of deconstruction (i.e., the search for hidden alternative meanings that contradict the intended meaning and sequence of the text) and the destruction of Heidegger's philosophy, understood as the dismantling or overcoming of representative thinking and platonism and the transition to a modern theory of being.

Key words: alazoneia, eironeia, irony, literature, rhetoric, vocabulary, illustration, literature review, paradigm language

Введение.

Классическая риторика лежит в основе изучения иронии. Тем не менее, количество источников довольно ограничено. Некоторые из них могли быть утеряны, а остальные часто датированы неточно, и к ним трудно получить доступ. К счастью, в этой области была проведена работа (см. Swearingen, 1991; Kaufert, 1977), хотя во все времена она была отмечена упомянутыми выше ограничениями. Риторический потенциал иронии также рассматривался теоретиками литературы, которые наблюдали его использование в литературных произведениях, ориентированных на социальную критику.

В "Никомаховой этике" Аристотель утверждает, что правдивый человек существует между двумя своими противоположностями, алазоном и эйроном. Именно этот последний термин лежит в основе понятия иронии. Аристотель отождествлял добродетель с правдивостью, и как преувеличение правды (alazoneia), так и преуменьшение ее (eigoneia), которые были формами обмана, были пороками, связанными с понятием притворства. Алазон притворяется большим, а эйрон - меньшим, и оба удаляются от добродетели истины. Интересно, что здесь мы находим понятие притворства, к которому позже обратимся более подробно.

В своей "Риторике" Аристотель далее утверждает, что эйронейя злит нас, потому что она демонстрирует презрение, указывая, таким образом, на ныне хорошо признанный элемент иронии (ср. Уилсон и Спербер, 2012). Что касается вводящего в заблуждение элемента иронии, то он часто применялся Платоном и Аристотелем к софистам, тем, кто скрывал алетейю ("истину", "раскрытие"). Изначально ирония задумывалась как вводящий в заблуждение лингвистический прием, который можно было бы сделать частью остроумной стратегии убеждения, не говоря полной правды. Тем не менее, это понимание иронии не было полностью воспринято более поздними риториками, особенно в Древнем Риме.

Хотя такие риторы, как Демосфен или Теофраст, действительно воспринимали иронию как средство самоуничтожения, она воспринималась скорее, как порочное сокрытие своих политических и социальных полномочий с целью избежать ответственности. Это согласуется со взглядом Аристотеля на иронию как политическое оружие, восходящим к риторике договора Анаксимена Лампсакского с Александром (ср. Нокс, 1961). Ирония была популяризирована во 2 веке до н.э. как общепотребительный термин как в письменном, так и в устном виде и разговорный язык. Согласно Цицерону, ирония может быть либо простой фигурой речи, либо широко распространенной дискурсивной привычкой. Квинтилиан взял на себя задачу дать более точное определение иронии. Этот автор определил иронию как прием, посредством которого человек должен понимать противоположное тому, что было сказано ("contrarium quod dicitur intelligendum est"; Institutio oratoria VIII, 6.54; ср. Morrison, 2011).

Квинтилиан также проводил различие между тропами и схемами в иронии. Как троп. ирония была фигурой речи, вставленной в прямой контекст; но в качестве схемы это относилось ко всей речи или представленному случаю на языке и тоном, которые противоречат истинной ситуации. Эта последняя интерпретация иронии - это то, что мы могли бы назвать ироническим дискурсом (ср. Бенвелл, 2004; Шилихина, 2013). В качестве схемы термин "ирония" мог бы также применяться ко всей жизни человека, как в случае с "ироническим отношением" Сократа к постоянному притворному невежеству (ср. Нокс, 1961).

Методология исследования.

Это риторическое определение иронии как говорящей одно, а означающей противоположное, было принято более поздними риториками (например, Александром Нумением, Аквиллой Римским, Юлием Руфианом, Фибаммоном, Тиберием Ритором и др.). Различие Квинтилиана интересно в той мере, в какой этот автор уже считает, что ирония не является единым феноменом, и проводит различие между иронией как лингвистической стратегией и более широкими, структурными случаями иронии. Это различие сохранялось под разными названиями до сегодняшнего дня. Совсем недавно Сваринген (1991) показал, что понимание иронии как риторического приема претерпело незначительную эволюцию со времен Древнего Рима. Это, безусловно, порождает другие виды иронии, которые будут рассмотрены в последующих разделах, но чисто убедительная сторона иронии остается, по сути, той же самой.

Даже сегодня риторическая ирония является широко распространенным риторическим приемом в политических речах, что подтверждается многочисленными исследованиями на эту тему (Herzfeld, 2001; Musolf, 2017; Seery, 2019, и это лишь некоторые из них). Этот риторический взгляд на иронию был перенесен в теорию литературы и стал частью стандартных описаний и

классификаций так называемых литературных тропов вместе с другими фигурами речи, такими как метафора, метонимия и гипербола (Лич, 1969; Перрин, 1996).

Результаты и их обсуждение.

Теория литературы исследовала природу и назначение художественных текстов. В нем также были исследованы аналитические методы для проведения такого исследования, как с филологической, так и с социально-исторической точек зрения. Другими словами, в ней рассматривался литературный текст как лингвистический продукт и то, как этот продукт является результатом социальных и исторических обстоятельств. Новая критика и русский формализм, которые часто считаются началом теории литературы как дисциплины, процветали в то время, когда идеи Фердинанда де Соссюра приобретали все большее влияние в европейской лингвистике в 1950-х годах.

Ни новая критика, ни русский формализм не рассматривали контекст, в котором создавались литературные произведения, а скорее фокусировались на внутренних повествовательных структурах, чтобы определить точки сближения и расхождения, а также где они пересекались. "Морфология народной сказки" Проппа (1928) является прекрасной иллюстрацией того, что теория литературы (тогда более тесно связанная с лингвистикой, чем сейчас) интересовалась формой, а не содержанием.

Тогда не кажется поразительным, что ирония, как сильно привязанная к контексту фигура речи, нигде не встречается в работах этих теоретиков. Тем не менее, позднее появление научных литературных течений, которые рассматривали текст с точки зрения его взаимодействия с контекстом (главным образом, теория рецепции и культурология, среди которых феминизм, постколониализм и марксизм), породило большое количество исследований литературы, которые время от времени углубляются в это понятие из иронии. Мы обсудим это подробнее в последующих параграфах. 20-й век является свидетелем самых обширных исследований иронии, проведенных теоретиками литературы (например, Томсон, 1948; Мюке, 1969, 1970; Майерс, 1977; Бут, 1974; Хатчон, 1994).

Однако вместо того, чтобы работать над теоретическими парадигмами, теоретики литературы были сосредоточены на изучении проявления иронии в литературных произведениях. В результате их исследования, как правило, предлагают частичное аналитическое понимание этого феномена, особенно ориентированное на проведение различий между типами иронии и их воздействием с точки зрения взаимоотношений между текстом и читателем.

Теоретики литературы, такие как Мюке (1969, 1970) и Дейн (1991), указывали на отсутствие четкого определения иронии в теории литературы. Мюке (1970, с. 7) жалуется на неоднородный и часто бессистемный характер литературного изучения иронии: семантическая эволюция слова была бессистемной; исторически сложилось так, что наше понятие иронии является совокупным результатом того, что мы время от времени на протяжении веков применяли этот термин иногда интуитивно, иногда небрежно, иногда намеренно к таким явлениям, которые казались, возможно, ошибочно, достаточно похожими на некоторые другие явления, к которым мы уже применяли этот термин. срок.

Чтобы разобраться в этих проблемах, Мюке (Muecke, 1970) пытается объяснить иронию с точки зрения регулирующих её коммуникативных принципов. Таким образом, ирония рассматривается как процесс кодирования и декодирования, обрамленный контекстом и сопутствующим текстом, которые предоставляют переводчику необходимые подсказки для толкования. Мюке (1970) берет Шевалье (1932) за отправную точку для определения иронии как контраста между реальностью и внешностью. Однако лицемерие, двусмысленности или ложь во спасение можно определить аналогичным образом. По мнению Мюке (Muecke, 1970), что отличает иронию от этих других форм лингвистического обмана, так это то, что в иронии говорящий хочет, чтобы предполагаемое сообщение было воспринято слушателем.

Это утверждение можно считать предшественником направления, взятого гораздо позже для объяснений логической прагматики, таких как теория релевантности (например, Спербер и Уилсон, 1981). Однако Мюке рассматривает иронию в терминах кодирования и декодирования, следуя стандартным представлениям теории коммуникации своего времени. Логическая прагматика рассматривает интерпретацию иронического значения (и любой другой фигуры речи) как вопрос умозаключения. Мюке (Muecke, 1970) также проводит различие между инструментальной и наблюдаемой иронией.

Первый тип заключается в реализации цели путем иронического использования языка, в то время как второй тип является непреднамеренным и репрезентируемым в искусстве. Эти два ярлыка проводят различие не между вербальной и ситуативной иронией, а скорее между намеренной и ненамеренной иронией. Тот факт, что, по мнению этого автора, заметная ирония репрезентируема в искусстве, представляет особый интерес, поскольку указывает на развитие иронии в литературных произведениях. Мюке (1970) отмечает, что 18-й и 19-й века породили большее количество художественных произведений, содержащих заметную иронию (события преподносятся как ироничные) как проявление определенных способов понимания мира.

С другой стороны, инструментальную иронию (кто-то иронизирует) с большей вероятностью можно встретить в риторике, где она используется как лингвистический прием для убеждения аудитории. Эти замечания указывают на актуальность социокультурного и исторического контекста при анализе изощренной иронии. Наконец, Мюке выдвигает два принципа, которые регулируют все виды иронии: принцип экономии и принцип высокой контрастности.

Первый заключается в том, что ораторы предоставляют своей аудитории как можно меньше знаков. Согласно принципу высокой контрастности, существует противоречие ожиданий, основанных на стандартах правдоподобия: чем больше контраст, тем эффективнее ирония. Эти два принципа согласуются с нашей собственной концепцией, в которой иронический смысл рассматривается как результат столкновения между наблюдаемым сценарием и повторяемым сценарием, а удовольствие от иронического поступка можно оценить в зависимости от интенсивности такого столкновения, хотя будут обсуждены и другие факторы.

Аннотатсия: Дар мақолаи мазкур маънои лугавӣ ва истилоҳии илми арӯз шарҳи худро ёфтааст. Таърихи арзи вуҷуд кардани ин илм дар мамолики араб нишон дода шудааст. Арӯзи араб ва таъсири он ба арӯзи форс тоҷик ва турку ўзбек баръало муайян карда шуд. Масъалаҳои асосии арӯзи араб ва тоҷику форс дар асоси грамматикаи ин ду забон таҳлили худро ёфтааст ва имконоте ба пеш омад, ки тарафҳои фарқкунандаи арӯзи ин ду халқро нишон дода шавад. Ҷиҳатҳои тафовутдори арӯзи тоҷикӣ муайян карда шуд. Барои таҳлили баъзе фикрҳои Халил ибни Аҳмад имконот фароҳам омад. Ғайр аз ин, мавқеи рисолаи “Меъёр-ул-ашъор”-и Хоҷа Носир дар тақомули арӯзи Аҷаму араб нишон дода мешавад. Боз масъалаи дигаре, ки дар ин кор ба ҷаҳм мерасад, омӯзиши арӯзи арабро ба воситаи “Меъёр-ул-ашъор” хеле назаррас нишон додан имконот фароҳам меояд.

Калидвожа: ҳарфҳои мутаҳаррик, сокин, мутасовӣ, арӯзи араб, Халил ибни Аҳмад, калимаи арӯ, Тавил, басит, вофир

НОСИРИДДИН ТУСИЙ “МЕЪЁР УЛ-АШЪОР” АСАРИНИНГ АРАБ ВА АЖАМ АРУЗИДАГИ ТАЪСИРИ

Аннотация: Ушбу мақолада аруз илмининг лугавий ва терминологик маъноси баён этилган. Араб мамлакатларида бу фаннинг пайдо бўлиши тарихи кўрсатилган. Араб арузи ва унинг форс-тоҷик ва турк-ўзбек арузига таъсири аниқ белгилаб берилган. Араб ва тоҷик-форс арузининг асосий масалалари бу икки тил грамматикаси асосида таҳлил қилиниб, бу икки халқ арузининг турли томонларини кўрсатиши имкониятлари юзага келди. Тоҷик арзининг турли томонлари аниқланди. Халил ибн Аҳмаднинг айрим фикрларини таҳлил қилиши масалалари кўрсатиб берилган. Бундан ташқари, Хожа Носирнинг “Меяр-ул-ашъар” рисоласининг Аҷаму Араб арузининг эволюциясидаги ўрни кўрсатилган. Бу асарда кўриши мумкин бўлган яна бир масала шундаки, “Меяр-ул-ашъар” орқали араб арӯзини ўрганишини жуда сезиларли даражада кўрсатиши мумкин.

Калим сўзлар: жонли ҳарфлар, хотирҷамлик, мутасавий, арабча аруз, Халил ибн Аҳмад, Ару сўзи, Тавил, Босит, Вафир

THE INFLUENCE OF NASIRIDDIN TUSI'S WORK "MEYAR UL-ASH'AR" ON ARAB AND AJAM ARUZ

Abstract: This article describes the dictionary and terminological meaning of Aruz science. The history of the emergence of this science in Arab countries is shown. Arabic aruzi and its influence on Persian-Tajik and Turkish-Uzbek aruzi are clearly defined. The main issues of Arabic and Tajik-Persian aruz were analyzed on the basis of the grammar of these two languages, and opportunities to show different aspects of the aruz of these two peoples were created. Various aspects of the Tajik aruz have been identified. The issues of analyzing some of Khalil ibn Ahmad's thoughts are shown. In addition, the place of Khwaja Nasir's treatise "Meyar-ul-ash'ar" in the evolution of Ajamu Arab Aruz is shown. Another thing that can be seen in this work is that through Meyar-ul-Ash'ar, the study of Arabic fasting can be shown very significantly.

Key words: animated letters, calmness, mutasavi, Arabic aruz, Khalil ibn Ahmad, word Aru, Tawil, Basit, Vafir

ВЛИЯНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ НАСИРИДДИНА ТУСИ «МЕЯР-УЛ-АШАР» НА АРАБСКИЙ И АДЖАМСКИЙ АРУЗ

Аннотация: В данной статье разъясняется лексико-терминологическое значение науки Аруз. Показана история возникновения этой науки в арабских странах. Арабский аруз и его влияние на персидско-таджикский и тюркско-узбекский аруз были чётко определены. Были проанализированы основные вопросы арабского и таджикско-персидского аруза на основе грамматики этих двух языков, и были возможности показать разные стороны аруза этих двух народов. Выявлены разные аспекты таджикской мечты. Удалось проанализировать некоторые мысли Халила ибн Ахмада. Кроме того, показано место трактата «Меяр-уль-Ашар» Ходжи Насира в эволюции Аджаму Араб. Еще одна проблема, которую можно увидеть в этой работе, заключается в том, что можно очень значительно продемонстрировать изучение арабского языка через «Меяр-уль-Ашар».

Ключевые слова: анимированные буквы, спокойствие, мутасави, арабский аруз, Халил ибн Ахмад, слово Ару, Тавиль, Басит, Вафир...

Аруз яке аз вазнҳои шеър ба ҳисоб рафта, назми оламшумули форсу тоҷик бо ҳамин вазн суруда шудааст. Пӯшида нест, ки вазни арузро дар шеъри форсу тоҷик пас аз истилои араб дидан мумкин. Аввалин фикру мулоҳизаҳо доир ба таърихи пайдоиши аруз аллақай, дар ҳуди Арабистон сар задааст. Баъзе мутафаккирон таъкид мекунанд, ки дар давраи қарвонронӣ (уштурро бо бор равондан) барои ба уштурон мадад расондан суханҳои ҳешро ҳамоҳанг менамуданд ва мавзунии сухан қофиларо ба пеш мебард-гӯён андешаҳо вучуд доштааст. Ғайр аз ин, аруз, рукн, байт, баҳр ва дигар истилоҳҳои вазни аруз маъноӣ луғавӣ сутун, хона, дари хона ва умуман ба маъсалаҳои сохтмонӣ мансуб аст. Ба ҳамин хотир баъзе мутафаккирон ақида низ доштаанд, ки омада баромадани калимаи “арӯз”-ро ба давраи сохтмони араб мансуб мебаранд. Албатта, ин фарз ба ҳисоб меравад. Муҳим он аст, ки бо тамоми хусусиятҳои худ вазни аруз дар филологияи араб арзи ҳаққ кардааст. Умуман, таҷқиқот ва рисолаи аввалин доир ба вазни аруз дар Арабистон аз ҷониби Халил ибни Аҳмад ба майдон омадааст. Имрӯзҳо маъноӣ луғавӣ вожаи “арӯз”-ро ҳамчун “арз” маънидод менамоянд, ки шеърро ба он арз мекунанд. Ин маъно бо моҳияти имрӯзаи вожаи “арӯз” мувофиқ аст. Ин ҷо мо як чанд маъно доштани вожаи “арӯз”-ро маънидод менамоем, ки мувофиқи мақсад аст:

1. Аруз дар фарҳанго роҳи кушодашуда дар кӯҳ будааст. Ба воситаи ин роҳ ба мавзӯи мерасанд. Ба ҳамин хотир, агар арузро сарфаҳм раванд мавзунӣ ва номавзунӣ онро дарк мекунанд. Барои ҳамин ҳам ин илмро аруз номидаанд.

2. Ба мо маълум аст, ки арузро ҳамчун илм Халил ибни Аҳмад кашф намуд, ки ӯ дар шаҳри Макка ин илмро муқаррар кард. Дар Макка номи шаҳре вучуд доштааст, ки онро “Аруз” мегуфтаанд. Ба ҳамин хотир, ин илми муборақро ба номи шаҳр гузоштааст.

3. Ба мо маълум аст, ки дар дохили вожаҳои аруз ҳарфҳои айн, ро ва зод мавҷуд аст, ки ба маъноҳои кашф кунанда ва зоҳиршавандаро дорад. Шояд ба ҳамин хотир мавзунии шеър муайян шавад. Аруз ном гузоштаанд.

4. Аруз ба маъноӣ арб ҳам меомадааст, ки нафъовар аст. дар илми аруз низ агар огоҳӣ дошта бошед, нафъи зиёде вучуд дорад. Шояд барои ҳамин аруз гуфтаанд.

5. Калима ё рукни охири мисраи байтро низ аруз мегӯянд, ки он қисми охири хайма ҳам бо ҳамин ном маънидод шудааст.

6. Аруз ба маъноӣ модашутури саркаш низ омадааст. Шояд ба ҳамин хотир, шоир онро ром мекунад, ки ҳар як рукни он мавзун гардад.

7. Шеър аз рӯи мансубияти вазнии худ ба он арз карда мешавад, ки онро аруз хондаанд.

Доир ба маъноӣ луғавӣ ва истилоҳии вожаи “арӯз” ба фикри мо гуфтаи Шамс Қайси Розӣ аз ҳар чихат мувофиқи мақсад аст. адиби назариётчи тоҷик чунин маънидод менамояд: “... онро аз баҳри он аруз хонанд, ки шеърро бар он арз кунанд, то мавзунӣ он аз номавзун падида ояд ва мустақим аз номуқтақим мумтоз гардад” [1, 34]. Аз гуфтаи болоӣ маълум мегардад, ки аруз ҳамчун низомӣ назм аст, ки вазндорӣ он ба воситаи аруз муайян карда мешавад. Аз ин ҷо равшан мегардад, ки аруз бо шеър сару қор дорад. Хусусиятҳои муштарак ва қаробатҳои ногустани байни вазн ва шеър вучуд дорад. Ба монанди шеър доир ба вазн низ аз тарафи мутафаккирон ақидаҳои гуногун баён карда шудааст. Ин ҷо мо овардани фикри олими адабиётшиноси тоҷик Мисбоҳиддин Нарзиқуловро мувофиқи мақсад донистем, ки аз ҳар чихат дуруст аст: “назм ва таносуби ҳосе, ки баъд аз ба ҳиҷоҳои кӯтоҳу дароз ва арқон ҷудо кардани шеър ба вучуд меояд, вазн номида мешавад”. [2, 9]. Барои

оҳангдори ва мусикияти махсуси шеър албатта, вазни он ё ки муайян намудани вазни шеър аҳамиятнок аст. кори арӯз низ ҳаминро тақозо менамояд, ки муҳимияти мусиқии шеърро нишон додан. Агар мо ҳиҷоҳои дарозу кӯтоҳи мисраъҳоро муайян намуда онро дуруст тактеъ намоем, дар он ҳолат мусикияти нази ба гӯш мерасад, ки дар иқтибоси боло аз ҳар ҷиҳат дудруст оварда шудааст.

Дар ин фасли кор мо бисёртар ба таъсири мутақобили арӯзи арабу аҷам истода гузаштанро ба худ мақсад намудем. Ба мо маълум аст, ки вазни арӯзӣ дар асл арабиасос аст. Бо вучуди он пас ба адабиёти мардуми аҷам роҳ ёфтани ин илм ба он табаддулот ва навигариҳо ворид гашт, ки он аз рӯи қоида ва қонуни грамматикӣ ба амал омад. Ба ҳамин хотир, арӯз низ арӯзи арабу ҳам арӯзи аҷам ном гирифтанд. Ҳар яке бо қоидаву қонуни худ байни худ тафовуте дорад. Ба арӯз шоирони форсигӯй аз рӯи эҳтиёҷ ва зарурияти забону фарҳанги худ навғониҳо дохил карданд. Ин ҷо тафовутҳое, ки байни ин ду арӯз (Арабу Аҷам) мушоҳида мешавад, гуфта гузарем:

Дар арӯзи араб нуздаҳ баҳр вучуд дорад. Дар арӯзи Аҷам чордаҳ баҳр риоа карда мешаванд. Панҷ баҳри боқимондари (Тавил, басит, вофир, мадид, комил) маҳз шоирони араб на шоирони тоҷику форс, на турку ўзбек ба кор бурдаанд. Ҳаминро бояд қайд кард, ки боз се баҳре низ вучуд дорад, ки онҳо низ дар назми форсу тоҷик камистеъмол аст. Бо вучуди камистеъмолӣ шоирони тоҷику форс ба ин намууди баҳр намунаи шеърҳо гуфтаанд ва дуруст истифода намудаанд.

Худи Халил ибни Аҳмад 15 баҳр кашф намудааст. Баъдтар аз тарафи Ҳасан ибни Аҳфаш ном арӯзшиноси араб баҳри мутадорикро кашф намуд, ки шумораи онҳо ба шонздаҳ расид. Ёздаҳ барҳое, ки (ҳазач, рамал, раҷаз, сареъ, мунсарех, музореъ, мучтасс, муқтазаб, хафиф, мутақориб ва мутадорик) вучуд доранд, байни арабҳо ва аҷамиён муштарақ истифода мешаванд.

Ҳамин тариқ, арӯз таърихи дуру дароз дорад, ки махсусиятҳои гуногун касб карда омада истодааст. Арӯзшиносони арӯзи арабу аҷам дар асоси рисолаи “Арӯз”-и Халил ибни Аҳмад асар офаридаанд. Аммо ин рисола то замони мо боқӣ намондааст. Аксар рисолаҳои арӯзии аҳди қадим, аз ҷумла Абӯисҳоқи Заҷҷоҷ (ваф. 923), Абӯумари Ҷарамӣ (ваф. 839), Абулаббоси Мубаррад (826-898), Соҳиб ибни Аббод (936-995), Абӯалӣ ибни Рашиқи Қайрувонӣ (995-1064), Абӯзакариё Ҳатиби Табрэй (1030-1108), Абулқосими Замахшарӣ (1075-1144) муаллифи (Ал-қустос-ул-муस्ताқим фӣ илм-ил-арӯз) ва дигарҳо барои шарҳ ва тафсири рисолаи арӯзии Халил ибни Аҳмад офарида шудаанд. Дигар як рисолаи машҳур, ки дар қарни XIII аз тарафи Насируддин Тӯсӣ офарида шуд, ин “Меъёр-ул-ашъор” ба ҳисоб меравад. Мо дар боби якуми фасли саввуми кор доир баъзе масъалаҳои асосии ин рисоларо, хусусан, хусусияти сохтии онро каме шарҳ додем. Инҷо мо махсусияти арӯз ва аҳамиятнокии арӯзи арабу аҷамро дар мисоли ин рисола дида метавонам. Чи хеле, ки дар боло таъкид карда гузаштем, дигар аз рисолаҳое, ки барои шарҳ ва тафсири рисолаи арӯзи Халил маълумот дода метавонад, ин “Меъёр-ул-ашъор”-и Насируддин Тӯсӣ ба ҳисоб меравад. То давраи Замахшарӣ ва Насируддин рисолаи арӯзи Халил вучуд доштааст. Чунки онҳо таъкид кардаанд, шеърҳое, ки дар рисолаи Халил овара шудааст, худи Халил аз шеърҳои шоирони араб ҷудо карда гирифтааст. Боз аз ин гуфта маълум мешавад, ҳам Замахшарӣ ва ҳам Насируддин рисолаи арӯзии Халилро дар даст доштаанд. Агар шахсе, ки ин китбро дар даст намедошт, ин тавр ақида баён намекард. Насируддин дар фасли “Дар ишорат ба авзои аввалии шеър ва он ҳуруф ва ҳаракот аст”-и рисолаи худ “Меъёр-ул-ашъор” пайдоиши вазнро чунин маънидод менамояд: “Дар илми иқоъ аз синоати мусиқӣ муқаррар шудааст, ки худуси (пайдоиши) авзон аз нақароти мутатобеъ (паи ҳам) бошад ва аз сукуноти (таваққуфҳои) мутаносиб, ки миёни он нақарот афтад ва чун хоҳанд, ки аз он иборат кунанд”. (Насируддин Тӯсӣ. Меъёр-ул-ашъор. Таҳияи Урбатулло Тоиров. Душанбе, “Ориёно” соли 1992. Саҳифаи 19). Дар ин порчаи мазкур Хоҷа Носир масъалаи асосии пайдоиши вазни шеърро таъкидкарда мегузарад. Мавзунии шеърро аз мусикияти он медонад. Боз барои мусикияти шеър иборати “нақароти мутатобеъ”-ро истифода менамояд, ки зарби паиҳам омада истода, байни онҳо сукуноти мутаносиб меафтад. Ин ҷо адиб вазифаи ҳар як ҳарфи рукнҳоро алоҳида гуфта мегузарад, ки ҳарҳои сукунот ва мутаҳаррик номгузорӣ менамояд. Боз як масъалаи асосӣ аз ин гуфтаҳои Насируддин маълум мегардад, ки дар илми арӯз ҷои ритм ва оҳангро аз масъалаҳои асосӣ мешуморад. Тарзи талаффуз дар ҳиҷоҳи арӯзӣ мавқеи муайян дорад. Ҳуруфҳои таркиби рукнҳои арӯзиро ба ду гурӯҳ ҷудо менамояд: “Ва аммо дар вазни шеърӣ ҳуруфи мутаҳаррик (ҳаракатдор) аз ҳар ҷинс, ки бошад ба ҷои нақарот бошанд, ва ҳуруфи сокин ба ҷои саканот. Ва дар улуми дигар тақрир кардаанд, ки ҳуруф дар асл ду навъ будааст: яке мусавват (савтдор, садонок), яке мусаммат (ҳамсадо, сомит)” [3, 19]. Маълум гардида истодааст, ки адиб дар вазни арӯзӣ вазифаи ҳуруфи таркиби калимаҳоро маънидод менамояд. Боз масъалаи дигар ҳиҷоҳи дарозу кӯтоҳро аз асоситарин кори вазн мешуморад. Ин ҷо ҳарфҳои мутаҳаррик ва сокинро ҳамчун намуна меоварад. Дар илми

дигар, яъне дар илми забоншиносӣ ҳарфҳои мутаҳаррик ва сокинро садонок ва ҳамсадо буданаш аз назари адиб дур наместонад. Дар ҷои дигар Насируддин доир ба хусусияти ҳарфҳои садонок истода мегузарад: “Ва мусавват ё мақсур (кӯтоҳ) аст ё мамдуд (дароз). Ва мақсур ҳаракот бошад, монанди: замнат ва фатҳат ва касрат. Ва мамдуд ҳуруфи мадд, ки ахавоти (шарики) он ҳаракот бошанд, чи ҳар яке аз ишбоъи (пурра талаффуз кардани) яке аз он ҳаракот таваллуд кунад” [4, 20]. Аз ин порча ҳаминро пай бурдан мумкин аст, ки ҳарфҳои садонокро ба ду гурӯҳ ҷудо менамояд: садонокҳои дароз ва кӯтоҳ. Аммо дар вазни арӯзӣ ҳама вақт ҳам садонокҳои дароз ҳиҷоӣ дарозро ташкил намекунанд ваё садонокҳои кӯтоҳ низ ҳама вақт ҳиҷоӣ кӯтоҳ мешаванд гуфта ақида нодуруст аст, ки ин ҳам яке аз масъалаҳои мураккабтарини вазни арӯз ба ҳисоб меравад.

Хоча Носир масъалаҳои мухталифи арӯзи арабу аҷамро гуфта мегузарад. Ин ҷо адиб доир ба “имола”, ки бисёр вақтҳо дар вазн мушоҳида карда мешавад, истода мегузарад. Донишманди заққӣ вақте ки имоларо шарҳ медиҳад, онро дар асоси ҳам забони арабу ва ҳам забони форсӣ муайян намуда мегузарад. Ин ҷо гуфтаи Насируддинро оварданро қобили қабул донистем: “Ва дар ҳуруфи мусаввати (садонок) мамдуд (дароз), ки яке аз он ҳарфест, ки миёни замнат (яъне, “ӯ” пиш) ва фатҳат (яъне, “а” забар) бошад, ҷунонки дар лафзи “шӯр” афтад, ки ба тозӣ молиҳ (малех) бошад ва дигар ҳарфе, ки дар лафзи “шер” афтад, ки ба тозӣ “асад” бошад. Ва ин ҳуруфро дар тозӣ ба қор доранд ва онро “имолат” хонанд. Аммо аз асли луғат нашуморанд”. (Насируддин Тӯсӣ. Меъёр-ул-ашъор. Таҳияи Урбатулло Тоиров. Душанбе, “Ориёно” соли 1992. Саҳифаи 20). Аз гуфтаҳои болоии адиб ҳаминро дарк кардан лозим, ки ҳарфҳои садонок низ ҷуфтҳои худро доранд. Масалан, “а” ва “о”, “у” ва “ӯ” ва “и” ва “ӣ”. Агар яке ба ҷои дигар оянд, калимаи нав месозанд. Адиб дар иқтибоси болоӣ калимаҳои ҳам форсӣро ҳам арабиро ҳамчун мисол овардааст, ки дар илми арӯз арз рӯи зарурати вазн ҳарфҳои садонок ба тағйироте рӯй меоварад, ҷунки вазн ҳаминро тақозо менамояд дар илми арӯз баъзе ҳолатҳо низ мушоҳида мешавад, ки ҳатто як ҳарф зиёдатӣ ё камӣ кунад. Аз ин ҷост, ки дигаргун шудани овозҳои ҳарфи садонокро Насируддин Тӯсӣ ҳодисаи имола гуфта қайд менамояд. Аммо ин ҳолати ба имола дучор омадани калимаҳо аслияти калима ҳисоб намешавад. Як навъ аз рӯи эҳтиёҷ аст. боз адиб масъалаи “вови модула”-ро ба вазни арӯз алоқадор мешуморад. хусусияти онро бо мисолҳо нишон дода мегузарад: “Ва дар баъзе луғоти Аҷам дар лафзи “дарх(в)еш”, ки ба ҷои “дарвеш” гӯянд” ва дар лафзи “к(в)ас”, ки ба ҷои “кас” гӯянд, воқе бошад. Ва далел бар он ки ҳар яке аз ин ҳарфҳо як ҳарф аст, ин аст, ки дар вазн ба ҷои як ҳарф аст. мисол, “х(в)он”, ки дар китобат муштамал бар ҷаҳор ҳарф аст ва дар лафзи мураккабаз ду ҳарф аст, ки бар вазни “хо””. (Насируддин Тӯсӣ. Меъёр-ул-ашъор. Таҳияи Урбатулло Тоиров. Душанбе, “Ориёно” соли 1992. Саҳифаи 20). Ин ҷо адиб “вови модула”-ро дар вазни арӯз аҳамиятнок бунашро гуфта гузафтааст. Ҷунки “вов” хонда нашавад ҳам навишта мешавад. шумораи ҳарфҳо дар вазн ва ё овонависи калимаҳо роли муҳим доранд.

Ҷӣ тавре ки мо гувоҳи он шуда истодем, Халил ибни Аҳмад низ роҳи асосии улуми арӯз медонад. Ӯ ду вижагии ҳарфро мушоҳида кардааст:

1. Ҳарф ҷун ҷузви асосии системаи графикаи хат;
2. Ҳарф ҷун системаи овозии забон;

Халил ҳарфҳои таркиби калимаҳоро аз нуқтаи назари меъёри микдори талаффуз ва меъёри сарфии овозии онҳо муайян намуда, масъалаҳои мутаҳаррик ва сокинии онҳоро нишон дода гузашт. Ин қори Халил ибни Аҳмад баъдтар масъалаҳои баҳсталаби илми арӯзро ҳамчун калид кушод. Чи хеле ки дар боло қайд карда гузаштем, ин масъала дар “Меъёр-ул-ашъор”-и Насируддини Тӯсӣ баръало ба ҷашм мерасад, ки барои шарҳу тафсири ақидаҳои Халил хизмати қалон расондааст. Ба ҳамин хотир, мо метавонем аз рисолаи мазкури Хоча Носир ҷиҳатҳои муштараки арӯзи арабу аҷамро мушоҳида намоем. Арӯз аслияти хос дошта, шоирони форсу тоҷик барои мувофиқати грамматикаи забони хеш дигаргуниҳои ҷадидеро ворид карданд. Ҷунки аслияте, ки дар арӯзи араб вучуд дошт, аз рӯи тартибу қоидаи грамматикаи арабӣ буд. Тамоми он меъёрҳо ба забони форсӣ-тоҷикӣ мувофиқ набуд. Ба ҳамин хотир, тамоюлоту тағйиротро дида истодем, ки минбаъд барои ба вучуд омадани арӯзи аҷам сабаб шуд. Бо вучуди он, дар миёни арӯзи арабу аҷам умумият ба назар мерасад. Ин умумият номҳои баҳрҳо, зихофҳо ва рукну тафойилҳои арӯзӣ аст, ки шоирону назариётчинони форсу тоҷик истифода кардаанд. Шуарои форсигӯӣ аз рисолаи Халил ибни Аҳмад баҳрҳои мутобиқи арӯзиро гирифтанд ва онро дар мисоли шеърҳои шоирони форсигӯӣ нишон дода тавонистанд. Аммо баъзе баҳрҳое, ки дар рисолаи Халил мушоҳида намешуд, аз нав сохта ба арӯзи форсӣ-тоҷикӣ дохил намуданд. Қонуни асосии сохти овозии назми шоирони арабро ҳарфҳои мутаҳаррик ва сокин муайян менамояд. Дар назми форсӣ-тоҷикӣ бошад, ҳиҷо ва навъҳои он муайян месозанд. Аз ин гуфта мо

бевосита якчанд тафриқаҳое байни арӯзи арабу ачамро пай бурданамон мумкин. Ин фаркиятҳои дар арӯзи арабу ачам тағйир додани доираҳо ва баҳрҳои он аст. Дар доираи арабӣ 16 намуди баҳри солим мушоҳида мешаванд. Дар арӯзи форсӣ-тоҷикӣ шаклҳои солими 42 баҳр ва навҳои музофои онро дидан мумкин аст. бунёди шеърӣ форсу тоҷикро шуароӣ ин қавм дар асоси се роҳ асоснок кардаанд:

1. Баъзе шаклҳои шеърӣ халқи тоҷик (вазни рубоӣ ахрабу ахрам) ба вазни анаъанавии арӯз мувофиқ кунонида шуд.

2. Аз рӯи талаботи вазни арӯзӣ талаффузи баъзе калимаҳо тағйир ёфт, ки ин як навъ имконоти шоир аст. масалан, натавонам, нат-во-нам, ҳаргиз, ҳа-р-гиз, аз ин, а-зин, бар ин, ба-рин ва амсоли инҳоро мисол овардан метавонем.

3. Дигаргунӣ ворид кардан ба арӯзи араб.

Аз гуфтаҳои болоӣ ба чунин хулоса омадан мумкин аст, ки арӯз дар ҳақиқат, дар адабиёти араб пайдо шуд. Доир ба ин улуми адабӣ дар адабиёти ин халқ рисолаҳои зиёде офарида шуданд. Аммо дар адабиёти форсӣ-тоҷикӣ низ баъзе табaddулоте доир ба ин илм ба назар мерасад, ки худи шоирон ба амал оварда аз рӯи қоидаву қонуни забони адабии тоҷикӣ мушоҳида мешаванд. Аз ин ҷост, ки ҳар яке (арӯзи арабу ачам) ба ҳамдигар ҳам ҷиҳатҳои наздикӣ ва тафовутҳои доранд, ки дар боло бо мисолҳо шарҳ дода гузаштем.

АДАБИЁТЛАР:

1. Таҳияи Урбатулло Тоиров. Ш.Қ. Розӣ. Ал-Мӯъҷам. Душанбе, саҳифаи 34.

2. М. Нарзиқулов. Муқаддимаи шеършиносӣ. “Сино”, Душанбе, 2004. Саҳифаи 9.

3. Насируддин Тӯсӣ. Меъёр-ул-ашъор. Таҳияи Урбатулло Тоиров. Душанбе, “Ориёно” соли 1992. Саҳифаи 19.

4. Насируддин Тӯсӣ. Меъёр-ул-ашъор. Таҳияи Урбатулло Тоиров. Душанбе, “Ориёно” соли 1992. Саҳифаи 20.

НОДИРА “ДЕВОН”И НАШРЛАРИГА ДОИР МУЛОҲАЗАЛАР

Ражабова Маърифат Бақоевна,

*Бухоро давлат университети
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори,
филология фанлари доктори.*

marifar.bakaeva@mail.ru

Нематуллаева Маржона Хикматулла қизи,

*Бухоро давлат университети
матншунослик ва адабий
манбашунослик таълим йўналиши
II босқич магистранти*

Аннотация: Мақолада Моҳларойим – Нодиранинг А. Қаюмов томонидан 1958 йилда амалга оширилган “Нодира. Шеърлар”, Маҳбуба Қодирова томонидан 1963 йилда нашрга тайёрланган “Девон”и, 1979 йилда “Шарқ классик меросидан” рўқни остида “Нодира шеърятидан” ҳамда 2001 йилда Нодира-Комила “Девон” номи остида нашр қилинган девонидаги лирик шеърлари матн қиёсий ўрганилган. Ушбу нашрлардаги матний тафовутларнинг бадиий матнга таъсири таҳлиллар орқали кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: Нодира, девон, анъана, газал, нашр, матн, матншунослик, сўз, ҳарф, маъно.

КОММЕНТАРИИ К РЕДКИМ ПУБЛИКАЦИЯМ ПРОИЗВЕДЕНИЯ НОДИРЫ «DEVON»

Аннотация: В статье в сравнительном аспекте проанализированы произведения Моҳларойим - Нодиры «Нодира Стихотворения», опубликованные А.Каюмовым в 1958 году, «Девон» Маҳбубы Қадировой, подготовленный к печати в 1963 году, «Поэзия Нодиры» - 1979 году в рубрике «Восточное классическое наследие» и лирические поэмы Нодиры-Камилы в девоне, изданные в 2001 году под названием «Девон». Посредством анализа показано влияние текстовых различий в этих изданиях на художественный текст.

Ключевые слова: Нодира, деван, традиция, газель, публикация, текст, текстология, слово, буква, значение.

COMMENTS ON THE "DEVON" OF NODIRA PUBLICATIONS

Annotation: In this article Mohlaroyim - Nodira's A. "Nadira" written by Kayumov in 1958. Poems", Mahbuba Kadirova's "Devon" prepared for publication in 1963, "Nodira's poetry" in 1979 under the heading "Oriental classical heritage" and Nodira-Komila's lyrical poems "Devon" published in 2001 under the name "Devon" were comparatively studied. The effect of the textual differences in these publications on the artistic text was shown through analysis.

Key words: Nadira, devan, tradition, ghazal, publication, text, textology, word, letter, meaning.

Қириш. Нодира –Қўкон адабий муҳитининг шаклланишида муҳим роль ўйнаган шахслардан бири. Асли исми Моҳларойим бўлиб, Нодира унинг адабий таҳаллусидир. Бундан ташқари, ўзбекча шеърларини Комила, форсий асарларини Макнуна таҳаллуси билан ёзган. Нодирадан бизга бой маънавий мерос қолди. Мутахассисларнинг этирофича, бугунги кунда биз Нодиранинг ўзбек ва форс-тожик тилларида яратган 10 минг мисрага яқин лирик меросига эгамиз.

Шоира лирик меросига оид турли йўналишда тадқиқотлар олиб борилган. Жумладан, Нодира девонларининг нашрлари Истиклолга қадар ва ундан кейин оид амалга оширилди. 1958 йилда А. Қаюмов томонидан “Нодира. Шеърлар лар”, Маҳбуба Қодирова томонидан 1963 йилда “Нодира. Асарлар” девонининг I ва II жилдлари, 1979-йилда “Нодира-Комила” девони, 1979 йилда “Шарқ классик меросидан” рўқни остида “Нодира шеърятидан”, 2001 йилда “Нодира-Комила” каби ўнлаб нашрлари амалга оширилди. Албатта, бу нашрларнинг дунё юзини кўриши катта меҳнатнинг натижаси бўлиб, матншунос олимларлардан фидойиликни талаб қилади.

Таъкидлаш керакки, мумтоз адабиётимиз намояндаларининг асарлари қайта-қайта нашр қилиниши қувонарли ҳол. Бироқ, бу нашрларнинг барчасидан кўнглимиз тўлиши қийин. Бизнинг Нодира девонлари устидаги кузатувларимиз шундай хулосага келишимизга асос бўлди. Албатта, биз матншуносларнинг бу борадаги меҳнатларини эътироф этган ҳолда, нашрлардаги баъзи тафовутли ўринларни таҳлилга тортмоқчимиз. Бу тафовутли ўзгаришлар ҳарф ва сўз алмашини каби кўринишларда кўзга ташландики, улар матн мазмунига маълум маънода салбий таъсир кўрсатади. “Матн ҳақиқатини тиклашда, мумтоз адабиётимиз намуналарини нашр этишда ҳар бир белги, ҳарф, сўз мутахассиснинг зийрак назаридан ўтсагина ”улкан иш”нинг муваффақиятини таъминлаш имкони туғилади”[5].

Асосий қисм.Нодиранинг девонининг 1958, 1963 ва 1979, 2001 – йиллардаги нашрларидаги матний тафовутларни баъзиларини кўрсатиб ўтмоқчимиз:

1963-йилдаги нашрда 21 – рақам остида берилган “**Тулға десам йўқ кафи пойнингга тоб**” мисраси билан бошланувчи ғазал шоира девонининг 1979- йилдаги нашри билан қиёслаганда улар ўртасидаги матний тафовут сўз алашини тарзда содир бўлгани кўринади.

1963 йилдаги нашрда ғазалнингтўртинчи байти:

Турфа саволе лабидин сўрди **ёр,**
Жон берайин бўлмаса ширин жавоб.

1979- йилдаги нашрда:

Турфа саволе лабидин сўрди **ёд,**
Жон берайин бўлмаса ширин жавоб – тарзида берилган.

Байтда лирик қаҳрамон (ошиқ) турфа саволларига жавоб бермаган ёрнинг ширин лабига “жон бериши” бадий талқин қилинган. Кўриниб турибдики, байт мазмуни “ёд”сўзини қабул қила олмайди.

Мазкур ғазалнинг еттинчи байти шоира девонинг 1958- йилда нашр қилинган “Нодира. Шеърлар” тўпламида:

Мойили зулм этма кўзинг **таркини,**
Йўкса қилур мардум уйини хароб.

Мазкур байт 1979 йилдаги нашрда “туркини” тарзида берилган.

Мойили зулм этма кўзинг **туркини,**
Йўкса қилур мардум уйини хароб.

“**Тарк**” сўзи Навоий асарлари луғатида “ташлаш, воз кечиш, баҳридан ўтиш” [3.624]маъноларида қўлланилган. “**Турк**”сўзи эса “шўх, гўзал” [10.784]маъноларидаги сўз.

Байтнинг насрий баёни: “Гўзал ва шўх кўзингни зулмга мойил қилма, йўкса мардум уйини хароб этади”.

Мумтоз ғазалиётда маъшуқа кўзи турли ташбеҳлар билан тасвирланади. Ошиқ маъшуқа кўзларининг зулмкорлигидан зорланади, ундан мурувват кутади. Бу аъанавий тасвирдан фойдаланмаган ижодкорлар бўлмаса керак. Демак, юқоридаги байтда маъшуқа кўзини “шўх ва гўзал” сифати билан васф қилган Нодира унинг зулмдан йироқ бўлишини сўрайди. Байтда “мардум” сўзи “одамлар, кишилар” ҳамда “кўз қорачиғи” маъносидаги сўз. Байтнинг мазмуни ҳар иккала маънони ҳам қабул қилади. Бу эса ийҳом санъатини ҳосил қилади.

“**Сайд этти мени ул икки қуллоб**” дея бошланувчи ғазалининг тўртинчи байти 1958-йилги нашрида:

Гирдоба эрур кўзимнинг ёши,
Ошиқни ҳалок этар бу гирдоб.

Биринчи мисрадаги “**гирдоба**” сўзи 1979 йилги нашрида:

Гирдоб эрур кўзимнинг ёши,

Ошиқни ҳалок этар бу гирдоб- “**гирдоб**” шаклида учрайди. “**Гирдоб**”сўзи “сувдаги чуқурлик, қуюн”[4.135]деган маънони англатади. “Гирдоба” сўзининг изоҳи эса луғатларда кузатилмайди. “Гирдоб” сўзи байтда икки ўринда қўлланган бўлиб, тақрорга асосланган радд- ул-садр илал –ажуз (Садрнинг ажурда тақрорланиши) ҳосил қилган.

Байтнинг насрий баёни: “Кўзимнинг ёши гирдобдир, бу гирдоб ошиқни ҳалок этади”. Сўз таркибидаги бир ҳарфнинг алмашиши сўзни “маъносиз” шаклга солиб қўйган.

Нодира шеърлари матни ўртасидаги бундай тафовутни “**Эй, хушо, шиша аро**” мираси билан бошланувчи ғазалда ҳам кузатишимиз мумкин.

Ғазалнинг биринчи байти 1958йилги нашрда шундай берилган:

Эй, хушо шиша аро оби ҳаёти хукамо,

Ким анинг ҳар киши **айтса бўлур** Хизрнамо.

Мазкур байт 1979 йилги нашрда **“айтса бўлур”** жумласи ўрнида **“нўш этмоқ”** тарзида берилган.

Эй, хушо шиша аро оби ҳаёти ҳукамо,

Ким анинг ҳар киши **нўш этса** бўлур Хизрнамо.

“Нўш этмоқ” сўзининг маъноси “ичмоқ” дир [2. 644]. Байтнинг насрий баёни: “Эй хуш (яхши) инсонлар, шиша қадаҳда ҳақимларнинг оби ҳаёти (ҳикмат) бор, ким уни ичса (нўш этса) Хизр каби бўлади”.

Байтда Хизр (а.с) ҳамда “оби ҳаёт” билан боғлиқ воқеаларга ишора қилинган. Хизр ривоятларга кўра, “оби ҳайвон”- тириклик сувини излаб топган ва ундан ичиб доимий тирик юрадиган пайгамбарнинг исми. Демак, мазмунидан англашиладики, байт “айтмоқ” жумласини эмас балки, “нўш этмоқ” бирикмасининг маъносини “ҳазм қилади”. Шундай қилинганда ғазал вазнида ҳам сакталик бўлмайди.

Нодиранинг **“Ёр лаълин ёд этармен”** дея бошланувчи ғазали нашрида ҳам таввофутли ўринлар кузатилади. Ғазалнинг тўртинчи байти 1958 йилги нашрда:

Соврулурман ҳажр водийси аро, Мажнун **киби**,

Хизр қилғондек ватан сарчашмаи ҳайвон кўруб.

Мазкур байт 1963 йилги нашрда:

Соврулурман ҳажр водийси аро, Мажнун **мени**,

Хизр қилғондек ватан сарчашмаи ҳайвон кўруб,- тарзида берилган. Ушбу байтнинг насрий баёнига эътибор қаратсак: “Хизр ўзига тирикликни абадий ватан қилгани каби мен ҳам айрилиқ водийсида Мажнундек совруламан”. Нашрда “каби” ўхшатиш воситаси “мени” сўзи билан алмашган, бу эса байт маъносига салбий таъсир кўрсатган.

Мумтоз матнлардаги нафақат сўз, ҳатто бир ҳарфнинг алашиниши ҳам уни маънодан узоқлаштиради, муаллиф айтмоқчи бўлган фикрдан китобхонни чалғитади. Бундай “жузъий” нуқсонлар Нодира девонлари нашрида анчагина. Жумладан, шоиранинг **“Баҳор келди”** дея бошланувчи ғазалнинг еттинчи байти 1958-йилги нашрда:

Юзинг наззораси **ўшшоқ**ларни фирдавси,

Ҳарими дарғаҳинг аҳбоба жаннат-ул-маъво,-тарзида берилган. Мазкур байт 1963-йилги нашрда куйидагича берилган:

Юзинг наззораси **ушшоқ**ларни фирдавси,

Ҳарими дарғаҳинг аҳбоба жаннат-ул-маъво.

“Ушшоқ” - ошиқлар, “ўшшоқ”нинг эса луғатлардаги изоҳи мавжуд эмас.

Шоиранинг **“Берай жон висол ичра”** деган мисралар билан бошланувчи ғазалида ҳам сўз таркибидаги ҳарфнинг (**х-ж**) алмашинини содир бўлган.

Мазкур ғазал 1958 йилдаги нашрда:

Қадинг мисраи шўху **баржастадур**,

Бўлиб хуси девонидин мунтаҳаб,- тарзда берилган бўлса, 1963 йилги нашрда 24-тартиб рақамида берилган бўлиб, ғазалнинг тўртинчи байти куйидаги шаклда берилган:

Қадинг мисраи шўху **баржастадур**,

Бўлиб хусн девонидин мунтаҳаб.

Байтдаги **“баржаста”** сўзига Порсо Шамсиев томонидан тузилган луғатда “бўртиб турган, кўзга кўринарли” деб изоҳ берилган. Байтда машуқа қадди шоир девонида “кўзга кўринган ва ажратиб олинган” мисрага ўхшатиляпти. Бу ўринда “баржаста” маъносини ифодаловчи сўзни берган маъкул.

“Май ичсанг, эй қўнгул, элдин ниҳон ич” мисраси билан бошланувчи ғазалда ҳам шундай нуқсон кўзга ташланади.

1963 йилги нашрда:

Будур мазмуни мавжи бодаи ноб

Ки саҳбо пийрни айлар **жувон**, ич

1979 йилги нашрда:

Будур мазмуни мавжи бодаи ноб

Ки саҳбо пийрни айлар **жавон**, ич.

Ушбу байтларни матний тадқиқ этадиган бўлсак, иккала нашрдаги **“жувон”** ва **“жавон”** со‘зларини маъносига эътибор қаратамиз. “Жавон” сўзи “ёш, янги, зўр” маъноларини англатади. “Жувон”- “ёш йигит” маъносини англатади [1.552]. Бир қараганда ҳар иккала сўзнинг луғавий

маъноси байт маъносига уйғундай туюлади. Бироқ улар ўртасида фарқ борлиги изоҳдан ҳам аёнлашяпти.

Насрий баён: “Тоza тиниқ майни ичишнинг завқи шундаки, у қари кишини **ёш йигитга** айлантиради”. Кўришиб турибдики, нашрда “жувон”- “ёш йигит” маъносини ифодаловчи сўзни берган маъқул.

Нодиранинг машхур “**Нигори гулбаданимни тушумда кўрсам эдим**” мисраси билан бошланувчи ғазалининг олтинчи байти 1963- йилги нашрда:

Жафои ҳажр била кўксуми **нигор** қилай,

Нигоҳи сеҳр фанима тушумда кўрсам эдим.

1979-йилги нашрда:

Жафои ҳажр била кўксуми **фигор** қилай,

Нигоҳи сеҳр фанима тушумда кўрсам эдим.

“**Фигор**”- “жароҳатли, ярали”, “нигор” сўзи эса “ маъшуқа” маъносини ифодалайди [10.638].

Биринчи мисрада лирик қаҳрамон –ошиқнинг кўкси жафойи ҳажр билан жароҳат қилиниши тасвирланган. Кўринадики, “нигор” сўзи шоир муддаоси учун бўйсунмайди.

Нодирабегимнинг “**Гар аҳли вафо истаса кошона саломат**” деб бошланувчи ғазалининг иккинчи байти 1958-йилги нашрда:

Ул ҳусн **шифойида** кўнгул куйса ажабмас,

Қолғайму чароғўтида парвона саломат.

1963- йилги нашрда:

Ул ҳусн **шуойида** кўнгул куйса ажабмас,

Қолғайму чароғўтида парвона саломат.

Мазкур байтлардаги “**шуойи ва шифойи**” сўзларининг ўзаро нашрларда фарқланганлигини кўришимиз мумкин. “Шифойи” сўзи “шифо топмоқ, тузалмоқ” маъносини билдирса, “шуойи” [3.528] сўзи эса “шуъла, нурлар” маъносини ифода этади.

Байтнинг насрий баёни: “Ул ҳусн шуъласида кўнгул куйса ажабмас, ахир парвона чироғўтидан соғ қоладими? Кўришиб турибдики, “**шифойи**” сўзида ҳаёт мантиғи бузилган.

Нодира девони 2001- йилда ҳам нашр қилинди. Мазкур нашр ҳам Маҳбуба Қодирова томонидан тайёрлаган матн асосида амалга оширилди. Мазкур нашрда Нодиранинг ўзбекча ва тожикча шеърлар киритилган. Бу нашрда ҳам маълум матний тафовутларни кузатишимиз мумкин. Жумладан, шоиранинг “**Чаман риёзида гулгашти маргзор қилиб**” мисрали ғазалининг тўртинчи байти 2001-йилги нашрда:

Қилурман ишқу жунун карвониға имдод,

Сиришк **нофаларин** ашқи шашқатор қилиб, - тарзида берилган.

Байтдаги, “**нофа**” сўзи “мушк, мушқдон” маъносини ифода этади. Мазкур байт 1968- йилдаги нашрда эса куйидагича берилган:

Қилурман ишқу жунун карвониға имдод,

Сиришк **ноқаларин** ашқи шашқатор қилиб.

Ноқа” сўзи эса “урғочи туя, туя” маъносини билдиради. Шоир ишқ ва телбалик карвониға кўмаклашган ошиқ кўз ёшларини ноқага қиёс қилган. Бундан ташқари байтдаги “**карвон**” сўзи матнда “**ноқа**” сўзининг қўлланишини талаб қилади. Шундай қилинса, шоир қўллаган бадий тасвирий восита “озор” топмайди.

Хулоса. Таҳлиллардан кўришиб турибдики, мумтоз ижодкорларнинг асарлари нашридаги биргина сўзнинг тушиб қолиши ёки алмашиши маънога салбий таъсир қилиши билан бирга, муаллифнинг асл мақсадидан ўқувчини йироқлашишига сабаб бўлади. Албатта, Нодира девонларининг кейинги нашрларида бундай нуқсонларнинг олдини олиш матншунослигимиз олдидаги муҳим муаммолардан биридир. Моҳларойимнинг ижодини кенг миқёсда ўрганиш, ундан бизга мерос бўлиб қолган девонларини тадқиқ қилиш адабиётшунослигимиз олдидаги муҳим вазифалардан бири саналади.

АДАБИЁТЛАР :

1. Алишер Навоий асарларининг изоҳли лугати, I том. – Т.: Фан, 1983.
2. Алишер Навоий асарларининг изоҳли лугати, II том. – Т.: Фан, 1983.
3. Алишер Навоий асарларининг изоҳли лугати, III том. – Т.: Фан, 1983.
4. Ботирбек Ҳасанов. Навоий асарлари учун қисқача лугат. – Т.: Фан, 1993.

5. Раҳмонов В.Матн ҳақиқати. <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2010-sp-1384366982/>
6. Нодира. Шеърлар. – Т.: Ўз.ССР давлат бадийи наириёти, 1958.
7. Нодира. Девон. (Ўзбек ва форс-тожик тилларидаги шеърлар). – Т.: Ўзбекистон ССР фанлар академияси наириёти.1963.
8. Нодира шеърятидан. – Т.: Ўзбекистон КП Марказий комитетининг наириёти. 1979.
9. Нодира- Комила. Девон.Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси наириёти. – Т.: 2001.
- 10.Шамсиев Порсо.Навий асарлар луғати. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат наириёти

“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONI HAZORA NUSXASI HAQIDAGI DASTLABKI
KUZATISHLAR

Oripov Jahongir Raupovich,

*Buxoro davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

www.jahongiroripov1202@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Buxoro san’at muzey-qo‘riqonasida saqlanayotgan, turkiy tilda bitilib, Durbekka nisbat berilgan “Yusuf va Zulayxo” dostonining 1853-yilda hozirgi Afg‘onistonning Hazora viloyatida Mirzo Izzatulloh Xoksor tomonidan ko‘chirilgan nusxasining muhim ilmiy jihatlari xususida so‘z yuritiladi. Adabiyotshunos Sh. Sharafiddinov (Xurshid) tomonidan ushbu doston 1615-yilda Muhammad binni Said Mirzo Ahmad Buxoriy ko‘chirgan nusxa asosida ikki marta nashr etilgan bo‘lib, maqolada Hazora nusxasining undan farqlanuvchi matniy xususiyatlari tasnif va tahlillar asosida ko‘rsatib beriladi. Dostonning muallifi masalasi aniqlik kiritilib, Hazora nusxasi asosida doston nashrlaridagi boblar nomlanishidagi farqliliklar, boblarning qisqartirilishi, tushurilib qoldirilishi, shuningdek, sujetdagi hamda ayrim so‘zlar bilan bog‘liq ma‘nodagi tafovutlar qiyosiy aspektda aniqlashtiriladi. Hazora nusxasining muhim ilmiy qimmatini dalillanadi.

Kalit so‘zlar: Durbek, “Yusuf va Zulayxo” dostoni, Muhammad binni Said Mirzo Ahmad Buxoriy, Mirzo Izzatulloh Xoksor, Hazora nusxasi, muallif masalasi, boblar nomlaridagi tafovutlar, boblarning qisqartirilishi, ma‘noviy farqlar.

ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ ПО ХАЗОРСКОЙ ВЕРСИИ ЭПОСА
“ЮСУФ И ЗУЛЕЙХА”

Аннотация: В статье говорится о важных научных аспектах копии эпоса «Юсуф и Зулейха», написанной на турецком языке и приписываемой Дурбеку, хранящейся в Бухарском художественном музее-заповеднике, и переписанной Мирзой Иззатуллахом Хоксаром в 1853 году в области Афганистана Хазора. Литературоведом Ш. Шарафиддиновым (Хуршидом) этот эпос был дважды издан в 1615 году по копии, переписанной Мухаммадом бин Саид Мирзой Ахмедом Бухари. Уточняется вопрос об авторе эпоса, а также выясняются различия в названиях глав в редакциях эпоса, сокращения и опущения глав, а также различия в тематике и значении некоторых слов в сравнительном аспекте на основе хазорской копии. Доказана важная научная ценность хазорской копии.

Ключевые слова: Дурбек, сага «Юсуф и Зулейха», Мухаммад бини Саид Мирза Ахмад Бухари, Мирза Иззатуллах Хоксар, хазорская копия, вопрос об авторе, различия в названиях глав, сокращение глав, смысловые различия.

PRELIMINARY OBSERVATIONS ON THE HAZORA VERSION OF THE EPIC OF
“YUSUF AND ZULAIKHA”

Annotation: The article talks about the important scientific aspects of the copy of the epic “Yusuf and Zulaikha” written in Turkish and attributed to Durbek, kept in the Bukhara Art Museum-Reserve, copied by Mirza Izzatullah Khoksar in 1867 in the Hazara region of present-day Afghanistan. This epic was published twice by Sh. Sharafiddinov (Khurshid) literary scholar in 1615 based on the copy by Muhammad bin Said Mirza Ahmed Bukhari. The question of the author of the epic is clarified and the differences in the names of the chapters in the editions of the epic, the shortening and omission of chapters, as well as the differences in the subject and the meaning of some words are clarified in a comparative aspect based on the Hazara copy. The important scientific value of the Hazara copy is proved.

Key words: Durbek, “Yusuf and Zulaikha” epic, Muhammad bini Said Mirza Ahmad Bukhari, Mirza Izzatullah Khoksar, Hazara copy, the question of the author, differences in the names of chapters, shortening of chapters, semantic differences.

Kirish. Musulmon Sharqi adabiyotida payg‘ambarlar, avliyolar, valilar, shayxlar va pirlar hayoti bilan bog‘liq voqealar bayon etilgan asarlar ko‘plab yaratilgan. Anbiyolar qissalari qalamga olingan asarlar orasida Yusuf alayhis-salom va Zulayxoning boshdan kechirganlari, ishqiy sarguzashtlari mashhur. Yusuf alayhis-salom nomi bilan Zulayxoning ismi birgalikda tilga olingan ilk asar bu Firdavsiyning “Shohnoma”sidir. Ungacha yozilgan Yusuf alayhis-salom haqidagi asarlarda ham, Yusuf qissasining manbasi bo‘lgan uch muqaddas kitob yoki hadislarida ham Zulayxo nomi uchramaydi. “Shohnoma”dan keyingi asarlarda esa Zulayxo ismi Yusuf nomi bilan yonma-yon keladi. Bu mavzuda Firdavsiydan so‘ng Saolibiy, Ibn Sino, Kisoiy, Abdurahmon Jomiy, Qul Ali, Shayyod Hamza Nosuriddin Rabg‘uziy kabi ijodkorlar asar yaratganlar.

Asosiy qism. Taniqli olim Geldi Nazarov “Yusuf va Zulayho” mavzusida asar yozgan 132 ijodkorni aniqlab ularning ro‘yxatini shakllantirgan.[1] Bunday asarlar qatorida Dubekning “Yusuf va Zulayxo” dostoni ham alohida ahamiyatga molik. Biz hozirda o‘rganayotgan asarning qo‘lyozma nusxasi hozirgi Afg‘onistonning Hazora viloyatida kotib Mirzo Izzatulloh Xoksor tomonidan hijriy 1269-yil, Hut oyining 26-sanasida (milodiy 1853-yil) ko‘chirilgan. Mazkur qo‘lyozma ayni paytda Buxoro san‘at muzey-qo‘riqxonasida 27891/11 inv. raqami ostida saqlanadi. Qo‘lyozma ja‘mi 149 sahifadan iborat. Asar matni 91 bob, 2407 baytdan iborat. 1^a varaqda matn 11 qatorli qilib (boblar nomini va asosiy matnini qo‘shib hisoblaganda), 1^b varaqdan to 6^a varaqgacha 15 qatorli qilib, 6^b varaqdan 74^b varaqgacha 17 qatorli qilib ko‘chirilgan. So‘nggi 75^a varaq 6 qatorli doston matni va 8 qatorli kotib ilova qilgan kalafon qismidan iborat. Sahifalarga qizil siyoh bilan ikki qator qilib tortilgan chiziq bilan maxsus hoshiya chizilgan bo‘lib, matn shu hoshiya ichida yozilgan. Asardagi ilk bob “Bismillahir Rohmanir Rohiyim” (بِسْمِ اللّٰهِ الرَّحْمٰنِ الرَّحِیْمِ) deb nomlangan. Mazkur bobidagi dastlabki ikki bayt:

"حمد سپاسی ملک لم نزل
بیلگان ایروور بنده خیر العمل
راحیمن رحمن سمیع و بصیر
یوقتور ایننگ زاتینه شبه نظر"

(Hamd siposi maliki lam yazal,

Bilgon erur bandayi xayrul amal.

Rohiyim-u Rohman-u Sami' va basir,

Yo‘qtur Oning zotida shubha nazir.)[2. 1^a varoq] misralari hoshiya ichida yozilgan bo‘lsa ham ularning atrofiga yana qo‘shimchasiga qizil siyohda uzuq chiziqchalar chizilgan va bu bilan har bir misra maxsus gardish ichiga olingan. Hoshiyaning tashqi qismidagi bo‘sh joydan esa kotib quyidagi maqsadda foydalangan: 1)poygirlar berilgan; 2)matnni ko‘chirish paytida tushirib qoldirilgan misralar ilova qilingan; 3)matnni ko‘chirish jarayonida tushunarsiz bo‘lib qolgan, bulg‘ashib qolgan so‘zlar to‘g‘irlanib o‘sha so‘z qatnashgan misraning to‘g‘risiga hoshiyadan tashqari qismga yozib qo‘yilgan. Bundan tashqari 3^a varaqda "kimki aofusa va bitisa moni فاتحه بیرله (Kitob nazmining ibtidosi) sarlavhali bobi "Kimki o‘qusa va bitsa muni, Fotiha birla sog‘ing‘oy meni.) bayti bilan tugaydi[2 3^a varoq]. O‘sha qismidagi hoshiyada "تمام مولف" (Tamomi muallifi kitob) ko‘rinishidagi qayd uchraydi. Ammo bu qayd kotib tomonidan yozilgan deya olmaymiz. Chunki bu qaydning yozuv uslubi va siyohi matnnikidan farq qiladi. Aynan shu joyda 4-bobi "حضرت یوسف و زلیخاتینگ کتابین ایبتیداسی" (Hazrati Yusuf va Zulayxoning kitobin ibtidosi) sarlavhasi bilan boshlanadi [2. 3^a varoq]. Bu holatni kitobni o‘qigan kimdir mazkur 4-bobdan muallifning hamd va na‘tlari tugab, doston voqealari boshlanganini bildirish uchun bu qaydni yozib qo‘ygan deb taxmin qilishimiz mumkin. Qo‘lyozmaning kalafon qismi quyidagicha berilgan: "kimki aofusa va bitisa moni فاتحه بیرله ساغینغای منی. اه نی خوشدورکی چیکیب درد رنج اوچراسا طالبگا یانا وصل گنج. تمتالکتب هازا نسخه در بیتسا مونى فاتحه بیرله ساغینغای منی. ولایت هزارا دوست میرزا عزت الله خاکسار. در یوم...".
Oh na xush durki, chekib dard-u ranj, Uchrasa tolibga yana vasli ganj. Tammatul kitab, haza nusxa dar viloyati Xazora, Do‘sti Mirzo Izzatulloh Xoksor, dar yavm ... bist hashtum hut dar omadi baqor. 1269 bi itimomi rosid.) [2. 75^a varoq]Kalafon qismidan qo‘lyozmani ko‘chirgan kotib, qo‘lyozma kitobat qilingan sana va joy haqida ma‘lumot olishimiz mumkin. Ammo shu vaqtgacha mavjud bo‘lgan biror bir adabiyotda yoki manbada ushbu nusxa haqida ma‘lumot uchramaydi. Doston hijriy 812-yil (milodiy 1409-yil)da yozilgan bo‘lib, ilmiy jamoatchilikka ushbu asarning biz o‘rganayotgan qo‘lyozma nusxasidan tashqari yana 9ta nusxasi ma‘lum. Manbalarda ularning ayrimlari haqida ma‘lumotlar uchraydi:

1) 1516-yilda (hijriy 922-yil) ko‘chirilgan nusxa. Turkiyaning To‘pqopi saroy-kutubxonasida saqlanadi. Mazkur qo‘lyozma ko‘chirilish tarixi nuqtayi nazaridan fanga ma‘lum eng qadimgi nusxa hisoblanadi;

2) 1563-yilda (hijriy 971-yil) ko'chirilgan nusxasi. Parij kutubxonasida (inv. № 1365) raqam ostida saqlanadi. Fransuz sharqshunosi Ed. Bloshe o'sha nusxaning tarkibida mavjud xalifa Aliga bag'ishlangan bobdagi **"Xudoning she'ri Ali"** jumlasiga tayanib uni Alisher Navoiyga nisbat beradi;

3) 1615-yilda (hijriy 1024-yil) Muhammad binni Said Mirzo Ahmad Buxoriy tomonidan ko'chirilgan nusxa. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining qo'lyozmalar fondida (inv. № 128.) raqam ostida saqlanadi. Uning asosida adabiyotshunos Sh. Sharafiddinov (Xurshid) dostonning kirill yozuvagi nashrini tayyorlagan;

4) Samarqandlik ma'rifatparvar Abduhamid Po'lotiy shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan "Yusuf va Zulayxo" qo'lyozma nusxasi. Bu haqida B. Valixo'jayevning "O'zbek epik poeziyasi tarixidan" kitobida ma'lumot beriladi.

"Yusuf va Zulayxo" dostoni 1915-yilda Sh. Sharafiddinov (Xurshid) tomonidan kirill yozuviga ko'chirgan. Yuqorida aytganimizdek U bu tabdilda hijriy 1024, milodiy 1615-yilda Muhammad binni Said Mirzo Ahmad Buxoriy tomonidan ko'chirilgan nusxasini asos qilib oladi. Sh. Sharafiddinov tayyorlagan matn asosida asar bugungi kunga qadar ikki marotaba nashr qilingan. Ilk nashr alohida holda 1959-yilda "Fan" nashriyotida bosib chiqarilgan. Ushbu nashrdagi doston 93 bob 2377 baytdan iborat. Ikkinchi nashr 1986-yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida "Uch bulbul gulshani" to'plami tarkibida keltirilgan. Ushbu nashrdagi doston matnini 1959-yildagi nashr asosida R. Sharafutdinova tayyorlaydi. "Uch bulbul gulshani" tarkibidagi doston qayta ishlangan matn bo'lganligi uchun bu ikki nashr o'rtasida ayrim tafvutli o'rinlar bor. Birinchidan, 1959-yildagi nashrda doston **"Hamd siposi maliki lam yazal, Bilgon erur bandayi xayrul amal..."** [3. 19-s]bayti bilan boshlanadi. "Uch bulbul gulshani" tarkibidagi doston nashri esa **"Kitob nazmining ibtidosi"** bob sarlavhasi ostida **"Balx erur dahrda ummul bilod, Mazhari Islom-u taqi adl-u dod."** misralari bilan boshlanadi. Bundan ko'rinadiki, 1986-yilda chop etilgan "Uch bulbul gulshani" tarkibidagi nashrda 1959-yildagi nashrdagi avvalgi 2 bob va ular o'z ichiga olgan 20 bayt mavjud emas. Ikkinchidan, "Uch bulbul gulshani" tarkibidagi dostonda ayrim o'rinlarda boblar tarkibidan baytlar tushirib qoldirilgan. Uchinchidan, "Uch bulbul gulshani" tarkibidagi doston ba'zi boblar to'liq berilmasdan, nasriy bayon ko'rinishida muxtasar shaklda berilgan. To'rtinchidan, davr talabi bilan "Uch bulbul gulshani" tarkibidagi doston **"Tengri taolo, alayhissalom, Rasuli xudo..."** kabi jumlar o'rnida shunchaki uch nuqta qo'yib ketilgan. Yuqoridagilarga asoslangan holda biz 1959-yildagi nashrni 1986-yildagi nashrga nisbatan to'laroq nashr deb ayta olamiz.

Doston nashrlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularning birortasida muallif nomiga ishora ishora qiluvchi jumla uchramaydi. Shu bois bo'lsa kerak hozirga qadar "Yusuf va Zulayxo" dostonining muallifi masalasi bir muncha munozarali bo'lib qolmoqda. To'g'ri, bu borada B. Valixo'jayevning tadqiqotlari bor. Olim 1970-yillarda Samarqandlik ma'rifatparvar Abduhamid Po'lotiy shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan "Yusuf va Zulayxo" qo'lyozma nusxasidagi **"Ayladi bu qissani Durbek nazm"** misraga asoslanib, dostonning muallifi Durbek ismli shoir ekanligini aytadi. Ammo bu haqida qat'iy bir fikr bildirilmagan. Masalan, qator yillarda 9-sinf o'quvchilari uchun tayyorlangan adabiyot darsligida "Yusuf va Zulayxo" dostoni muallifi noma'lum asarlar qatoriga kiritilgan. Boshqa bir adabiyotlarda Ulug'bek, Homidiy Balxiy kabi ijodkorlar doston muallifi bo'lishi mumkinligi aytilgan.[4.] Fransuz sharqshunosi Bloshe esa Parij muzeyining qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan "Yusuf va Zulayxo" dostoni nusxasini Alisher Navoiyga nisbat beradi.. Biz o'rganayotgan Mirzo Izzatulloh Xoksor ismli kotib ko'chirgan Hazora nusxasida ham B. Valixo'jayevning fikrlariga mos ravishda muallif masalasini aniqlashtirish imkoni beriladi. Biz qo'lyozmadagi **"Erdi chu xotir chu musammam bu azm, Ayladi bu qissani Durbek nazm"** [2. 3^a varoq] baytiga asoslanib, uning shoir Durbekka tegishli ekanligini bilamiz. Joriy yozuvga tabdil qilingan har ikkala nashrda ushbu bayt **"Erdi chu xotir chu musammam bu azm, Ayladi bu qissani dar silki nazm"** shaklida berilgan.[3. 23-s]. Nashrdagi **"Ayladi bu qissani dar silki nazm"** jumlasini izoh qiladigan bo'lsak, undan "Bu qissani qalam eshigida nazm qildi, yozdi." degan ma'no chiqadi. Aynan shu holat ham doston matnidani kelib chiqib, uning muallifi kimligiga aniqlik kiritish uchun biroz noqulaylik keltirib chiqaradi.

Dastlabki kuzatishlarimizda bizda mavjud qo'lyozmaning nashrlar bilan bog'liq bir qancha tafvutlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Biz avvalo ushbu tafvutlarning asar hajmi va boblari bilan bog'liq tomonlari haqida so'z yuritamiz. Boblar o'rtasidagi tafvutlarni quyidagicha tasnif qildik:

- 1) boblarning miqdori bilan bog'liq tafvutlar;
- 2) boblar tarkibining hajmi bilan bog'liq tafvutlar;
- 3) boblarning nomlanishi bilan bog'liq tafvutlarliq tafvutlar

Boblar miqdoridagi tafvutga qaraydigan bo'lsak asarning 1959-yildagi nashrida doston 93 bobdan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Hazora nusxasining esa 91 bobdan iborat ekanligi aytib o'tdik. 1959-yildagi nashrida 1-bobga sarlavha qo'yilmasdan to'g'ridan to'g'ri doston matni ya'ni baytlar boshlangan.

Masalan, qo'lyozmada nashrdagi 5-bobi hisoblangan "Yusuf ko'rgan tushini og'olarig'a ayg'oni" [3. 26-s.] nomli bob berilmasdan mazkur bobdagi baytlar qo'lyozmadagi 5-bob "Yusuf og'olarining yomonlig' sog'ing'onlari" [2. 4^a varoq] (nashrda V bob "Yusuf og'olari yomon sog'ing'onlari" [3. 25-s.]) bobi tarkibiga aynan kiritilib ketilgan. Shuning natijasida nashrda V bob tarkibi 12 baytni, VI bob tarkibi esa 14 baytni tashkil qiladi. Qo'lyozmada esa V bob 26 baytni tashkil qiladi. Ammo ayrim o'rinlarda bir necha boblarni bir bob tarkibida berish va ular matnni tushirib qoldirish holatlari uchradi. Masalan, nashrdagi 3ta bob: 75-bob "Hazrati Ya'qubning nomasin eltib Yusufqa ko'rguzgoni" [3. 163-s.], 76-bob "Hazrati Ya'qub nomasin Yusuf olib ko'rgoni" [3. 163-s.], 77-bob "Hazrati Yusuf o'shal noma orqasinda javob bitkoni" [3. 164-s.] boblari qo'lyozmada birgina 74-bob "Hazrati Ya'qubning nomasin olib Yusufqa ko'rguzgoni" [2. 63^a] bobi tarkibida beriladi. Nashrdagi 3 bob tarkibidagi baytlarning umumiy hajmi (7+11+23) 41 baytdan iborat. Qo'lyozmada 74-bob 17 bayt hajmida berilgan. Budan ko'rinadiki, nashrda mavjud bo'lgan 24 bayt qo'lyozmada mavjud emas. Qo'lyozmadagi mazkur 74-bob tarkibidagi baytlarni ko'radigan bo'lsak unda nashrdagi 75-bobning 1-5- baytlar hamda 77-bobdagi 12-23- baytlar berilgan. Nashrdagi 76-bob sarlavhasi yoki uning tarkibidagi biror bir bayt qo'lyozmada uchramaydi. Ayni holat teskari ko'rinishda ham uchraydi. Qo'lyozmadagi 90-bob "Yusuf alayhissalom otosini ko'rarga borcha qullarini ozod qilg'oni" [2. 3^b] bob sarlavhasi nashrda uchramaydi. Qo'lyozmadagi 89-bob va 90-boblar nashrda 92-bob "Hazrati Ya'qub Yusufni ko'ra Misrga borgoni" (Qo'lyozmada: "Hazrati Ya'qub Yusuf alayhissalomni ko'rgoni Misrg'a borg'oni" tarzida 89-bobda berilgan [2. 71^b]) bobida berilgan. Qo'lyozmadagi 89- va 90-boblarning tarkibidagi baytlarning umumiy hajmi (68+35) 103 bayt, nashrda esa 92-bob 71 bayt hajmida berilgan. Nashrdagi ushbu bobda qo'lyozmadagi 89-bobdagi 1- 56-baytlar, 90-bobdagi 22-35 baytlar va 91-bobdagi 1-bayt berilgan. Ya'ni ushbu bob

...Hazrati Yusuf dedi: "Omin" - bu bu dam
Mavj ura boshladi bahri karam"

[Durbek. Yusuf va Zulayxo. 185-s], [Qo'lyozma. 74^b] misralari bilan tugaydi. Qo'lyozmada esa 91-bob "Hazrati Ya'qub alayhissalomning duosi birla farzandlar gunohin tilogoni" [2. 74^b] (Nashrda: "Hazrati Ya'qub va Yusufning duosi birla Yusuf og'olorining gunohini tengri taolo afv qilg'oni") bobi ushbu misralar bilan boshlanadi.

Bundan tashqari boblar joylashuvidagi ketma-ketlik ham nusxalarda turlicha tartibda joylashgan. Masalan, "Hazrati Yusuf alayhissalom Zulayxogo javob aytqoni" (nashrda 52-bob; Qo'lyozmada: 51-bob: "Hazrati Yusuf alayhissalom Zulayxog'a javob ayg'oni") bobidan keyin voqealar ketma-ketligi ham o'zgaragan. Voqealar rivojining nashrda va Hazora nusxasida turli tartibda berilishi albatta doston sujetiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Biz quyida boblarning joylashuvi bilab bog'liq tafovutni jadval ko'rinishida taqdim qilamiz:

T/r	Nashrda	Qo'lyozmada
1.	53-bob: Hazrati Yusuf Zulayxo bila sarguzashtlarni bir-birin so'zlashkonlari	52-bob: Zulayxo hazrati Yusuf alayhissalomg'a javob aytg'oni
2.	54-bob: Hazrati Yusuf alayhissalom sajdadin bosh ko'tarib Zulayxoni ko'rgoni	53-bob: Hazrati Yusuf Zulayxo sarguzashtin bir-bir bayon qilg'oni
3.	55-bob:Zulayxo uyiga shodmonliq bila kelgoni	54-bob: Hazrati Yusuf alayhissalom sajdadin bosh ko'tarib Zulayxoni ko'rgoni
4.	56-bob: Zulayxo hazrati Yusufqa javob aytqoni	55-bob: Zulayxo uyiga shodmonlig'lar bila kelgonidur
5.	57-bob: Zulayxog'a hazrati Yusufdin farzand bo'lg'oni	56-bob: Zulayxog'a hazrati Yusuf alayhissalomdin farzand bo'lg'oni

Boblarning sarlavhalarida matniy tafovutlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari ma'noga ham ta'sir qiladi.

T/r	Nashrda	Qo'lyozmada
1	Yusuf og'olari yomon sog'ing'onlari	Yusuf og'olarining yomonlig' sog'ing'onlari
2	Yusuf og'olari ko'ngloqin o'g'loq qonig'a bulg'og'onlari	Yusuf og'olari ko'ylokin o'g'loq qonig'a buyog'onlari
3	Bo'ri "Men Yusufni yemayman" – deb tilga kelgoni	Bo'ri "Yusuf alayhissalomni yeganim yo'q" – deb tilga kelgoni
4	Moliki tojir Yusufni Misrda tush ko'rib, mag'rib bila kelib, Kan'on ichinda tobqoni	Moliki tojir Yusufni tushinda ko'rib, Kan'on ichinda tobqoni

TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY

5	Podshohning vazirlarim Soqi bila Xabboz erdi, ikkalasini zindonga soldurg'oni	Podshohi Misrning vazirlari Soqi bila Xabboz erdi
6	Hazrati Ya'qub Misrga yana noma yuborgoni	Hazrati Ya'qub Misrg'a yana o'g'lonlarin yuborg'oni
7	Yusufga sut bergan doh munojot qilg'oni	Yusuf alayhissalomg'a sut bergan doya munojot qilg'oni
8	Hazrati Ya'qub va Yusufning duosi birla Yusuf og'olorining gunohini tengri taolo afv qilg'oni	Hazrati Ya'qub alayhissalomning duosi bila farzandlar gunohin tilogoni

1-misolimizdagi tafovut “og’olarining” so’zi tarkibidagi qaratqich kelishigida hamda “yomon” va “yomonlig’” so’zlarida ko’rinadi. Bizningcha qo’lyozmada berilgan sarlavha nashrdagiga nisbatan mantiqan to’g’riroq. Chunki nashrda berilgan **“Yusuf og’olari yomon sog’ing’onlari”** sarlavhada ma’no biroz tushunarsizroq bo’lib qolgan. Bob tarkibini o’qibchiqmagani odam bunda nima haqida gap ketayotgani ilg’ashi qiyinroq bo’ladi. Sababi o’zbek tilida “yomon” so’zi “sog’inmoq” fe’lidan oldin ishlatilsa “juda” manosi to’g’ri keladi. Masalan, “Seni yomon sog’indim.” deganda “Seni juda sog’indirm.” degan ma’no tushuniladi. Xuddi shunday doston bilan endi tanishayotgan, mazkur sarlavhani ilk bor o’qigan inson bu paytda “Yusuf og’alarini juda sog’inibdi” yoki “Yusufni og’alari juda sog’inibdi” deb o’ylashi mumkin. Ammo **“Yusuf og’olarining yomonlig’ sog’ing’onlari”** deyilsa Yusufga akalari yomonlik qilmoqchi ekanliklarini aniq anglab olish mumkin.

2-misolimizdagi tafovut “ko’ngloqin” va ko’ylokin” so’zlarida kuzatiladi. Mazkur so’zlar sinonim bo’lib “ko’loq, ko’nglok” so’zlari “ko’ylok” so’zining tarixiy shakli hisoblanadi. Bizningcha “ko’ngloqin” so’zi muallif matniga yaqinroq. Chunki qo’lyozma hijriy 1269-yil, Hut oyining 26-sanasi (milodiy 1853-yil) ko’chirilganini hisobga olganda balki bu paytda “ko’ngloq” so’zining qo’llanish doirasi torayib kotib “ko’ylok” so’zini qo’llagan bo’lishi mumkin. Bundan tashqari Durbekka yaqin zamondosh hisoblangan Navoiy ham “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Yusuf alayhissalom haqidagi bobda “...ko’nglakni qo’y qonig’a bulg’ab, Yusufni bo’ri yedi deb, qonlig’ ko’nglokni Ya’qub alayhissalom qoshig’a kelturdilar” deb yozganda “ko’nglok” so’zini qo’llaydi.

6-misoldagi sarlavhada nashrdagi “noma” jumlasini o’rniga qo’lyozmada “o’g’lonlarin” so’zi qo’llangan. Bob ichida berilgan matn ko’radigan bo’lsak mantiqan ikkala jumla ham sarlavha matni mazmuniga to’g’ri keladi. Chunki bu bobda Ya’qub alayhissalom o’g’illari orqali Yusufga noma jo’natgan bo’ladi.

7-misoldagi sarlavhada nashrdagi “doh” so’zi o’rnida qo’lyozmada “doya” so’zi qo’llanadi. Nashrda ushbu bob tarkibidagi 3ta bayt – 4-, 7- va 10- baytlarda ham “doh” so’zi qo’llangan.

Nashrda	Qo’lyozmada
Erdi o’shal lahza ba vaqti sahar, Qildi o’shal <i>doh</i> duosi asar.	Erdi o’shal lahza hu vaqti sahar, Qildi o’shal <i>doya</i> duosi asar.
Emdi o’shal <i>doh</i> bo’lubtur basir, Bekas erur, ojiz-u zor-u zahir.	Emdi o’shal <i>doya</i> bo’lubtur basir, Bekas erur, ojiz-u zor-u zahir.
Ko’rar o’shal <i>doh</i> Bashirin o’zi, Yorur oning vislati birla ko’zi.	Ko’rar o’shal <i>doya</i> Bashirin o’zi, Yorur oning vislati birla ko’zi.

8-misolda Yusuf og’alarining haqqiga, ularning gunohidan kechishni so’rab duo qilganlar nashrdagi bob sarlavhasida Yusuf (a.s) va Ya’qub (a.s)lar bo’lsa, qo’lyozmadagi sarlavhada faqat Ya’qub (a.s)ning nomi keltirilgan. Hazora nusxasi va 1959-yil nashridagi doston matnida bu kabi tafovutlar ko’plab uchraydi. Mazkur farqliklar ayrim o’rinlarda hatto doston umumiy mazmuni hamda uning sujetiga ham ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa. Maqolada “Yusuf va Zulayxo” dostonining har ikki nashri ham yagona qo’lyozma asosida amalga oshirilganligini aytib o’tdik. Ammo matnshunoslikda ma’lum bir asarning nisbatan mukammal, muallif matniga yaqin nusxasini yaratish uchun uning ilmiy-tanqidiy matni yaratiladi. Buning uchun o’sha asarning fanga ma’lum bo’lgan barcha nusxalari yig’ilib ular o’zaro solishtirilishi kerak. Biz o’rganayotgan Hazora nusxasida doston nashrlarida uchramaydigan bob va baytlarning mavjudligi, tafovutli o’rinlarning ko’zga tashlanishi va unda muallif nomiga ishora qiluvchi misraning keltirilishi uning mazkur ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda tayanch nusxa bo’la olish ehtimolini oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Сафарова Х. О. *Ҳазрати Юсуф – гўзаллик тимсоли. Тошкент Ислон университети. 2003.*
2. *Durbek Yusuf va Zulayxo. Hazorada 1983-yilda kotib Muhammad Xoksor tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi.*
3. *Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент, ФАН, 1959.*
4. *Vohidov R. J., Eshonqulov H. P. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 2008.*
5. *Уч булбул гулиани. Фафур Фулом. 1986.*



Navoiy gulshani

NAVOIYNING TATABBUNAVISLIK MAHORATIGA DOIR
(Jomiy g'azaliga tatabbusi misolida)

Bekova Nazora Jo'rayevna,
Buxoro davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori,
filologiya fanlari doktori (Dsc)
n.j.bekova@buxdu.uz

Kirish. Alisher Navoiyning tatabbu' g'azallarini nazardan o'tkazar ekanmiz, uning javobiya aytish an'analari doirasidan anchagina chetga chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ulug' o'zbek shoirining bunday harakati ko'proq mavzuning rang-barang qirralarini kashf etish, o'z maqsad-muddaosini obrazli ifodalash uchun urinishida ko'rinadi.

Jomiy:

Rezam zi mi'qa kavkab be mohi ruhat shabho,
Torikshabe doram bo in hama kavkabho.
Chun az dili garmi man bigzasht xadangi tu,
Az b'ysai paykonash shud obilaam labho.
Az baski giriforon murdand ba k'yi tu,
Bodash hama 'on boshad, xokash hama qolabho.
Az tobu tabi hi'ron guftam suxani vaslat,
Bud in g'azayon ore, xosiyati on tabho.
To dast barovardi z-on g'amza ba xunrezi,
Bar charx ravad har dam az dasti tu "Yo rabho".
Shud nasx xati yoqut, aknun hama ra'noyon
Ta'limi xat az la'lat girand ba maktabho.
'omā, ki pai mazhab atrofi jahon gashti,
Bo mazhabi ishqi tu gasht az hama mazhabho[1,12].

Navoiy-Foniy:

Be r'yi tu shud tira az ashk maro shabho,
Ravshan nashavad shabho be moh zi kavkabho.
Az tiragii hajrat shud r'yzu shabam yakson,
K-az shab siyaham r'yz ast v-az r'yz siyah shabho.
Ushshoq, ki az ha'rat kardand tihi qolab,
Boz az labi 'onbaxo'at 'on raft bo qolabho.
Be qaddi tu dar b'yston har shox ki purbarg ast,
Morest maro k-az vay ovexta aqrabho.
Yak qatra may, ey soqi, bas gar dihiyam, lekin.
Z-on may, ki turo gardad oluda ba on labho,
Man masti sharob, ey dil, zuhhodu g'ami kavsar.
Duri buvadam z-eshon az z'rii mashrabho.
Dar dayri mug'on, Fonī, yak 'om x'rad aknun,
Yak 'omi digar xohad bo nolai yo rabho [2,38].

Mazkur g'azalni Tojikiston fanlar akademiyasi akademigi A.M. Mirzoev Navoiy-Foniyning Jomiy g'azaliga tatabbusi sifatida keltiradi [4,46-47]. Biroq "Devoni Foniy"ning Toshkent nashridagi sarlavhada "Tatabbui Mir" tarzida kelgan. Amir Xusravning "Osori muntaxab"ida esa yuqoridagi g'azallarning uslub, radif va g'oyaviy-ma'naviy ruhiga monand ikki she'r mavjud [3, 79-82].

Amir Xusrav, Jomiy va Navoiy-Foniyning mazkur g'azallarini solishtirganimizda, ular orasida har jihatdan yaqinlik borligi aniqlandi. Ammo vazn va ohangdoshlik nuqtayi nazaridan Navoiy-Foniy g'azali Jomiy she'riga birmuncha yaqin turadi. Shu dalil misolida asarlararo aloqa va o'zaro ta'sirning doira bo'ylab

harakati koʻzga tashlanadi. Yaʼni Amir Xusrav gʻazaliga Jomiy va Jomiy sheʼriga esa Navoiy-Foniy tatabbuʼ qilgan koʻrinadi. Shu tarzda mantiqiy yakunga kelish mumkinki, izdoshlik anʼanasi va shartlilik zanjiri oʻz harakatini asrlar osha rang-barang koʻrinishlarda davom ettirgan.

Har ikkala gʻazalning ham mavzui bir. Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyning oʻynoqi bu gʻazaliga javob aytishga jazm etar ekan, uning mavzuini saqlash bilan bir qatorda, qofiyalarini ham deyarli aynan takrorlashga harakat qiladi. Navoiy-Foniy gʻazalida qoʻllangan ikki qofiyadosh soʻzgina (*“aqrabho”, “mashrabho”*) Jomiy sheʼrida uchramaydi. Masalaga shakliy tovlanishlar nuqtayi nazaridan eʼtibor qilinadigan boʻlsa, bu sheʼrlarda goʻyo oʻsha ikki soʻzdan boshqa tafovut yoʻqday koʻrinadi. Ammo anʼanaviy mavzu talqini, hayotiy detallarni tanlash, uni sheʼrga kiritish, oʻrtaga qoʻyilgan fikr-mulohazalar jihatidan bu ikki gʻazal muqoyasa qilinadigan boʻlsa, ular oʻrtasidagi farqlar ochiq-oydin koʻzga tashlanadi. Ularning matlasida ham gap lirik qahramon – oshiqning maʼshuqadan ayriliq damlari ustida boradi. Ammo ana oʻsha holat tasvirida oʻziga xoslikka intilish alomatlarini zuhur etadi. Abdurahmon Jomiy matlasida *mahbuba jamoli oyga, yor koʻzidan oqqan yoshlar esa yulduzlarga* nisbat beriladi. Oshiq kechalari yorini kutadi, uning hajrida yosh toʻkadi. Ana shu iztiroblari tufayli uning qalbini zim-ziyozulmat qoplaydi. Alisher Navoiyning misralarida ham shu detallar saqlanadi. Yaʼni *yor jamoli oyga, oshiq ashki yulduzga* qiyoslanadi. Aslida bu *tashbehtar* muhabbat mavzusining doimiy yoʻldoshi hisoblanadi. Jomiy va Navoiygacha, ulardan soʻng ham bu *oʻxshatishlar* ijod ahli uchun xizmat qilib keldi. Lekin sinchkov ijodkorlar ana shu anʼanaviy predmetlarning ham yangi-yangi qirralarini topishga harakat qilganlar. Shunday urinish Alisher Navoiy baytida koʻzga tashlanadi. Aniqrogʻi, Navoiy-Foniy Jomiy gʻazalidagi *tashbehni* saqlagani holda, uni yangicha jiloda oʻz oʻquvchilariga taqdim etadi.

Navoiy-Foniy talqinidagi oshiq ham zoʻr ragʻbat bilan yorini kutadi, biroq undan darak yoʻq. Oshiq iztirob girdobida yosh toʻkadi, qalbini xufton qorongʻiligi qoplaydi. Shoir ana shu tun qorongʻiligi va oshiq qalbining xiraligi oʻrtasida vobastalik koʻradi. Baytda *tanosub* sanʼatining goʻzal namunasi ifodalangan. Sheʼrda ana shu manzara chuqurlashib boradi. Shoir tasviriga binoan, oshiq yuragining xiraligi tunga taʼsir qilib, uning yanada qorongʻilashib qolishini taʼmin etgan. Alisher Navoiy tabiat qonuniyatlari, osmon jismlari, sayyoralar va ularning harakat hamda holatidan xabardor soʻz sanʼatkoridir. Shoir asarlaridagi qaydlar shundan dalolat beradi. Shuning uchun boʻlsa kerak, u tasvir talabiga mahliyo boʻlib, hayot haqiqatining buzilishi, mazmun butunligiga dogʻ tushishi uchun yoʻl qoʻymaydi, qatʼiy meʼyorga amal qiladi. Tabiat qonuniga koʻra, *tunning yogʻduli boʻlishi oying harakat va holatiga bogʻliqdir*. Oying koʻrinishi uchun imkon boʻlmagan samoda yulduzlar ham koʻrinmay qoladi. Bu haqiqat ulugʻ oʻzbek shoiri uchun oshno. Shoir tanlagan mavzu, tasvir uchun tanlangan lirik qahramon – oshiqning ruhiy holati ham shuni taqozo etadi. Oshiq yorni intiq boʻlib kutadi. Hijron azobida qolgan yor figʻon chekadi, behisob yosh toʻkadi. Uni ana shunday vaziyatdan faqat mahbubagina chiqaradi.

Shoir ana shu manzarani obrazli ifodalash uchun yana samo, oy, yulduzlar holatiga murojaat qiladi. Bir jihatdan u shunday qilishga majbur. Negaki, Alisher Navoiyga taʼsir etgan, uni javob aytishga undagan gʻazalda oʻsha predmetlar ishtirok etadi. Javobiya aytish talablari ham ularning imkoni boricha saqlab qolinishini talab qiladi. Ana shu ikki maqsad yakuni sifatida maydonga kelgan misra obrazli fikrlash jihatidan juda original chiqqan. Abdurahmon Jomiydagi *“Behisob yulduzlar boʻlsa-da tunim qorongʻu”* tarzidagi mazmuni tashuvchi misra Alisher Navoiyning sehrar qalami tufayli *“Oysiz tun yulduzlar bilan yorugʻ boʻlolmaydi”* sifatida aks-sado beradi. Toʻgʻri, har ikkala soʻz sanʼatkorida ham *soʻzlarni oʻynatish (asl va ramziy maʼnolarni kashf etish) sanʼati* kuchli. Buni misralardagi *“kavkab” (kavkab – yulduz – koʻz yoshi)* soʻzi misolida yorqin koʻrish mumkin. Ammo Alisher Navoiy misrasida takrordan qochish bilan bir qatorda, maqsad aniqligiga (chunki yulduzli tunlarning nursizligiga sabab oydin) intilish mayli ham kuchli. Koʻrinadiki, *anʼanaviy mavzu, obraz va tashbehtar* ijodkorning novatorlikka intilishiga boʻlgan mayli oldini ololmaydi. Alisher Navoiyning gʻazal matlaida ibtido topgan uslubiy mustaqillikka boʻlgan bunday harakati sheʼr maqtaiga qadar davom etadi. Abdurahmon Jomiy gʻazalida matladan soʻnggi baytda maʼshuqa qiyofasining ayrim belgilari chiziladi. Xususan, uning oshiqni maftun qiluvchi *paykoni – kipriklari* va u keltirgan jarohatlar tasviri beriladi.

Alisher Navoiy gʻazalida bir oʻzgacha manzaraga duch kelamiz. Shoir matladagi tasvirni, oshiq ruhiy olami bayonini undan soʻnggi misralarda rivojlantiradi. Maʼshuqa hijroni keltirgan iztirob azoblarining davomi beriladi. Oshiq uchun yorsiz oʻtgan damlar, uning kecha yo kunduzligidan qatʼiy nazar, xufton zulmatiga teng. Koʻrinadiki, Alisher Navoiy baytida matlaʼ bilan uzviylik mavjud. Ayni choqda, Jomiy gʻazalidagi bayt mazmunidan farqi borligi maʼlum boʻladi. Tahlil qilinayotgan har ikkala gʻazalda ham lirik qahramon boshiga ishq olamsoʻz solgan turli savdolar bayoni davom etadi. Jomiy gʻazalining uchinchi baytida mahbuba fazilatlarini madh qilinadi. Shoir talqinidagi yor xushbichim va dilbar. Shuning uchun uning

maftunlari ko'p. O'sha maftun bo'lganlar oddiy oshiqlar emas, ular ishq mulkining haqiqiy fidoyilari. Ular o'z bisotidagi hamma narsasini, hatto, jon-u qalbini ham ma'shuqa yo'lida nisor etishga tayyor.

Alisher Navoiy tasviridagi oshiq va ma'shuqa ham aytilgan sifatlardan xoli emas. Biroq Navoiy Jomiy g'azalidagi qofiyalarini aynan saqlagani holda, lirik qahramon kayfiyatini chizishda mustaqil yo'l tutadi. Aniqrog'i, oldingi baytlarda bo'lgani kabi, tahlil etilayotgan misralarda ham o'z uslubiga, tasvirdagi uzviylikka rioya qiladi. Shoir uchun matladagi hajr go'yo mantiq markazi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, g'azalning so'nggi misralaridagi fikr rishtalari o'sha markazdan boshlanadi va shu markazga borib tutashadi. Mazkur fikrning tasdig'ini g'azalning uchinchi baytida ham ko'rsa bo'ladi. Bu o'rinda gap yana o'sha hijronga bog'lanadi. Navoiy-Foniy talqinidagi oshiq ham zo'r rag'bat bilan o'z mahubasini kutadi, biroq undan darak yo'q. Hijron iztiroblari girdobida qolgan oshiq behad ko'p ko'z yosh to'kadi, uning qalbini xufton qorong'uligi qoplaydi. Shoir ana shu tun qorong'uligi va oshiq qalbining xiraligi o'rtasida vobastalik ko'radi. She'rda ta'kidlangan ayni ikki manzaraning badiiy tasviri chuqurlashib boradi. Alisher Navoiy tasviriga binoan, oshiq yuragining xiraligi tunda (shomda) ta'sir ko'rsatib, uning yanada qorong'ulashib qolishini, zulmat quyuqligini ta'min etgan.

Mahbuba hajri dastidan oshiqlar qalbdan judo bo'ladilar. Ya'ni jon bilan vidolashadilar. Qo'ldan ketgan qalbni qaytarish, unga jon ato etish mumkin. Bu ishni faqatgina ma'shuqa uddalay oladi, xolos. Ko'rinadiki, bu baytda ham ustoz va shogird qalami tuhfa etgan misralar o'zgacha mazmun, ayricha ma'no tashiydi.

Xulosa. Alisher Navoiy mahoratli ijodkorga xos yo'l tanlaydi. U ustod ijodkorlarning asarlariga nazira aytish, javobiya bitishga jazm qilar ekan, "nazirago'ylikni ham o'ziga ulug' maktab, ham ustozlarining hurmat-ehtiromini o'rniga qo'yish vositasi, keyinroq esa o'zidan oldin o'tgan forsigo'y shoirlar bilan bellashmoq maydoni, musobaqa turi deb qabul qilgan edi" [5, 171]. Darhaqiqat, nazirago'ylik hamma vaqt ham aytilgan gapni quruq takrorlash, ko'r-ko'rona taqlid qilish yoxud ergashish vositasi bo'lmay, ma'lum darajada ijodiy musobaqa, nazmiy mushoira tusini olgan. Nazirani ana shunday keng ma'noda tushungan va talqin etgan ijod ahli qalamidan chiqqan asarlar esa original she'rlar sifatida shuhrat qozonib kelgan. Shuning uchun ham Navoiy-Foniy fors-tojik adabiyotining ulug' siymolari asarlariga javobiya aytish yo'lidan boradi. U javob aytish uchun g'azal tanlar ekan, faqat u yoki bu ijodkorning Sharq xalqlari o'rtasida dovrug taratishiga qarab emas, balki o'z nuqtayi nazaridan masalaga yondashadi. Shoir uchun o'zining ijodiy idealiga mos keladigan dunyoviylik pafosi yuqori bo'lgan she'rlar ko'proq manzur tushadi. Alisher Navoiyning ustozlar davrasidan Shayx Sa'diy, Xoja Hofiz, Xusrav va Hasan Dehlaviylar, Qosim Anvor, Amir Shohiy, Abdurahmon Jomiy, shuningdek, zamondoshlari qatoridan Amir Shayxim Suhayliy, Amir Vafoiy, Kotibiy, Husayn Boyqaro, Orifiy, Xo'ja Avhad va boshqalarni tanlashida ham o'sha g'oyaviy-estetik talablar, ijodiy idealdagi yaqinlik yotadi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмон Жомӣ. Асарҳои мунтахаб дар панҷ жилд. Жилди I. – Душанбе. 1964. – Саҳ. 12.
2. Алишер Навоӣ. Асарлар. 5-том. 1-китоб. – Тошкент, 1965. – Б.38.
3. Амир Хусрав Деҳлавӣ. Осори мунтахаб. – Душанбе: Ирфон. 1975. – Саҳ. 79 -82.
4. Мирзоев Абдуғани. Алишер Навоӣ ва Абдурахмон Жомӣ. – Душанбе: Ирфон. 1968. – Саҳ. 46-47.
5. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. – Б.171.

BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi
m.x.raxmatulloyev@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola Buxoro viloyatida ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada takomillashtirish, bu borada kadrlar salohiyatiga e'tibor, ish samaradorligini oshirishda xorij tajribalarini o'rganish va ulardan maqsadli foydalanish, boshqaruvining mutlaqo yangi mexanizmlari "elektron hukumat" konsepsiyasini amalga oshirishda davlat xizmatlarining o'rni, portallardagi interfaol interfeys rejalar va dasturlarni, ularning ijrosiga doir monitoring natijalarini to'laqonli aks ettirish va keng muhokama qilishda ommaviy axborot vositalarining vazifalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: OAV, Buxoro viloyati, gazeta, televideniye, globallashuv, hukumat, kadrlar salohiyati, xorij tajribasi, "elektron hukumat".

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СМИ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется дальнейшему совершенствованию деятельности СМИ в Бухарской области, вниманию к кадровому потенциалу, изучению зарубежного опыта повышения эффективности работы и его целевому использованию, совершенно новым механизмам управления, роли государственных служб в реализации концепции «электронного правительства», порталов/ Интерактивный интерфейс рассказывает о функциях СМИ в полном отражении и широком обсуждении планов и программ, мониторинге результатов их реализации.

Ключевые слова: СМИ, Бухарская область, газета, телевидение, глобализация, государство, кадровый потенциал, зарубежный опыт, «электронное правительство».

USING FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING THE ACTIVITY OF THE MEDIA IN BUKHARA REGION

Annotation: This article focuses on the further improvement of mass media activities in Bukhara region, attention to personnel potential, study of foreign experiences in increasing work efficiency and their purposeful use, completely new mechanisms of management, the role of public services in the implementation of the concept of "electronic government", portals The interactive interface is about the functions of mass media in fully reflecting and widely discussing plans and programs, monitoring results of their implementation.

Key words: Mass media, Bukhara region, newspaper, television, globalization, government, personnel potential, foreign experience, "electronic government".

Kirish. Globallashuv jarayonida xorijiy matbuot tajribasini yoritishdan oldin globallashuv atamasiga to'xtalish maqsadga muvofiq. Soha mutaxassislari tadqiqotlaridan aslida globallashuv atamasi o'tgan asrning 70-80-yillarida tor doiradagi geosiyosiy, makroiqtisodiy va siyosiy- mafkuraviy adabiyotlarda paydo bo'lgani oydinlashadi. Shaxsiy kuzatishlarimizdan esa shu narsa ayon bo'ldiki, globallashuvning bu qadar shiddat bilan rivojlanishiga o'tgan asrning 90-yillariga kelib «sovuq urush»ning barham topishi, buning oqibatida xalqaro munosabatlarda kuchlar nisbatining butunlay o'zgarishi, avvalgi «ikki qutbli dunyo»dan iborat jahon siyosiy xaritasi asta-sekinlik bilan «ko'p qutbli dunyo»ga aylana boshlagani faol ta'sir ko'rsatganini, shuningdek, «sovuq urush» barham topishi bilan ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy markazlarga bo'lgan talab kutilgandek pasaymagani, aksincha, bir necha baravar ortganini alohida ta'kidlaydi [1].

Adabiyotlar sharhi. Mustaqillikka erishgach, butun Respublikamiz bo'ylab ommaviy axborot vositalari rivojlanishni boshladi. Televideniye misolida aytadigan bo'lsak, markaziy kanallardan tashqari har bir viloyat

o`z kanaliga ega bo`ldi. Gazeta-jurnallar ham nafaqat hududiy, balki mintaqaviy ko`rinish oldi. Shu jumladan Buxoro viloyatida ham “Buxoro TV”, “Buxoro tongi”, “Buxoro yoshlari”, “Buxoro axbori”, “Parvoz” va yana bir qator ommaviy axborot vositalari yo`lga qo`yildi. Viloyatda OAVni yanada rivojlantirishda bir qator xorij tajribalari qo`l kelishi shubhasiz.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Hozirgi kunda O`zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada takomillashtirishning dolzarb masalalari qatorida ularning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, moddiy-texnika bazasini yaxshilash, ilgor texnologiyalar va zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, jurnalist kadrlar tayyorlash va ularning kasb mahoratini oshirish ekanligini ta`kidlash zarur. Bu borada milliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish va erkinlashtirishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish sohani rivojlantirishning eng muhim masalalaridan biriga aylanmoqda.

Ma`lumki, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta`minlash sanaladi. Shu nuqtayi nazardan ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish, davlat organlari va jamoatchilik o`rtasida mustahkam aloqa o`rnatish borasidagi rolini kuchaytirish maqsadida “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to`g`risida”gi Qonunni qabul qilish taklif etildi.

Bu qonunning hayotga joriy etilishi davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borishning huquqiy mexanizmlarini yaratib, davlat organlarining axborot xizmatlari va media tuzilmalari ishini faollashtirishga, ular tomonidan ma`lum bir muddatlarda brifing hamda matbuot anjumanlari tashkil etishga, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiqligi va oshkoraligini ta`minlashga, ommaviy axborot vositalarining axborot olish yuzasidan murojaatlarini ko`rib chiqish muddatlarini qisqartirishga, axborot olish sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik va mansabdor shaxslarning ma`muriy javobgarligini kuchaytirishga xizmat kiladi.

Fanda axborotlashgan jamiyatda hokimiyat transformatsiyasini atroflicha tadqiqot qilish endigina yo`lga qo`yilayotganligi sababli bu sohani mahalliy xususiyatlarni inobatga olgan holda o`rganish uchun nazariy-uslubiy asoslarni ishlab chiqish favqulodda muhimdir. Shu munosabat bilan, fikrimizcha, jamiyatni axborotlashtirish sharoitlarida davlat boshqaruvi mexanizmlarining transformatsiyasi borasidagi xorijiy tajribani tahlil etish zarur.

O`zgargan axborot muhitida davlat va jamiyatning o`zaro bog`liqligi yangi konfiguratsiya - raqamli ishtirokchilik konfiguratsiyasi tusini kasb etmoqda. Bu hol hokimiyat tuzilmalari bilan fuqarolar muloqotining hozirda amalda bo`lgan, an`anaviy tus olgan shakllarini modernizatsiya qilish imkoniyatini ham, shuningdek hokimiyatlar o`zaro munosabatlarining sifat jihatidan yangi turi - elektron hukumat (e-government) va elektron demokratiya (e-democracy) paydo bo`lishi imkoniyatini ham beradi. Bunday o`zaro munosabatlarning qaror topishi davlat boshqaruvi qadriyatlarini tubdan qayta ko`rib chiqishni, hokimiyat organlari faoliyatini fuqaroviy va ilmiy ekspertizasi samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga ko`maklashadigan ochiq demokratik jamiyat mo`ljalida faoliyat olib borishni anglatadi. Jamiyat hayotining barcha sohalarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish axborot jamiyati davrida ijtimoiy madaniyat rivojlanishining, shu jumladan, uning siyosiy sohadagi rivojlanishining ham determinantlari sifatida namoyon bo`ladi. Hozirgi zamon siyosiy hokimiyati jamiyat taraqqiyotining avvalgi tarixiy davrlarida mavjud bo`lmagan yangi resursga - shaxs va jamiyatga mafkuraviy ta`sir ko`rsatadigan axborot-kommunikatsiya resursiga ega bo`lmoqda.

Hozirgi kunda biz davlat boshqaruvining mutlaqo yangi mexanizmlari shakllanishiga guvoh bo`lib turibmiz. Masalan, “elektron xukumat” konsepsiyasini amalga oshirish davlat xizmatlari sifatini oshirishga, hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini muntazam ravishda yuksaltirib borishga qaratilgan bo`lib, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning barcha bo`g`inlaridagi hokimiyat organlari faoliyati to`g`risidagi axborot bilan tanishish va undan foydalanish imkoniyatiga egadir. Davlat hokimiyati organlarining portallaridagi interfaol interfeys rejalar va dasturlarni, ularning ijrosiga doir monitoring natijalarini to`laqonli aks ettirish va keng muhokama qilish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotning ochiqligini bu yo`sinda ta`minlash axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida fuqarolarning davlat hokimiyati organlari vakillari bilan bevosita muloqot olib borishiga, fuqarolarning qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari muhokamasida ishtirok etishiga va pirovard natijada hokimiyatga bo`lgan ishonchni oshishiga ko`maklashadi.

Quyidagi qator xorijiy tajribalar Buxoro viloyatida OAVni rivojlantirishga asos bo`ladi deb hisoblaymiz:

Rossiyada chop etilayotgan barcha bolalar nashrlari bolalarning yosh ko'rsatkichiga bog'liq holda 4 turga bo'linadi. Bular maktabgacha ta'lim muassasalari uchun («Novaya igrushechka»), kichik yoshdagi o'quvchilar uchun («Poigraem v skazku»), o'spirinlar va yuqori sinf o'quvchilari uchun («Pionerskaya pravda», «Glagol», «Pioner», «Yuniy naturalist») chop etiladigan nashrlardir. Nashriyot va tahririyat gazeta va jurnallarning qaysi yoshga mo'ljallanganini inobatga olib, uning mundariyasi, tuzilishi, shakli va hajmini aniqlaydi [4].

Rossiyada chop etilayotgan bolalar nashrlari maqsadiga ko'ra 3 asosiy guruhga bo'linadi:

umumiy olam haqida tasavvur beruvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, ijtimoiy va ishlab chiqarishga hamda boshqa muammolarga oid ongli tanlovlarni yuzaga keltiruvchi axboriy-publitsistik guruh («Pionerskaya pravda», «Glagol»);

fan, texnika, san'atga oid nashrlar hamda tafakkur, dunyoqarash va diniy ta'limni oshirish imkonini beruvchi diniy nashrlar;

hordiq chiqarishga ko'maklashuvchi ko'ngilochar nashrlar.

AQSh. Amerika matbuotini o'rganish jarayonida gazeta va jurnal tahririyatlari tahririyat va xodimlar uchun iqtisodiy qulayliklar yaratgan holda asosiy e'tiborini daromad topishga qaratishi kuzatildi. Bu omil faqat reklamaga ixtisoslashgan gazetalar uchungina xos bo'lib qolmay, mamlakatda chop etilayotgan barcha tarmoq nashrlari, jumladan, bolalar nashrlariga ham xosligini angladik. Globallashuv jarayonida AQSh bolalar nashrlari tajribasidan unumli foydalanish uchun bizda ham reklamaga e'tibor kuchaytirilishi, tahririyatlar qoshida mustahkam bazaga ega reklama bo'limlari va joylarda uning shoxobchalari ochilishi kerak. Bolalarga mo'ljallab ishlab chiqariladigan har qanday mahsulotlarni kattalar nashrida emas, aynan bolalar nashrlarida chop etish ishlarini yo'lga qo'yish darkor. Buning uchun bunday nashrlarni qiziqarli va ommabop tarzda chiqarish shart, sahifalarda bolalarbop rang-barang mavzular yoritilmog'i lozim va eng muhimi, nashr adadini bosqichma-bosqich oshirib borishga erishmoq kerak.

Kanada. Kanadada yosh avlodni tarbiyalashda o'z o'rniga va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator bolalar jurnallari davlat va xayriya tashkilotlari homiyligida chop etiladi. Bunga 1975-yildan buyon Milliy geografiya hamjamiyatining mashhur «National Geographic» nashriyoti muassisligida chiqayotgan «National Geographic Kids» jurnali misol bo'la oladi. Ushbu jurnal 2014-yilda 1.4 million nusxada chop etilgan. Mazkur nashriyotga tegishli bo'lgan 18 ta nashr Bolgariya, Xorvatiya, Misr, Gresiya, Vengriya, Indoneziya, Isroil, Lotin Amerikasi davlatlari, Niderlandiya, Belgiya, Ruminiya, Rossiya, Serbiya, Sloveniya, Janubiy Afrika Respublikasi, Turkiya va Buyuk Britaniyada rasmiy tarzda tarqatiladi.

Jurnal Milliy geografiya hamjamiyatining har xil media platformasida doimiy ravishda reklama bilan ishtirok etishi, shuningdek, o'z faoliyatini keng ko'lamda «National Geographic Kids» sayti bo'lmish <http://www.nationalgeographic.com> va <http://natgeotv.com/ru> hamda «National Geographic Channel HD», «Nat Geo Music», «Nat Geo Junior», «Nat Geo Wild» va «Adventure» TV kanallari orqali tarqatishi tufayli mashhurlik shohsupasiga ko'tarilishga muvaffaq bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jurnal sayyoramiz ekologiyasi hamda yovvoyi tabiatini asrashni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan turli xil tanlovlar, yutuqli o'yinlar va har xil aksiyalarni muntazam o'tkazib turadi [5].

Kuzatishlarimizdan shu narsa ayon bo'ldiki, AQSh va Kanadada nashr etiladigan barcha yirik bosma nashrlarda bolalarga mo'ljallangan maxsus ilovalar alohida o'rin egallaydi.

Ayni paytda AQSh va boshqa xorijiy davlatlar nashrlariga tegishli bo'lgan bunday jarayonlar O'zbekistondagi nashrlarda kam bo'lsa-da, kuzatilmoqda. Yurtimizda hozirgi kunda ommabopligi bilan peshqadamlik qilayotgan «Darakchi», «Sug'diyona», «Bekajon», «Oila davrasida» gazetalarida bolalarga mo'ljallangan maxsus sahifalar bor. Masalan, «Darakchi» gazetasining 55-betida muntazam «Darakchi-Shirintoy» sahifasi berib boriladi. Sug'diyona gazetasida «Sug'diyona-Shirintoy» sahifasi mavjud, «Oila davrasida» gazetasi esa «Bilmasvoy» ilovasini rangli tarzda chop etib kelmoqda. Lekin atigi 1 yoki 2 betdan iborat bo'lgan bunday sahifalar, albatta, jajji o'quvchilar uchun nihoyatda kamlik qiladi. Sahifalarni zamon zayliga moslashtirgan holda ko'paytirish, ularni asta-sekin ilovaga aylantirish va mavridi kelganda alohida nom bilan maxsus gazeta sifatida chop etish lozim. Bu borada xorijdagi ko'pgina nashrlar tajribasini bosqichma-bosqich o'zlashtirish kerak.

Globallashuv jarayonida xalqaro tajriba va yutuqlarga tayanish har bir jurnalist yoki jamoaning yutuqlarini yanada mukammallashtirishga, rivojlantirishga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, chet el bolalar nashrlariga e'tibor qaratganda ularning hammasini bir xil darajada o'zlashtirish, o'rganish maqsadga muvofiq kelmaydi. Bu borada eng yangi, ilgari hech qayerda aytilmagan narsalarni tanlay

HISTORY

olish lozim. Eng avvalo, bolalar uchun nimalar zarur, nimalarni aytish kerak, shularni inobatga olgan ma'qul. Buning uchun o'tgan voqealar va yangi voqealarni, shuningdek, o'zimizda nimalar bor va nimalar yo'qligini bilgan holda ajrata olish lozim. Kerakli manbalardan foydalanib, zarur bo'lmaganlariga esa tanqidiy ko'z bilan qarashni o'rganish maqsadga muvofiq.

Xulosa va munozara. Yurtimizda diniy mavzularni yoritadigan, mutaxassislar tomonidan Islom dinining mazmun- mohiyatini bolalarbop tilda teran tushuntirib boradigan, musulmonchilik qoidalarini o'rgatadigan oylik diniy jurnal chop etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu orqali bolalarimiz ulg'ayganda ularning har xil diniy oqimlarga kirib ketishi oldi olinadi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda chop etilayotgan gazeta va jurnallar ham xuddi Rossiya, AQSh, Kanadadagiday mahalliy bolalar televideniyesi hamda radiosi, shuningdek, har xil ijtimoiy institutlar, pedagogik jarayonlarda ishtirok etadigan muassasa va tashkilotlar bilan bevosita hamkorlikda faoliyat yuritishni yo'lga qo'yishi lozim. Ayni paytda «Jajji akademik» jurnali jamoasining O'zMU bilan hamkorlikda turkum maqolalar tayyorlayotgani diqqatga sazovor. Shuningdek, Rossiyadagidek yosh muxbirlar matbuotini (bu an'ana hozirgi kunda mamlakatimizda chop etilayotgan «Klass!» gazetasida bor. Ammo bitta gazeta bilan cheklanib qolish kerak emas) tashkil etish, bolalar va o'spirinlar ishtirokida yangi nashrlar chiqarishni yo'lga qo'yish kerak.

AQSh va Kanadaning nashr ishlarida reklamadan ustalik bilan foydalanish tajribasi O'zbekistonda yaxshi rivojlanmagan. Yurtimizda chop etilayotgan barcha nashrlar, jumladan, bolalar nashrlari ham, asosan, gazeta yoki jurnal muassislarining daromadiga va juda kam miqdorda reklama tushumiga tayanadi. Demak, chet ellardagi bunday tajribalarni har tomonlama o'zlashtirish taqozo etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Kirgizboev M. *Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba*. - T.: Yangi asr avlodi, 2006. - 204 b.
2. Saidov U. *Globalashuv va madaniyatlararo mulokat*. - T.: Akademiya, 2008. - 232 b.
3. Hamroev E. *Globalashuv va «ommaviy madaniyat»*. / Inson va qonun. - 2012. - 11 sentabr.
4. Sasaki M. *Yaponiyada milliy o'ziga xoslik va globalashuv. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma*. - T., 2014.
5. Semyonova O.K. *Bolalar jurnalistikasining shakllanishi va uning bola psixologiyasiga ta'siri*. / Rossiya Ta'lim Akademiyasi universiteti. Diplom ishi. – M., 2012 yil
6. Teplitskaya A.A. *Bolalar ilmiy-ma'rifiy jurnali ijtimoiy ahamiyatga ega davlat loyihasi sifatida // Yosh olim*. – 2015.- №7.



Taniqli fan va davlat arbobi, O‘zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti direktori, akademik SAYYORA RASHIDOVA 80 yoshda

Taniqli kimyogar olim Rashidova Sayyora Sharafovna 50 yildan ortiq ilmiy va tashkilotchilik faoliyati davomida ko‘plab yutuqlarga erishgan va uning xizmatlari jamoatchilik tomonidan munosib e‘tirof etilgan. S.Sh. Rashidova 1965-yilda M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti kimyo fakultetini tamomlagan, 1971-yilda nomzodlik, 1983-yilda doktorlik ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. O‘zR FA muxbir a‘zosi (1994), O‘zR FA akademigi (2000), professor (1984), O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan Fan arbobi faxriy unvoni (1993), “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni (1997), “Do‘stlik ordeni” (1999), “Yuksak xizmatlari uchun” (2000), “El-yurt hurmati” (2003), “Fidokorona xizmatlari uchun” (2019) ordenlari, “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni (2021) bilan taqdirlangan. Ilmiy faoliyatini O‘zR FA kimyo instituti stajyor-tadqiqotchisi (1965-1967) sifatida boshlab, O‘zR FA kimyo instituti polimerlar kimyoviy modifikatsiyasi laboratoriyasi asoschisi va mudiri (1974), ilmiy-tadqiqot instituti vakolatiga ega bo‘lgan Polimerlar kimyosi bo‘limi asoschisi va rahbari (1979) lavozimlarida faoliyat yuritgan, shuningdek, O‘zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti asoschisi va direktori (1993-h.v.) hisoblanadi. Ta’kidlash kerakki, Sayyora Rashidovanning davlat arbobi sifatidagi xizmatlari ham beqiyosdir. U O‘zR Oliy Majlisi deputati (1994-1999, 2000-2004), “Olima” ayollar uyushmasi raisi (1995-2011), O‘zR Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) (1995-2015) lavozimida ishlagan.

S.Sh. Rashidovanning ilmiy ishlari yo‘nalishlari yuqori molekulyar birikmalar kimyosi sohasida tabiiy polimerlarning yangi obyektlarini topish, ularni ajratib olish, ularning modifikatsiyasi, polimerlar strukturasi va xossalari, turli polimer sistemalarda nanozarrachalar shakllanishining mexanizmlarini aniqlash, nanostrukturalarning o‘ziga xos xususiyatlari va xossalarni tadqiq etish, shuningdek, ularning qishloq xo‘jaligida, tibbiyotda, mashinasozlikda va xalq xo‘jaligining boshqa jabhalarida ishlatilishiga oid ilmiy tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

S.Sh. Rashidovanning amaliyotga tatbiq etilgan kashfiyotlari ichida o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarining polimer preparativ shakllarini yaratish va ularning urug‘lik chigitlarga ta’sir mexanizmlarini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan istiqbolli ilmiy yo‘nalish alohida ahamiyatga ega.


1998-yilda intellektual mulk bo'yicha Jenevada bo'lib o'tgan XXVI Xalqaro ko'rgazmada "Urug'larni kapsulalash texnologiyasi" nomli ilmiy ishlanma bronza medaliga sazovor bo'lgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini ekologik xavfsiz polimer sistemalar bilan kapsulalash texnologiyasi ishlab chiqildi. Xitozan asosida sintez qilingan, stimullash samaradorligiga ega bo'lgan dorilovchi vosita – O'ZXITAN preparati kapsulalash texnologiyasi asosida tukli-tuksiz chigit, donli ekinlar va sabzavot-poliz ekinlari urug'larini ekishdan oldin ishlov berishda qo'llanilib kelinmoqda.

Ta'kidlash lozimki, Rashidova S.Sh. rahbarligida Respublikamizda ilk bor tabiiy ipak sanoati chiqindisi – tut ipak qurti g'umbagini kompleks qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilgan va undan xitin, xitozan, g'umbak yog'i, organomineral o'g'itlar va oqsil konsentratlarini ajratib olish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, polimer shaklli ekologik xavfsiz "Polidef" defoliantini ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan. Rashidova S.Sh. yuqori impakt faktorli xalqaro jurnallarda 500 dan ortiq ilmiy maqolalar, 50 ta ixtiro va patentlar hammuallifidir. Akademik Sayyora Rashidova rahbarligida 6 ta fan doktori, 21 ta fan nomzodi, 4 ta falsafa doktor (PhD) lari tayyorlangan. Akademik S.Sh. Rashidova Amerika qo'shma shtatlari Fanlar milliy akademiyasi a'zosi, O'zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, O'zR Fanlar akademiyasi qoshidagi Yuqori molekulyar birikmalar bo'yicha muammoviy kengash raisi sifatida faoliyat olib bormoqda.

S.Sh. Rashidovanning ilm-fanni targ'ibot qilish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari beqiyosdir. Jumladan, bugungi kunda Qozog'iston, Tojikiston, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika va boshqa davlatlardagi ko'plab ilmiy markazlar bilan hamkorliklar yo'lga qo'yilgan. Ilm-fanning ta'lim bilan integratsiyasi yo'lida Namangan, Farg'ona, Jizzax, Xorazm va Buxoro davlat universitetlarida Institutning filiallari faoliyat yuritmoqda. Sayyora Rashidova qator ilmiy jurnallar tahririyat a'zosi hamda Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida tashkil etilgan "O'zbekiston Polimer jurnali" ilmiy nashri asoschisi va bosh muharriri hisoblanadi.

Bugungi kunda Institut bazasida "O'zbekiston xitinologlari jamiyati" tashkil etilib, o'zbek xitinolog olimlarining Yevropa, Rossiya, Polsha Xitin jamiyatlari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Respublikamiz ilmiy jamoatchiligi nomidan dunyoda tan olingan yirik kimyogar olim, Polimerlar kimyosi, fizikasi va texnologiyasi, nanotexnologiyaning rivojiga katta hissa qo'shgan akademik, salohiyatli tashkilotchi Sayyora Sharafovna Rashidovani tabarruk 80 yoshi bilan qutlaymiz va mustahkam sog'lik tilaymiz.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
22.05.2023 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"Sadriiddin Salim Buxoriy" LLC
Address: Bukhara,
M.Ikbol street, 11